

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IQTISODIYOT
VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

F.MIRZAYEV

IQTISODIY SIYOSAT

**O‘QUV
QO‘LLANMA**



2025



Chirchiq - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

MIRZAYEV FURKAT RAXMATOVICH

IQTISODIY SIYOSAT

(O‘QUV QO‘LLANMA)

*60410100- Iqtisodiyot, 60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
bakalavriyat yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalar uchun tavsiya etilgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokamasiga tavsiya etilgan.*

CHIRCHIQ – 2025

UO‘K:

Iqtisodiy siyosat: O‘quv qollanma / Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika institutining dotsenti F.R.Mirzayev. – Chirchiq: 2025. 267 bet.

Annotatsiya: Ushbu o‘quv qo‘llanma “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yangi o‘quv reja asosida tuzilgan. O‘quv qollanma "Iqtisodiy siyosat" fanining namunaviy dasturi va sillabusiga kiritilgan mavzular bo‘yicha ma‘ruza materiallari va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun savollar berilgan. Ma‘ruza materiallarida fanning sillabusiga kiritilgan mavzularning mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, har bir mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun savollar berilgan. O‘quv qollanma oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, magistrantlari, talabalari hamda barcha "Iqtisodiyot" faniga qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Аннотация: Настоящее учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся по специальности «Экономика (по отраслям и сферам)» и составлено на основе новой учебной программы. Примерная программа и программа учебника «Экономическая политика» включали лекционные материалы и вопросы для практических занятий. В материалах лекции поясняется суть предметов, включенных в программу предмета. Также по каждой теме предусмотрен вопросы для практических занятий. Учебное пособие предназначено для профессоров и преподавателей высших учебных заведений, аспирантов и всех интересующихся наукой «Экономика».

Abstract: This study guide is intended for students studying in the specialty "Economics (by networks and sectors)" and is based on the new curriculum. Study guide "Economic politics" subject sample program and syllabus included lecture materials and questions for practical training. In the materials of the lecture, the essence of the subjects included in the syllabus of the subject is explained. Also, a glossary, questions and tests for practical training are provided for each topic. The study guide is intended for professors and teachers of higher educational institutions, graduate students, and all those interested in the science of "Economics".

Taqrizchilar:

B.T. Salimov – TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrası professori, i.f.d.

Q.X.Jumayev – Iqtisodiyot bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengash Rayosatining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur o‘quv qollanma Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Kengashining 2025-yil 24-fevraldagi 7-sonli Qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

| MUNDARIJA | | BET |
|------------------|---|------------|
| | KIRISH | 6 |
| I BOB | IQTISODIYOT, BOZOR VA IQTISODIY SIYOSAT | 10 |
| 1.1. | Iqtisodiyot va bozor. Bozordagi muvaffaqiyatsizliklar va hukumat organlarining roli. | 10 |
| 1.2. | Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. | 13 |
| 1.3. | Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. | 19 |
| II BOB | IQTISODIY SIYOSAT ASOSLARI VA TARKIBI | 26 |
| 2.1. | Iqtisodiy siyosat jarayonini ishlab chiqishning logistik jarayonida maqsadlar/vositalar sxemasi. | 26 |
| 2.2. | Maqsadlar vositalar sxemasi. Ijtimoiy muammolarni va kunning siyosiy yangiliklarini aniqlash. | 31 |
| 2.3. | Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish va baholash. | 37 |
| III BOB | IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQISHDA VOSITALAR VA CHEKLOVLAR | 42 |
| 3.1. | Formal va noformal institutlar hamda iqtisodiy siyosat sohasidagi yechimlar. | 42 |
| 3.2. | Demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat. | 45 |
| 3.3. | Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklovlar. | 51 |
| 3.4. | Hukumat va iqtisodiy-siyosiy siklning oʻrni. | 57 |
| IV BOB | DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI | 64 |
| 4.1. | Davlat mulki va tadbirkorligi – iqtisodiy siyosatning muhim vositalari. | 64 |
| 4.2. | Oʻzbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari. | 68 |
| 4.3. | Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning hozirgi bosqichining xususiyatlari. | 75 |
| 4.4. | Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yoʻllari. | 78 |
| V BOB | IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH | 84 |

| | | |
|-----------------|--|------------|
| 5.1. | Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. | 84 |
| 5.2. | Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o‘rni va uning shakllari, usullari. | 91 |
| 5.3. | Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o‘rta muddatli prognozlar. | 95 |
| VI BOB | DAVLATNING IQTISODIYOTDA XUSUSIY TARMOQ VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI | 108 |
| 6.1. | Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. | 108 |
| 6.2. | Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. | 118 |
| 6.3. | Biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati. | 124 |
| VII BOB | IQTISODIYOTDA MONOPOLIZMGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH | 128 |
| 7.1 | Raqobatning mohiyati, shakllari, vazifalari, shakl va usullari. | 128 |
| 7.2. | Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati chora-tadbirlari | 135 |
| 7.3. | Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, usullari. | 139 |
| 7.4 | Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. | 144 |
| VIII BOB | DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI | 148 |
| 8.1. | Mintaqaviy markazlashtirishdan chiqish, integratsiya va millat ustidan iqtisodiy siyosat yuritilishi. | 148 |
| 8.2. | Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari | 150 |
| 8.3. | Milliy va millat ustidan iqtisodiy siyosat yuritishning koordinatsiyasi va boshqaruvi. | 156 |
| 8.4. | Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. | 164 |
| IX BOB | YUKSALISH, RIVOJLANISH VA IQTISODIY SIYOSAT | 172 |
| 9.1. | Rivojlanishga nisbatan iqtisodiy o‘shish: turmush sifati va ekologik cheklovlar. | 172 |
| 9.2. | Kapitalizmning bumlari, shishishlar va inqiroz. Siyosiy yuksalish, globalizatsiya va ofshoring. | 178 |

| | | |
|-----------------|---|------------|
| 9.3. | Makroiqtisodiy muvozanat va uning bozor iqtisodiyotida namoyon bo'lish shakllari. | 186 |
| X BOB | DAROMADLARNI QAYTA TAQSIMLASH, BOYLIK VA IQTISODIY SIYOSAT | 189 |
| 10.1. | Adolat printsiplari va qayta taqsimlash siyosatining asoslari. | 189 |
| 10.2. | Kambag'allik ko'rsatkichlari va tengsizlik. Iqtisodiy siyosatda qayta taqsimlashning asosiy choralari. | 192 |
| 10.3. | Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muhim shakli sifatida. | 194 |
| XI BOB | JAMIYATNING IJTIMOIIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI | 204 |
| 11.1. | Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. | 204 |
| 11.2. | Kambag'allik ko'rsatkichlari va tengsizlik. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash | 209 |
| 11.3. | Iqtisodiy siyosatda qayta taqsimlashning asosiy choralari. Ijtimoiy xizmatlar sohalarining rivojlanishi. | 213 |
| XII BOB | DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI | 219 |
| 12.1. | Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari | 219 |
| 12.2. | Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Shaxs, korxonalar va davlatning iqtisodiy xavfsizligi | 222 |
| 12.3. | Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari | 225 |
| 12.4. | Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlikali chegaralari va ustuvor yo'nalishlari. | 231 |
| XIII BOB | DAVLATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI | 238 |
| 13.1. | Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati. | 238 |
| 13.2. | Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va tarkibiy qismlari. | 241 |
| 13.3. | Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari. | 248 |
| 13.4. | O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va takomillashtirish yo'nalishlari. | 246 |
| | XULOSA | 263 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 265 |

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat jamiyatni yanada demokratlashtirish va yangilash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Davlat iqtisodiy siyosat orqali iqtisodiyotga aralashib, uni ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar, dastaklar vositasida tartibga soladi.

Iqtisodiy siyosat - bu davlatning iqtisodiy tadbirlari tizimi hisoblanib, iqtisodiyotga maqsadli ta'sir ko'rsatish borasidagi maqsadlar, vositalar, vazifalar, tadbirlar birligi sanaladi. Iqtisodiyotni boshqarish, maqsadlari va vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy jarayonlarga muayyan yo'nalish berish sohasida davlat, hukumat faoliyatining bosh yo'nalishi, tadbirlari tizimi hisoblanib, ushbu fan iqtisodiyot fani soxalaridan biridir. Shuningdek ushbu fanda tarkibiy, investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalardagi siyosatni qamrab oladi. Iqtisodiy siyosatning izchilligi va samaradorligi turli omillarga bog'liq.

Jamiyatdagi har bir ishtirokchining, bu uy xo'jaligimi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo'q, o'z manfaatlari va ratsional tanlovlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Uy xo'jaligining maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma yaratishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir. Davlatning maqsadi esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iboratdir.

Mamlakatimizda barqaror va demokratik bozor iqtisodiyotini shakllantirish ko'p jabhalardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni taqozo etmoqda. Jamiyatdagi yangilanish va o'zgarishlarning pirovard natijasi ko'p jihatdan fuqarolarning mazkur jarayonlardagi ongli va faol ishtirokiga, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga bog'liq bo'lib, ularni tushuntirishda iqtisodiy fanlarning roli beqiyosdir. Ma'lumki, bugungi kunda iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularni maqsadga muvofiq tartibga solish, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va tushuntirib berishga xizmat qiluvchi ko'plab iqtisodiy fanlar mavjud. Ko'p hollarda o'quvchilar, talaba va tadqiqotchilar, olim va mutaxassislar bu boradagi nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda o'zlari uchun tegishli xulosalar chiqaradilar, zarur hollarda xo'jalik qarorlarini qabul qiladilar. Hozirda ko'plab nazariy ahamiyatdagi fanlar bilan bir qatorda amaliyotga, xususan, tajriba orqali chiqariluvchi qoida va xulosalarga tayanuvchi fanlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Iqtisodiyot sohasidagi shunday fanlardan biri "Empirik iqtisodiyot" fani hisoblanadi. Mazkur fan rivojlanish iqtisodiyotining asosiy muammolari, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat sharoitlari, ichki

va xalqaro siyosat, bozor sharoitlari kabi jihatlarni rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti va tajribalari asosida o'rganishni o'z ichiga oladi. Mazkur fan barqaror iqtisodiyotni shakllantirish yo'lidagi asosiy chora-tadbirlar yo'nalishlarini ko'rsatib berish bilan bir qatorda talabalarda bunyodkorlik g'oyalarini shakllantirish, ma'naviy dunyoqarashini keng aytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, o'quv qo'llanmada iqtisodiy farovonlik, iqtisodiy o'sish, tarixiy istiqbolda iqtisodiy o'sish nazariyasi, qashshoqlik, tengsizlik va zaiflik, iste'mol, 4 vaqtni taqsimlash va ishlab chiqarishni tanlash, uy xo'jaligi, mahalliy tovarlar va xizmatlar, ishchi kuchi bozori, investitsiya va moliyaviy bozorlar, xalqaro bozorlar va umumiy muvozanat, institut va korporatsiyalar, siyosat, boshqaruv va siyosiy iqtisod, maqsadli uzatish dasturlari, qishloq xo'jaligiga bozor aralashuvi va islohotlar, infratuzilma siyosati va dasturlari, ta'lim, qishloq xo'jaligini tadqiq qilish va kengaytirish, mikromoliya, jamoat salomatligi, sog'liqni saqlash kabi masalalar alohida mavzular doirasida bayon etilgan. Ushbu o'quv qo'llanma yangi davlat standart talablari bo'yicha tuzilgan va Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan yangi namunaviy o'quv dasturi asosida yozildi. Unda dasturdagi barcha mavzular qamrab olingan. Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda misollar, jadvallar, grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilingan. Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar talablari va xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, shuningdek takrorlash va munozara uchun savollar ham berildi.

O'quv qo'llanmada davlatning iqtisodiy siyosatni zarurligi, mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari, uni amalga oshirish tamoyillari hamda asosiy yo'nalishlariga va mexanizmlariga oid mavzular yoritilgan. Unda davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan siyosatning shakllari, vosita va usullarining qo'llanishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilayotganligi natijasida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanganligi ishonarli dalillar asosida ko'rsatib berilgan bo'lib, iqtisodchi olimlar va o'qituvchilar, tadqiqotchilar, oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan.

Mamlakatimiz oxirgi 5 yillikda jadal iqtisodiy o'sishni boshdan kechirmoqda hamda shunga mutanosib ravishda iqtisodiy siyosatda qo'shni mamlakatlar bilan savdo sheriklik, investitsiya dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekistonning 2024-yilning yanvar-sentyabr oylari bo‘yicha iqtisodiy holati to‘g‘risida quyidagi tahlillarni keltirishimiz mumkin (1-rasm).¹

- sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi – 107,0 foiz;
- qurilish ishlari hajmining o‘shish sur‘ati – 109,1 foiz;
- chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati – 109,2 foiz;
- bozor xizmatlari hajmining o‘shish sur‘ati – 112,4 foiz;
- tashqi savdo aylanmasi o‘shish sur‘ati – 107,7 foiz;
- eksportning o‘shish sur‘ati – 111,5 foiz;
- importning o‘shish sur‘ati – 105,2 foiz;
- faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 679 842 ta;
- faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni – 409 988 ta.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi YAImi tarkibi.

Dunyodagi og‘ir siyosiy vaziyat mintaqadagi urushlar, iqtisodiyotga salbiy ta‘sir etayotgani va noma‘lumligicha qolayotgani, xalqaro sanksiyalar mintaqada mamlakatlari iqtisodiyotiga chuqur ta‘sir etayotgan bir sharoitda barqaror iqtisodiy o‘shishni izchil davom ettirish uchun ichki imkoniyatlarni ko‘proq ishga solish zarurligi va bu asosda iqtisodiy o‘shishni davom ettirish lozimdir.

Aynan shuning uchun 2023-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘i 15 foizdan 12 foizga tushirildi. Buning evaziga tadbirkorlar ixtiyorida 7 trillion so‘m qo‘shimcha mablag‘ qoldi. Shuningdek, hududlar infratuzilmasini yaxshilashga 35 trillion so‘m, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga 19 trillion so‘m yo‘naltirildi.

¹ www.stat.uz makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shularning natijasida, joriy yilda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan global iqtisodiyot 3 foiz o‘shishi prognoz qilinayotgan paytda, milliy iqtisodiyotimiz kamida 5,6 foizga oshishi kutilmoqda.

2024-yilda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish uchun joriy yil sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyada iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish bo‘yicha ko‘plab maqsad va vazifalar belgilandi. Hukumatga 2024-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturni mazkur strategiyadagi vazifalarni bajarish nuqtai nazaridan ishchi rejalarini amalga oshirish belgilangan. Buning uchun yalpi ichki mahsulotning hozirgi o‘shish sur‘atini kelgusi yilda ham davom ettirish uchun barcha imkoniyat va zaxiralar borligi ko‘rsatib o‘tildi. Xususan, 2024-yilda 13 milliard dollirlik 300 dan ziyod loyihani ishga tushirish, energiya ta‘minotini barqarorlashtirish, tarmoqlar samaradorligini oshirish hisobiga sanoatda 6 foiz o‘shish imkoniyati bor.

Xizmatlar sohasida 15 foiz o‘shishni ta‘minlash uchun transport, logistika, agro-xizmatlar, sug‘urta, lizing kabi yo‘nalishlardagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to‘liq ishga solish zarurligi qayd etilgan. Davlat rahbari transport, suv xo‘jaligi, kommunal kabi sohalarda boshlangan islohotlarni faollashtirish, bunda aholi va biznesni qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.

Xalq farovonligini oshirish – davlatning ustuvor vazifasidir. Bunda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash muhim omil sanalib, Prezident Shavkat Mirziyoyev yetakchiligida so‘nggi 5 yilda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar mazmunini tashkil etadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlat korxonalari va banklarini isloh qilish, xususiylashtirish, davlat xususiy sheriklik va kapital bozorini rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning keng imkoniyatlarini ochib beradi.

O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi Tashqi iqtisodiy siyosati mintaqa mamlakatlari bilan do‘stona aloqalarga sodiqlik, ichki va tashqi xavfsizlik masalasida o‘zaro hamkorlik, hamda yashil energetika tizimini jadal rivojlantirishni davom ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga qamrab olmoqda.

Markaziy Osiyo uchun 4 ta geosiyosiy vektor bor : Sharqda Xitoy, Shimolda Rossiya, global janub va kollektiv g‘arb. Mana shu 4 ta vektor bo‘yicha hamkorlik so‘ngi yillarda sifat jihatidan hamda iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlarda yangi darajaga ko‘tarilmoqda.

I. BOB. IQTISODIYOT, BOZOR VA IQTISODIY SIYOSAT

1.1. Iqtisodiyot va bozor. Bozordagi muvaffaqiyatsizliklar va hukumat organlarining roli.

Iqtisodiyotning qonun-qoidalariga amal qilish iqtisodiy siyosat orqali yuz beradi, chunki bularni anglagan holda iqtisodiyot rivojiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va bular iqtisodiyotga ta'sir etmay qolmaydi.

Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot sub'ektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo'q, o'z manfaatlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Xonadonning maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir. Davlatning maqsadi esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iborat.

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Davlatning iqtisodiy siyosat to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim.

Davlatning iqtisodiy siyosat asosiy maqsadi, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda Nazorat va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi. Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

1) daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2) resurslarni qayta taqsimlash;

3) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart-sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni ta'minlash quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo qiladi: xususiy korxonalarining huquqiy mavqeini Nazorat; xususiy mulkchilik huquqini ta'minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida» va «Aksionerlik jamiyatlari to'g'risida»gi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zarur huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo'ladi, ular: mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir.

Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir. Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy kon'yunkturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat rahbarlarining irodasi va qat'iyatligiga va yetilgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YAIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uning chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlariga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy aylanmaning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta'minlash – mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini mustaqil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uni uzoq kelajakda o'sib borishiga sharoit hozirlash. Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya'ni juz'iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, novatsiyalarni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz'iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar bilan erishadi: birinchisi, iqtisodiy vositalar bo'lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchyot stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari) kabilar kiradi. Ikkinchisi, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag'batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining ob'ektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. Uchinchisi, siyosiy-ma'muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo'lganidan o'z siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak

bo'ladi. Ma'muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo'llaniladi.

1.2. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi.

Davlatning iqtisodiy funksiyalari to'g'risidagi nazariyalar. Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan rolga bog'liq. Chunki milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo'llar orqali erishiladi:

- 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo'llash;
- 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish.

Hozirgi davrda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xususiyatli hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A.Smit tomonidan ko'rib chiqilgan. Uning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida» (1776) nomli asarida iqtisodiyotning bozor usullari orqali o'zini o'zi tartibga solishining zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni mavjud bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz, ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi.

A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir- oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to'lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir- oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatining saqlanib qolishiga olib keladi. Bundan past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar zarar ko'radilar.

A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi 1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) nomli asarida o'z aksini topdi.

Unda muallif davlat fiskal (xaznaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi.

Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQShda amalga oshirildi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodiyoti amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Shu bilan birga davlatni iqtisodiyotdagi rolining yanada ko'proq oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni ra0batlantirish tan olinadi.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi.

Birinchi, davlat milliy iqtisodiyotda o'zini o'zi bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'ziga oladi. Bular qatoriga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarini tug'diradi. Bu oqibatlar bevosita uchinchi tomon manfaatida aks etib, kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan,chiqindili texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqaruvchi uchun) foydali, atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishi esa jamiyatning boshqa a'zolari uchun qo'shimcha salbiy oqibatga ega. Davlat yakka tadbirkor yoki iste'molchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimcha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish va cheklashga harakat qilishi zarur.

Uchinchi, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual iste'molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini ob'ektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlar iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aktsiz (egri) solig'ini o'rnatib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotga bo'lgan talabni cheklaydi.

To'rtinchidan, davlat bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy boylikni ijtimoiy-adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi.

Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud bo'lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo'lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

90-yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda keynscha tendentsiyalar yangidan kuchaya boshladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni ro'yobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri aralashuv shakllari va byurokratik nazoratning kamayishi bilan tavsiflanadi.

Davlatning klassik iqtisodiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish
- mulk va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish
- pul muomalasini tartibga solish
- daromadlarni qayta taqsimlash
- ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish
- ijtimoiy ne'matlar yaratish (ishlab chiqarish) (alohida ajratilmaydi hamma uchun, raqobatga ega emas bir kishi foydalanishi ikkinchiga kamaytirmaydi, bo'linmaydi)

Davlat jamiyatning muhim institutsional tashkiloti hisoblanadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalaridni hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan

hukmron tuzilma. Davlat jamiyatni o‘z qonun-qoidalariga ko‘ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi”. Davlatning umum e’tirof etilgan belgilari quyidagilardan iborat:

-davlat o‘z chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo‘yicha birlashgan butun jamiyat, aholisining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

-davlat suveren hokimiyatning yagona egasidir;

-davlat yuridik kuchga ega bo‘lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqarilgan hujjatlarni qabul qiladi;

-davlat o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat mexanizm (mahkama)ga, huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari – sud, prokuratura, militsiya, politsiya kabilarga, o‘z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini va havfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda havfsizlik organlariga ega bo‘ladi .

Zamonaviy institutsionalizm nazariyasi davlatga iqtisodiy nuqtai nazardan ta’rif beradi. Institutsional yondashuvga muvofiq uning asosiy mohiyatini “transaksiya xarajatlari” kategoriyasidan foydalangan holda ochib beriladi. D.Nortning ta’riflashicha, davlat – zo‘rligni amalga oshirishda qiyosiy ustunliklarga ega bo‘lgan, chegaralari uning fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jug‘rofiy hududni qamrab oluvchi tashkilot .

Davlat kategoriyasiga institutsional yondashuvlarni tahlil qilish asosida V.L.Tombovsev “davlat nazariy jihatdan eng samarali majbur qilish organi hisoblanib, bunda uning samaradorligi uning legitimligiga, ya’ni “soliq solinadigan fuqarolar tomonidan” davlatda kuch ishlatish huquqi mavjudligining tan olinishiga bevosita bog‘liq. Chunki agar jamoat fikriga mos keladigan bunday tan olish mavjud bo‘lsa, u holda davlat o‘z funksiyalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun cheklangan resurslardan oqilona foydalanuvchi tashkilot sifatida o‘z imkoniyatlarini aholining ushbu funksiyalar va maqsadlar bajarilishiga qarshiligini yengish uchun sarflamasligi mumkin , - deb ta’rif beradi.

Adam Smit XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq davlatning asosiy majburiyatlari doirasini belgilab berdi:

- birinchidan, jamiyatni kuch ishlatish va boshqa mustaqil jamiyatlarning bostirib kelishidan himoyalash;

- ikkinchidan, imkon qadar, jamiyatning har bir a’zosini adolatsizlikdan va uning boshqa a’zolari tomonidan jabrlashdan himoyalash yoki yaxshi adolat hukmini o‘rnatish;

- uchinchidan, ularni barpo etish va saqlab turish alohida shaxslar yoki kichik guruhlar manfaatlari yo‘lida amalga oshirilmaydigan muayyan ijtimoiy inshootlar va ijtimoiy muassasalarni barpo etish va saqlab turish, chunki ulardan keladigan

foйда hech qachon alohida shaxslar yoki kichik guruhlarga xarajatlarni to'lay olmaydi, lekin ko'pincha xarajatlarni katta jamiyatga ortiqcha to'lashi mumkin .

J.Byukenen o'z asarlarida davlatning jamiyatdagi rolining ikki tomonlamaligiga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni uning nazarida davlat ham himoya qiluvchi, ham ishlab chiqaruvchi vositadir. Himoya qiluvchi yoki huquqiy davlat konstitutsion bosqichda kelishuvchi tomonlarga nisbatan konseptual tashqi va huquqlarni hamda bunday huquqlarni ixtiyoriy ravishda almashish bo'yicha shartnomalarni ta'minlash uchun yagona javobgarlikka ega bo'lgan huquqlarni ta'minlash instituti yoki organi sifatida paydo bo'ladi. Davlat ishlab chiqaruvchi vosita sifatida bozor mexanizmi ishlabchiqarishni ta'minlay olmaydigan jamoat ne'matlarini o'zi ishlabchiqarishni tashkil etadi. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning eng umumiy funksiyalari quyidagilardan iborat :

- mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish;

- axborot bilan almashish tarmoqlarini, ya'ni rivojlangan axborot infratuzilmasi barpo etish;

- o'lchash va tortish standartlarini ishlab chiqish. Ular jumlasiga almashinadigan tovarlar va xizmatlar miqdori va sifatini o'lchash standartlarini, shuningdek, davlat tomonidan pul muomalasining tashkil etilishi ham kiradi;

- tovarlar va xizmatlar bilan jismoniy almashish tarmoqlari va mexanizmlarini, ya'ni bozor infratuzilmasini barpo etish;

- huquqni muhofaza qilish faoliyati va nizolarda «uchinchi» tomon rolini bajarish;

- sof ijtimoiy farovonlikni yaratish (birinchi navbatda mudofaa, keyin sog'liqni saqlash va ta'lim singari ijtimoiy farovonlikni yaratish).

Davlatning iqtisodiy sohada ishtirok etishi, iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi, iqtisodiyotni tartibga solishi nuqtai nazaridan asosiy majburiyat va vazifalari, iqtisodiyot sohasidagi siyosatining mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlari to'g'risidagi masalalar iqtisodiy fanlar diqqat markazida turadigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish bo'yicha siyosatiga taalluqli bo'lgan ko'plab savollarga javob qidirish bilan turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar iqtisodchilarining aksariyati band.

Iqtisodchilarning davlatning iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosati bo'yicha ishlab chiqqan ilmiy-nazariy konsepsiyalari, nazariyalari hamda ularga asoslangan iqtisodiy siyosatning turli modellarining amaliyotda qo'llanishi tajribalarining umumlashtirilishi negizida "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari" fani shakllanib, ko'plab mamlakatlarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv

yurtlarida iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslari sifatida bo'lg'usi iqtisodchilarga o'qitilmoqda.

Iqtisodiy siyosatning usullarining nazariy asoslarini iqtisodiyot nazariyasi fani yaratadi. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatda amal qiluvchi ob'ektiv iqtisodiy qonunlarni ochib beradi hamda xo'jalik yuritishning prinsiplarini va mexanizmini, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining maqsadlarini, sohalari va vosita hamda usullarini, ya'ni davlatning iqtisodiy siyosatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati – davlatning iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish maqsadida bozor iqtisodiyotining amal qilishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig'indisidir.

Iqtisodiy siyosatning tadqiqot ob'ekti bo'lib iqtisodiy sub'ektlarning o'zaro hamkorlikda samarali va barqaror faoliyat yuritishlari. shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish yoki ularning ta'sirini kamaytirish uchun qulay huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonlari hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatga kirish o'quv kursining predmetini davlatning jamiyat manfaatlarini ko'zlab, iqtisodiyotga aralashuvi va uni tartibga solishi jarayonlari va bunda davlat bilan iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan siyosatini hukumatning iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi qarorlari va hatti-xarakatlarida namoyon bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini qo'llash sohalari quyidagilardan iborat:

1). Iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy normalar sohasidagi siyosat. Bunda iqtisodiy hayotdagi davlat va xo'jalik sub'ektlari hatti-harakati normalari bo'yicha uzoq muddatli ijtimoiy kelishuv to'g'risida so'z boradi.

2). Iqtisodiy tartib o'rnatish siyosati, ya'ni xususiy shaxslar, firmalar, institutlar faoliyati, raqobatni himoya qilish, iqtisodiyotni tartibga solish va savdoni rivojlantirishning mumkin bo'lgan miqyoslarini belgilovchi tartib-qoidalarni o'rnatishga qaratilgan siyosat;

3). Integratsion va tashqi siyosat- bu hududlararo bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir;

4). Xo'jalik jarayonlariga ta'sir ko'rsatish siyosati-bu jami talab va jami taklifga ta'sir etish, ular o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, pul va fiskal siyosatlarni amalga oshirishdir.

5). Iqtisodiy o‘shish siyosati va tarkibiy siyosat iqtisodiy o‘shishga to‘siqlarni bartaraf etishga va ishlab chiqarish potensialining rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir;

6). Atrof muhitni muhofaza qilish siyosati.

Demak, davlatning iqtisodiy siyosati davlatning iqtisodiyotga aralashishi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usul, vositalari, dastaklarini o‘z ichiga oladi. Davlat mavjud bo‘lgan barcha tarixiy davrlarda iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan siyosat davr talablariga mos ravishda ma‘lum miqyoslarda, shakl va uslublarda amalga oshirilib kelingan. Lekin to 1929-1933 yillardagi krizisgacha bo‘lgan davrlarda davlatning iqtisodiyotga aralashishi nomuayyan, va cheklangan bo‘lib, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish tor doira va miqyoslarda, ko‘lamlarda vaziyat taqozasiga ko‘ra epizodik ko‘rinishda kam sonli vosita va usullar yordamida amalga oshirilib kelingan.

Faqat XX asrning 30-40 yillaridan boshlab, davlatning iqtisodiy siyosati bozor iqtisodiyotiga davlatning muntazam ravishda aralashib, uni tartibga solishga qaratilgan mexanizmni bozorning o‘zini o‘z tartiblash mexanizmi bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirila boshlandi. Uning mazmunini ochib berish uchun bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashishi va tartibga solishi zarurligi, uning ob‘ekti va predmeti, shakl va usullarini tahlil qilish lozim bo‘ladi.

1.3. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati.

Iqtisodiy siyosatning zarurligi va shakllari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan va rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki mexanizmi yuzaga keldi: davlat va bozor mexanizmlari. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorliklari raqobatga undovchi asosiy kuch bo‘lib hisoblanadi.

Ma‘lumki, bozorning muxim elementi bu narx va uning darajasi bo‘lib, bu ishlab chiqaruvchi uchun ham, tadbirkor uchun ham va xaridor uchun ham muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bozor tizimi ishlab chiqaruvchilar va haridorlarni qaror qabul qilishlarida egiluvchanlik va moslashuvchanlik jixatlarini yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Bozor ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi aloqalarni bog‘laydi. Tarmoqlar o‘rtasida resurslarni samarali taqsimlanishida, talab va taklif mutanosibligini ta‘minlashda bozor mexanizmi qulaydir.

Jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishida, ijtimoiy mehnat taqsimotida, davlatlararo aloqalarning kengayishida, iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalarni tartibga solish kabi iqtisodiy jarayonlarda bozor

mexanizmining tartibga solish imkoniyatlari chegaralanganligi namoyon bo'ladi. Bunga iqtisodiyotda yuzaga kelib turadigan iqtisodiy inqirozlarni misol keltirish mumkin.

Bozor mexanizmi bajara olmaydigan va tartibga sola olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining vazifalari mavjud. Sanaot rivojlanishda erkin raqobat asosida ishlab chiqarish kuchlari nafaqat yakka tartibdagi xususiy mulk doirasida o'smoqda, balki jamoa (aksionerlik) va boshqa mulkchilik shakllarining o'zni ham oshib bormoqda. Biroq, davlat iqtisodiyotning yirik tarmoqlarini o'z zimmasiga olishga, ularni rivojlantirishga va tartibga solishga majbur bo'lmoqda. Masalan: temir yo'l, telegraf, pochta, mudofaa va h.k.

Bozor mexanizmi bajara olmaydigan ijtimoiy vazifalar ham mavjud. Bundan tashqari, bozor munosabatlari asosidagi ba'zi faoliyat natijalariga davlatning aralashuvi ehtiyoji tug'iladi.

Davlat iqtisodiyotni tartiblashning bozor mexanizmi to'liq bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashning asosiy maqsadi iqtisodiy muvozanatga erishish asosida tushkunlik va tanglikning oldini olish, ijtimoiy ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlash, milliy iqtisodiyot ravnaqi uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, aholi turli tabaqalari o'rtasida ijtimoiy muvozanatga erishishdan iboratdir.

Iqtisodiy sub'ektlar o'zaro raqobatda bo'lgani va o'zlarining shaxsiy yoki jamoaviy manfaatlari yuzasidan faoliyat ko'rsatgani uchun ularning xudbinlik manfaatlari umumdavlat, jamiyat manfaatlari zid kelib qolishi ham mumkin. Shuning uchun davlat iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlari va faoliyatlari jamiyat, davlat manfaatlari zid kelib qolmasligi, unga ziyon yetkazmasligini nazorat qiladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun davlat iqtisodiy sub'ektlarning makroiqtisodiyot miqyosidagi aloqa va bog'lanishlarini tartibga soladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun davlat raqobatni rag'batlantirish orqali bozor tizimini saqlashni o'z zimmasiga oladi. Chunki erkin tadbirkorlik tizimi va uni boshqaruvchi talab va taklif qonunlarining amal qilishi raqobatga bog'liq bo'ladi. Raqobatchilik muhitini rag'batlantirish va himoya qilishning davlat mexanizmi quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy sub'ektlarning faoliyat yuritish qoidalarini belgilash;
- aholini bozor sharoitlari, iqtisodiyotning holati to'g'risidagi axborotlardan xabardor qilish;
- iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasidagi munozara, bahs, ziddiyatlarni hal qilishda ko'maklashish.

Bozor mexanizmi faqat xususiy tadbirkorlar uchun foyda kelishini ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Ammo

jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan, aholining ko'pchiligi foydalanadigan ijtimoiy tovar va xizmatlar xususiy tadbirkorlik doirasida ishlab chiqarilishi mumkin emas. Bunday ijtimoiy tovarlar va xizmatlarga: maktablar, yo'llar, yong'indan himoyalash, milliy mudofaa kabilar kiradi. Binobarin, ularni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni davlatning o'zi tashkil qilishi, tartibga solishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizimini taqozo etuvchi sabablardan biri bozor tizimidan tashqarida sodir bo'luvchi inson faoliyati va tabiatning zararli oqibatlaridan (inson salomatligiga, tabiatga ziyon yetkazuvchi omillar) aholini himoya qilish zaruratidir. Bozor tizimida bunday zararlar uchun javobgar shaxslardan tovon to'lashga majbur qiluvchi mexanizmlar mavjud emas. Shuning uchun davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida aholini zararli oqibatlardan himoyalash chora-tadbirlari ham muhim ahamiyatga ega. Zero zararli oqibatlar nafaqat inson hayotiga balki iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir qiladi. Shunga binoan ulardan aholini himoyalash chora-tadbirlari oqibatida aholi salomatligi yaxshilanadi, ularning mehnat qobiliyati ham oshadi. Bu esa o'z-o'zidan aholi mehnat faoliyatining o'sishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

Aholini qo'shimcha zararli oqibatlardan himoyalash davlat mexanizmi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ishontirish, soliq solish, subsidiyalash, tartibga solish. Bunday ishontirish usullari, vositalari kishilarni, iqtisodiyot sub'ektlarini jamiyatga, boshqa kishilarga ziyon keltiradigan xatti-harakatlar qilmaslikka chaqirishga qaratilgan bo'ladi.

Soliq solish zararli qo'shimcha oqibatlarni cheklash maqsadida qo'llaniladi. Turli soliq miqdorlarini belgilash orqali hukumat firmalar faoliyatidan kelib chiqadigan zararli qo'shimcha oqibatlarni cheklashga majbur qiladi. Bunday oqibatlardan xoli bo'lgan firmalarga davlat subsidiyalar berish orqali ularning faoliyatini rag'batlantiradi. Xavfsizlik me'yorlarini belgilash yoki man qiluvchi qonunlar chiqarish yo'li bilan davlat tartiblash ishlarini amalga oshiradi.

Davlatning iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida aholining iqtisodiy jihatdan nochor yashayotgan guruhlarini ijtimoiy himoyalash muhim o'rin tutadi. Aholining yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoyalash, jamiyat uchun xalq xo'jaligi tarmoqlari, shu jumladan, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadida daromadlar davlat tomonidan qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan daromadlarning qayta taqsimlanishi iqtisodiyotni tartiblash mexanizmining muhim unsuri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, bozor

iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlik faolligi o'zgarib turadi, iqtisodiy o'sish uning pasayishi bilan almashinib turadi. Oqibatda firmalarning sinishi va ishsizlarning ko'payishi ortadi, aholi turmush darajasi pasayadi, ular ko'p qiyinchilikni boshdan kechiradilar. Davlatning iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmi yordamida iqtisodiy o'sish siklidan tanglikka, pasayishga o'tishdagi salbiy oqibatlarni cheklab, tanglikdan iqtisodiy o'sish sari o'tish imkoniyatlari vujudga keltiriladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish uchun bir qancha shakl va vositalardan foydalanadi. Bunda davlatning o'z faoliyatini qaysi ob'ektga qaratishi muhim hisoblanadi. Tartibga solish ob'ektlari - bu bozor mexanizmi, ularning normal kechishini qoniqarsiz yoxud butunlay ta'minlay olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chikarish sohasidagi muayyan shart-sharoit, jarayon, munosabatlardir. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy sikl, pul muomalasi, ijtimoiy bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqotlar, narxlar kabi umumxo'jalik jarayonlari.

2. Harbiy mudofaa, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, bank sohasi kabi yirik iqtisodiy sohalarni rivojlantirish.

3. Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ayrim yirik korporatsiyalar.

Iqtisodiyotni tartibga solish shakllari deganda, budjet-soliq, pul-kredit, ma'muriy boshqaruvchilik faoliyati e'tiborga olinadi.

Byudjet-soliq siyosati davlat budjetini ishlab chiqish, tasdiqlash, bajarish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga solish uchun zarur. Pul-kredit tartiboti milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, inflyasiya bilan kurashish bo'yicha davlat organlari amalga oshiradigan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyotini ma'muriy jihatdan tartibga solish ma'muriy ravishda monopolistlarni kartellashtirish, mayda korxonalariga ajratish, litsenziyalash, kvotalash kabi chora-tadbirlardan iborat.

Iqtisodiyotni tartibga solish vositalari orqali mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatiladi. Buning uchun davlat organlari quyidagi vositalardan foydalanishi mumkin:

- cheklangan ishlab chiqarish resurslarini tartibga solish;
- iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartiblash;
- iqtisodiy tizimga monetar uslublar vositasida ta'sir o'tkazish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ma'lum vaziyatlarda alohida qo'llanishi mumkin. O'tish davri iqtisodiyotini tartibga solish jarayonida davlat organlari ob'ektiv shart-sharoitlarga ko'ra barcha ta'sir vositalaridan birgalikda foydalanishga majburdirlar.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining tuzilmasida turli xil yo‘nalishli kesimlarni, jumladan, funksional, ijtimoiy hududiy tuzilmalarni ko‘rsatish mumkin.

Funksional tuzilma - yalpi ichki mahsulotni turli xil ehtiyojlar uchun (xususiy yoki davlat iste‘moli, yalpi jamg‘arish, sof eksport) taqsimlanishini tavsiflaydi. Ushbu jarayon ishlab chiqarish omillari (mehnat, kapital, yer, ilmiy-texnik taraqqiyot) kesimida mahsulot qiymatining shakllanishini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Ijtimoiy tuzilma - ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy sektorlarga taqsimlanishini ifodalaydi:

- xususiy sektor (xususiy korporativ sektorni ham o‘z ichiga oladi);
- korporativ davlat-xususiy sektori (aralash sektor)
- davlat sektori (unitar va davlatga qarashli korxonalar);
- uy xo‘jaliklari sektori.

Iqtisodiyotning sohaviy, ya‘ni tarmoq tuzilmasi - ayrim tarmoqlarning YaIMni ishlab chiqarishga qo‘shgan xissasi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotning hududiy tuzilmasi turli xil hududiy tuzilmalarning YaIMni ishlab chiqarishdagi ishtirokini ta‘riflaydi.

Davlat iqtisodiy islohotlar davrida milliy iqtisodiyotga ta‘sir etishning yangi usul va vositalarini qo‘llashga harakat qiladi. O‘tish davrida iqtisodiyotning erkin rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish davlatning muhim ustuvor vazifalari hisoblanadi. Buning uchun erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning bosh yo‘li ham erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi bilan bog‘liqdir. Erkin iqtisodiyot tamoyillari mazmunan quyidagilar bilan belgilanadi:

- xususiy mulkning iqtisodiyotdagi yetakchi o‘rni;
- tadbirkorlik va tanlash erkinligi;
- sog‘lom raqobatchilik muhitining mavjudligi;
- bozor turlarining erkin tashkil topishi va rivojlanib borishi;
- iqtisodiy aloqalarning foyda va daromad topish manfaatlari zaminida tashkil topishi;
- narxlarning bozorda erkin shakllanishi;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklanganligi.

Bu tamoyillarning amal qilishi faqat huquqiy qonunlar doirasida o‘z ifodasini topishi kerak. Eng muhimi, bozor qonunlari, iqtisodiy faoliyat va tanlash erkinliklarining amal qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratishi hamda iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlarining uyg‘unligini ta‘minlashi zarur. Buning uchun eskidan qolgan iqtisodiy qarashlar va ish olib borish qoidalarining yangi iqtisodiyot tamoyillariga qanday yo‘sinda ta‘sir etayotganligiga alohida

e'tibor berish zarur bo'ladi. Ushbu o'rinda "erkin iqtisodiyot" tushunchasi nimani anglatishiga ham alohida e'tiborni qaratish lozim. Erkin iqtisodiyot bu – turli mulk shakllari va tadbirkorlik faoliyatining mavjudligi hamda ularning erkin harakati orqali iqtisodiyot sub'ektlarining foyda olishga intilishlarini yuzaga chiqaruvchi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Erkin iqtisodiyot tadbirkorlik va tanlash erkinligini ta'minlar ekan, bu holat foyda olish, naf ko'rish, manfaatni qondirish kabilarning mavjudligi bilan izohlanadi. Erkin iqtisodiyot quyidagi holatlar bilan xarakterlanadi:

1. Tadbirkorlar qatlami iqtisodiyotning asosiy sub'ekti bo'lib, ular o'z daromadlarini maksimallashtirishga intiluvchilardan tashkil topadi.
2. Firmalar qattiq raqobat sharoitida faoliyat yuritadilar.
3. Moliyaviy intizomga qattiq rioya etiladi.
4. Resurslar bozori erkin bo'ladi.
5. Xo'jalik hayotining huquqiy ta'minoti kuchli bo'ladi.
6. Iste'molchilar talabi bozorga kuchli ta'sir etadi.
7. Tovar va resurslar bahosi, foiz stavkasi, valyuta kursi bozorga qarab o'zgaruvchan bo'ladi.
8. Jamg'armalarning asosiy qismi banklar va moliya bozorida harakatlanadi.
9. Davlat sektori ochiq va tijoratlashgan bo'ladi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vazifalarining nechog'lik samarali ekanligi va erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi bozor munosabatlarining rivojlanishini, iqtisodiy munosabatlar bozor qonunlari asosida tashkil topishini ta'minlab, barqaror iqtisodiy o'sish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi hamda ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning real amal qilishini qaror toptiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni tartiblashning davlat mexanizmi ob'ektiv bozor mexanizmiga ko'maklashishga qaratilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi chora-tadbirlar va vositalar majmuidir. Hozirgi zamon iqtisodiyotida bozor mexanizmi orqali iqtisodiyotni tartibga solish qanchalik zarur bo'lsa, davlat mexanizmini shunchalar zarur ekanligini ko'rsatadi. Eng muhimi, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda xar ikkala mexanizmlarni afzal jixatlarini birlashtirishdir. Bu esa iqtisodiyotni ratsional boshqarishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Iqtisodiy siyosat, davlatning siyosati, iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi, iqtisodiy siyosatning taktik maqsadi, davlat siyosatining iqtisodiy vositalari, davlat siyosatining siyosiy-ma'muriy vositalari, davlatning iqtisodiy siyosati, monetar siyosat, qattiq monetar siyosat, qattiq monetar siyosat.

Nazorat uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiy siyosati kursining dolzarbligi va maqsadini qanday sabablar belgilaydi?
2. Iqtisodiy siyosat nima?
3. Iqtisodiy sub'ektlarning manfaatlari nima bilan farq qiladi?
4. Iqtisodiy siyosatning qanday darajalari mavjud?
5. Davlatning siyosati milliy bo'ladi, degan ibora nimani anglatadi?
6. Davlatning siyosati orqali ko'zlanadigan asosiy maqsadlar nima?
7. Iqtisodiy siyosatning strategik va taktik maqsadlariga nimalar kiradi?
8. Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga qanday vositalar orqali erishadi?
9. Monetar siyosat nima?
10. Monetar siyosatning qanday asosiy jihatlari bor?

II BOB. IQTISODIY SIYOSAT ASOSLARI VA TARKIBI.

2.1. Iqtisodiy siyosat jarayonini ishlab chiqishning logistik jarayonida maqsadlar/vositalar sxemasi.

Iqtisodiy siyosat va uni amalga oshirish. Bozorga, ayniqsa, uning shakllanish bosqichida, uzoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarining sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta'minot jihatdan keskin tabaqalashuvi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning vazifasi jiddiy o'zgaradi. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga soluvchi vositalari tobora muhimlashadi. Davlat zimmasiga faqat iqtisodiy tartiblash va rag'batlantirish vazifalarigina qoladi.

Iqtisodiy siyosat - iqtisodiyotni boshqarish, mamlakat maqsadlari, vazifalari, manfaatlariga muvofiq holda iqtisodiy jarayonlarga muayyan yo'nalish berish sohasida davlat, hukumat faoliyatining bosh yo'nalishi, tadbirlari tizimi iqtisodiyot fani soxalaridan biri va investitsiya, moliya-kredit, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnika, soliq, byudjet sohalardagi siyosatni qamraydi.

Rejalashtirish boshqaruv siklining (tsiklik boshqaruv mexanizmi) bosqichlaridan biri bo'lib, u odatda uchta asosiy bosqichga bo'linadi: tahlilrejalashtirish -bajarish.

Davlat hududiy boshqaruvi tizimida rejalashtirish hududiy rivojlanishning strategik (uzoq muddatli) va joriy maqsadlarini aniqlash, ushbu maqsadlarning amalga oshirilishini ta'minlaydigan rejalashtirish hujjatlari tizimini ishlab chiqish uchun mo'ljallangan.

Butun mamlakat va uning alohida hududiy tuzilmalarini uzoq muddatli rejalashtirish ko'pincha "strategik rejalashtirish" (ma'lum bir hududni rivojlantirish) atamasi bilan belgilanadi.

Amerikalik olimlar logistikani rejalashtirish tuzilmasi deb hisoblaydilar va uni xarajatlarni tejash mexanizmi sifatida belgilaydilar. Rossiyalik tadqiqotchilar logistikani zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarda optimallashtirish orqali moddiy oqimlar, ma'lumotlar va odamlarni boshqarish va foydalanish mumkin bo'lgan boshqaruv vositasi sifatida qabul qilishadilar.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan global logistika tizimlari – milliy resurslarni: moddiy, xom ashyo, energiya, moliyaviy, mehnatni tejashning eng samarali vositasidir. Aynan global logistika tizimlari zamonaviy sharoitlarda

bozorlarda oqim jarayonlarini tashkil etishning eng samarali variantlari va shakllarini topishga imkon beradi.

Davlat siyosati - bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiyotiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir.

Davlat siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi.

Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit yaratishni bildiradi, chunki YalM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uni chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy oborotning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta'minlash, mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini muttasil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsion jarayonlar va globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi, baynalmilal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ikki yo'nalishda kechadi.

Birinchi, iqtisodiyotning davlat sektorini tashkil etuvchi korxonalar va tashkilotlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida tovar va xizmatlar yaratib bozor munosabatlarida ishtirok etadi.

Ikkinchi, davlat umumiy manfaatlarini ifodalovchi kuch sifatida milliy iqtisodiyotni tartiblashda ishtirok etadi.

Respublikamizda yaqin istiqbolda ham: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.01.2019 yildagi PF-5614-son farmonida "iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish" nazarda tutiladi.

Bunda quyidagilarga ustuvorlik beriladi:

- davlat mulkini xususiylashtirish tartib-tamoyillarni yanada kengaytirish va soddallashtirish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish;
- davlat mulkini xususiylashtirilgan ob'ektlarning bazasida xususi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlari va usullarini joriy etish;
- davlat-xususi sheriklikni kengaytirish;
- nodavlat, jamoat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Iqtisodiy siyosatning tarkibi ko‘plab elementlardan iborat bo‘lib, ularning jami mamlakatning iqtisodiy siyosati deb ataladi. Ushbu tuzilmaning asosiy elementlariga byudjet, soliq, pul, investitsion va davlat iqtisodiyotining bir qator sohalari kiradi.

Ushbu tizimda markaziy rolni boshqa barcha elementlarni boshqarish funktsiyalarini bajaradigan davlatning o‘zi bo‘ladi. Boshqaruv bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin, chunki iqtisodiyotning barcha elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birining o‘zgarishi barcha boshqa elementlarning o‘zgarishiga olib keladi.

Shuning uchun ham iqtisodiyotning alohida elementlariga davlat ta'sirining oqibatlarini oldindan aytish qiyin bo‘lishi mumkin. Iqtisodiyotni boshqarishning eng samarali usuli bu iqtisodiyotning ko‘plab sohalarda bir vaqtning o‘zida o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan va ko‘proq taxmin qilinadigan oqibatlarni beradigan kompleks yondashuv deb hisoblanadi.

Nodavlat tuzilmalar, masalan, fuqarolarning turli uyushmalari va birlashmalari ham iqtisodiy siyosatga ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ularning manfaatlari davlat manfaatlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, shuning uchun iqtisodiyot sohasida eng maqbul yechimlarni ishlab chiqish uchun ular bilan davlat o‘rtasida doimiy muloqot zarur.

Keyingi yillarda globallashev natijasida alohida mamlakatlar ichidagi iqtisodiy siyosatga ta'sir ko‘rsata oladigan millatlararo birlashmalar ham paydo bo‘ldi. Ular bilan samarali hamkorlik qilish har qanday zamonaviy davlatning vazifalaridan biridir.

Iqtisodiy siyosat tarkibiga qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish usullari ham kiradi. Ma'muriy va qonunchilik usullaridan, ya'ni bevosita ta'sir qilishdan tashqari, iqtisodiyotni bilvosita tartibga solish vositalari mavjud. Ko‘pincha ular moliyaviy oqimlarni eng ustuvor yo‘nalishlarga, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat investitsiyalarini yo‘naltirishdan iborat. Aholining tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun qulay moliyaviy muhit yoki qonunchilik bazasini yaratish shular jumlasidandir.

Keyingi samarali usul - bu ishchi kuchini nazorat qilish orqali iqtisodiyotni tartibga solish. Ya'ni, davlat mehnat sharoitlarini, masalan, eng kam ish haqi, ish kunining davomiyligini o‘zgartirib, butun iqtisodiyotning holatiga samarali ta'sir

ko'rsatishi mumkin. Bunday qarorlarni qabul qilishda kasaba uyushmalari kabi nodavlat tashkilotlarning intilishlarini inobatga olish muhim.

Iqtisodiy siyosatning tuzilishini bilish nafaqat iqtisodchilar, balki investorlar uchun ham muhimdir, chunki u o'z mablag'larini investitsiyalash uchun eng foydali va past xavfli faoliyat sohaslarini tanlash imkonini beradi.

Bozor xo'jaligining asosiy talablari va shartlaridan biri erkin narxlardir. Ammo dunyo bo'yicha narx siyosati, ayniqsa, bozor tarmoqlarini qaror toptirish davrida tartibga solib turilmaydigan bironta ham davlat mavjud emas. Bozor munosabatlari yo'lga kirgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi davlat doimo aholini ham, ishbilarmonlarni ham islohotlarga tayyorlab kelganligidan dalolat beradi.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita iqtisodiyotning davlat sektori orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat ixtiyorida faqat asosiy va xalq xo'jaligi tarmoqlarining strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlari qoladi. Bular yoqilg'i, neft va gaz sanoati, elektr energetikasi, temir yo'l, avtomobil, havo va truboprovod transporti, aloqa, suv va gaz ta'minoti, irrigatsiya inshootlari qurilishi va ulardan foydalanishdir.

Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonda yerning egasi ekanligi tuyg'usini qayta tiklash – meros qilish huquqi asosida yerni abadiy foydalanish uchun berish yo'lidan borish kerak. Eng muhimi, qishloq xo'jaligini yuritishning shunday shaklini yaratish kerakki, bu har bir dehqonga o'z mehnatining samarasidan mustaqil bahramand bo'lish imkoniyatini bersin. Ana shundagina dehqon o'zini haqiqatan ham yerning chinakam egasi deb biladi.

Qishloq turmush darajasini shahar turmushi darajasiga ko'tarish, eng avvalo, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash, ularni suv va gaz bilan ta'minlash, shuningdek, ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan joylarda kichik mustaqil korxonalar, keng tarmoqli qayta ishlash shaxobchalarini tashkil etish davlat ahamiyatiga molik vazifadir.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorning keng tarmoqli tizimini tashkil etishni talab qiladi. Ayrim korxonalar va tijorat tuzilmalarining yakkaboshlik mavqeini tugatish narxlarning sun'iy ravishda oshirib yuborilishi, monopoliya yuqori daromadlar olinishiga qarshi turuvchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, o'zgarib turadigan bozor iqtisodiyotini yaxshi tushunadigan, yuksak bilimli va ishbilarmon mutaxassislariga ega bo'lmay turib, korxonalarini malakasiz qo'llarga topshirish ularning barbod bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur bo'lgan boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog'liq holda izchil va har tomonlama yondashuvni talab qiladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo'lidagi zaruriy va muqarrar bosqich bo'lib, uni ta'minlash uchun respublika budjeti taqchilligini cheklashga va uni izchil ravishda eng kam darajaga keltirishga qaratilgan kuchli moliyaviy siyosat olib borilishi taqozo etiladi. Bu jarayonda budjet mablag'lari kechiktirib bo'lmaydigan eng zarur davlat va ijtimoiy ehtiyojlargagina berilishi kerak.

Erkin narxlarga o'tilishidan iborat umumiy yo'lda tovarlarning alohida muhim turlari doirasi narxlarining davlat tomonidan nazoratga olinishi saqlanib qoladi. Eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, buyumlarning chegaralangan narxlari me'yor bilan berish hisobiga ular bilan aholini kafolatli ta'minlash, ichki iste'mol bozorini himoya qilish, tovarlarni sotib olishda aholiga katta imkoniyatlar yaratib berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bozorning o'zgaruvchan sharoitlarida mehnatga layoqatli mahalliy mutaxassislarisiz O'zbekiston mustaqilligini Nazoratni tasavvur qilish qiyin. Bunda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari, xalqning milliy-ruhiy turmush tarzi, ta'limdagi butun jahon va Sharq tajribasining eng yaxshi yutuqlari har tomonlama e'tiborga olinishi kerak. Iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarning yetakchi o'quv yurtlariga o'qishga va tajriba orttirishga yuborish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Zamonaviy bozor tizimiga o'tishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, uning sanoatlashgan mamlakatlar safiga yo'nalishida chuqur sifat o'zgarishlariga olib keladi hamda O'zbekiston iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy mustaqilligining ishonchli kafolatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida davlat bosh islohotchi sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

1. Bozor munosabatlariga o'tishning boshlang'ich davrida aholi manfaatlarini kuchli qayta taqsimlash vositasi orqali himoya qilish.
2. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni kafolatlash.
3. Iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari, o'ziga xos bozor shart-sharoitlarini vujudga keltirish va tasdiqlash.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida kishilarning iqtisodiy erkinliklari kafolatlangan bo'lish.
5. Tartibga solinadigan bozor sharoitida asosiy maqsad yo'nalishlarini ishlab chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo'lini belgilash va bu yo'lni o'tkazish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

6. Ijtimoiy muammolarni hal qilish, aholini ijtimoiy himoyalashning samarali, aniq va ravshan tizimini vujudga keltirish.

7. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tizimlarining qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish.

8. Aniq maqsadga qaratilgan iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmasi siyosatini izchillik bilan amalga oshirishga ko'maklashish.

Bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish odatda iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni boshqarishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etish yo'li bilan bevosita, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy vositalar yordamida bilvosita amalga oshiriladi.

2.2. Maqsadlar vositalar sxemasi. Ijtimoiy muammolarni va kunning siyosiy yangiliklarini aniqlash.

Davlatning iqtisodiy siyosatining tamoyillari va yo'nalishlari. Davlatning iqtisodiy strategiyasi uning siyosiy strategiyasini amalga oshirish uchun iqtisodiyotga davlatning aralashuvi mexanizmlari va ustuvorliklarining transformatsiyalashuvini belgilab beradi. Iqtisodiy strategiya uzoq muddatli davr ichida davlat faoliyatining yo'nalishi va uning amalga oshirish prinsiplarini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy strategiyasining muhim turlari quyidagilardan iborat:


- 1) Rivojlanishning ijtimoiy samarali strategiyasi;
- 2) Korporativ strategiya ma'lum guruh kishilarning boylik orttirishga qaratilgan tor egoistik manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi;
- 3) Liberal-iqtisodiy strategiya tovar va kapitalning erkin harakati uchun ochiq bo'lgan iqtisodiyot uchun qo'llaniladi;
- 4) Tartibga soluvchi iqtisodiy strategiya davlat tovar va kapital harakati uchun nazorat o'rnatganida qo'llaniladi;
- 5) Mobilizatsion iqtisodiy strategiya davlatning mavjudligiga tahdid kuchayganida, favqulodda holatlar sharoitida davlatning ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalarga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi kuchayadi;
- 6) Davlatning iqtisodiy integratsiya strategiyasi;
- 7) Samarali milliy strategiya.

Davlatning ijtimoiy samarali iqtisodiy strategiyasi fuqarolar uchun optimal tarkibdagi pirovard mahsulotning yuqori o'sish sur'atining barqarorligini ta'minlashni, to'liq samarali ish bilan bandlikka, inflyasiyani jilovlashga va daromadlarning odilona taqsimlanishiga erishishini ifodalaydi. Davlat iqtisodiy strategiyasi sifatining kriteriyasi (mezoni) uning ijtimoiy samarali iqtisodiyotga

muvofigligi darajasi hamda unga mamlakat ichidagi va jahon hamjamiyati tomonidan bildirilgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne'matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo'llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati o'z ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-budjet, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarni oladi (2-rasm).



2.1-chizma. Davlatning iqtisodiy siyosati sxemasi

Davlat siyosatining muvaffaqiyati jamiyat ehtiyojlari va ularni qondirish vositalarini aniqlash uchun real holatni aniq belgilash va iqtisodiy bilimlar darajasiga bog'liqdir.

Davlat iqtisodiy siyosatining prinsiplari quyidagilarda ifodalanadi:

Iqtisodiyotning samaradorlik prinsipi. Mavjud resurslar hisobiga ko'p miqdorda ne'matlar yoki kam sarf-xarajatlar evaziga ko'p miqdorda mahsulotlar ishlab chiqarish.

Ne'matlarning odilona taqsimlanishi prinsipi. Mamlakat fuqarolari daromadlaridagi tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiyot samaradorligiga qo'shgan hissalariga muvofiq har bir fuqaro daromadlarining ko'payib borishini ta'minlash.

Barqarorlik prinsipi:

iqtisodiy o'sishning barqarorligi;

inflyatsiya o'sishi sur'atining pastligi;

ishsizlik darajasining yuqori emasligi.

Davlat iqtisodiy strategiyasi sifati indikatorlari quyidagilar bilan belgilanadi: Davlat iqtisodiy strategiyasi sifati indikatorlari quyidagilar bilan belgilanadi:

Iqtisodiy indikatorlar davlat iqtisodiy xavfsizligi sharti buzilishining asosiy belgisi – YAIM tarkibida ishlab chiqarish investitsiyalari ulushining kamayishidir.

Ijtimoiy indikatorlar xavf va tahdidning bosh signali mehnat unumdorligi rag‘batlarining susayishi va jamiyatda aholi ijtimoiy tabaqalanishining kuchayishi.

Moliyaviy indikatorlar moliyaviy xavf signali – ishlab chiqarishning qisqarishi va ishlab chiqarish investitsiyalari hajmining pasayishi sharoitida davlat qarzining o‘tib borishi.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida davlat va hukumatning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- xususiy mulkni erkinlashtirish va huquqiy jihatdan kafolatlash;
- bozor iqtisodiyoti uchun ma‘muriy va moliyaviy infratuzilmalarni yaratish;
- narxlarni erkinlashtirish;
- sanoat siyosatini asoslash va amalga oshirish, investitsiyalar, iqtisodiyotni yangilash, modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgartirish uchun bozor sharoitlarini yaratish;
- jahon bozori uchun iqtisodiyotning ochiqligini ta‘minlash;
- makroiqtisodiy ahvolni boshqarish, oqilona budjet-soliq va pul-kredit siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish bo‘yicha markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- ijtimoiy, ta‘lim infratuzilmalari va mehnat bozorini vujudga keltirish;
- hukumatning bozor iqtisodiyotini ma‘muriy tartibga solish qobiliyatini samarali davlat xizmatini shakllantirish.

Iqtisodiy rivojlanishni boshqarish davlatning roli haqida zamonaviy nazariya.

Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi jamiyanning maksimal farovonlikka erishishi.

Asosiy maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning erkin rivojlanishi;
- huquqiy tartib;
- mamlakatning tashqi va ichki xavfsizligi.

Amaliy yo‘naltirilgan maqsadlar quyidagilarga erishishni o‘z ichiga oladi:

- iqtisodiy o‘sish;
- to‘liq bandlik;
- narxlarning barqaror darajasi va milliy valyutaning barqarorligi;
- tashqi iqtisodiy muvozanat.

Davlat faoliyatining asosiy fundamental sohasi ijtimoiy va iqtisodiy tartib o‘rnatishdir.

Bunday tartib birinchi navbatda davlat funksiyalari ijrosi orqali shakllanadi, yani tartibga solish, taqsimlash, qayta taqsimlash va barqarorlashtirish.

O‘zbekiston mustaqil bo‘lgach, ma‘muriy buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda davlatning iqtisodiyotdagi roli va funksiyalari katta o‘zgarishlarni talab qiladi.

Birinchiidan, o‘tish davrida davlat iqtisodiyot va jamiyatni liberallashtirishga majbur, ya‘ni oidingi funksiyalarni bozorga va jamiyatga o‘tkazadi;

Ikkinchiidan, xususiylashtirish (mulkni xususiy agentlarga berish) ham iqtisodiyot va jamiyatni boshqarishning real jarayonlariga ta'sirni cheklashni o‘z ichiga oladi;

Uchinchiidan, yangi demokratik va bozor institutlarini faol qurish kerak. Bu jarayonlarning ba'zilar vaqt talab etadi va shuning uchun ko‘p mamlakatlarda ular hali tugallanmagan.

Nihoyat, davlat fuqarolarga bozor sharoitiga moslashishda yordam berishi kerak.

Shu bilan birga, ushbu yordamning shakli:

a) moslashish uchun bozor imtiyozlari harakatlarini sekinlashtirmaslik va buzmaslik kerak;

b) makroiqtisodiy, birinchi navbatda byudjet cheklovlari real hisobga olinishi kerak.

Davlatning iqtisodiy siyosati - bu ma'lum maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko‘rsatish bo‘yicha hukumatning turli tadbirlari orqali o‘zining iqtisodiy funksiyalarini amalga oshirish jarayoni.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng keng tarqalgan iqtisodiy maqsadlari:

- 1) iqtisodiy o‘sishni ta'minlash;
- 2) iqtisodiy erkinlik uchun sharoit yaratish;
- 3) iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;
- 4) to‘liq bandlikni ta'minlash;
- 5) iqtisodiy samaradorlikka erishish.

Davlatning iqtisodiy funksiyalari:

- 1) iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- 2) mulkiy huquqlarni himoya qilish;
- 3) pul muomalasini tartibga solish;
- 4) daromadlarni qayta taqsimlash;
- 5) ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- 6) tashqi iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish;

- 7) jamoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- 8) tashqi ta'sirlarni qoplash;
- 9) bozor tizimini qo'llab-quvvatlash va uning ishlashini ta'minlash.

Davlat tomonidan eng yaxshi hal qilinadigan iqtisodiy vazifalar:

- 1) Bozor iqtisodiyoti asoslarini himoya qilish. Davlat monopoliyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqadi va qabul qiladi, bu esa raqobatning cheklanishiga va monopoliyalarning moliyaviy qudratining o'sishiga to'sqinlik qiladi.
- 2) Jamoat mahsulotini ishlab chiqarish. Ijtimoiy ne'matlar - davlat tomonidan o'z fuqarolariga teng ravishda taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar (masalan, mudofaa, bepul ta'lim, dori-darmonlar, kutubxonalarga, bog'larga tashrif buyurish va boshqalar).
- 3) Tashqi (nojo'ya) ta'sirlarni hisobga olish. Tashqi omillar - bu uchinchi shaxslar uchun tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq xarajatlar va foyda. Ayrimlarning xo'jalik faoliyati bunday oqibatlarga olib kelishi mumkinki, bu tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bilan bevosita aloqador bo'lmagan shaxslarda namoyon bo'ladi. Salbiy oqibatlar tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish natijasida boshqa shaxslar (ishlab chiqarishda ishtirok etmagan) xarajatlarga duchor bo'lgan taqdirda va ijobiy oqibatlar ushbu shaxslar ishlab chiqaruvchilarga ular tomonidan qoplanmagan imtiyozlarni olishlarida yuzaga keladi. tovarlardan. Davlatning vazifasi ishontirish, reklama kampaniyalari, subsidiyalar (ijobiy tashqi ta'sirlar uchun) va soliqqa tortish (salbiy ta'sirlar uchun), xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va boshqalar kabi choralarni qo'llagan holda salbiy tashqi ta'sirlarni bartaraf etish va foydalilarini rag'batlantirishdan iborat.
- 4) Muhtojlarga yordam berish dasturlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish.

Bozorni davlat tomonidan tartibga solish:

a) bevosita (to'qridan-toq'ri)

Asosan ma'muriy usullardan foydalanishni nazarda tutadi:

- davlatning qonun ijodkorligi faoliyati;
- davlat buyurtmalarini kengaytirish;
- iqtisodiyotda davlat sektorini rivojlantirish;
- faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash.

b) bilvosita

U asosan iqtisodiy usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi:

- pul-kredit (pul) siyosati;
- fiskal (fiskal) siyosat.

Bilvosita usullarning mohiyati:

1. Pul-kredit (pul) siyosati - pul muomalasi va kredit sohasidagi iqtisodiy o'sishni tartibga solish, inflyatsiyani jilovlash, aholi bandligini ta'minlash va to'lov balansini tenglashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

2. Pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi asosiy institut Markaziy bank hisoblanadi.

Asosiy vositalar:

1) Ochiq bozordagi operatsiyalar - mamlakatda narx taklifi ustidan davlat nazoratining eng muhim va har kuni qo'llaniladigan usuli. Bu Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni (federal ssuda obligatsiyalari, davlat g'azna majburiyatlari va boshqalar) naqd pulga sotib olish va sotish bilan bog'liq.

2) Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni sotadi → u evaziga naqd pul oladi → muomaladagi pul miqdorining qisqarishi, foizlarning oshishi → pul "qimmat" bo'ladi.

Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni sotib oladi → foiz stavkasining pasayishi → pulning "arzonlanishi". Shunday qilib, bu bank zahiralarning kamayishiga yoki ko'payishiga, shuningdek, pul massasining ko'payishi yoki kamayishiga olib keladi.

2) Diskont stavkasi siyosati (Markaziy Bank asosiy stavkasi) - tijorat banklari faoliyatini tartibga solish imkonini beradi. Bunga foiz stavkasini o'zgartirish orqali erishiladi.

Diskont foiz stavkasi - bu Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga qisqa muddatli kreditlar beradigan foiz stavkasi. Tijorat banklari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan ma'lum foizda, ya'ni diskont stavkasida (masalan, 10 foiz) kredit oladi. Banklar o'z mijozlariga olingan mablag'larni chegirma stavkasidan yuqori foizda (masalan, 20%) beradi. Markaziy bank foiz stavkasini ko'taradi → tijorat banklari o'z mijozlarining foiz stavkasini oshiradi. Markaziy bank diskont stavkasini pasaytiradi → tijorat banklari o'z mijozlari uchun foiz stavkasini pasaytiradi.

Shunday qilib, Markaziy bank tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish yoki sovitish maqsadida "arzon" yoki "qimmat" pul siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

3) Majburiy zaxiralar me'yorini o'zgartirish – qonun hujjatlariga muvofiq tijorat banklari mablag'larning bir qismini zaxira ko'rinishida Markaziy bankda saqlashlari shart. Ushbu zaxira miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. U kamaysa, tijorat banklari o'z mijozlari orasida pul joylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va mamlakatda pul massasi oshadi. Zaxiraning ko'payishi bilan pul taklifi kamayadi, ular uchun narx, ya'ni foizlar darajasi oshadi, pul "qimmat"

bo'ladi. Markaziy bank tomonidan olib boriladigan zaxira siyosati pul-kredit tartibga solishning eng qat'iy vositasidir.

2. Fiskal (fiskal) siyosat - davlat xarajatlari va soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Ushbu siyosatni amalga oshiruvchi asosiy institut Moliya vazirligi, Soliq qumitasi va O'zbekiston Respublikasi hukumati hisoblanadi.

2.3. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish va baholash.

Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi. Davlatning iqtisodiy siyosati natijalarini hamda jamiyatda barpo etilgan tashkiliy va mulkchilik munosabatlari asosida amalga oshirilayotgan jami iqtisodiy jarayonlar majmuini ifoda etuvchi milliy xo'jalik tizimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish modeli deb ataladi.

Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab ko'rsatkichlar tizimi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni yaxlit holda ifoda etadi.

2. Davlatning iqtisodiy funksiyalari to'g'risidagi nazariyalar.

3. Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv asosi bo'lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi. Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi yanada kuchayadi;

- ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xo'jalik birliklarining mayda bo'laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;

- ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planuvi jarayoni o'sadi;

- turli iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallashadi.

Ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasining oshishi bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda xo'jalik yuritish, takror ishlab chiqarish nisbatlarini ongli ravishda tartibga solish, yirik ishlab chiqarish majmualari, yaxlit iqtisodiyotni markazlashtirilgan holda boshqarishga ob'ektiv ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday tizimida ishlab chiqarish umumlashuvining ma'lum darajasida ob'ektiv zaruriyatga aylanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagi chora-tadbirlardan iborat:

- tashkiliy-boshqaruv;
- me'yoriy-huquqiy;
- moliyaviy-iqtisodiy;
- ijtimoiy-psixologik.

Fiskal siyosatning muhim qismi soliq siyosatidir:

Soliq siyosati – soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlarning amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

fiskal maqsad – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, hududiy va mahalliy dasturlarini moliyalashtirish maqsadida milliy daromadning bir qismini budjet tizimiga jalb etish;

iqtisodiy maqsad – ijtimoiy ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, milliy daromad va YAIMni hududlararo, tarmoqlararo va ijtimoiy qayta taqsimlash, talab va taklifni boshqarish, tadbirkorlik va investitsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida iqtisodiyotga soliq mexanizmi orqali ta'sir ko'rsatish;

ijtimoiy maqsad – aholining kam ta'minlangan qatlami, nogironlar va urush holatlari qatnashchilariga soliqdan imtiyoz va engilliklar taqdim etish hamda soliqqa tortishning progressiv tizimi hisobiga aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni ma'lum darajada yo'qotish;

ekologik maqsad – ekologik to'lovlar va moliyaviy jarimalarning rolini kuchaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash;

nazorat maqsadi – davlat budjetiga tushumlarning o'z vaqtida va to'liq tushishini, shuningdek, soliq qonunchiligiga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida sayyor va kameral tekshirishlarni o'tkazish. Soliq nazorati tufayli olinadigan ma'lumotlar davlat tomonidan ham soliqlarning o'zini rejalashtirishda, ham mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida taktik va strategik qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi;

xalqaro maqsad – ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf qilish, bojxona to'lovlarini qisqartirish va milliy soliq tizimlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ikki va ko'p tomonlama bitimlarni tuzish orqali boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni Nazorat.

Iqtisodiyot yaxlit bo'lar ekan, iqtisodiy siyosat ham yagonadir. Iqtisodiy siyosat – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga oid puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridir. Lekin davlat siyosatining aniq yo'nalishlari bor.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa asosan iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi uchta yo'l orqali shakllanadi:

1) ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog'ozlar bilan tovon to'lash orqali mulkni milliylashtirish;

2) davlat byudjeti mablag'lari hisobiga yangi korxonalar, ba'zi hollarda yaxlit tarmoqlarni barpo etish;

3) davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aktsiyalarini sotib olish va aralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish.

Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi harid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo'ladi.

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor:

1. Qayta moliyalashtirish yoki hisob siyosati. Bunda davlat nomidan markaziy banklar uchyot stavkasini o'zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo'lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o'zgartirib, uning o'sishiga ta'sir etadi.

2. Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati. Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib, firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat to'laydi, bu bilan ularning daromadlilik kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda pul ulardan bo'shab, muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori ko'payadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. **Majburiy rezerv siyosati.** Bu siyosatga binoan markaziy banklar boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy rezervini kiritadi. Bu tartibga ko'ra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini markaziy banklar ixtiyoriga beradi. Bu rezerv oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi. Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxira o'tkazilsa, kredit uchun 72 mlrd. dollar qoladi. Bordi-yu bu zaxira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd. dollar qoladi. Bu bilan kreditga mo'ljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab, kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qo'llaniladi.

Monetar siyosat ikki xil bo'ladi:

1) **qattiq siyosat.** Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat ilgari ta'kidlaganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani keskin susaytirish uchun qo'llaniladi;

2) **yumshoq monetar siyosat.** Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallada bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Iqtisodiy siyosat, davlatning iqtisodiy siyosati, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy siyosatning strategik maqsadi, iqtisodiy siyosatning taktik maqsadi, davlat siyosatining iqtisodiy vositalari, davlat siyosatining siyosiy-ma'muriy vositalari, iqtisodiy siyosat, monetar siyosat, qattiq monetar siyosat, yumshoq monetar siyosat

Nazorat uchun savollar

1. Monetar siyosat nima?
2. Monetar siyosatning qanday asosiy jihatlari bor?
3. Qattiq va yumshoq monetar siyosatning farqi nima?
4. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
5. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
6. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.

7. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiysi hisoblanadi?

8. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o‘rin tutadi?

9. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida qanday ilmiy maktab va yo‘nalishlar vujudga kelgan?

10. Iqtisodiyot nazariyasining qanday vazifalari mavjud? Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?

III BOB. IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQUISHDA VOSITALAR VA CHEKLOVLAR

3.1. Formal va noformal institutlar hamda iqtisodiy siyosat sohasidagi yechimlar.

Iqtisodiy siyosatda davlat mulking o‘rni va ahamiyati masalasi. Iqtisodiy siyosat usullarining tasnifi. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun barcha ta'sir choralari ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilish choralari. Bu usullarda iqtisodiyot sub'ektlari mustaqil ravishda emas, balki davlat ko‘rsatmasi bo‘yicha qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi. Misollar: soliq qonunlari, amortizatsiya qoidalari, davlat investitsiyalari uchun byudjet tartiblari.

Bilvosita ta'sir choralari. Bu usullarning mohiyati shundan iboratki, davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi. U faqat iqtisodiyot subyektlariga iqtisodiy siyosat maqsadlariga mos keladigan iqtisodiy qarorlarni mustaqil tanlash uchun sharoit yaratadi.

Tashkiliy va institutsional mezonlarga asoslangan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining yana bir tasnifi mavjud. Ushbu yondashuv bilan quyidagilar mavjud: ma'muriy, iqtisodiy va institutsional usullar.

2. Ma’muriy choralalar. Tartibga solish harakatlarining ma’muriy choralari yig‘indisi huquqiy infratuzilma bilan ta'minlanadi. Ma’muriy chora-tadbirlarning asosiy vazifasi jamiyatda barqaror, qonunga asoslangan muhitni ta'minlashdan iborat: mulk huquqini saqlash, raqobat muhitini himoya qilish, erkin tanlash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ta'minlash.

Ma’muriy choralalar, o‘z navbatida, taqiqlash, ruxsat berish, majburlash choralariga bo‘linadi.

3. Iqtisodiy chora-tadbirlar. Iqtisodiy chora-tadbirlarga davlatning iqtisodiy dastaklari yordamida bozor munosabatlariga ta'sir ko‘rsatadigan harakatlari kiradi. Bu chora-tadbirlar deganda yalpi talabga, yalpi taklifga, kapitalning markazlashuv darajasiga, iqtisodiyotning ijtimoiy va tarkibiy jihatlariga ta'sir ko‘rsatishning turli usullari tushuniladi.

Iqtisodiy chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- moliyaviy siyosat
- byudjet siyosati;
- fiskal siyosat;
- pul-kredit siyosati;
- iqtisodiy prognozlash, rejalashtirish va dasturlash.
- Institutsional chora-tadbirlar

Institutsional chora-tadbirlar muayyan davlat institutlarini yaratish, saqlash va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, "muassasa" ijtimoiy odatlar guruhini yaxshiroq tavsiflash uchun ogʻzaki belgi sifatida tushuniladi. Institutlarning mavjudligi jamiyatda ma'lum ijtimoiy guruhlar uchun odat yoki xalq uchun odat boʻlib qolgan hukmron va barqaror fikrlash yoki xatti-harakatlarning mavjudligini anglatadi. Misollar: "huquq instituti", "mulk instituti".

Institutsional shakllarni taqsimlashning turli xil variantlari:

- bevosita vazifasi hukumat maqsadlarini amaliy amalga oshirish boʻlgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tuzilmasi;
- iqtisodiyotning davlat sektori ob'ektlarini, ya'ni davlat mulkini shakllantirish va saqlash;
- milliy iqtisodiy dasturlar va iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish;
- iqtisodiy tadqiqot markazlari (turli mulkchilik shakllariga ega), iqtisodiy axborot institutlari, savdo-sanoat palatalari, turli xo'jalik kengashlari va birlashmalarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy muammolar bo'yicha maslahatchilar, maslahatchilar, ekspert kengashlari institutlari faoliyatini ta'minlash;
- nodavlat tuzilmalarni: biznes va kasaba uyushmalarini huquqiy, axborot bilan ta'minlash;
- iqtisodiy integratsiyaning turli shakllarida ishtirok etish, iqtisodiy masalalar bo'yicha muntazam xalqaro uchrashuvlar tashkil etish (G7, G8, G20, APEC va boshqalar).
- Iqtisodiy siyosatni amalga oshirish davlatning iqtisodiyotga ta'sir etish mexanizmini tashkil etuvchi chora-tadbirlar, vositalar majmuasidan foydalanishni nazarda tutadi.

Proteksionizm (fr. protectnisme, lot. protect — himoya, homiylik) — davlatning chetdan keltiriladigan tovarlar importini vaqtincha cheklash va shu kabi mahalliy tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashqi savdo siyosati. Proteksionizmning maqsadlari, masalan, yalpi milliy daromadning o'sishi, bandlikni oshirish, ijtimoiy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasida proteksionistik ta'limot erkin savdo – erkin savdo doktrinasiga qarama-qarshidir. Proteksionizm tarafdorlari erkin savdo doktrinasini milliy ishlab chiqarishning o'sishi, aholi bandligi va demografik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi nuqtai nazaridan tanqid qiladilar. Proteksionizm muxoliflari uni erkin tadbirkorlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, aholi hayotini yomonlashtirish va iqtisodiy o'sishni sekinlashtirish nuqtai nazaridan tanqid qilishadi.

Proteksionistik siyosat

Iqtisodiy siyosatning umumiy maqsadlariga erishish uchun proteksionizm bir qator cheklovchi choralardan foydalanadi:

- import bojxona to'lovlari (bojxona siyosati);
- import kvotalari va savdo embargolari;
- tovarlar va xizmatlar xavfsizligini sertifikatlash tizimi;
- intellektual mulk, patentlar va mualliflik huquqini himoya qilish;
- ma'muriy to'siqlar: byurokratik taqiqlar, tasdiqlashlar, bojxona tartiblari;
- eksportni ixtiyoriy cheklash;
- texnik to'siqlar: qadoqlash, yorliqlash, mahsulotni standartlashtirish, sanitariya va veterinariya shakllari bo'yicha majburiy ma'lumotlar;
- tovar va xizmatlar eksportida ishtirok etuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar: imtiyozli kreditlash, bir qator xarajatlarni qoplash, imtiyozli soliqqa tortish;
- ichki bozor uchun tovar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar;
- eksport qiluvchilar uchun grantlar va rag'batlantirishning boshqa shakllarini taqdim etish;
- valyuta nazorati: ayirboshlash operatsiyalariga cheklovlar, kapital nazorati;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli kreditlar va kreditlar berish;
- xorijiy ishchilar va investorlarga nisbatan diskriminatsiya;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilardan tovar va xizmatlar sotib olgan iste'molchilarga subsidiyalar;
- valyuta kursiga intervensiya: milliy valyutaning qadrsizlanishi;
- "faqat mahalliy sotib ol" shaklida siyosiy vatanparvarlik kampaniyalarini o'tkazish;
- tijorat tenderlarida mahalliy tovar va xizmatlarga imtiyozlar berish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari va faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan davlat xaridlari.

Proteksionizmning afzalliklari.

Proteksionizm tarafdorlarining fikricha, u mamlakat sanoatining rivojlanishiga, uning barqaror iqtisodiy o'sishiga va pirovardida boy davlatga aylanishiga yordam beradi, erkin savdo esa sanoatning yo'q bo'lib ketishiga, iqtisodiy tanazzulga va qashshoqlikka olib keladi, ayniqsa, agar u mamlakatga joriy qilingan bo'lsa, sanoat rivojlanishining past darajasi bilan. Ushbu iqtisodchilar o'z fikrlarini qo'llab-quvvatlash uchun proteksionistik siyosat olib borgan mamlakatlarning sanoatlashuvi va gullab-yashnashining ko'plab misollariga va erkin savdo (erkin savdo) siyosatini olib borgan mamlakatlarning industrializatsiyasi va qashshoqlashuviga teskari misollarga murojaat qiladilar. Ushbu iqtisodchilarning fikriga ko'ra, mamlakat yetakchi kuchlardan qanchalik

orqada qolsa, shunchalik ko'p. uning raqobatbardoshligini pasaytiradigan iqlimiy va geografik kamchiliklar (qattiq iqlim, aholining past zichligi, asosiy transport yo'llaridan uzoqligi), milliy sanoatni rivojlantirish yo'lidagi proteksionistik to'siqlar shunchalik yuqori bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ushbu iqtisodchilarning fikriga ko'ra, quyidagi maqsadlarga erishish uchun cheklovchi choralar kiritiladi:

- sanoatni modernizatsiya qilish davrida nafas olish, mahsulot hayotiy tsiklining dastlabki bosqichida boshlang'ich sanoat yoki mahsulotni qo'llabquvvatlash;

- Milliy xavfsizlikni ta'minlash: milliy mudofaa bilan bog'liq tarmoqlarni saqlab qolish;

- mamlakat iqtisodiyotining o'zini-o'zi ta'minlash va uning barqarorligini ta'minlash shaklida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

- barqarorlik, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini Nazorat maqsadida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

- mamlakat aholisining bandlik darajasini oshirish va himoya qilish, arzonroq xorijiy ishchi kuchidan himoya qilish;

- dempingdan himoya qilish: raqobatchini yo'q qilish yoki monopol mavqeini o'rnatish maqsadida xorijiy davlatga qiymatidan past tovarlarni demping qilgan mamlakatlardan;

- to'lov balansini yaxshilash, importning qisqarishi hisobiga tashqi savdo taqchilligini kamaytirish;

- mamlakat davlat byudjeti daromadlarini bojxona to'lovlari hisobiga to'ldirish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo'shimcha foydasi hisobidan mahalliy byudjet daromadlarini to'ldirish;

- xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan nomukammal raqobatdan yo'qotishlarni kamaytirish;

- davlat organlari tomonidan nazorat qilinadigan ishlab chiqarish mahsulotlarini sotish orqali fuqarolarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash.

3.2 Demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir (Konstitutsiyaning 117-moddasi). Fuqarolar ushbu huquq orqali davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali davlarning eng muhim siyosiy masalalarini muhokama qilish va hal etishda faol ishtirok etadilar (Konstitutsiyaning 32-moddasi). Saylov huquqi- fuqaroning saylovdagi ishtiroki, vakillik organlariga saylash va saylanish kabi sub'ektiv huquqini ta'riflab berish uchun ishlatiladi.

Bu borada aktiv saylov huquqi bilan passiv saylov huquqini bir biridan farq qilish kerak. Aktiv saylov huquqi fuqaroni saylash, vakillik organlarini saylashga bevosita qatnashish huquqini bildiradi. Passiv saylov huquqi- saylanish huquqidir.

Professor A. Saidov ta'kidlashicha "Saylov huquqi" tushunchasi va ifodasi ikki ma'noda ishlatiladi deb izohlaydi. Birinchisi, bu saylov huquqi saylab qo'yiladigan davlat organlarini shakllantirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimidir. Saylov huquqlarini manbalari Konstitutsiya, davlatning oliy va mahalliy vakillik organlariga saylovlar qonunlardir. Ikkinchisi, bu saylov huquqi fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarini tuzishda qatnashish, ya'ni unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tartibini saylash (faol saylov huquqi) huquqlaridir.

Siyosiy raqobat - jamiyatning tashkiliy darajasini belgilovchi, bevosita yagona siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayoni yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi quruhlarning siyosiy imkoniyatlari ko'rsatkichidir.

Siyosiy raqobat saylovoldi kurash jarayonining muhim tarkibiy qismidir.

Partiyalar raqobati sharoitida konstruktiv umumiy platforma namoyon bo'ladi, deputatlikka eng munosib nomzodlar ko'rinadi, parlamentning deputatlik korpusi shakllanadi.

Siyosiy partiyalarning qarama-qarshiligi har doim jamiyat va fuqarolar uchun madaniyat, bilim, dunyoqarash, bag'rikenglik sohasida jiddiy sinov bo'lib kelgan.

Siyosiy ambitsiyalar qanchalik kuchli bo'lsa, partiyalarning o'z harakatlari va ishlari uchun javobgarligi shunchalik yuqori bo'lishi kerak. Zamonaviy xalqaro saylov standartlari deputatlikka nomzodning saylovchilar va boshqa nomzodlar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari majmuini belgilaydi.

Islohotlarning ko'lami ko'ppartiyaviylik va partiyalar o'rtasidagi erkin raqobatga o'tishda namoyon bo'ldi, bu esa ushbu jarayonning bevosita ishtirokchisi sifatida elektorat yuqori darajadagi siyosiy va huquqiy madaniyatni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muhim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekistonning 25 yoshga to'lgan fuqarosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatiga yoki Senati a'zolariga saylanishi mumkin. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Davlat organlari o'zining tuzilish tartibi jihatidan turli xususiyatlarga egadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlatning ba'zi organlari saylanadi, boshqalari tuziladi. Davlat hokimiyati organlariga o'tkaziladigan saylovlar demokratik asosda o'tkaziladi. O'zbekistonda ildiz otib

borayotgan demokratiya jahonda tan olingan demokratik an'analarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu demokratiya hech qanday milliy, irqiy va boshqa cheklashlarni bilmaydi. Shu bilan birga, davlat organlarini saylash va tuzish tartibi ularning qaysinisining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat vakillik organlariga saylovlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonunlar tashkil qilinadi va o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq o'z oldiga insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish vazifasini qo'ydi va bu vazifa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasigada e'lon qilindi. Konstitutsiya O'zbekiston- suveren demokratik respublika ekanligini, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishini, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini mustahkamlab qo'ydi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy siyosiy huquqlaridan biri sifatida fuqorolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi nazarda tutilgan. Chunonchi, Konstitutsiyaning 32-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini- o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashlik etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Saylov xalqning irodasini ifoda etish shaklidir, uning natijasida davlat hokimiyatining vakillik organlari shakllanadi. Saylov huquqining demokratik ekanligini va erkinligi yangidan shakllantirilgan davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir o'tkazadi. Saylov huquqi har bir davlatda uning tarixiy an'analari, siyosiy tizim xarakteri, elektorat xulqi va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan o'z xususiyatlariga ega. Shu bilan birga, demokratik davlatlarda saylov huquqi xalqaro-huquqiy hujjatlarda ifodalangan va umume'tirof etilgan printsiplarga asoslanadi. Ular qatoriga saylov huquqining umumiyliigi va tengligi, yashirin ovoz- berish va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi saylov huquqining asoslarini belgilab beradi. Konstitutsiyaning 117-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadir. Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi bo‘lish mumkin. Qaraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputatlari uchun yigirma besh yoshga to‘lganlik , xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashilari deputatlari uchun esa yigirma bir yoshga to‘lganlik talab etiladi.

Sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Saylov umumiy, teng va to‘g‘ridan –to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida saylovlar ko‘p partiyaviylik qoidasi asosida amalga oshiriladi. Chunonchi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (quyi palata) bir yuz ellik deputatdan iborat bo‘ladi. Qonunchilik palatasining bir yuz ellik deputatdan iborat bo‘ladi. Qonunchilik palatasining bir yuz o‘ttiz besh deputati hududiy bir manfaatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘p partiyaviylik asosida saylanadi.

Qonunchilik palatasining o‘n besh deputati O‘zbekiston Ekologik harakatidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qaraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi.

2023 yil qabul qilingan “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun xalqaro huquqning umume’tirof etilgan printsiplari va normalari asosida inson huquq va erkinliklari kafolatlarini ta’minlash hamda siyosiy hayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha javxalarini izchil erkinlashtirishni milliy qonunchilikni takomillashtirishga doir ishlarning asosiga qo‘yilgan asosiy printsiplar, deb e’lon qildi. O‘zbekiston Respublikasida saylovchilar o‘z xohish- irodasini erkin bildirish va yashirin ovoz berish huquqiga egadir.

Ayrim mamlakatlarda (Avstraliya, Belgiya, Gretiya) saylovlarda ishtirok etish majburiydir, ya’ni fuqarolar saylovda ishtirok etmaganlik uchun javobgarlikka tortiladi. Mamlakatimizda uchastka saylov komissiyalari ovoz berishni maxsus

ajratilgan binolarda tashkil etib, fuqarolarga xohish-irodalarini erkin va yashirin ravishda bildirish imkoniyatini yaratadilar. Saylovchilarning xohish-iroda bildirishlarini nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Saylov kuniga qadar yoki saylov kuni 18 to'ladigan, tegishli saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari saylovchilar ro'yxatiga kiritilish huquqiga egadirlar. Saylovchilarga uchastka saylov komissiyasining binosiga saylovchilar ro'yhati bilan oldindan tanishib chiqish imkoniyati ta'minlanadi. Saylovchilar ro'yxatidagi xato va noaniqliklar to'g'risida saylov komissiyalariga arz qilish huquqiga ega. Uchastka saylov komissiyasi yigirma to'rt soat ichida bunday arizani ko'rib chiqishi hamda xatoni tuzatishi yoki arizachiga uning arizasi tarzda rad etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma berishi shart.

Butun saylov kampaniyasi keng oshkoralik asosida o'tkaziladi. Tegishli saylov komissiyalarining saylov okruglari va uchastlarini tuzish, saylov komissiyalarining tarkibi to'g'risidagi, shuningdek, deputatlikka nomzodlarni ro'yhatga olish, ovoz berish, va saylov yakunlari haqidagi qarorlari matbuotda e'lon qilinadi. Saylovchilar saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va ayrim nomzodlarning kelgusi faoliyat dasturi bilan tanishish huquqiga egadirlar.

Saylov kuni o'z turar joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilar oldinroq ovoz berish huquqiga egadirlar. Bunday hollarda tegishli uchastka saylov komissiyasi saylovchilarning talabiga ko'ra, belgilangan shaklda bo'lgan, deputatlikka nomzodlar to'g'risida tegishli ma'lumotlar qayd etilgan saylov varaqlarini beradi. Salomatligining holati yoki boshqa sabablarga ko'ra ovoz berish binosiga kela olmaydigan saylovchilar uchastka saylov komissiyasiga tegishli iltimos bilan murojaat etish huquqiga ega. Komissiya ovoz berishni ana shu saylovchilar turgan joyda tashkil etishi shart.

O'zbekiston fuqarolar saylov huquqlari kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiqligi ta'minlangan. Bunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro- huquqiy hujjatlari alohida o'rin egallaydi. Masalan, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasiga muvofiq, xalq irodasi davlat hokimiyatining yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar voitasida o'tkazilgan saylovlarda o'z shaxsini topishi lozim. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan saylov huquqining demokratik asoslari erkin va demokratik saylovlarning mustahkam poydevor bo'lib, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda ishtirok etish huquqini amalga oshirishdag xizmat qildi va mamlakatning asosiy maqsadiga erishish demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Demokratiya (“xalq hokimiyati”) — barcha insonlar tenglik asosida va jamoaviy holatda qaror qabul qilish orqali jamiyatni boshqaradigan boshqaruv tuzumi. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda oʻrnatilgan va yuzaga chiqarilgan boʻladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Shuningdek, demokratiya markaziy va mahalliy vakillik muassasalari, saylash va saylanish, qonuniylik tamoyillarini, turli partiyalar, jamoat tashkilotlarining amal qilishini taqozo etadi.

Demokratiyaning mohiyatini ochib berish uchun siyosatchilar quyidagi fikrlarni ilgari surganlar.

Ronald Reygan: “Demokratiya qurbon boʻlishga arziydi. Chunki u insonni sharaflaydigan davlat tuzumidir”.

Uinston Cherchil: “Demokratiya davlat boshqaruvining eng yomon shaklidir, biroq insoniyat shu vaqtga qadar undan yaxshirogʻini yarata olgani yoʻq”.

Demokratiyaning tarixiga nazar tashlasak, uning ildizlari Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Qadimgi Yunonistonda «demokratiya» atamasi teng huquqli fuqarolar yigʻini, fuqarolarning asosiy qismi maʼnolarida qoʻllanilgan. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda bu gʻoya Afinada oʻz mumtoz shakliga ega boʻlgan.

V asrning boshidan beri, yaʼni davlat lavozimlarini egallash uchun mulkiy cheklanishlar bartaraf etilgandan soʻng afinalik barcha fuqarolar qonunlarni muhokama qilish, ularga ovoz berish va hamjamiyat siyosatni ishlab chiqish jarayonida shaxsan ishtirok etish huquqidan foydalanganlar. Shuningdek, ular rotatsiya (almashinuv) tamoyili asosida egallanadigan lavozimlar, sud va maʼmuriy qoʻmitaga aʼzolik, boshqaruvda qatnashish huquqidan ham foydalanganlar. Shu paytdan beri ushbu misol demokratlar uchun ilhom manbai va tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar demokratik boshqaruv haqida turli-tuman nazariya va yondashuvlar shakllangan. XVIII-asrdan boshlab AQSh va Yevropada “demokratiya” keng quloq yozganligi tufayli, amerikalik maʼrifatparvar, davlat arbobi boʻlgan Benjamin Franklin demokratiyani «chiqib kelayotgan quyosh» deb taʼriflagan edi. Demokratiya tushunchasi turli davrlarda turli joylarda turli odamlar uchun oʻzlarining manfaatlariga mos ravishda turli maʼnolarni anglatgan. Amerikaparastlar “adolatli boshqaruv” sifatida, Adolf Gitler kabi totalitar tuzum vakillari esa “ahmoqlar ishi” sifatida eʼtirof etganlar. Rossiya olimlari V.P.Pugachyov, A.I.Solovyovlar boʻlsa demokratiyani rahbarlikka imkoniyatlari bor fuqarolarning raqobatchilik asosida saylovchilar ishonchlarini qozonish orqali boshqarish uslubi deb taʼriflaydilar.

Saylov insoniyat o‘ylab topgan, hokimiyat vakolatini vujudga keltiruvchi eng qadimiy usullardan hisoblanib, u demokratiyaning yorqin ifodasi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokining muhim shakli, davlat boshlig‘i, vakillik organlarini (qonunchilik organini) vujudga keltirishning asosiy vositasidir. Vujudga kelib, qo‘llanila boshlagandan to hozirgacha saylovlar takomillashib keldi va hamma joyda bir nechta ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelmoqda.

Birinchiidan, saylovlar mavjud hokimiyatning legitimligini ta‘minlaydi, bu aholi saylov natijasidagina vujudga kelgan hokimiyat tuzilmalarinigina tan olib, ularning ko‘rsatmalarini ixtiyoriy bajarishini ta‘minlaydi.

Ikkinchiidan, jamiyatdagi turli siyosiy kuchlar nisbatini aniqlash imkonini beradi, bu qaysi siyosiy kuch nimaga qodirligini, aholi nimani ma‘qul ko‘rishini, kimga ishonishini bildiradi.

Uchinchiidan, siyosiy hokimiyatni, siyosiy boshchilarni, siyosatchilarni tinch yo‘l bilan almashishini ta‘minlaydi, bu – hokimiyatga yangi kuchlar kelishi, ishonchni oqlamagan shaxslar, vakillik organlarining a‘zolari siyosat maydonidan chiqishi, ularning o‘rniga yangilari kelishi demakdir.

To‘rtinchiidan, xalq suverenitetini, demokratik siyosiy rejimni ta‘minlab, siyosiy elitani aholi nazoratida bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu degani har bir yangi saylov davrida avval saylanganlar saylovchilar oldida hisobot berishini ta‘minlashni bildiradi.

3.3. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklovlar.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo‘liga ma‘lum to‘siqlar qo‘yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat iste‘mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni osliirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi. Iqtisodiy raqobatga bardosh bo‘lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o‘rnatish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta‘minlovchi standartlarni o‘rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta‘sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maqsadlarga muvofiq uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asoslangan.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati deganda, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat

tushuniladi. Hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish siyosatida ikki yo‘nalishi bor:

- 1) erkinlashtirish;
- 2) proteksionizm.

Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosat proteksionizm deyiladi. Erkinlashtirish - davlatning tashqi savdoda iqtisodiy va ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatidir. Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi har qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti.

Bu jarayon uch xil ko‘rinishda amalga oshirilayapti:

- alohida mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o‘rtasida;
- tariflar va savdolar Bosh bitimi (GATT). Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMTning konferensiyalari (YuNKTAD), BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EIK) doirasida ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora tadbirlar yig‘indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihati jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sir ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valuta siyosati, bojxona siyosati kiradi

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faohyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayirboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosat lari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo‘yicha davlatning eksport siyosati, deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulddami jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga yonaltirilgan chora- tadbirlar tushuniladi.

Eksport qiluvchi korxonalarini rag‘batlantirishda davlat byurtmalari. budjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish.

Tashqi savdo bo‘yicha davlatning import siyosati, deganda mamlakatga xarijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelinishini tartibga solishga yo‘naltirilgan choratadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to‘g‘ridan to‘g‘ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash,

importga oid antidemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Valyuta siyosati davlat va xalqaro valuta moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl va usullar yig'indisini tashkil etadi. Valyuta siyosati davlatning valuta mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'lib. valuta mablag'larini shakllantirish va ishlatishining asosiy yo'nalishlarini hamda bunday mablag'lardan samarali foydalanishga yo'natirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Valyuta siyosatining amal qilish sohasi bo'lib valuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi. Davlatning valuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga bo'linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat to'lov balansi muvozanatini ta'minlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Diskont siyosati investitsiyalar harakatlarini tartibga solish va to'lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu siyosat pul talabi holatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Deviz siyosati valuta intervensiyasi va valuta cheklashlari yordamida valutani xarid qilish va sotish bilan valuta kursini tartibga solish tizimi hisoblanadi. Valuta intervensiyasi Markaziy bankning xorijiy valutaning oldi sotdisi bo'yicha maqsadli operatsiyalari bo'lib, u milliy valuta kursi dinamikasini uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko'zlaydi. Valuta cheklashlari milliy va xorijiy valuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chora-tadbirlar majmuyidan iborat. Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi impoiti siyosatlariga bo'linadi.

Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko'chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki taqiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan choratadbirlar yig'indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo'shimcha valuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Turli nazariyalar turli iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning sabablarini turlicha tushuntiradi. Ularni ikkita asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin:

geografik va institutsional. Ular nega ba'zi mamlakatlar yuqori o'sish sur'atlariga erishayotganini, boshqalari esa turg'unlik yoki pasayishni turli yo'llar bilan tushuntiradi.

Geografik gipotezaga ko'ra, mamlakatlarning rivojlanish darajasidagi farqning asosiy sababi atrof-muhitning farqi yoki boshqacha aytganda, geografik joylashuvi va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligidir. Biroq shunday mamlakatlar borki, ularda tabiiy resurslar mavjud emas, geografik joylashuvi esa, masalan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay emas. Lekin ular rivojlanishning yuqori darajasini ko'rsatadi. Masalan, Yaponiyada tabiiy resurslar deyarli yo'q va hududning ko'p qismini past va o'rta balandlikdagi tog'lar egallaydi. Shu bilan birga, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda Yaponiya YaIM bo'yicha jahon reytingida 3-o'rinni egalladi. Ushbu misoldan biz rivojlanishni belgilovchi boshqa, muhimroq omillar bor degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Institutsional gipoteza ijtimoiy tashkilot va institutsional muhitga yo'naltirilganlikni fundamental sabablar, "o'yin qoidalari" ni belgilovchi omil sifatida belgilaydi.

Institut tushunchasi lotincha institutum – muassasa ma'nosini bildiradi.

Institutlar bu qoidalar plyus Sanksiya (lot. sanctio dan - eng qat'iy qaror): Sanksiya - bunday normada mavjud bo'lgan qoidani buzgan shaxs uchun salbiy oqibatlarni nazarda tutuvchi huquqiy normaning elementi. Sanksiya - bu huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan va unga salbiy oqibatlarga olib keladigan ta'sir chorasi.

Institutlarning ahamiyati ortib, mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish va turli xil rivojlanishdagi farqlarni keltirib chiqardi.

Institutlar deganda odamlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro munosabatlarini tuzadigan va belgilovchi cheklovlar tushuniladi.

Iqtisodiy institutlar jamiyatda iqtisodiy rag'batlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu esa ma'lum iqtisodiy natijalarga erishish imkonini berdi. Masalan, rasmiy institutlar orqali inson va jismoniy kapitalga investitsiyalarni yoki ishlab chiqarish jarayoniga iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, rasmiy va norasmiy institutlarning jamiyatda qanday bog'liqligini va qanday hollarda norasmiy institutlar rasmiylarga qaraganda iqtisodiy sub'ektlarning harakatlariga kuchliroq ta'sir qilishini tushunish kerak.

Rasmiy va norasmiy institutlar tasnifini AQSH iqtisodchisi D. Nort ishlab chiqqan, u institutlar o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatadigan ikkita mezonni belgilab berdi: rasmiylashtirish darajasi(yozilgan va yozilmagan), yuzaga kelish va o'zgarish yo'li. Rasmiy institutlar tegishli norma va qoidalarni qonunlashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha maqsadli harakatlar natijasidir. Konstitutsiyalar,

kodekslar, qonunlar, qarorlar rasmiy institutlarga misoldir. Rasmiy institutlarning asosiy xususiyatlari orasida qat'iy ierarxiya mavjud: rasmiy institutlarning keyingi (yuqori) darajasini o'zgartirish avvalgisiga qaraganda ancha qiyin.

Norasmiy institutlar - bu jamiyatda shakllangan odamlarning o'zaro munosabatlari qoidalari va usullari, urf-odatlar, an'analari, stereotiplari va xatti-harakatlari. Shuni ta'kidlash kerakki, norasmiy institutlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va o'zgarishlarga kamroq moyil bo'ladi.

Rasmiy institutlar qisqa vaqt ichida tegishli siyosiy, iqtisodiy, huquqiy qarorlar amaldagi qonunchilikda o'z ifodasini topgan o'zgarishlar qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, o'rnatilgan urf-odat va an'analarda mujassamlangan norasmiy cheklovlar siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan kichik ijtimoiy guruhlarining insoniy harakatlariga kamroq bog'liqdir.

Rasmiy va norasmiy institutlar tasnifini D. Nort ishlab chiqqan, u institutlar o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatadigan ikkita mezonni belgilab berdi: rasmiylashtirish darajasi (yozma), yuzaga kelish va o'zgarish yo'li. Rasmiy institutlar tegishli norma va qoidalarni qonunlashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha maqsadli harakatlar natijasidir. Konstitutsiyalar, kodekslar, qonunlar, qarorlar rasmiy institutlarga misoldir. Rasmiy muassasalarning asosiy xususiyatlari orasida qat'iy ierarxiya mavjud: rasmiy institutlarning keyingi (yuqori) darajasini o'zgartirish avvalgisiga qaraganda ancha qiyin.

Norasmiy institutlar - bu jamiyatda shakllangan odamlarning o'zaro munosabatlari qoidalari va usullari, urf-odatlar, an'analari, stereotiplari va xatti-harakatlari. Shuni ta'kidlash kerakki, norasmiy institutlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va o'zgarishlarga kamroq moyil bo'ladi.

Rasmiy institutlar qisqa vaqt ichida o'zgartirilishi mumkin, Ya'ni tegishli siyosiy, iqtisodiy, huquqiy qarorlar qabul qilinishi amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlarda o'z ifodasini topadi.

Shu bilan birga, o'rnatilgan urf-odat va an'analarda mujassamlangan norasmiy cheklovlar siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan kichik ijtimoiy guruhlarining insoniy harakatlariga kamroq bog'liqdir.

Rasmiy institutlar amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan va mustahkamlanganligi sababli, institutsional muhitni ko'rib chiqishda ular ko'pincha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, norasmiy institutlarning xatti-harakatlarga ta'siri bir qancha kuchli bo'lishi mumkin, ammo ular ko'pincha tahlilda e'tibordan chetda qoladilar.

Norasmiy institutlarning iqtisodiy farovonlikka ta'sirini birinchilardan bo'lib o'z ishida M. Veber ko'rib chiqdi.

"Protestant axloqi (etikasi) va kapitalizm ruhi" asarida kapitalizmning paydo bo'lishi din bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi tezisni ilgari surdi.

Protestantlar Xudo tomonidan tanlangan kishi moddiy jihatdan ta'minlangan bo'lishi kerak, deb hisoblashgan. Shuning uchun, har bir kishi o'zini tanlangan deb his qilishi uchun yuqori turmush darajasiga erishishga harakat qiladi.

Moddiy standartlar Xudo bilan munosabatlarda hech qanday rol o'ynamagan boshqa jamiyatlarda, odamlar ishlash, tejash va sarmoya kiritish uchun kuchli rag'batlarga ega emas edi. Shu sababli, Veberning fikriga ko'ra, AQSh, Germaniya, Angliya kabi protestantizmni qabul qilgan fuqarolar soni nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan.

B. Kuzinos o'z asarlaridan birida qonun ustuvorligi shubha ostiga qo'yilgan inqirozlar va urushlar davrida rasmiy institutlar jamiyatning normal faoliyat yuritishini ta'minlay olmagaganida norasmiy institutlar xulq-atvorga kuchliroq ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan edi. Bunga Rossiyadagi 1990-yillardagi o'tish davri yaxshi misol bo'ladi.

M. Veber "foydaga chanqoqlik" (ochko'zlik)ning ikkita tubdan farqli turi tushunchasi (kontsehsiyasi)ni ilgari surgan, ulardan biri ilgari yaratilgan boylikni qayta taqsimlash (shu jumladan o'g'irlik va talonchilik yo'li bilan) orqali boyib ketish edi.

Bu singari hodisalar qadim zamonlardan beri turli jamiyatlarda kuzatilgan. Dengiz va quruqlikdagi qaroqchilik, qaroqchi to'dalar - bularning barchasi insoniyat tarixining eng dastlabki bosqichlarida uchraydi.

O'zaro ta'sirning norasmiy mexanizmlari rasmiy qoidalar to'plamiga emas, balki odamlar o'rtasidagi ishonchga asoslanadi. Ushbu o'zaro ta'sir mexanizmida iqtisodiy va fuqarolik jamiyatidan yuqori darajadagi avtonomiya mavjud, shartnoma majburiyatlarini bajaruvchi, mulk bilan bog'liq huquqlarni himoya qiluvchi va bozorni tartibga soluvchi organ sifatida kuchli davlat mavjud emas.

Qoida tariqasida, demokratiya darajasi past bo'lgan mamlakatlar norasmiy institutsional tuzilma bilan bog'liq, demokratiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar esa qonun ustuvorligiga e'tibor qaratadi.

Shuni tushunish kerakki, agar rasmiy va norasmiy institutlarning biri boshqasining qonuniy ifodasi bo'lsa, ular faoliyatining sinergik (birgalikdagi) samarasi ancha yuqori bo'ladi.

Misol tariqasida korruptsiyaga qarshi kurash kampaniyasini keltirish mumkin. Korruptsiya norasmiy institutdir, ammo uning mavjudligidan kichik guruhlar o'z vakolatlaridan foydalanish orqali foyda ko'radi. Shunday qilib, cheklangan miqdordagi odamlar doirasi ushbu institut mavjudligidan manfaatdor.

Umuman olganda, jamiyat bu illatga salbiy baho beradi va unga duch kelishni xohlamaydi. Korruptsiyaga qarshi kurash rasman va amalda bo'lishi kerak. Bunday holda, rasmiy va norasmiy institutlarning o'zaro ta'siri sodir bo'ladi, bu esa samara ta'sirni kuchaytirishi kerak. Jamiyatning korruptsion harakatlarga nisbatan

nafratlanishiga qaramay, fuqarolar bu faktlar haqida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishni istamaydilar.

Buning sababi shundaki, jamiyatda, xususan, O'zbekistonda kimdir haqida hokimiyat organlariga xabar berish uyat hisoblanib, norasmiy qoidalar tufayli atrofdagilar tomonidan hurmat qilmaslik va ishonchsizlik holatlari bo'lishi mumkin.

Agar aksilkorrupsiya siyosati rasman va amalda olib borilsa, yangi avlod to'g'ri tarbiyalansa, norasmiy institutlar teskari ishlay boshlaydi, ya'ni mansabdor shaxslarning korrupsiyon faoliyati to'g'risida hisobot berish jamoatchilik tomonidan ma'qullanadi.

Natijada, davlat boshqaruvidagi korrupsiya darajasi pasayadi va investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishni oshirish omillaridan biri bo'ladi.

3.4 Hukumat va iqtisodiy-siyosiy siklning o'rni.

Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzilib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan ob'ektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida uzilishlar paydo bo'lishi va ularning iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo'lishi holati iqtisodiyotning siklli rivojlanishi deb ataladi.

Iqtisodiy sikl deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o'tib, o'zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr tushuniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir sikl bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz to'liqsimon harakat sifatida davom etadi. Siklli harakat iqtisodiy o'zgarishning muhim omili, makroiqtisodiy muvozanat elementlaridan biri bo'lib, milliy xo'jalik turli tarkibiy qismlarining amal qilishidagi notekislikni, uning rivojlanishidagi inqilobiy va tadrijiy bosqichlarning, iqtisodiy taraqqiyotning almashuvini aks ettiradi. Iqtisodiy sikl maxsus fazalar orqali amalga oshadi.

Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Odatda iqtisodiy siklning inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazalari ajratib ko'rsatiladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi. Iqtisodiy siklning dastlabki fazasi inqirozdan boshlanib, u ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi.

Inqirozdan keyin turg'unlik fazasi boshlanib, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta'minlansada, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo'ladi. Narxlarning pasayishi

to'xtab, ssuda foizlari pasayadi, tovar zahiralari barqarorlashadi. Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Turg'unlik fazasi davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazasida ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin-asta o'sib boradi. Narxlar ham asta ko'tarilib, ssuda foizi o'sa boshlaydi. Iqtisodiyotning bandlik darajasining ortishi va foyda hajmining tezlik bilan o'sishi jonlanish fazasining yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga imkoniyat yaratadi. yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Yuksalish fazasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga, hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi.

Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi. Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi. Biroq bu fazalar turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlanadi. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilgan iqtisodiy siklning fazalari klassik tavsifga ega bo'lib, ularni quyidagi 3.1- jadval orqali ifodalash mumkin.

3.1-jadval.

Sikllarning asosiy turlari

| Sikl turlari | Siklning davomiyligi | Asosiy xususiyatlari |
|---------------------|-----------------------------|--|
| Kitchin sikli | 2-4 yil | Zahiralar miqdori –YaMM, inflyatsiya,bandlikning tebranishi,tijorat sikllari |
| Juglar sikli | 7-12 yil | Investitsion sikl – YaMM, inflyatsiya va bandlikning tebranishi |
| Kuznets sikli | 16-25 yil | Daromad- immigratsiya- uy-joy qurilishi- yalpi talab- daromad |
| Kondrat'ev sikli | 40-60 yil | Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar |
| Forrester sikli | 200 yil | Energiya va materiallar |
| Toffler sikli | 1000-2000 yil | Sivilizatsiyalarning rivojlanishi |

Kitchin sikli - zahiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitchin (1926 y.) o'zining e'tiborini tovar zahiralaring harakat chog'idagi Moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa

to'liqlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa u siklning davomiyligini jahondagi oltin zahiralarning tebranishlari bilan bog'lab, Uni 3 yilu 4 oyga teng, deb hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko'pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

Juglar sikli - «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o'rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Frantsiya, Angliya va AQShda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan Klement Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi. Birinchi sanoat sikli 1825 yili Angliyada metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836 yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQShga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AQSH va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz, tub mohiyatiga ko'ra birinchi jaxon sanoat inqirozi bo'lgan. Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham oz davrgacha qisqargan.

AQSH va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo'lib, ulardan yettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

Kuznets sikli - ko'p hollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo'lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o'zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida, milliy daromad, iste'molchilik sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalari, hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkichlarida 20 yillik o'zaro bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini aniqlaydi. 1955 yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondrat'ev sikli - «katta to'liqlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondrat'ev katta hissa qo'shadi. Uning tadqiqoti Angliya, Frantsiya va AQShning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab oladi. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'l omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish xaqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

1-sikl: 1787-1814 yillar - ko'taruvchi to'liq; 1814-1851 yillar -pasaytiruvchi to'liq.

P-sikl: 1844-1851 yillar - ko'taruvchi to'liq; 1870-1896 yillar -pasaytiruvchi to'liq.

Sh-sikl: 1896-1920 yillar - ko'taruvchi to'liq.

Kondratev siklining davomiyligi o'rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishi hisoblanadi. Kondrat'ev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini - temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini - elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to'rtinchisini - avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotssessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo'lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasiga inflyatsiya to'loqini yoki turg'unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e'tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Sikli rivojlanishning dastlabki va asosiy fazasi inqiroz hisoblanadi. Inqiroz bir siklni nihoyasiga yetkazib, yana muqarar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatida asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funktsional shakllarida namoyon bo'ladi. Inqiroz fazasida ishlab chiqarish va bandlilik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Bu fazaning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga tushib ketishi orqali tavsiflanadi. Shunga ko'ra, iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi. Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga muqobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi.

Iqtisodiyotning o'sishi inflyatsiya, ya'ni narx darajasining asossiz ravishda keskin ko'tarilishi sababli orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo'ladiki, bunda iqtisodiy o'sish bandlilik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nushalarida turli shakllarida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini saqlaydi.

Rivojlangan tovar xo'jaligi paydo bo'lgunga qadar ishlab chiqarishning keskin qisqarishi odatda tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, toshqinlar va h.k.) yoki urushlar va ular keltiradigan vayronagarchiliklar bilan bog'liq bo'lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o'tilgan davrdan keyingi vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik tavsifni kasb etadi. Inqirozlar turli-tuman tarzda ro'y bersada, ularni umumiy, o'xshash tomonlarini nazarda tutib, guruxlarga ajratish mumkin.

1. Xo'jalik tizimida muvozanatning buzilishi miqyosiga ko'ra inqirozlarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan inqirozlarga bo'lish mumkin. Umumiy inqirozlar butun milliy xo'jalikni qamrab olsa, ikkinchisi qisman, ya'ni ayrim sohalari yoki tarmoqlardagi tanglik sifatida ro'y beradi.

Ayrim sohalardagi inqirozlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Pul-kredit sohasidagi inqiroz - mamlakat pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo'lib, bunda tijorat va bank krediti keskin qisqaradi, qimmatli kog'ozlar kursi, bank foizi tushib ketishi natijasida banklar sinib, yalpi holda bankrotlikka uchraydilar.

Valyuta inqirozi - bu milliy valyuta obro'sining tushib ketishi, bankda valyuta zahirasi tugab, milliy valyuta kursining keskin pasayishi holati hisoblanadi. Birja inqirozi - birjada qimmatli kog'ozlar kursining tezda tushib ketishi, ularni emissiya qilishning qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlik, tanglik holati.

Atrof- muhitni, eng avvalo inson sog'lig'ini yo'qotish, umrini qisqartirishga olib keladigan darajadagi vaziyatni vujudga kelishida ifodalanuvchi inqiroz ekologik inqiroz deyiladi. U sanoatning shiddatli tarzda o'sishiga yo'l qo'ymaydi.

Tarmoqlar inqirozi - milliy xo'jalikning biron-bir tarmog'ini qamrab, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi yoki normal xo'jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beruvchi inqiroz. Ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklar oqibatida kelib chiquvchi inqirozlar tarkibiy inqirozlar deyiladi.

Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, bayramlar arafasidagi harid qilish, iste'molchilik tovarlarining faollik sur'atida, asosan chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib keladi. Qishloq xo'jaligi, avtomobil' sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi.

Iqtisodiy faollik iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tamoyillarga, ya'ni uzoq muddatli davr, masalan, 25, 50 yoki 100 yil davomida iqtisodiy faollikning ortishi yoki pasayishiga bog'liq. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda (masalan AQSH) uzoq muddatli tamoyil sezilarli iqtisodiy o'sish bilan tavsiflansa, boshqalari uchun iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi xos. Iqtisodiy faollikning tebranishini tushuntiruvchi ko'plab qarashlar mavjud bo'lishiga qaramasdan ko'pchilik iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlik darajasini bevosita aniqlovchi omil umumiy yoki yalpi sarflar darajasi hisoblanadi, deb tasdiklaydi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi. Agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1). Qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zahiralarning to'planishi;

2). narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarning kamayishi;

3). fermerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lgan, ularning karpitalining ortishi;

4). qishloq aholisi o'rtasida ishsizlarning ko'payishi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, agrar inqirozlar o'ziga xos tavsif kasb etadi. Agrar inqirozlar sanoat sikllariga qaraganda odatda ancha uzoqroqqa cho'zilib boradi. Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o'rtasigacha davom etgan edi.

Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920 yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishiga qadar davom etdi. Uchinchi agrar inqiroz 1948 yildan boshlanib, 80-yillargacha davom etdi. Agrar inqirozlarning cho'zilib ketishining asosiy sabablari quyidagilar:

a). yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida, u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishni taqozo etadi;

b). yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz sur'atda o'sib borishi. Yer rentasining, avvalo absolyut rentaning ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi;

c). ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarining mavjud bo'lishi.

Mayda ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni asosan o'zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalarini topish maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qishartira olmaydilar. Tirikchiliklarini o'tkazish va ijara xaqini to'lash uchun ishlab chiqarishni ilgarigi miqyoslarda olib boraveradi. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarishni yana ham ko'paytirib yuboradi.

Iqtisodiyotda muvozanatning buzilishini muntazam yoki aksincha tarzda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlarga ajratish mumkin.

Davriy inqirozlar ma'lum vaqt mobaynida takrorlanib turadi.

Oraliq inqirozlar to'liq sikl buyicha yuz bermaydi. Siklning biron-bir fazasida to'xtatiladi. Ular nisbatan uncha chuqur bo'lmay, qisqa muddat davom etadi.

Nomuntazam inqirozlar biron-bir alohida sabablarga ko'ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat, sel, to'fon, qurg'oqchilik tufayli iqtisodiyotda tang ahvolga tushishi mumkin.

Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra inqirozlar ikkiga: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlariga bo'linadi. Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi turli naf keltiradigan ne'matlarni ko'p ishlab chiqarish, lekin ularni to'la sota olmaslikda namoyon bo'ladi. Taqchil ishlab chiqarish inqirozi davrida muvozanat buzilib, yetishmovchilik natijasida tang ahvol kelib chiqadi. Shunday qilib, iqtisodiyotning tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Mulk, davlat mulki, munitsipal mulk, davlat tadbirkorligi, davlat mulkining iqtisodiyotni tartibga solinishiga ta'siri, davlat tadbirkorligining bozorga ta'siri, davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish, davlat mulkini xususiyashtirish, mulkni ijaraga berish, investitsion majburiyat asosida mulkni xususiyashtirish.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat mulki nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Davlat mulki iqtisodiyotni tartibga solishda qanday rol o'ynaydi?
3. Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat tadbirkorligi iqtisodiyotni tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishning mohiyati nimadan iborat?
6. Davlat mulkini xususiyashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. O'zbekistonda davlat mulkini xususiyashtirishdan ko'zlangan maqsadlar nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda davlat mulkini xususiyashtirish jarayonlari qanday amalga oshirildi?
9. Davlat mulki qanday boshqariladi?
10. Davlat mulkini boshqarish va xususiyashtirish samaradorligini oshirish uchun nimalarni amalga oshirish kerak?

IV BOB. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH – IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI

4.1. Davlat mulki va tadbirkorligi – iqtisodiy siyosatning muhim vositalari.

Iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning eng muhim davlat vositalaridan biri, bu o‘z mulki bo‘lgan tarmoq va korxonalarni boshqarish, ya’ni bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishdir.

Davlat mamlakat ishlab chiqarish vositalarining bir qismini mulk egasi sifatida bevosita ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi, rejalashtiradi va uni nazorat qiladi. Davlat tadbirkorlik faoliyati orqali fan-texnika inqilobi talablariga ko‘ra xalq xo‘jaligi tuzilishini shakllantirishga hamda bozor baholaridan birmuncha past baholarda tovar sotish va xizmatlar ko‘rsatish orqali ishlab chiqarishning boshqa sektorlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Davlat mulki va sohibkorligi ko‘lami bozor iqtisodiyoti sharoitida cheklangan bo‘ladi. U, asosan, mamlakat iqtisodiyotini samarali rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Uning doirasiga O‘zbekiston Respublikasida, birinchidan, oltin, uran, neft, gaz, ko‘mir, rangli metallar va boshqa tabiiy boyliklarni qazib chiqarish sanoati tarmoqlari; energetika, temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, transportning bir qismi kirishi lozim. Qazib chiqaruvchi tarmoqlar mahsulotlari mamlakatning eng muhim milliy boyligi hisoblanadi. Energetika va transport esa xalq xo‘jaligining hayotiy qon tomirlaridir. Shu bilan birga, ularning kapital hajmkorligi yuqori va aylanish muddati uzoq bo‘lganligi uchun xususiy korxonalarining bu sohadagi tashabbuskorligi cheklangan bo‘ladi. Ana shu sabablarga ko‘ra, ushbu tarmoqlarni davlat bevosita boshqarishi maqsadga muvofiqdir. Hamma rivojlangan mamlakatlarda ham davlat kapital mablag‘larining ko‘p qismi ushbu sohalarga yo‘naltiriladi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston iqtisodiy mustaqillikni qo‘lga kiritish uchun mashinasozlik, shu jumladan, avtomobilsozlik, uskunasoziq, fan-texnika inqilobi vujudga keltirgan elektrotexnika sanoati tarmoqlarini rivojlantirishi zarurdir. Bu yangi tarmoqlar qaror topishi davlat tadbirkorlik faoliyati doirasida bo‘ladi.

Uchinchidan, fan-texnika inqilobi sharoitida fan va texnikaga rahbarlik qilish ham davlat zimmasiga yuklanadi. Davlat eng qimmatli fundamental fanlar sohasidagi ilmiy ishlarni moliyalashtiradi.

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosini tashkil qilib, insoniyat iqtisodiy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyluklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, mulkchilik

munosabatlari - bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas uch jihati (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar xarakteri nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Mulkchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo'ysunuvchi rol' o'ynamaydi. Bu shunda ko'rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli mulkchilikning huquqiy normalari (egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi.

Huquqiy normalar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g'oyat muhim rol' o'ynaydi. Bu rol' shunda ko'rinadiki, tovar xo'jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalarining qonun bilan qo'riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Mulkchilik munosabatlari, uning ob'ektlari va sub'ektlari bo'lishini shart qilib qo'yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik ob'ektlaridir. Mulk ob'ekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilishi qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi. Mulk ob'ektida asosiy bo'g'in – bu ishlab chiqarish vositalariga egalik

qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo'ladi.

Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. Shunga mos ravishda mulk sub'ektlari vujudga keladi. Mulk sub'ekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga ega bo'lgan, mulk ob'ektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo'ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik sub'ekti bo'lib chiqadi.

Davlat mulki. Mulk davlatga tegishli bo'lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'ladi. Davlat mulki asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi:

1. Xususiy mol-mulkni milliyashtirib, davlat qo'lga olish.
2. Davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarda investisiyalarni amalga oshirish yo'li bilan.

Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa qarashli bo'lgan, bo'linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo'llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo'ladi.

Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati va boshqaruv tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag'lari, oltin zahirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Ma'muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munisipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalar va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki sog'lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to'sqinlik qiladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka aylanadi. Davlat korxonalarining asosiy fondlar, ishlovchilar soni, yalpi

milliy mahsulot va milliy daromad yaratishdagi hissasi qisqarib, ayni vaqtda boshqa mulkka mansub korxonalar hissasi ortib boradi.

Davlat mulkning tuzilishi va shakli xilma-xilligi sababli, bu mulkni o'zlashtiruvchi yuqorida ko'rsatilgan sub'ektlar ham turli darajada bo'ladi. Masalan, davlat mulkining bevosita sub'ektlari respublika hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat korxonalari va muassasalari hamda aralash mulk shakllari bo'lishi mumkin.

Davlat o'z korxonalarining tovar va xizmatlarini past darajadagi, aksariyat hollarda ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin bo'lgan baholar bilan sotadi. Bu bilan aholi turmush darajasining oshishiga, xususiyl va boshqa korxonalarining samarali ishlashiga, xalq xo'jaligi tarmoqlarining ma'lum nisbatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat o'ziga qarashli korxonalarni ijaraga berish, mehnat kollektivlariga, xususiyl shaxslarga sotish, aksionerlik jamiyatlariga aylantirish yo'li bilan aralash mulkni shakllantirish orqali iqtisodiyotning boshqa mulk doiralariining tashabbuskorligiga, rentabelligiining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning xususiyl, jamoa va boshqa toifadagi korxonalardan tovar va xizmatlar sotib olishi iqtisodiyotni tartibga solishning bir usuli hisoblanadi. XX asrning buyuk iqtisodchilaridan biri bo'lgan Jon Keyns bu vositani "iqtisodiyotni tetiklantiradi" deb ta'kidlagan. Ushbu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, davlat qanday tovarlarni sotib oladi?

Davlat, birinchidan, o'ziga qarashli tarmoq va korxonalarining samarali ishlashi uchun xom ashyo, asbob-uskunalar; ikkinchidan, boshqaruv apparati xodimlarini moliya bilan ta'minlash; uchinchidan, mehnatga layoqatsiz mayib-majruhlar, qariyalar, yetim bolalar, kambag'allar hamda ko'p bolali oilalar, yolg'iz, qarovsiz kishilarga yordam maqsadida iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan ta'minlash; to'rtinchidan, harbiyl anjomlar, qurol-yarog'lar armiya uchun lozim bo'lgan iste'mol tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, beshinchidan, turli xil tabiiyl ofatlarning oldini olish uchun davlat zaxiralarini tashkil etish maqsadida tovarlar sotib oladi. Buning oqibatida davlatning tovarlar va xizmatlar bozori shakllanadi.

Davlat bozori muhim ijobiy rol o'ynaydi. Bu bozor kafolatli bo'lib, uning to'lov qobiliylati davlatning budjet va valyuta fondi orqali ta'minlanadi. Har qanday bozor kon'yunkturasi sharoitida ham davlat buyurtmasi va kontraktlari yuzasidan ishlayotgan korxonalar bozori kasod bo'lmaydi. Bu bozor davlat buyurtmalari orqali tartibga solinadi, unda kelishilgan baholar amal qiladi va uning ishtirokchilariga barqaror foyda keltiradi.

Totalitar tuzum davrida davlat asosiy ishlab chiqarish vositalariining katta qisminiing mulk egasi sifatida iqtisodiyotni o'z monopoliylasiga aylantirgan edi.

Uzoq yillar mobaynida respublikamiz iqtisodiyotida umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk to'liq hukmronlik qilib keldi. Mulkchilik faqat ikki turdan, ya'ni davlat mulki va kolxoz-kooperativ mulkidan iborat qilib qo'yilgan edi. Aslida kolxoz-kooperativ mulki ham amalda butunlay davlat ihtiyorida edi. Ishlab chiqarish vositalarining xususiy mulkligi ham yuridik jihatdan, ham amaliyotda batamom inkor qilingan edi. Faqat xususiy mulkchilikning shakli o'zgartirilgan, ishlab chiqarish vositasi bo'lmagan va daromad keltirmaydigan fuqarolarning shaxsiy mulki sifatidagi ko'rinishigina mavjud bo'lishi mumkin edi. Aholining o'z mulkidan foydalanish tufayli oladigan daromadlarining hamma turlari noqonuniy hisoblanar edi.

Nazariya va amaliyotda umumxalq mulki deb hisoblangan mulk sub'ekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat a'zolari o'rtasida bu mulkka «hech kimniki», «davlatniki», «birovning mulki» deb qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Bunday sharoitda davlat o'z mulki bo'lgan davlat korxonalarini, tarmoq va sohalarni ma'muriy buyruqbozlik usullari orqali bevosita boshqargan. Bu hol real ishlab chiqarish ishtirokchilarining (xo'jalik sub'ektlarining) ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lishiga, egalik hissining yo'qola borishiga, iqtisodiy manfaatdorlik va mehnatdan rag'batlanishning pasayishiga olib keldi.

O'zbekistonda va boshqa sobiq markazlashgan-rejali iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi bu umumqalq, ijtimoiy mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni taqozo qiladi.

4.2. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan manbalarga tayanadigan bo'lsak, «Tadbirkor» atamasi ingliz iqtisodchisi R.Kantil'onga tegishli bo'lib, u quyidagilarni tushungan: «Tadbirkor – bu doimiy daromadga ega bo'lmagan dehqon, hunarmand, savdogar, kambag'al va boshqalardir. U o'zgarlar molini muayyan narxda sotib olib, o'zining molini ham muayyan bo'lmagan yuqoriroq narxda sotishga intiladi. Uning asosiy iqtisodiy vazifasi turli tovarlar bozorida talabga mos taklifni yuritish hisoblanadi»². Shuningdek, R.Kantil'on «Tijorat tabiati haqida ocherk» asarida yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi xizmat ko'rsatish bilan bog'liq yangi korxonalar yoki yangi tijorat g'oyalarini yaratish (tatbiq etish) da riskni o'z zimmasiga oluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni xususiy tadbirkor tushunchasi bilan izohlagan.

Fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832yy.) birinchi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida «tadbirkorlik qobiliyati» (layoqati) va ishchi kuchi o'rtasidagi farqni ish

² . R. Glenn Hubbard, A. Patrick O'Brian. Essentials of Economics. 6th edition. Pearson. New York. 2019.

haqi darajasida deb ko'rsatadi. Darhaqiqat, tadbirkor mehnati uchun oladigan ish haqi, yollanma ishchiga nisbatan yuqoriligi, ularning bajaradigan vazifalari, iqtidorligi, faolligi, qobiliyati, intizomi va boshqarish qobiliyatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. J.B.Seyning yana muhim nazariy kashfiyotlaridan biri, takror ishlab chiqarish nazariyasi "Sey qonuni", "bozor qonuni" yoki "sotish nazariyasi" bo'lib, "har bir odam bir vaqtning o'zida ham sotib oluvchi, ham sotuvchidir"- deb ko'rsatgan. Qayd etish joizki, barcha nazariy qarashlarda u yoki bu jihatdan tadbirkorlik faoliyati zarurligi tan olingan. Chunonchi, J.B.Sey xususiy sektor – iqtisodiy resurslarning past unumdorligi va past daromadi bilan yuqori unumdorligi va yuqori daromadining o'zaro qorishmasi ekanligini ta'kidlaydi. J.B.Seyning xususiy tadbirkor to'g'risidagi bu tasavvuri talabga mos taklifni amalga oshirishga qaratilgan. Bu hol ingliz iqtisodchisi R.Kantil'on tomonidan tavakkalchilik bilan bog'lanadi. Shuningdek mazkur davrlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq yangi atamalar vujudga keldi.

Misol uchun, kapitalga egalik qilish, foydali ishlab chiqarish, moliyaviy tavakkalchilik, tashabbuskorlik va boshqalar. Vaqt o'tishi bilan tadbirkorlik haqidagi tasavvurlar rivojlantirildi hamda faoliyati davomida foyda oshishiga e'tibor qaratildi. J.B.Sey "Siyosiy iqtisod traktati" nomli asarida xususiy tadbirkorlik rostgo'ylik, aniqlik, tashabbuskorlik, moddiy ta'minlanganlik va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tdi. Ta'kidlash joizki, kichik biznesning rivojlanish tarixida tadbirkor tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, ilg'or fikrlovchi, aql sohibi, shafqatsiz raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishuvchi inson sifatida tasavvur qilindi.

XX asr boshlarida esa G'arbda Yozef Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasi haqidagi mulohazalari muhokamalar mavzusi bo'lib, "tadbirkorlikning vazifasi – yangi ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarishni isloh qilish va inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir" deb hisoblandi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun mohiyatini "Ekonomiks" darsligining mualliflari K.R.Makkonell, L.S.Bryu xususiy sektorni maxsus insoniy resurs sifatida qabul qilib, ularning fikricha, kichik biznes – bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi jarayonida yer resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish bo'yicha tashabbusni o'z zimmasiga olib, biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Mazkur soha yangilik yaratuvchi bo'lib, tijorat asosida yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi risk bilan ish tutadi. Boshqa xorijiy olimlar esa, xususiy sektorni xususiy shaxslar, korxonalar yoki tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklarni yaratish, ishlab chiqarish, tovarlar xarid qilish yoki sotishdan

manfaatdor shaxslar yoki tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida xizmatlar ko‘rsatishni amalga oshirilishi sifatida tushunadilar.³

A.Smit (1723-1790) va D.Rikardolar (1772-1823) bozor baholarini tartibga solish vazifasini bajaruvchi kichik xo‘jalik yurituvchilarni investorlar deb hisoblaganlar⁴. A.Smit mazkur toifaning alohida belgilari mavjudligini bilgan holda, ta’kidlaydiki, o‘zlarining hayotlari davomida har xil reja va loyihalar bilan butunlay band bo‘ladilar, o‘zlarining ko‘plab ixtirolari bilan boshqa ko‘pchilik mahalliy dvoryanlar darajasidan farqlanadilar deb ta’kidlaydi.

Neoklassik maktab vakili A.Marshall (1842-1924) tomonidan iqtisodiy o‘shish uchun tadbirkorlikning hal qiluvchi ijodiy ahamiyati tan olinib, A.Smitning ishlab chiqarish omilining uchta mumtoz toifasiga: yer, ish haqi va kapitaldan tashqari mehnat to‘rtinchi, deb qaraydi. Mehnat bu - “ishonchli tadbirkorlik qobiliyatini va kapitalini talab qiluvchi yaxlit birlashgan tashkilotdir”. Shu bilan birga A.Marshall tadbirkorlik qobiliyatini korxonalarining boshqarish shakli bilan bog‘lagan holda talqin etib, tadbirkorlik qobiliyatini kapital qo‘yilmalarning hajmiga, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalariga taluqlidir.

O‘zbekiston hududida xususiy biznes va tadbirkorlikni bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida turli shakllarda: kooperativ, yakka mehnat faoliyati, shaxsiy va xususiy tadbirkorlik, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari kabi shakllaridan tashqari, keyinchalik hududlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, hunarmandchilik, kosibchilik, zargarlik, temirchilik, sog‘liqni saqlash, turizm, servis kabi sohalarining rivojlanishida kuzatildi.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlik faoliyatini ilk huquqiy negizini yaratish maqsadida «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonun, “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish”, “Kichik va o‘rta korxonalar, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida” hamda boshqa qator Qonun, Qaror, Farmonlar qabul qilinib, amaliyotga joriy eildi.

Yuqorida keltirilgan fikr - mulohazalarimizga tayangan holda xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishni qo‘yidagi beshta bosqichga bo‘lib, tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

I-bosqich (1990-1995 yillar). Mazkur bosqichda erishilgan ilk natija 1990 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan barcha hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shaxsiy tomorqa uchastkalarini kengaytirish maqsadida 2,5 million oila birinchi marta yer uchastkalariga (550 ming gektar) ega bo‘ldilar.

³ Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyas1. Darslik. - T.: Barkamol fayz-media, 2017. - 783 bet.

⁴ Economics (Irwin Economics). Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue Sean M. Flynn. -2lth edition. 2018.

Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Mulkchilik», «Korxonalar», «Kooperatsiya», «Tadbirkorlik», «Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari», «Monopolistik faoliyatni cheklash», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish» to‘g‘risidagi qator qonun va farmonlar qabul qilindiki, ularda aholining ongida bozor munosabatlarini shakllantirish ruhiyatini, xususiy mulkchilikka ega bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida “O‘zbekistonda tadbirkorlar uyushmasini va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlarini tashkil qilish”, “Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘armani tashkil qilish to‘g‘risida” gi qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

II-bosqich (1996-2000 yillar). Mazkur yillarda hududlarda faoliyat yurituvchi KBXT faoliyatlari rivojlanishiga erishish borasida yanada keng imkoniyatlar yaratilib, ularning huquq va majburiyatlari, ularga nisbatan belgilangan imtiyozlar tarkibi yanada kengaytirildi. Jumladan, Oliy Majlisning «Tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish», «Er Kodeksi», «Soliq Kodeksi», «Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘armalarni tashkil etish», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari», «Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish», kabi qonunchilik asoslari hamda kichik tadbirkorlik faoliyatini maqomini belgilovchi mezon qabul kilindi.

III-bosqich (2001-2003 yy). Bu davrda xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi barcha omillar, ular faoliyatiga asossiz ravishda aralashayotgan, nazorat qilayotgan, turli bahonalar bilan to‘sqinlikni vujudga keltirayotgan hokimiyat idoralari, mahalliy tashkilotlarning noqonuniy xatti-harakatlarini bartaraf etish maqsadida 2003 yil 11 dekabrda «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur yillarda hududlardagi KBXTning ishlab chiqarish yo‘nalishlari kengaytirilib, faoliyat turlari ko‘paytirildi, hududlarda faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi faoliyatlariga katta e'tibor qaratildi. Shuningdek, KBXT faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi qator huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

Fermer va dehqon xo‘jaliklarini ishlab chiqarish sohasida rivojlanishiga katta e'tibor berildi. Hududlarda xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini barcha yo‘nalishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy xujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kirtildi.

Xususiy biznes va tadbirkorlikning vositachilik faoliyatidan oladigan daromadlari darajasini sezilarli darajada qisqartirish, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyatini rag‘batlantirish, ular faoliyatini kreditlash jarayonini

soddalashtirish hamda soliq imtiyozlarini berish yuzasidan qator tadbirlar amalga oshirildi.

IV-bosqich (2004-2008 yy). Bu bosqichning asosiy xususiyati, barcha hududlarda KBXT faoliyatiga hukumatning e'tibori yanada kuchaytirildi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sohalarida samarali faoliyat yuritayotganlarga iqtisodiy, huquqiytashkiliy, ijtimoiy, ma'naviy kompleks shart-sharoitlar yaratildi. Respublika va mahalliy hukumatlar bilan tadbirkorlar o'rtasida o'zaro hamkorlik muhitini vujudga kelishida, jahon mamlakatlari va xalqaro moliya institutlari tajribasida donorlarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qo'llabquvvatlashga qaratilgan xalqaro yordami, iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlashga ko'maklashuvi ham oshib bordi.

2005 yildan boshlab kichik biznesni soliqqa tortish tizimida to'plangan tajribalarga tayangan holda, tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Mazkur sub'ektlar faoliyatini aynan soliqlar orqali rag'batlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan esa 2005 yil 1 iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi.

2006 yildan boshlab esa umumiy tartibda soliq to'lovchi korxonalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun ixtiyoriy ravishda QQS to'lash imkoniyati berildi.

2005 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-100- sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, 2005 yil 1 iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishlari o'rniga, har chorakda taqdim etishlari belgilandi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan hisobotlar soni qisqartirildi, soliq to'lovchilarni soliq idoralariga tashrif buyurishlari, moliyaviy hisobotlarga ortiqcha vaqt va mablag' sarflashini oldi olindi. Tadbirkorlik sub'ektlaridan hisobotlarni elektron aloqa vositalari orqali qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

V-bosqich (2009-yildan hozirgi kunga qadar). Bu bosqichni xususiyatli tomoni shundaki, xususiy biznes va tadbirkorlikni yanada jadal faoliyat yuritishi, ularni tashkil etishdagi jarayonlarni takomillashtirish yuzasidan qator chora tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15-mayda “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llabquvvatlash va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi (28.04.2010y. PF-4215- son farmoni bilan o‘zgartirish kiritilgan) Qarori qabul qilindi.

Shuningdek, jahonda moliyaviy - iqtisodiy inqiroz davom etayotgan paytda, o‘z vaqtida shakllangan shart-sharoitni to‘g‘ri tahlil etgan holda, mamlakatimizda 2009-2012 yillarga mo‘ljallab “Inqirozga qarshi choralar”, 2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi dasturining qabul qilinishi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan asosiy strategik tadbir bo‘ldi. Shuningdek, dasturda korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotda real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari sifatida mahsulot tannarxini pasaytirish, eksportyor korxonalariga soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish, qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish va bu orqali ular faoliyatini rag‘batlantirish kabi vazifalar qo‘yildi. Mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan tadbirlardan biri, bu soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikasiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘shimcha choralar ko‘rilganidir.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish tashkil etadi. Amalda bu O‘zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o‘tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

Ana shu yo‘nalishlarda keng ko‘lamda chora-tadbirlarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va strategik vazifalari mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan asoslab berilgan . Unga ko‘ra xususiylashtirish jarayonida ikkita muhim strategik vazifa hal etilishi ko‘zda tutilgan:

Birinchi strategik vazifaning asosiy mazmuni – bu davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiylashtirilayotgan mulkning haqiqiy mulkdorlar qo‘liga berilishi iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirish uchun real shart-sharoit yaratishga imkon tug‘diradi.

Xususiylashtirishning ikkinchi strategik vazifasi esa iqtisodiyotda ko‘p ukladlilikni hamda rag‘batlantiruvchi kuchga ega bo‘lgan raqobat muhitini

yaratish, shu orqali davlatni mulkka bo'lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarini barpo etishdir.

Ana shu modelga asoslangan holda amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari shartli ravishda o'zaro bog'liq uch bosqichga bo'linadi.

Dastlabki, birinchi bosqich "kichik xususiylashtirish" davri deb nomlandi va 1992-1993 yillarda amalga oshirildi. Unda aholi yashaydigan davlatga tegishli uy-joylar, savdo, maishiy xizmatlar ko'rsatish, dorixona va shu kabi 53,9 mingta mayda davlat korxonalarini xususiylashtirildi.

Ularning negizida 28,8 mingdan ortiq nodavlat korxonalarini tashkil etildi.

Ushbu bosqichning o'ziga xos tomonlari shundan iborat bo'ldiki, unda davlat mulkiga asoslangan korxonalarini xususiylashtirish shakllarini tanlash va xususiylashtiriladigan mulkni baholash bo'yicha tegishli tajribalar to'plandi. Xususiylashtirishning keyingi -ikkinchi bosqichi „ommaviy xususiylashtirish“ davri deb nom oldi va u 1994-1998 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qurilish, avtomobil transporti, agrosanoat kompleksi va boshqa tarmoqlarning o'rta va yirik korxonalarini ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiylashtirildi. Shu bilan bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish boshlandi. Bundan asosiy maqsad xususiylashtirish jarayoniga aholining keng qatlamlari hamda chet el sarmoyalarini jalb etish va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining nodavlat sektorini jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'ldi. Ushbu bosqichda 21361 xususiylashtirilgan davlat korxonalarini negizida 5747 ta ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, 3903 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat va 11711 ta xususiy mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalarini tashkil etildi.

Xususiylashtirishning uchinchi bosqichi 1999 yildan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu bosqich "yakka tartibda xususiylashtirish" davri hisoblanadi.

Xususiylashtirishning ushbu davri avvalgi bosqichlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, ushbu davrda iqtisodiyotning yonilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, temir yo'l transporti va shu kabi boshqa strategik tarmoqlarning yirik korxonalarini chet el investitsiyalarini keng jalb etgan holda yakka loyihalar asosida xususiylashtirishga kirishildi. Ikkinchidan, ilgari xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlaridagi joylashtirilmagan, shu jumladan, davlatga tegishli aksiyalar paketlari hamda ayrim korxonalarini butunlay yoki ular mulkining bir bo'lagini birja yoki birjadan tashqaridagi bozorlarda turli yondashuvlar va usullarni qo'llash asosida sotish yo'lga qo'yildi. Uchinchidan, iqtisodiy nochor, zarar bilan ishlovchi hamda istiqbolsiz korxonalar va ular mulkidagi davlat ulushlari nol qiymat bilan

chet el yoki mamlakatimiz sarmoyadorlariga investitsiya kiritish hisobiga bepul berish tartibi joriy etildi va amalga oshirilmoqda.

Xususiylashtirishning o'tgan uch bosqichida jami 84,9 mingdan ortiqroq davlat korxonalari xususiylashtirildi, ular negizida aksiyadorlik, ma'suliyati cheklangan va qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar hamda xususiylashtirish korxonalar tashkil etildi. Shu bilan birga, 2007 yilgacha 90,6 mingta davlat mulki ob'ektlari (qurilish tugallanmagan ob'ektlar, yer uchastkalari va boshqalar), shundan 69,5 mingtadan ortiq yer uchastkalari aholiga yakka tartibda uy-joy kurish uchun Respublika ko'chmas mulk birjasi savdolarida 3,9 mlrd. so'mga sotildi.

4.3. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning hozirgi bosqichining xususiyatlari.

Xususiylashtirishning hozirgi bosqichiga xos xususiyatlar va tamoyillar:

- xususiylashtirish va xususiylashtirish huquqini himoya qilishga doir qonunchilikni yanada Nazorat;
- xususiylashtirish ishlariga nisbatan munosabat va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga qarashli korxonalarining aksiyalarini kimoshdi savdosiga qo'yish;
- davlat mulkini xususiylashtirish investorlarga sotish samarasini ta'minlashda investorlarning korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya majburiyatlari bilan jalb etilishi ustuvorligi;
- zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli, istiqbolsiz davlat korxonalari va ulardagi davlat ulushini investitsiya majburiyatlari evaziga nolga teng xarid qiymati bo'yicha xususiylashtirish mulkka sotish.

Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 20 iyuldagi "2007-2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha choralar to'g'risida"gi PQ-672 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrda "Iqtisodiyot real sektori korxonalari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoni, 2008 yil 24 apreldagi "Baholash tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ularning ko'rsatiladigan xizmatlar sifati uchun mas'uliyatini oshirish to'g'risidagi PQ-843-sonli Qarori qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 yanvardagi "Davlat aktivlarini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi 27-sonli Qarori bilan "Birja savdolarida davlat aktivlarini sotish tartibi to'g'risida"gi va "Birjadan tashqari savdolarida davlat aktivlarini sotish to'g'risida"gi tartiblar tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi PQ-843-sonli Qaroriga binoan Davlat mulk qo‘mitasi BMT Rivojlanish dasturi bilan “O‘zbekiston Respublikasida baholash metodologiyasi va amaliyotini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash” loyihasi amalga oshirish bo‘yicha shartnoma imzolangan. Ushbu loyiha doirasida O‘zbekiston Respublikasining uchta milliy standarti, ya’ni “Xususiylashtirish maqsadida mulkning qiymatini baholash”, “Biznes qiymatini baholash”, “Ko‘chmas mulk qiymatini baholash” standartlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazildi.

2007-2010- yillarda 947 ta davlat ob‘ektlari 505,5 mln. dollar va 231,1 mlrd. so‘mga sotildi. Shuningdek, Olingan investitsiya majburiyatlari hajmi 349,6 mln. dollar va 106,34 mlrd. so‘mlik investitsiya majburiyatlari hisobiga sotilgan.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida 2007-2010 yillarda 474 ta shartnoma bo‘yicha investitsiya majburiyatlari bajarildi. Ularning umumiy qiymati 129,37 mln. AQSH dollari va 106,53 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2015 yildagi PQ-2340-sonli “Iqtisodiyotda xususiy mulk ulushi va ahamiyatini ko‘paytirish bo‘yicha choralar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini baholashdan o‘tkazish asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi tomonidan 2015-2016 yillarda davlat mulkini xususiylashtirish Dasturi tayyorlandi. Mazkur qaror quyidagilarni nazarda tutadi:

- 68 ta aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat ulushlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining ulushlarini strategik xorijiy investorlarga sotish;
- 343 ta xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalaridagi davlat aktivlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining ulushlarini ommaviy savdolarida xususiy mulkka sotish;
- 463 ta davlat mulki ob‘ektlarini, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob‘ektlarni “nol” xarid qiymatida sotish;
- 350 ta foydalanilmayotgan davlat mulki ob‘ektlarini ommaviy savdolarida xususiy mulkka sotish;
- 257 ta ishlamayotgan tashkilotlarni tugatish yoki bankrot qilish taomillari bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish;
- 352 ta foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan davlat mulki ob‘ektlarini buzish.

Mamlakatimizda 2010-2014 yillarda 644 ta davlat ob‘ektlari xususiylashtirilgan bo‘lib, xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar 226430 million so‘mni tashkil etgan. 2015-2016 yillarda esa jami 1457 ta davlat ob‘ekti xususiylashtirildi, xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar esa 268061,8 million so‘mni tashkil etgan.

Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonida 2007-2010 yillarda 474 ta shartnoma bo'yicha investitsiya majburiyatlari bajarildi. Ularning umumiy qiymati 129,37 mln. AQSH dollari va 106,53 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2015 yildagi PQ-2340-sonli "Iqtisodiyotda xususiylashtirish va ahamiyatini ko'paytirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini baholashdan o'tkazish asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan 2015-2016 yillarda davlat mulkini xususiylashtirish Dasturi tayyorlandi. Mazkur qaror quyidagilarni nazarda tutadi:

- 68 ta aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat ulushlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushlarini strategik xorijiy investorlarga sotish;
- 343 ta xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalaridagi davlat aktivlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining ulushlarini ommaviy savdolarida xususiylashtirish mulkka sotish;
- 463 ta davlat mulki ob'ektlarini, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni "nol" xarid qiymatida sotish;
- 350 ta foydalanilmayotgan davlat mulki ob'ektlarini ommaviy savdolarida xususiylashtirish mulkka sotish;
- 257 ta ishlamayotgan tashkilotlarni tugatish yoki bankrot qilish taomillari bo'yicha tashabbus ko'rsatish;
- 352 ta foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan davlat mulki ob'ektlarini buzish.

Mamlakatimizda 2010-2014 yillarda 644 ta davlat ob'ektlari xususiylashtirilgan bo'lib, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar 226430 million so'mni tashkil etgan. 2015-2016 yillarda esa jami 1457 ta davlat ob'ekti xususiylashtirildi, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar esa 268061,8 million so'mni tashkil etgan.

2017 yilda esa 542 ta davlat korxonasi va ob'ektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi. Xususiylashtirilgan ob'ektlarning 341 tasi (62,9%) mahalliy davlat hokimiyati organlariga, Sog'liqni saqlash vazirligiga-66 tasi (12,2%), Xalq ta'limi vazirligiga -58 tasi (10,7%), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga- 16 tasi (3%), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga-11 tasi (2%), Navoiy tog' kon metallurgiya kombinati davlat korxonasiga- 10 tasi (1,8%) tegishlidir. Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar 228,3 milliard so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 102-sonli Qaroriga binoan Davlat mulkini ijaraga berish markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;
- ijaraga berilayotgan davlat mulki hamda uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va monitoringi olib borish;
- ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;
- ijara ob'ektlaridan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;
- ijaraga beriladigan davlat mulkini har choraklik asosda xatlovdan o'tkazish;
- foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlar va ijaraga berilayotgan davlat mulki ro'yxatini respublika va viloyat davriy nashrlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, monopoliyadan chiqarish, raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida har chorakda e'lon qilish.

4.4. Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari

Xususiylashtirish va mulkdorlar safini kengaytirish, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishidagi qilinishi lozim bo'lgan muhim vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo'yicha ishlarni davom ettirish;
- aksiyalashtirish amaliy natija bermagan korxonalar va ob'ektlarni xususiy mulkdorlarga berish;
- yangi mulkdorlarning korxonalar samarali faoliyatini ta'minlash, investitsiya majburiyatlarini so'zsiz bajarish bo'yicha huquqiy va iqtisodiy javobgarligini oshirishni ko'zda tutgan holda amaldagi qonunchilikning me'yorlarini qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish;
- xususiylashtirish jarayoniga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda texnik va texnologik jihatdan yangilash, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan ishonchli va mas'uliyatli investorlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijasida qabul qilingan yangi qonunlar quyidagilardan iboratdir:

- "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (yangi tahrir);

➤ “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”;

➤ “Raqobat to‘g‘risida”.

➤ Bugungi kunda xususiylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumat qarorlari bilan tasdiqlanadigan Xususiylashtirish dasturlari doirasida davlat mulki ob‘ektlarini xarid qiymatida yoki “nol” qiymatda xususiylashtirish;

2). Davlat tender komissiyasining qarorlariga asosan mahalliy hokimlik balansidagi past likvidli ob‘ektlarni aniq investitsiya majburiyatlari evaziga xorijiy investorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali “nol” qiymatda xususiylashtirish;

3). Xususiylashtirishning boshqa shakllari (mulkni tasarruf etuvchilarning qarorlariga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish, xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondiga davlat ulushi sifatida kiritish va h.k.) orqali davlat mulki bo‘lgan ob‘ektlarni xususiylashtirish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda vujudga keltirilgan davlat aktivlarini ommaviy savdolarida xususiylashtirish mexanizmlari quyidagilardan tashkil topgan:

➤ Xo‘jalik jamiyatlari ustav fondidagi davlat aksiyalar paketlari – fond birjasi orqali xususiylashtiriladi;

➤ MChJlarning ustav fondidagi davlat ulushlari – auksion (tanlov) savdolarida xususiylashtiriladi;

➤ Davlat mulki bo‘lgan ko‘chmas mulk ob‘ektlari – rieltorlik tashkilotlari orqali xususiylashtiriladi;

➤ Davlat mulki bo‘lgan faoliyat yuritmayotgan ob‘ektlar, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob‘ektlar zamonaviy ishlab chiqarishni yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida investitsiya kiritish sharti bilan “nol” qiymatda Davlat tender komissiya tomonidan tanlov shartlari tasdiqlangan so‘ng hududiy tender komissiyalari tomonidan xususiylashtiriladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtda bozor infratuzilmalari shakllandi va ular rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bu fond, tovar hamda ko‘chmas mulk bozorlari, investitsion fondlar, auditorlik, konsalting va shu kabi boshqa tuzilmalarni tashkil topishi va rivojlanishi bilan namoyon bo‘ldi.

Erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan respublikamizning ayrim hududlarida xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ishlariga e‘tibor sustligicha qolmoqda. Vaholanki, mulkdan samarali foydalanish va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, dotatsiyadan

chiqish hamda budjetning daromad qismini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat mulkini xususiylashtirish va undan samarali foydalanish borasidagi xususiylashtirish dasturi, Prezident qarori va Davlat mulki ob'ektlarini samarali boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalarini ishlab chiqishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, dasturlarning o'ziga xos xususiyati korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishga ustuvor ahamiyat qaratilganligidir.

Investorlarning takliflari xususiylashtirilayotgan ob'ektning xarid qiymati miqdoridan emas, balki investorning investitsiya dasturi mazmuni, uning ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonani modernizatsiya qilish hamda samarali boshqaruvni joriy qilinishiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib baholanadi.

Davlat aktivlari ahamiyati va xususiylashtirish usullaridan kelib chiqib, guruhlariga ajratilgan holda quyidagi tartibda sotiladi:

1-guruh. Butunligicha sotiladigan davlat korxonalari (ob'ektlari) va ochiq birja savdolarida to'liq xususiylashtirish mulkka sotiladigan davlatga tegishli aksiyalar paketi va davlat ulushlari. Ushbu guruhga kirgan korxonalar (ob'ektlarni) xususiylashtirish mexanizmi juda sodda, ya'ni ob'ektlar yoki aksiyalar paketlarini birja orqali sotish. Bunda ob'ekt yoki aksiyalar paketi savdo maydonchasiga qo'yiladi, reklama ishlari amalga oshiriladi, ularni sotishga ko'maklashuvchi tegishli institutlar ishtirok etadi. Xaridorlarda talab bo'lmagan taqdirda dastlabki sotish narxlarini qadam-baqadam pasaytirish mexanizmi qo'llanadi.

2-guruh. Sarmoyadorlar tomonidan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi evaziga nol qiymatda tanlov savdolariga qo'yiladigan korxonalar va ob'ektlar. Ushbu guruh ob'ektlari hududlarda tanlovlar e'lon qilish yo'li bilan sotiladi. Har bir hududda ushbu hudud ma'muriyatining rahbari boshchiligida tanlov komissiyalari tuzilgan. Sarmoyadorlarga nol xarid qiymati bo'yicha sotilgan past rentabelli, zarar ko'rib ishlovchi, iqtisodiy nochor davlat korxonalarining budjetga va budjetdan tashqari fondlar bo'yicha to'lovlar, shu jumladan, ular bo'yicha hisoblab yozilgan penyalalar va jarimalar bo'yicha o'tgan yillardagi ishonchsiz qarzlari hukumat tomonidan hisobdan chiqarib tashlanadi.

3-guruh. Davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar paketi xalqaro tenderlarni tashkil etish asosida sotiladigan strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar. Yirik strategik korxonalar ochiq tenderlarni tashkil etish yo'li bilan sotiladi, bu yerda yakka tartibda xususiylashtirish jarayoni qo'llaniladi. Bunday tenderlarda ishtirok etish uchun xususiylashtirilayotgan korxonaga investitsiyalar kiritish va uni yanada rivojlantirish bo'yicha biznes-rejalarini taqdim etgan sarmoyadorlarga ruxsat etiladi.

Davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar paketi bunday tenderlarda sotiladigan korxonalar Davlat investitsiya dasturiga kiritilishi mumkin, bu ushbu korxonani 7 yilga daromad va foyda solig'idan ozod etish imkonini beradi. Bundan tashqari, aksiyalarning nazorat qilish huquqini bermaydigan paketini xarid qilgan, lekin korxonaga katta miqdorda mablag' kiritgan sarmoyador Davlat mulki qo'mitasi bilan boshqaruv nazoratini qo'lga kiritish to'g'risida shartnoma tuzishi mumkin.

Iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish va xususiy sektor ishtirokini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- birinchi navbatda, avvalo, zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor. Mahsulotlariga talab yo'qligi sababli to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatmayotgan davlat korxonalarini professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan "nol" qiymatida sotish zarur;

- davlat ulushi mavjud bo'lgan barcha korxonalar va ob'ektlarni yana bir marta tanqidiy nuqtai nazardan qayta inventarizatsiya qilish .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2895-son Qarorida qayd etib o'tilganki, mamlakatimizning mustaqil rivojlanishi davrida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish bo'yicha tizimli ishlar doirasida 30 mingdan ortiq davlat ob'ekti, shu jumladan, 6,5 mingta yirik va o'rta korxonalar xususiy mulk qilib sotildi. Natijada hozir nodavlat sektoriga yalpi ichki mahsulotning 81 foizidan ko'prog'i, sanoat ishlab chiqarishining 94 foizi va barcha band aholining 82 foizidan ziyodi to'g'ri kelmoqda. Ammo shu bilan birga, tanqidiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bir qator korxonalarni xususiylashtirish kutilgan natijalarni bermadi .

Xususan, respublika mintaqalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlarining borishi bilan tanishish natijalari xususiylashtirilgan korxonalarning mulkdorlari ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanmayotgani va korxonalarni uzoq muddatli rivojlantirish bilan shug'ullanmayotgani, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni tiklamayotganligi va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etmayotganligini ko'rsatmoqda. Mazkur holatlar Toshkent shahrida avval xususiylashtirilgan "Rele va avtomatika", "Algoritm" zavodlari, Samarqand shahridagi "Qizil dvigatel" va Liftsozlik zavodlari, G'ijduvon ip yigiruv fabrikasi, Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi parranda fabrikasi, Termiz shahridagi "16-sonli g'isht zavodi" va boshqa ko'plab ob'ektlar misolida ko'rinib turibdi. O'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, avval xususiylashtirilgan korxonalar negizida 2 mingdan ortiq past rentabelli va zarar ko'rayotgan kam quvvatli xo'jalik sub'ektlari, shu jumladan, mingdan ortiq ishlamayotgan hamda deyarli bo'sh

yotgan ob'ektlar, samarasiz foydalanilayotgan yer uchastkalari va ishlab chiqarish xonalari aniqlangan .

Davlat organlari xususiylashtirilgan korxonalarining asl holatini o'rganish, ularning ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy-iqtisodiy ahvolini monitoring qilish, mavjud muammolarni tahlil etish va sabablarini aniqlash, ularni kredit va moddiy resurslar bilan ta'minlashda, muhandislik-ishlab chiqarish infratuzilmasini tiklashda, ichki va tashqi savdo bozorlarini topishda amaliy ko'mak berish bilan sust shug'ullanmoqda. Yuzaga kelgan holat vakolatli organlarning xususiylashtirilgan korxonalariga yondashuvlari, ular bilan ishlash prinsiplari va usullarini tubdan o'zgartirishni, faoliyat samaradorligini oshirishga har tomonlama ko'maklashish, ishlab chiqarishni tiklash va rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amalga oshirish, tadbirkorlik faoliyatining asoslarini o'rgatish, shuningdek, xususiylashtirilgan korxonalarni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy manbalarini kengaytirishni talab etadi.

Mazkur qarorga muvofiq xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar samaradorligini tubdan oshirishni, xususiylashtirilgan korxonalar negizida amalga oshirilayotgan loyihalarni tizimli va manzilli qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, shuningdek, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vakolatli organlar faoliyatini zarur darajada muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida:

➤ O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini unga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarga muvofiq tashkil etish;

➤ xususiylashtirilgan korxonalarining ryestrini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda amalga oshirish, ular faoliyatining doimiy monitoringi va tahlilini olib borish;

➤ xususiylashtirilgan korxonalarni tiklash va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish, shuningdek, "yo'l xaritalari"ni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, tijorat banklari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

➤ biznes-rejalar ishlab chiqish, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliya boshqaruvi masalalari va boshqa fanlar bo'yicha xususiylashtirilgan korxonalar rahbarlari va ishlab chiqarish-texnik xodimlari uchun doimiy faoliyat yuritadigan o'quv kurslarini tashkil etishga yo'naltirilgan Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi va uning hududiy filiallarini barpo etish hamda ular faoliyatini samarali tashkillashtirishni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining kadrlar salohiyatini Nazorat, qo'mita

kadrlarini tizimli ravishda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasi oshirilishini tashkil etish vazifalari belgilangan.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Mulk, davlat mulki, munitsipal mulk, davlat tadbirkorligi, davlat mulkining iqtisodiyotni tartibga solinishiga ta'siri, davlat tadbirkorligining bozorga ta'siri, davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish, davlat mulkini xususiyashtirish, mulkni ijaraga berish, investitsion majburiyat asosida mulkni xususiyashtirish.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat mulki nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Davlat mulki iqtisodiyotni tartibga solishda qanday rol o'ynaydi?
3. Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat tadbirkorligi iqtisodiyotni tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishning mohiyati nimadan iborat?
6. Davlat mulkini xususiyashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. O'zbekistonda davlat mulkini xususiyashtirishdan ko'zlangan maqsadlar nimalardan iborat?
8. O'zbekistonda davlat mulkini xususiyashtirish jarayonlari qanday amalga oshirildi?
9. Davlat mulki qanday boshqariladi?
10. Davlat mulkini boshqarish va xususiyashtirish samaradorligini oshirish uchun nimalarni amalga oshirish kerak?

V. BOB. IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH.

5.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozashtirishning zarurligi va ahamiyati.

Iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim davlat iqtisodiy siyosatining shakllaridan biri dasturlash va rejalashtirishdir. Ushbu tartibga solish shaklining zaruriyati ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi, davlat mulkining mavjudligi, iqtisodiyotga yo‘llanadigan kapital mablag‘lar harakati va oqibatlarining uzoq muddatlilik hamda bozor kon’yunkturasini o‘rganishi bilan ifodalanadi. Shu boisdan barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning rivojlanishi prognozashtiriladi, dasturlanadi va rejalashtiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozashtirish – bu o‘tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bashorat qilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniqlash. Prognozlash mamlakat iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bunda boshqaruv yechimlarni tanlashda asos bo‘lib xizmat kiladi, kelajak maqsadlariga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish yo‘llarini aniqlaydi.

«*Prognozlash*» - iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Shu bilan birga bu nisbatan mustaqil fan bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha belgilari bilan farqlanadi:

- birinchidan, prognozlar direktiv xarakterga ega emas;
- ikkinchidan, ularning miqdor baholari asosan ehtimollik xarakteriga ega;
- uchinchidan, ular ko‘proq darajada sodir bo‘lgan rivojlanish
- muammolarini aniqlashga va ularni yechish yo‘llarini izlashga qaratilgan.

Iqtisodiyotda prognozlashning asosiy vazifasi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo‘llarini real baholash bu rivojlanishning maqbul boshqaruv yechimlarini ilmiy asoslash uchun ustuvor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashqari, u iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muammolarni, yangi jarayon va holatlarni o‘rganadi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ehtimoliy yo‘nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik yo‘nalishlarni asoslaydi.

Prognoz yunoncha so‘zidan olingan bo‘lib, oldindan ko‘ra bilish, bashorat etish ma'nolarni anglatib, kelajakni ilmiy usullar orqali istiqbollash tushuniladi. Prognoz - bu istiqboldagi voqea, hodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, ya'ni

kelajakda ob'ektning ehtimoliy holati haqida yoki bu holatga erishishning muddatlari va al'ternativ yo'llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalardir.

Prognozlash deganda prognozni ishlab chiqish, ya'ni ma'lum bir jarayonning rivojlanish aniq kelajagini maxsus ilmiy tadqiq etishdir. Prognozashtirish prognozni ishlab chiqish jarayoni. Prognozning axborot bazasi bo'lib hisobotlar (aholining tabiiy va mexanik harakatlarining joriy hisoboti) va maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuvlar (aholini ro'yxatdan o'tkazishlar, maxsus tanlama ijtimoiy-demografik tadqiqotlar, aholining turli ro'yxat va kartotekalari) hisoblanadi. Prognoz rejalarni bajarilishini aniqlash uchun xizmat qiladi. Prognoz tahlillari rejalarning bajarilish yoki bajarilmasligi mumkin bo'lgan oqibatlarni aniqlash imkonini beradi.

Prognozlar ob'ektning xarakteri, mazmun mohiyati va komplekslilik darajasi, kabilarga qarab farqlanadi.

Oldindan aytib berish va ko'rish - bu turli ma'nolarga ega biri biriga yaqin tushunchalardir. Oldindan aytib berish – bu mantiqiy xulosalar asosida sub'ekt yoki ob'ektning kelajakdagi holati haqidagi mulohazalardir. Oldindan ko'ra bilish – bu ob'ektni qonuniy rivojlanishini anglashga asoslangan ob'ektni kelajakdagi holati haqida mulohazalardir.

Oldindan ko'ra bilishning uch shaklini farqlashadi: ilmiy, ilmiy bo'lmagan va empirik. Ilmiy ko'ra bilish tabiat, jamiyat (ob-havo bashoratlari, mamlakat rivojlanishining prognozi va boshqa) qonuniy rivojlanishining ilmiy metodlar asosida qurishga asoslangan ilmiy nazariy natijalar hisoblanadi. Ilmiy bo'lmagan oldindan ko'rish real bo'lmagan, o'zaro bog'langan fantastik ko'rish (fol ochish, Nostradamus bashoratlari). Empirik ko'rish insonlarning har kungi tajribalariga asoslanadi.

Ilmiy oldindan ko'ra bilishning uch shakli mavjud: gipoteza, prognoz va reja plan. Gipoteza – bu sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki sodir bo'lmaydigan u yoki bu holatni rivojlanishi haqidagi farazlar. Gipoteza darajasida qoida bo'yicha tadqiq etilayotgan ob'ektni rivojlanishi haqidagi miqdor tavsiflari, umumiy qonuniyatlari beriladi. Prognoz – bu ob'ektni kelajakdagi holati haqida, unga erishish muddatlari va al'ternativ yo'llari haqidagi ehtimol ilmiy asoslangan mulohaza tushuniladi. Gipoteza bilan taqqoslaganda u aniqligi yuqori bo'lgan, nafaqat miqdor balki, sifat tavsiflariga ega. Reja tadqiq etilayotgan holatni, ob'ektni aniq qism voqelikni ko'ra bilish va oldiga qo'ygan maqsadni aniq qo'yishni nazarda tutadi.

Prognoz va reja o'rtasidagi farqlari:

- 1) reja direktiv xarakterga ega bo'lsa, prognoz – esa tavsiya etuvchi;
- 2) rejani ishlab chiqishda doim prognoz ishlab chiqilishini talab etadi;
- 3) prognoz ko'p variantli, reja esa unday emas.

Prognoz va reja ishlab chiqilgandan keyin bir qator aniq chora-tadbirlar, davri boshlanadi. Ko‘pincha bu jarayon dasturni ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Prognoz kelajakni tavsiflab berish uchun u yoki bu sohadagi sodir bo‘ladigan o‘zgarishlardan oldinroq yuradi. Prognoz qilinayotgan ob'ektning rivojlanish tendensiyalari qancha vaqtliroq topilsa, boshqaruv shunchalik samaraliroq bo‘ladi. Amaliyotda prognozning 3 xil turi bor:

- qisqa muddatli (1 yildan 5 yilgacha),
- o‘rta muddatli (15 yilgacha)
- uzoq muddatli (15 yil va undan yuqori).

Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan ilmiy texnika davrida uzoq muddatli prognoz o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Qo‘shma korxonalarda qisqa muddatli prognozlarni 5 yildan ko‘p bo‘lmagan davr bilan cheklangan holda ishlab chiqishadi.

Prognozlashda prinsipial bo‘lib quyidagi sxema hisoblanadi:

- maqsadlar nazariy erishsa bo‘ladigan;
- erishish yo‘llari va mablag‘larini imkon darajada;
- resurslar ehtimoliy.

Rejalashtirishda prinsipial sxema quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- maqsadlar tavsiya qilingan yoki majburiy;
- erishish yo‘llari va mablag‘lari mavjud;
- aniq belgilangan;
- resurslar chegaralangan.

Makrorejalashtirish – makroprognoz bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘z ichiga byudjet va soliq rejalashtirishni davlat dasturlarini va bozorlarni oladi.

Prognozlashning iqtisodiy siyosatda tutgan o‘rni

Qoida tariqasida, iqtisodiyot umuman makrodarajaga, tarmoqlar va hududlarga - mezo darajaga, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar - mikro darajaga ko‘riladi.

Prognozlash va rejalashtirish, tegishli kontseptsiya, dastur va hodisani ishlab chiqishda odatda ijrochilar oldiga qo‘yiladigan muhim vazifalar - bu iqtisodiyotning yuqori samarali tuzilmasini saqlash va rivojlantirish, ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlarini asoslash va tartibga solish, ishlab chiqarishning yuqori darajasi. uning bozorda raqobatbardoshligini ta‘minlash, moddiy, energiya, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni, aholining etarli daromad darajasini va ijtimoiy ta‘minotini ta‘minlash, mintaqa, davlat va tashqi dunyo bilan mavjud bo‘lgan turli xil iqtisodiy aloqalarni saqlab qolish va yangilarini o‘rnatish.

Uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy, eng muhim yo‘nalishlari (tarmoqlar,

birlashmalar, korxonalar va boshqalar) bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadlari va qiymatlarini aniqlash jarayoni va ularni amalga oshirish mexanizmini shakllantirish atrof-muhit omillarini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Strategik rejalashtirishda iqtisodiy o'zgarishlarning mohiyatini, iqtisodiyotning barqarorligini, aholi turmush darajasini, mamlakat mudofaa qobiliyatini va hokazolarni belgilaydigan vazifalar hal qilinadi. Shu bilan birga, yakuniy natija qat'iy belgilanmagan, lekin o'lcham va vaqt bo'yicha berilgan maksimal chegaralar bilan ma'lum bir zonada joylashgan.

Vazifalarning tabiati boshqaruv organi tomonidan belgilab berilgan strategik rivojlanish maqsadlariga bog'liq bo'lib, ular hal qiluvchi darajada rejalashtirishning yo'nalishi va mazmunini belgilaydi. Masalan, ular yalpi ichki mahsulotning moddiy va energiya sig'imini keskin pasayishi, yoqilg'i resurslari bilan ta'minlashda yanada barqarorlikka erishish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, aholi turmush darajasini eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashtirish bo'lishi mumkin.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish uni rejalashtirishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Prognoz—ob'ektning istiqboldagi mumkin bo'lgan holati to'g'risidagi ilmiy asoslangan ko'zlangan maqsadga erishishning muddatlari va usullarining variantli gipotezasi hisoblanadi. Odatda bazaviy va ijtimoiy-iqtisodiy prognozlar tuziladi. Bazaviy prognozlarga demografik prognozlar, tabiiy resurslar prognozlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ekologik, tashqi iqtisodiy, tashqi siyosiy, ichki siyosiy va boshqa prognozlar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarga iqtisodiy o'sish, jami talab va jami taklif, makroiqtisodiy tarmoq tarkibi, inflyasiya darajasi, aholi turmush darajasi va sifati, aholining bandligi, ijtimoiy soha rivojlanishi prognozlari va boshqalar kiradi.

Tadqiqot mantig'idan kelib chiqib, prognozlar normativ va qidiruv prognozlariga ajratiladi. Qidiruv prognozi mavjud tendensiyalar saqlanib qolgan sharoitda ob'ektning istiqboldagi mumkin bo'lgan holatini aniqlaydi. Normativ (me'riy) prognoz murakkabroq bo'lib, ob'ektning kutilayotgan holatiga istiqbolda erishish uchun uning yo'llari, usullari, vositalari hamda belgilangan maqsadlarning qay darajada real ekanligini aniqlaydi. Shuningdek, prognozlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir etishiga bog'liq ravishda aktiv va passiv prognozlarga bo'linadi. Prognozlar ko'p variantli yoki bir variantli (invariantli) bo'lishi mumkin. Ko'lamiga ko'ra esa makroiqtisodiy, tarkibiy, ya'ni tarmoq, tarmoqlararo va mintaqaviy, mintaqalararo prognozlar tuziladi.

Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbolini aniqlash (prognozlashtirish) qisqa muddat (1-2 yil), o'rta muddat (5 yil), uzoq muddatga (20 yil) mo'ljallanadi. Bunda mavjud o'tgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish holati, bozor kon'yunkturasining o'zgarib borish tendensiyalariga asoslanib, kelajqdagi

iqtisodiy ahvolning qanday bo'lishi, qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinadi. Bu - ekstrapolyasiya usuli deyiladi. Olingan ma'lumotlarga esa xususiy ishbilarmonlarning kapital mablag'lar sarflash rejalarini turli so'rovlar orqali o'rganib borish orqali aniqlik va tuzatishlar kiritiladi.

Prognozlar asosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlarda iqtisodiyot rivojlanishining moddiy va sotsial maqsadlari ko'rsatiladi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflash rejaları tuziladi, ishlab chiqarish hajmi bilan talab o'rtasidagi nisbatlar o'rganiladi. Turli ishlab chiqarish bilan import o'rtasidagi bog'liqlik, ishlab chiqarish bilan iste'mol, ishlab chiqarish bilan eksport, eksport bilan import o'rtasidagi bog'liqlar aniqlanadi. Buning uchun tarmoqlararo balansni tuzish, aholi ro'yxatini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bizda bir necha marta tarmoqlararo balans tuzilgan, aholini ro'yxatga olish amalga oshirilgan. Iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat dasturlari asosida rejalar qabul qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlash jarayonining asosiy tamoyillari quyidagilar:

1) prognozning ilmiy asoslanganligi (tabiat, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olib ilmiy metodlar yordamida ishlab chiqish);

2) prognozlashning uzluksizligi (mamlakatda, iqtisodiyotda vaziyatlarning o'zgarishini hisobga olib prognoz doimo to'g'rilanib (korrektirovka) turishi kerak);

3) istiqbol va joriy prognozlashning muvofiqligi (prognozlash o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladi, lekin ustivorlik istiqbol prognozlashga beriladi);

4) prognozlarning kelishilganligi (ishlab chiqilgan prognoz aralash prognozlar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak);

5) prognozning ko'p variantlilik, al'ternativlilik (prognozning bir necha variantlari ishlab chiqilishi, vaziyatlarning o'zgarishi holatlarida boshqa variantlardan foydalanish uchun talab etiladi. Odatda prognozni uch varianti mavjud: optimistik, pessimistik va realistik);

6) asosiy omillarni tanlash (prognozlashda hisob-kitoblarga tadqiq etilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillar kiritilgan bo'lishi kerak). Buning dolzarbligi shundaki, iqtisodiy jarayonlarning o'zi murakkab, ko'p omilli va hamma omillarning ta'sirini hisobga olish qiyin);

7) prognoz ishlab chiqishning tizimlilik (prognozlash jarayonini bir tomondan bir butun tizim sifatida, ikkinchi tomondan esa alohida mustaqil bo'limlardan tarkib topgan murakkab tizim sifatida qaralishi);

8) prognozlarning verifikasiyalanganligi (prognoz bahosi ishonchli va asoslangan bo'lishi kerak);

9) adekvatlilik (prognoz modelining real hayotga, tendensiyalarga, qonuniyatlarga maksimal yaqin bo'lishi kerak);

10) rentabellik (ishlab chiqilgan prognozdan samara uni ishlab chiqish uchun qilingan xarajatlardan yuqori bo'lishi kerak).

Prognozlash tamoyillari prognozlash modellari va turli metodlarini metodologik yagonaligini ta'minlaydi.

Prognozlar tipologiyasi turli mezonlar va xususiyatlarga qarab tuziladi.

Ular orasida quyidagilar mavjud:

- 1) prognozlash ko'lami;
- 2) yetkazib berish muddati yoki prognoz vaqti gorizonti;
- 3) funksional xususiyat;
- 4) prognozlash ob'ektlarini axborot bilan ta'minlash darajasi.

Prognozlash miqyosiga ko'ra quyidagilar mavjud:

- makroiqtisodiy prognoz;
- tarkibiy (tarmoqlararo va hududlararo) prognoz;
- xalq xo'jaligi komplekslarini (energetika, investisiya, agrosanoat va boshqalar) rivojlantirish prognozlari;
- sanoat va mintaqaviy prognozlar;
- alohida korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, alohida tarmoqlar va mahsulotlarni rivojlantirish prognozlari.

Yetkazib berish vaqti yoki vaqt oralig'i bo'yicha barcha prognozlar quyidagilarga bo'linadi:

- operatsion yoki joriy (1 oygacha);
- qisqa muddatli (1 oydan 1 yilgacha);
- o'rta muddatli (1 yildan 5 yilgacha);
- uzoq muddatli (5 yildan 15-20 yilgacha);
- uzoq muddatli (20 yildan ortiq).

Prognozlash va rejalashtirishni ekspert baholash usullari:

Asosiy g'oya, olingan natijalarni baholash va qayta ishlashning bir qancha usullari bilan birgalikda odamning intuitiv-mantiqiy fikrlashining oqilona tartibini tuzishdan iborat. Mohiyati- prognoz mutaxassis yoki mutaxassislar guruhining fikriga asoslanib, professional, ilmiy va amaliy tajribaga asoslangan. Ajratish 1. Individual - tegishli profildagi mutaxassis mutaxassislarning fikrlaridan foydalanishga asoslangan. Usullar keng tarqalgan intervyu, tahliliy, ssenariy yozish; Suhbat usuli-bashoratchi va ekspert o'rtasidagi savol-javob sxemasi bo'yicha suhbat, bunda bashoratchi oldindan ishlab chiqilgan dasturga muvofiq, bashorat qilinayotgan ob'ektni rivojlantirish istiqbollari to'g'risida mutaxassisga savollar beradi. Muvaffaqiyat mutaxassisning turli masalalar bo'yicha o'zboshimchalik bilan xulosa chiqarish qobiliyatiga bog'liq.

Analitik usul- tendentsiyalarni tahlil qilish, prognoz qilinayotgan ob'ektning holati va rivojlanish yo'llarini baholash bo'yicha ekspertning mustaqil ishi. Ekspert

prognoz ob'ekti haqidagi barcha kerakli ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. U o'z xulosalarini memorandum shaklida tuzadi. Asosiy afzallik - bu mutaxassisning individual qobiliyatini maksimal darajada oshirish qobiliyati. Ammo bu murakkab tizimlarni bashorat qilish va tegishli bilim sohasidagi bitta mutaxassis-ekspertning cheklangan bilimlari tufayli strategiyani ishlab chiqish uchun juda mos emas.

Skript usuli Ham individual, ham jamoaviy ekspert bahosiga taalluqli bo'lishi kerak. Har xil sharoitda jarayon yoki hodisaning mantig'ini aniqlashga asoslangan. U mavjud vaziyatdan ob'ektning kelajakdagi holatiga o'tish jarayonida rivojlanayotgan voqealar ketma -ketligini o'rnatishni o'z ichiga oladi.

2. Kollektiv tengdoshlarning sharhlari - ("aqliy hujum") Muammoli vaziyatni "aqliy hujum" qilishda mutaxassislarning ijodiy salohiyatidan foydalanishdan iborat bo'lib, u birinchi navbatda g'oyalar ishlab chiqarishni amalga oshiradi, so'ngra ularni aksil-g'oyalarni ilgari surish va kelishilgan nuqtani ishlab chiqish bilan buzish (yo'q qilish, tanqid qilish). ko'rinish.

"635" usuli - aqliy hujumning turlaridan biri. Delphi usuli-ekspert bashorat qilishning yanada oqilona va qat'iy tartibini ishlab chiqish bo'yicha birinchi urinishlardan biridir.

Rasmiy prognozlash va rejalashtirish usullari:

Rasmiylashtirilgan usullarga ekstrapolyatsiya usullari, iqtisodiy va matematik usullar, muvozanat usuli, me'yoriy va boshqalar kiradi.

1) Asos ekstrapolyatsiya usullari bashorat qilish - bu empirik qatorlarni o'rganish. Empirik ketma -ketlik - bu o'z vaqtida ketma -ket olingan kuzatishlar to'plami, funktsiya - bashorat qilinayotgan ob'ektning unga ta'sir etuvchi omillarga bog'liqligini aks ettiruvchi eng oddiy matematik model.

2) Iqtisodiy va matematik usullar uni hal etishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonining matematik modelini qurishni va natijani mantiqiy talqin qilishni nazarda tutadi. Modellashtirish eksperimental, ikonik va mavhum bo'lishi mumkin. Iqtisodiy va matematik modellarga optimal rejalashtirish modellari, kirish-chiqish balansi modellari, korrelyatsiya-regressiya tahlili, matritsa modellari, iqtisodiy va statistik modellar, qaror qabul qilish modellari, simulyatsiya modellari va tarmoqni rejalashtirish modellari kiradi.

3) Balans usuli- mamlakat, mintaqa, sanoat, korxonaning har xil turdagi mahsulotlarga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini ishlab chiqarish imkoniyatlari va resurslar manbalari bilan bog'lashdir. Bu usul buxgalteriya balansini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, bu ko'rsatkichlar tizimi bo'lib, unda daromad manbalari bo'yicha resurslarni tavsiflovchi bir qismi boshqasiga teng bo'lib, ularning xarajatlarining barcha sohalarida taqsimlanishini ko'rsatadi. Balansning resurs qismi ehtiyojlar aniqlangandan keyin shakllanadi.

Resurslar barcha daromad manbalari bo'yicha hisoblanadi. Ehtiyojlar aniqlangandan so'ng, resurslar bilan bog'liqlik rivojlanadi.

4) Mohiyati normativ usul normalar va standartlardan foydalangan holda prognozlar, rejalar, dasturlarning texnik -iqtisodiy asoslanishidan iborat. Ko'rsatkich qabul qilingan o'lchov birliklarida mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ilmiy asoslangan o'lchovni tavsiflaydi.

Hisoblash uchun odatda quyidagi ifoda ishlatiladi:

$$Q = V * N$$

bu erda Q - kerakli qiymat;

V-mahsulotlar soni, aholi soni va boshqalar;

N-norma. Norm va me'yorlar alohida guruh va turlarga bo'linadi: mehnat xarajatlari normalari; ishlab chiqarish stavkalari; vaqt normalari; moddiy resurslardan foydalanish normalari; xom ashyo, yoqilg'i, elektr energiyasini iste'mol qilish stavkalari; moliyaviy me'yorlar; Ijtimoiy normalar; ekologik standartlar.

5.2. Prognozashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni va uning shakllari, usullari.

Rejalashtirish – istiqbolda ob'ektning ko'zda tutilgan holatining modelini yaratish jarayoni bo'lib, unda ushbu holatga erishish uchun usullar, vositalari va muddatlari belgilanadi. Rejalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning pirovard maqsadlari, oraliq natijalarini, ularga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar xarajatlarini ifodalovchi aniq miqdoriy parametrlari(reja ko'rsatkichlari) belgilanadi. Rejalar siyosiy tavsifga ega bo'lib, hukumatning iqtisodiy siyosatiga mos ravishda tuziladi, shu boisdan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lini tanlash asosida iqtisodiy kriteriyalar bilan bir qatorda siyosiy maqsadlar ham ko'zlanadi. Rejalashtirishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim bo'ladi:

-uning ilmiy ishlab chiqish saviyasini oshirish;

-ilg'or iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining vujudga kelishida uning ta'sirini orttirish;

-iqtisodiyot tarmoqlarining balanslangan, mutanosib rivojlanish rolini kuchaytirish;

-ishlab chiqarish va fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishga yordam berish;

-yangi kam xarajat, tejamkor xo'jalik mexanizmini yaratish, iqtisodiyot va aholi ehtiyojlarini kamroq resurs va mehnat sarflash bilan qondirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish boshqarishning barcha bo'g'inlarida amalga oshiriladi: umumdavlat va hududiy rejalashtirish markaziy va hududiy davlat

boshqarish organlari tomonidan bajariladi; mahalliy rejalar maxalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan; korxonalar darajasida biznes rejalar tuziladi.

Ilgari ma'muriyatchilikka, buyruqbozlikka asoslangan jamiyatda iqtisodiy rejalar direktiv xarakterga ega bo'lib, yuqoridan belgilanib, quyidagi xo'jalik bo'g'inlari uchun majburiy edi. Direktiv rejalashtirish yuridik kuchga ega bo'lgan rejalarini tuzish jarayon hisoblanadi. Ular o'zining manzilligi, ijrochilar uchun majburiyligi, ularning bajarilishi uchun rejaviy topshiriqlarning belgilanishi va resurslarning taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Rejaning bajarilishi bo'yicha ijrochilarning javobgarligi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga direktiv rejalashtirishda ularning ijrochilari qatnashmaydilar yoki ularning ishtiroki kuchsiz bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti va mulkning ko'p shakllari mavjud bo'lgan sharoitda esa dastur va rejalar davlat korxonalarini uchun direktiv, xususiy sektor uchun esa taklif, indikativ xarakterga ega bo'ladi. Indikativ rejalashtirish aniq parametrlar (indikator, ya'ni ko'rsatkichlar) shaklidagi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini belgilash va belgilangan indikatorlarga erishish uchun davlatning iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatish bo'yicha iqtisodiy chora-tadbirlarini ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

Indikativ rejalashtirish jarayonida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari, tarkibi va samaradorligi, moliyaviy ahvoli, pul muomalasi, tovarlar va qimmatli qog'ozlar bozori, narxlarning harakati, bandlik. Aholi turmush darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalarni va boshqalarni ifodalovchi indikatorlardan, ya'ni ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Indikativ rejalashtirishning xususiyatlari uning taklif, tavsiya tavsifga egaligi bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotining xo'jalik sub'ektlari indikativ rejalarini bajarishga majbur emaslar. Ammo davlat iqtisodiy usullarini (soliqlar, kreditlar, subsidiyalar, davlat buyurtmalarini joylashtirish va h.k.) hamda huquqiy va ma'muriy usullar (rejalarning bajarilishini ta'minlashni nazorat qilish uchun qonunlar va boshqa huquqiy-me'riy hujjatlar qabul qilish) orqali rejalariga kirishni va ularni bajarishga jalb etadi. Ishbilarmon, tadbirkorlarning rejalariga amal qilishlarini rag'batlantirish maqsadida ularga turli imtiyozlar, ya'ni soliq to'lashda, kredit, subsidiyalar, xom ashyo, yoqilg'i-energiya, asbob-uskunalar olishda, tovarlarni eksport qilishda imtiyozlar berilishi lozim bo'ladi.

Iqtisodiyotni dasturlash va rejalashtirishdan maqsad, bozor iqtisodiyotida yuz berishi mumkin bo'lgan turli nomutanosibliklar va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Bu tartibga solish vositasining samaradorligi dastur va rejalarining tadbirkorlar manfaatiga qanchalik mosligiga, davlatning ularni rag'batlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlariga hamda rejalarining ilmiylik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy prognozlashning eng muhim nazariy muammolaridan biri prognoz tipologiyasini tuzish hisoblanadi. U turli mezon va belgilar (prognozlashni tashkil

etish maqsadi, vazifalari, ob'ekti, usullari va x.k.) yordamida tuzilishi mumkin. Ularning eng muhimi quyidagilar hisoblanadi: prognozlashning miqyosi, oldini olish vaqti, ob'ektning tafsiloti, prognozning funksiyasi.

Prognozlashning miqyosi bo'yicha prognozlar quyidagilarga bo'linadi: makroiqtisodiy va tarkibiy (tarmoqlararo va hududlararo) prognozlar, iqtisodiy majmualari (yoqilg'i-energetika, agrosanoat, investitsion, ishlab chiqarish infratuzilma, aholiga xizmat ko'rsatish sohasi)ni rivojlantirish prognozlari, tarmoq va hududiy prognozlari, iqtisodiyot tizimining birlamchi bug'inlari (korxonalar ishlab chiqarish birlashmalari hamda alohida ishlab chiqarish va mahsulotlar) prognozi.

Aktiv va passiv, o'zi amalga oshadigan va o'zi-o'zini rad etadigan prognozlar.

Qidiruv va normativ prognozlar haqida gap ketganda, ularning aktiv va passivlarga bo'linishini ham ta'kidlash kerak. Siyosiy qaror qabul qilishda rivojlangan har qanday prognoz aktiv prognozdir, shunday qilib aktiv deb - barcha normativ prognozlarni atash mumkin. Qidiruv prognozlari esa, aktiv deb ular holatni o'zgartirish maqsadida qaror ishlab chiqishni boshlash uchun asos bo'lsa atasa bo'ladi. Lekin qidiruv prognozlari asosiy vazifasi - siyosiy qarorning asosi emas, shuning uchun ular ko'pincha passiv harakterga ega.

Prognoz ob'ektiga prognozning ta'siri muammosi asnosida o'zi amalga oshadigan va o'zi-o'zini rad etadigan prognozlar bo'lishi mumkin. Birinchi holatda prognoz shunchaki "kuchli" bo'lishi mumkin, buning uchun sharoit bo'lmasa ham, ular amalga oshadi. Shuningdek, qonunchilik hokimiyatining yuqori organi bilan qarama-qarshilikda bo'lgan davlat boshlig'i buyurtmasini bajaradigan taniqli ekspertlar pralamentning muddatdan oldin tarqalib ketishini prognoz qilgan bo'lsa, masalani aynan shunday yechilishiga olib kelishi mumkin. Bunday prognoz xatoli hisoblanadi, chunki unda prognoz qilingan voqea noto'g'ri tarzda tushuntirilgan. Ammo, qaror qabul qiluvchi shaxsga prognozchilarning katta ta'sir omili shunday prognozning amalga oshishga imkon yaratib berdi.

Bu misol shuni ko'rsatadiki, prognozning amalga oshish salohiyati doim uning muvaffaqiyatni belgilamaydi. O'zini-o'zi rad etadigan prognozlar amalga oshmaydilar. Ular uchun siyosiy holatning bo'lishi mukmin bo'lgan variantlardan biri salbiy oqibatga olib kelishini ko'rsatish muhim. Bu qaror qabul qiluvchi shaxslar mazkur muammoga katta e'tibor berishlari va bo'ladigan voqeani oldini olish uchun zarur hisoblanadi. Natijada prognoz amalga oshmaydi, lekin samarali bo'ladi, chunki uning vazifasi - prognoz qilinadigan ob'ektga shunday ta'sir ko'rsatishi natijada, prognoz qilingan stsenariyni amalga oshmasligiga imkon tug'diradi.

Prognozlar vaqt davriyligi bo'yicha tezkor, qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli va olis muddali prognozlarga bo'linadi. Tezkor prognoz bir

oygacha, qisqa muddatli bir oydan bir yilgacha, o'rtta muddatli bir yildan besh yilgacha, uzoq muddatli besh yildan o'n besh to yigirma yilgacha, olis muddatli esa ushbu muddatdan ortiq bo'lgan davrga tuziladi.

Sanab o'tilgan prognoz turlari shuningdek tadqiq etilayotgan jarayonlarni baholash mohiyati va tavsiloti bilan bir-biridan farq qiladi. Tezkor prognozlar prognoz davrida tadqiq etilayotgan ob'ektda miqdor va sifat jihatdan hech qanday sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmaydi degan tahminlarga asoslanadi. Ularda kutilayotgan voqealarning aniq miqdoriy baholash ustun turadi. Qisqa muddatli prognozlar faqatgina miqdoriy o'zgarishlarni nazarda tutadi. Unga muvofiq holda voqealarning baholanishi ham miqdoriy tarzda amalga oshiriladi. O'rtta muddatli va uzoq muddatli prognozlar tadqiq etilayotgan ob'ektda miqdor va sifat jihatidan o'zgarishlarga tayanadi, shunda o'rtta muddatli miqdoriy o'zgarishlar sifatli o'zgarishlardan ustun turadi. O'rtta muddatli prognozlarda voqealarning miqdoriysifat, uzoq muddatli prognozlarda esa sifat-miqdoriy baholash amalga oshiriladi. Uzoq muddatli prognozlar faqatgina sifatli o'zagrishlarga tayanadi, bu erda faqatgina tadqiq etilayotgan ob'ekt rivojlanishining umumiy qonuniyatlari to'g'risida gap boradi. Bunda prognoz qilinayotgan voqealarni baholash shakli sifatli hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan ob'ektning tafsilotiga qarab prognozlarning bo'linishi takror ishlab chiqarish jarayonining turli jihatlari bilan bog'liq. Ushbu belgi bo'yicha quyidagi iqtisodiyot prognozlari ajralib turadi: ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi; ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va ilmiy-texnik taraqqiyotining oqibatlarini; o'sish dinamikasi (uning sur'ati, omillari va tuzilmalari); mehnat resurslarning takror ishlab chiqarishi, bandliligi va kadrlarni tayyorlash; tabiiy resurslardan iqtisodiy foydalanish; asosiy fondlar va sarmoya qo'yilmalarining takror ishlab chiqarishi; aholining hayot tarzi; moliyaviy munosabatlar, daromad va narxlari; tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar.

Ushbu sanab o'tilgan yo'nalishlardan har biri alohida ahamiyatga ega va mustaqil tarzda ishlab chiqilishi mumkin. SHu bilan birga ular o'rtasida xalq xo'jaligini prognozlashning ilmiy tavsilotini ta'minlovchi metodologik hamjihatlilik mavjud. Iqtisodiy prognozlash hamjihatlikda boshqa prognozlashningturlari (ijtimoiy, siyosiy, demografik, ilmiy-texnik, tabiiy resurslarni prognozlash va shu kabi) bilan birga amalga oshiriladi. Ushbu prognozlarning natijalari xalq xo'jaligi va iqtisodiy prognozlashningboshqa turlarida inobatga olinadi. O'z navbatida iqtisodiy prognozlar boshqa barcha ijtimoiy jarayonlarning prognozlash va rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turli xil prognozlarning aloqasi ularni ishlab chiqish ketma-ketligida ham o'z ifodasini topadi. Xususan, iqtisodiy prognozlar ilmiy-texnik taraqqiyoti, tabiiy resurslar, demografik jarayonlar va x.k. ning prognozlariidan keyin ishlab chiqiladi.

5.3. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o'rta muddatli prognozlar

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini tartibga solishni ta'minlashda Iqtisodiyot vazirligi muhim rol o'ynamoqda. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning konsepsiyalari qisqa va uzoq muddatli rejalari, respublika va mintaqalarga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqish; aholini sotsial himoyalashga oid takliflarni asoslab berish, mehnat faoliyati va tadbirkorlik imkoniyatlarini ko'paytirish, iqtisodiy ahvolni sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash; bozor munosabatlariga o'tishning asosiy qoida va yo'nalishlarini . shakllantirish va unga mos ravishda xo'jalik mexanizmi, boshqaruv shakllari va uslublarini takomillashtirish; xalq xo'jaligi tuzilmasini qayta qurishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarini oqilona joylashtirishga oid takliflar tayyorlash; xalq xo'jaligi balanslarini tuzish asosida iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga oid takliflarni ishlab chiqish; eksport-import ishlarini davlat yo'li bilan tartibga solish va rag'batlantirish sohasidagi yo'nalishlarni belgilash. Iqtisodiyot vazirligi ushbu vazifalarni bajarish orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Joylarda Iqtisodiyot vazirligining bo'limlari vazifasini Iqtisodiyot bosh boshqarmalari amalga oshiradilar. Viloyat, shahar va tumanlarda hokimning iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish (iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat), masalalari bo'yicha o'rinbosari va uning 4 shtat birlikka ega kotibiyati mintaqa iqtisodiyotini boshqaradi. Mintaqa iqtisodiyotini boshqarishda mintaqa Iqtisodiyot bosh boshqarmasi muhim rol o'ynaydi. Boshqarmada mintaqa va hududni kompleks rivojlantirish prognozlari va monitoringi yig'ma bo'limi, investitsiyalar va investitsiya dastur-lari, Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish prognozlari va monitoringi, uy-joy kommunal xo'jaligi, Bozor infratuzilma-sini rivojlantirish, sanoat, kommunikatsiya tizimlarini va axbo-rot texnologiyalarini rivojlantirish, Sog'liqni saqlash va ta'limni rivojlantirish, Bandlik, aholi turmush darajasi va iste'mol bozori hamda Moliya bo'limlari faoliyat yuritadi.

Iqtisodiyot bosh boshqarmasi mintaqa xo'jaligini keng qamrovli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Shahar va tumanlarda Iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish (iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat) masalalari bo'yicha hokim muovini Iqtisodiyot bo'limiga rahbarlik qiladi.

Shahar, tuman iqtisodiyot bo'limi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- tuman iqtisodiyoti, uning tarmoqlari rivojlanishi ko'rsat-kichlarini, tendensiyalarini izchil tahlil qilish;
- tuman iqtisodiyotidagi mavjud nomutanosibliklarini aniqlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning korxonalar hamda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha qisqa, o'rta muddatli prognozlari va dasturlarini ishlab chiqish;
- tumanning eksport potensialini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash, tovarlar (ishlar, xizmat-lar) eksporti prognozlarini tayyorlash;
- aholining ish bilan bandligini ta'minlash, iste'mol bozo-rini tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish asosida tuman aholi-si farovonligini oshirishning yo'nalishlari va aniq yo'llarini belgilash;
- tuman iqtisodiyotining rivojlanishi ahvoli to'g'risida yil-lik va har choraklik ma'ruzalar tayyorlash, uning rivojlanishidagi nomutanosibliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- iqtisodiyot tarmoqlaridagi barcha investitsiyalardan samara-li foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish;
- iqtisodiy, shu jumladan, mahalliy resurslardan samarali foydalanish asosida ishlab chiqaruvchi kuchlar joylashtirilishi yuzasidan takliflar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajasi va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo'nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilish; strategiya asoslanib, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- konsepsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- hududning moliyaviy resurslari o'sishini prognoz qilish; budget daromad qismini kengaytirish va Nazorat yo'llarini izlash; budget daromad qismini to'ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlardan va nobyudjet jamg'armalaridan qo'shimcha mablag'larni jalb etish.

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli-dasturlash uslubidan foydalaniladi. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yo'naltirishni ta'minlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim

iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega bo'lib, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'ladi.

Maqsadli dasturlar o'rta va uzoq muddatga mo'ljallab korxonalar, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar o'z ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarni, resurslar ta'minotini olishi kerak.

Dastur maqsadi o'lchamga ega bo'lishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi lozim. Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirishi hamda jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga davlat etadigan, yo'naltiradigan bo'lishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy me'yoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yo'li bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

Davlat boshqaruvida prognozlash - bu ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarning rivojlanishi, ularning o'zgarishi vaqtlari va tabiati haqidagi ilmiy asoslangan g'oya. Prognozlash jarayoni qat'iy vaqt doiralari, ilgari qabul qilingan qarorlar bilan cheklanmaydi, bu dastlabki xususiyatga ega. Prognozlar, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan va shu bilan birga davlat ta'siriga qisman mos keladigan (yoki qo'llabquvvatlanmaydigan) davlat boshqaruvi ob'ektlari to'g'risida ma'lumot manbai hisoblanadi. Noto'g'ri boshqariladigan (yoki boshqarilmaydigan) omillar sifatida, qoida tariqasida, tabiiy-iqlim, demografik, harbiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy, savdooportunistik omillar ajratiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida prognozlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- 1) ijtimoiy-iqtisodiy;
- 2) demografik;
- 3) mehnat resurslari va ishchi kuchi prognozlari;
- 4) tabiiy resurslar bo'yicha prognozlar; ijtimoiy makroiqtisodiy prognozlar;
- 5) ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasining makroiqtisodiy prognozlari;
- 6) ilmiy-texnika sohasidagi prognozlar;
- 7) harbiy-siyosiy;

8) tashqi iqtisodiy prognozlar.

Vaqt xarakteristikasiga ko'ra qisqa, o'rta, uzoq muddatli prognozlar farqlanadi, ularning sub'ektlari mos ravishda valyuta kurslari, aktsiya baholari, narxlar va boshqalar bo'lishi mumkin; yangi turdagi xizmatlar yoki mahsulotlarni yaratish va taqdim etish, maqsadli dastur, milliy loyiha va boshqalarni amalga oshirish; mamlakatdagi demografik vaziyat, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va boshqalar.

Konsolidatsiyalangan makroiqtisodiy prognozlar mamlakat iqtisodiyotining kutilayotgan holatini aniqlash va uning asosiy parametrlari - yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, asosiy kapitalga investitsiyalar, real pul daromadlari dinamikasi tendentsiyalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan davlat prognozining asosiy elementiga aylandi. aholi va boshqalar. Makroiqtisodiy prognozlash pessimistik, optimistik va realistik prognozlarni ishlab chiqish bilan bog'liq. Makroiqtisodiy prognozlar turli prognozlash usullari yordamida amalga oshiriladi.

Ekstrapolyatsiya usuli kelajakdagi rivojlanish traektoriyasi o'tmishdagi rivojlanish traektoriyasining davomi ekanligiga asoslanadi. Ekstrapolyatsiyani bashorat qilish inertial jarayonlarga qo'llaniladi. Faktorlarni bashorat qilish usuli prognoz mavzusiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, kerakli ko'rsatkichlarning omillarga bog'liqlik turini aniqlash (chiziqli yoki eksponensial bo'lishi mumkin) va prognoz qilingan ko'rsatkichlarning qiymatlarini hisoblashni o'z ichiga oladi. Modelni bashorat qilish usuli iqtisodiy va matematik modellarga asoslangan prognozlash vositasidir. Davlat boshqaruvi amaliyotida u modellanayotgan ob'ektga mos keladigan makroiqtisodiy modellarni qurishning murakkabligi tufayli keng qo'llanilmagan. So'nggi yillarda davlat organlari ekspert prognozlashning eng universal usuli sifatida ko'proq murojaat qila boshladilar, bunda ekspert tajriba, analogiya va sezgi asosida prognoz qiladi.

Rejalashtirilgan faoliyat boshqaruv sub'ektining tabiiy va zaruriy funksiyasidir. Davlat boshqaruvi tizimida rejalashtirish universaldir. Reja - bu nafaqat orzu qilingan natija, balki unga erishish yo'llari va bu rejalashtirish va prognozlash o'rtasidagi asosiy farqdir. Rejalashtirish jarayon sifatida rejani ishlab chiqish, tuzish, amalga oshirish jarayonini kuzatish va tuzatishdan iborat. Rejalar har qanday davr uchun ishlab chiqiladi. Qisqa muddatli rejalar bir yilgacha bo'lgan muddatga qaratilgan. O'rta muddatli rejalar, qoida tariqasida, bir yildan besh yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi. Uzoq muddatli rejalar 5-20 yil muddatga ishlab chiqiladi.

Rejani ishlab chiqishning har xil turlari diskret rejalashtirish va doimiy prokat rejalashtirishga xosdir. Birinchi holda, rejalar "uchdan oxirigacha" ishlab chiqiladi, chunki bir reja tugallanganda, u boshqasi bilan almashtiriladi. Ikkinchi holda, reja

vaqti-vaqti bilan tugashidan oldin ham uzaytiriladi. Rejalashtirish jarayoni bosqichli xarakterga ega, shuning uchun quyidagilar mavjud: xalqaro rejalashtirish (mamlakatlarning birgalikdagi siyosiy, iqtisodiy va boshqa faoliyati); davlat rejalashtirish; tarmoqni rejalashtirish; hududiy rejalashtirish; xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning hududlarini rejalashtirish. Rejalashtirish ob'ekti va foydalaniladigan ko‘rsatkichlarga ko‘ra, ijtimoiy rejalashtirish farqlanadi (ijtimoiy xarakterdagi jarayonlar va ob'ektlarga taalluqlidir); makrodarajada ishlab chiqarish va iqtisodiy rejalashtirish (iqtisodiy o‘shiga qaratilgan); davlat moliyaviy rejalashtirish (davlat byudjetlarini, fondlarini shakllantirish bilan bog‘liq).

Davlat rejalashtirishning quyidagi shakllarini ishlab chiqish dolzarbdir:

- 1) davlat darajasida majburiy tasdiqlash bilan rejalashtirilgan kontsepsiya;
- 2) davlat direktivasi bo‘yicha uzoq muddatli rejalashtirilgan inshootlar;
- 3) davlat darajasida indikativ rejalarni ishlab chiqish va qabul qilish orqali indikativ rejalashtirish;
- 4) davlat maqsadli dasturlari;
- 5) davlat rejalashtirilgan buyurtma;
- 6) davlat byudjetini davlatning moliyaviy rejasi sifatida shakllantirish;
- 7) davlat mulkini xususiylashtirish va undan foydalanishning davlat rejalari va dasturlarini qabul qilish;
- 8) davlat investitsiya va innovatsion loyihalar.

Davlat dasturlari ko‘pincha maqsadli rejalashtirishga ekvivalent atama sifatida ishlatiladi. Dasturiy-maqsadli usul - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan jamiyat hayotining turli sohalaridagi muammolarni hal qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning asosiy yo‘lidir.

Dasturiy-maqsadli rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: maqsadlarni aniq shakllantirish va tizimlashtirish ("maqsadlar va vazifalar daraxti"); amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning belgilangan maqsadlar bo‘yicha shartliligi (maqsadni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar tizimi); dastur tadbirlarini amalga oshirish uchun vositalar va resurslarni dastlabki tashkil etish; dasturni boshqarishga tizimli yondashish va boshqaruv organlari tomonidan choratadbirlarning bajarilishini nazorat qilish.

Dasturiy yondashuvning mohiyati “dastur sohasi”, “dastur parametrlari”, “dastur tuzilmasi” tushunchalari orqali ochib beriladi. Umuman olganda, dastur tuzilmasi quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi: maqsadli (muammoning mazmuni, uni hal qilish zarurligini dastur usullari, maqsadlari, vazifalari, dasturning muddatlari va bosqichlari bilan asoslash), ijro etuvchi (dastur faoliyati tizimi),

resurs (hajmlar, resurslar manbalari), tashkiliy (amalga oshirish mexanizmi , boshqaruv va nazoratni tashkil etish, oqibatlarini baholash, dastur pasporti).

Maqsadli dasturni ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1) dasturni maqsadli belgilash; dasturni ilmiy va loyiha ishlab chiqish (uni amalga oshirish yo‘llarini asoslash);

2) tarkibiy rivojlanish (bo‘limlarni shakllantirish, dasturning ijro etuvchi tuzilmasini qurish, dastur faoliyatini asoslash);

3) resurslarni rivojlantirish (dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslar hajmi va manbalarini asoslash).

Maqsadli dasturni ishlab chiqish chiziqli bo‘lmagan, lekin tsiklik jarayon bo‘lganligi sababli davlat dasturlarini ishlab chiqish usullari mazmunining yagona algoritmi mavjud emas.

Davlat dasturlarini tasniflash quyidagi asoslarga ko‘ra mumkin:

1. Davlat dasturining funktsional yo‘nalishiga ko‘ra:

- ijtimoiy yo‘naltirilgan (ijtimoiy);

- ilmiy-texnikaviy (innovatsion);

- investitsion (reproduktiv);

- ekologik;

- milliy xavfsizlikni ta‘minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish dasturlari.

2. Davlat dasturlarini amalga oshirish obyektiga ko‘ra:

- hududiy (mintaqaviy);

- sanoat;

- resurslar salohiyatini rivojlantirish dasturlari;

- tashqi iqtisodiy;

- tashkiliy va boshqaruv;

- marketing.

3. Dasturni amalga oshirish muddatiga ko‘ra:

- qisqa muddatli, 3 yilgacha bo‘lgan muddatga;

- o‘rta muddatli, 3-5 yil muddatga;

- uzoq muddatli, 5 yildan ortiq muddatga.

4. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasiga ko‘ra:

- byudjet hisobidan to‘liq amalga oshirilgan dasturlar;

- nodavlat moliyalashtirish manbalarini jalb qilgan holda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan dasturlar;

- qo‘shma hududiy dasturlar (hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan dasturlar);

- hokimiyat va boshqaruv organlarining joriy faoliyati bilan bog‘liq dasturlar.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda:

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o‘ylangan dasturlar qabul qilindi va ular izchil amalga oshirilmoqda” -deb ta’kidladi.

Mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat ob’ekti ishga tushirildi. Bu biz uchun kelgusi yilda qo‘shimcha 1,5 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida bug‘-gaz qurilmasi barpo etildi. Bu esa qo‘shimcha ravishda 2,5 milliard kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida ikkinchi bug‘-gaz qurilmasi, Qizilqum bag‘ridagi Avminzo-Amantoy oltin konlari negizida gidrometallurgiya zavodi qurish bo‘yicha ishlar davom etmoqda. Hozirgi vaqtda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Yoshlik-1”, “Yoshlik-2” konlarini o‘zlashtirishga kirishildi. Sardoba, Markaziy Farg‘ona va To‘palang suv omborlarini qurish bo‘yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Bu yirik inshootlar ham, hech shubhasiz, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim voqea bo‘ladi.

Farg‘ona-Marg‘ilon yo‘nalishidagi temir yo‘l tarmog‘i ayni paytda elektrlashtirilmoqda. Yana bir yirik ob’ekt – Qandim gazni qayta ishlash kompleksi ishga tushirilishi hisobidan 2018 yilda qo‘shimcha ravishda 4 milliard 100 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 67 ming tonnadan ziyod kondensat, 106 ming tonnadan ortiq oltingugurt ishlab chiqarish imkoni yaratiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri bo‘lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida kelgusi yili qo‘shimcha ravishda 6 milliard kub metr tabiiy gazni oltingugurtdan tozalaydigan bloklar to‘liq faoliyat boshlaydi. Shular qatorida “O‘zagrotex-sanoatxolding” aksiyadorlik jamiyatida yangi yilda 5 mingdan ko‘proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq pritseplar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi .

2. Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi. Dasturning maqsadi eksportga mo‘ljallangan va import o‘rnini bosadigan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni yanada rag‘batlantirish, ichki tarmoq va tarmoqlararo, jumladan respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini Nazorat, aholi bandligiga ko‘maklashishdan iboratdir.

3. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni tartibga solish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda:

- hududlarda mahsulot hajmi, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;
- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
- qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;
- qishloq xo‘jaligi korxonalari moddiy-texnika bazasini yaxshilash va Nazorat, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha korxonalar tarmog‘ini yaratish;
- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;
- zarar ko‘rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini, fermer xo‘jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdorligini oshirish, seleksiya va urug‘chilikni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o‘stirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Infratuzilma , transport va kommunikatsiyalar qurilishini kompleks va jadal rivojlantirish dasturi.

5. Respublika hududlarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida bu sohaning YaIMdagi ulushi 1990-2017 yillarda 34% dan 47,3% ga o‘tdi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifa va yo‘nalishlarini amalga oshirilishi natijasida 2010-2017 yillarda pulli xizmat ko‘rsatish hajmi 2,7 barobarga, aholi jon boshiga hisoblaganda 2,3 barobarga o‘tdi.

Ta’kidlash joizki, 2013 yilda “2013-2016yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirildi.

6. Mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish joylarini shakllantirish va aholi bandligi, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonlari va sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish bo‘yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

7. 2018 yilda davlat dasturida “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ko‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ni amalga oshirish mo‘ljallangan .

Mazkur dasturga muvofiq iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasida quyidagilarni amalga oshirish vazifalari belgilangan:

- faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish;
- tadbirkorlik sub’ektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlarini, soliq va bojxona siyosatini, bank-moliya sohasini yanada takomillashtirish;
- agrar sektorni isloh qilish strategiyasini ishlab chiqish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga imtiyozlar taqdim qilgan holda individual imtiyozlar berishdan voz kechish;
- hududlarni faol rivojlantirish.

8. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish. Ijtimoiy sohani tartibga solishda respublika, hududiy va mahalliy boshqarish darajalari mavjud bo‘ladi. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish territorial dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish va hududlarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- hududlarni rivojlantirish bo‘yicha respublika va hududiy dasturlarni tanlash va ularni amalga oshirishni asoslash hamda navbatga qo‘yish tizimini shakllantirish;
- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas’uliyatini oshirish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining hududiy jihatlarini kuchaytirish;
- tarmoq dasturlarining hududiy jihatlari monitoringini tashkil etish;
- hududlar va tarmoq imkoniyatlari, zahiralarini chuqur o‘rganish va hisobga olish asosida prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;
- dasturlarni amalga oshirish ustidan qat’iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun hududni tanlashda hududdagi muammoli holatlarni chuqur o‘rganish lozim bo‘ladi. Hukumat tomonidan hududlarni tashkiliy-axborot, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy kreditlar, grantlar olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro dasturlar va texnik ko‘maklar loyihalarida ishtirok etishida yordam berish va qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘ladi. Mahalliy budjetlarni balanslashtirish umumdavlat soliqlardan ajratmalar normativlarini va berilgan dotatsiyalarni tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Respublika hukumati tomonidan mahalliy hokimiyat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga davlat boshqaruvi vakolatlari bir qismining o'tkazilishi oqibatida hududiy mahalliy budjetlarning roli oshadi.

O'zbekistonda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan bosh maqsad hududlarni barqaror rivojlantirishni rag'batlantirish va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajalari o'rtasida keskin farqlarning vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratishdan iborat.

Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish maqsadini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududlarini barqaror rivojlantirish uchun ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini imkon darajada tenglashtirish;
- hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi va rivojlanishidagi asossiz vujudga keltirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish;
- hududlar ixtisoslashuvini oqilonlashtirish va tumanlararo iqtisodiy aloqalarni optimallashtirish;
- hududlarning hududlararo va tashqi iqtisodiy integratsiyalashuvi, ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy biquqligi (o'zi bilan o'zi bo'lishlik, tor doirada o'ralashib qolishlik) ga barham berish.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning huquqiy shakllari sifatida qonunlar, qonunosti va sud huquqiy hujjatlar, aktlar xizmat qiladi. O'zbekistonda hududlar rivojlanishini tartibga solishda Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari muhim o'rin tutadi.

Hududlar rivojlanishini tartibga solishning tashkiliy-institutsional tarkibi respublika ijro hokimiyati darajasida Vazirlar Mahkamasi, ko'pgina vazirlik va idoralar tomonidan shakllantiriladi.

Hududlarni rivojlantirish umumiy siyosati O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ayrim iqtisodiyot sektorlari va yo'nalishlari bo'yicha hududiy muammolar bilan quyidagi davlat tuzilmalari shug'ullanadi:

- Markaziy bank;
- Moliya vazirligi;
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi;
- O'zbekiston respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi;
- Qurilish va arxitektura bo'yicha qo'mita;
- «O'zkommunxizmat» agentligi va boshqalar.

Hudud rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi vaziyatlarga bog'liq:

- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari iqtisodiy bazasi;
- mamlakatdagi budget tizimi;
- tadbirkorlikning rivojlanish ko'lamini;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari hamda usullariga, tezligiga;
- soliq imtiyozlarini qo'llash tajribasi;
- budgetdan tashqari jamg'armalar;
- moliyaviy resurslarga;
- hududning investitsiyaviy va eksport imkoniyatlari;
- viloyatlar va tumanlararo, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalar;
- bozor infratuzilmasi obyektlari rivojlanish darajasi;
- aholining ish bilan bandlik muammolarining xususiyatlari;
- hududdagi ekologik vaziyat.

Hudud rivojlanishini davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri tartibga solish respublika budjeti, dotatsiya va subvensiyalar hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihalarini amalg'ir oshirish orqali bo'ladi.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqiladi:

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.
2. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni tartibga solish.

Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda:

- hududlarda mahsulot hajmi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;
- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
- qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;
- qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnika bazasini yaxshilash va Nazorat, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar tarmog'ini yaratish;
- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;
- zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini, fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdorligini oshirish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini oshirish chora-tadbirlari ko'riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo'shma korxonalarini tashkil etishni tartibga solish.

Endilikda, respublika hududida, ayniqsa, kam rivojlangan hududlarda qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investitsiyalami jalb etish uchun maqsadli dasturlar tuzish va ularni rag'batlantirish uchun soliq, boj, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Hududlarda temir yo'llar, avtomobil yo'llarini qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlarning viloyatlararo, tumanlararo tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik, biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalami jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish. Ijtimoiy sohani tartibga solishda respublika, hududiy va mahalliy boshqarish darajalari mavjud bo'ladi. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish territorial dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish va hududlarning rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- hududlarni rivojlantirish bo'yicha respublika va hududiy dasturlarni tanlash va ularni amalga oshirishni asoslash hamda navbatga qo'yish tizimini shakllantirish;

- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas'uliyatini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining hududiy jihatlarini kuchaytirish;

- tarmoq dasturlarining hududiy jihatlari monitoringini tashkil etish;

- hududlar va tarmoq imkoniyatlari, zaxiralarini chuqur o'rganish va hisobga olish asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

- dasturlarni amalga oshirish ustidan qat'iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun ma'muriy qarorlar qabul qilish bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, iqtisodiy rag'batlantirish tavsifiga ega bo'lgan dastak va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun hududni tanlashda hududdagi muammoli holatlarni chuqur o'rganish lozim bo'ladi.

Hukumat tomonidan hududlarni tashkiliy-axborot, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy kreditlar, grantlar olish, xorijiy investitsiyalami jalb qilish, xalqaro dasturlar va texnik ko'maklar loyihalarida ishtirok etishida yordam berish va qo'llabquvvatlash kerak bo'ladi.

Hududiy rivojlanishni tartibga solishda moliyaviy mexanizmlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Mahalliy budjetlarni balanslashtirish umumdavlat soliqlardan ajratmalar normativlarini va berilgan dotatsiyalarni tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Respublika hukumati tomonidan mahalliy hokimiyat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga davlat boshqaruvi vakolatlari bir qismining o'tkazilishi oqibatida hududiy mahalliy budjetlarning roli oshadi.

Asosiy tushuncha va atamalar:

Iqtisodiy dastur, iqtisodiyotni dasturlash, prognoz, prognozlashtirish, reja, rejalashtirish, reja turlari, dasturlashning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, direktiv rejalashtirish, indikativ rejalashtirish, mintaqaviy siyosat, mintaqqa (hudud)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini dasturlash, tarmoq dasturlari.

Nazorat uchun savollar

1. Iqtisodiy dastur nima?
2. Iqtisodiy dasturlash usullari nimalardan iborat?
3. Prognoz nima?
4. Prognozlashtirish nima va u qanday amalga oshiriladi?
5. Rejalashtirish nima va uning qanday turlarini bilasiz?
6. Rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
7. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejalashtirish uni davlat tomonidan tartibga solishda qanday rol o'ynaydi?
8. Iqtisodiy dasturlar nima uchun kerak va ular qanday maqsadlarga xizmat qiladi?
9. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari qanday tuziladi?
10. Tarmoq va hududiy rivojlanish davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?

VI. BOB. DAVLATNING IQTISODIYOTDA XUSUSIY TARMOQ VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI

6.1. Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko‘maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub’ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste‘mol tovarlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko‘rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Mamlakatimizda qisqa davrda to‘plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omili ekanligini isbotladi. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshishi hamda yuqori makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishimizda kichik biznes muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimiz hududlarida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o‘zini-o‘zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarining raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z

faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo'lish imkonini beruvchi korxonalarining miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to'sqinlik qilishi mumkin. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub'ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko'plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o'z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha ma'lum bosqichlarni bosib o'tdi. Salkam 30 yil davomida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi borasida bir qator me'yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratildi.

6.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'yektlari turli chegaralarining amal qilish bosqichlari⁵

| Bosqich | Yillar | Tegishli me'yoriy hujjat |
|----------------|---------------|--|
| I | 1992- 1995 | “O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to'g'risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 26 fevraldagi 85-son qaroriga 2-sonli ilova) |
| II | 1995- 1998 | O'zbekiston Respublikasining “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida”gi Qonuni (1995 yil 21 dekabr) |
| III | 1998- 2003 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni (1998 yil 9 aprel) |
| IV | 2003- 2011 | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori (2003 yil 11 oktyabr) |
| V | 2011- 2019 | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi Qarori (2013 yil 14 iyun), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida |

⁵ Xalilov Navruz Mansurovich- maqola “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari” JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57


| | | |
|-----------|-----------------------------|--|
| | | investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son Farmoni) Qarori (2014 yil 3 iyul), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi (2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni) |
| VI | 2020- keyingi davrlar | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020 yil 19 martdagi PF-5969-son Farmoni), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llabquvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020 yil 3 apreldagi PF-5978-son Farmoni). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar bilan 2022 yildagi “Ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022 yil 30 avgustdagi PQ-364-son Qarori) |

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan asosiy ko‘rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta’minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya’ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo‘lgan tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi. Shuningdek mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun ish bilan bandligini va daromadlarini oshirish hamda mulkdorlar sinfini shakllantirishda eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi. Umuman kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati:

- mamlakat yalpi milliy mahsulotining tarkib va miqdor jihatdan ko‘payishini ta’minlaydi;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zamin yaratib beradi;
- aholining joriy daromadlari va jamg‘armalarining oshishiga hamda farovonlik darajasini ko‘tarilishiga zamin yaratadi;
- sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf etishi;
- davlat byudjet mablag‘larining bir me’yorda bo‘lishini ta’minlaydi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda faol eshtirok etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish;

- yangi texnika-texnologiya, asbob-uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mehnat unumdorligini oshiradi.

Shuning uchun ham jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes milliy iqtisodiyotining poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham kichik korxonalarining soni ularda mavjud bo‘lgan jami korxonalarining 70-80 foizini tashkil etmoqda. Masalan, Yaponiya aholisining esa 71,7 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. Kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy ahamiyatlaridan biri bu mamlakat yalpi ichki mahsulotini tarkib va miqdor jihatdan ko‘payishini ta‘minlashdan iboratdir. Keyingi yillarda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznesning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘sib, 2021 yilda 54,9 foizni tashkil etdi. Kichik biznesning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotdagi ulushining 2010-2021 yillardagi holati (6.1-rasm)da keltirilgan.



6.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida 2010-2021 yillarda kichik biznesning ulushi, %⁶

Kichik biznes mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko‘tarishi, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining o‘lchovi bo‘lganligi uchun O‘zbekistonda ham kichik biznesning rivojlanishini rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunning asosiy ustivor vazifasidir.


Kichik biznesga bo‘lgan e‘tiborning iqtisodiy sabablari:

- ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish;
- aholining harid qobiliyatini oshirish;
- mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- servis xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish;
- yirik korxonalarini butlovchi detallar va qismlar bilan ta‘minlash;

⁶ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

- raqobat muhitini vujudga keltirish;
- mamlakat ichida kapitalning aylanuvchanligini ta'minlash kabilar.


Haqiqatdan ham kichik biznes sub'ektlari ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to'ldirayotgan, yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta'minlayotgan va mamlakat eksport salohiyatini oshirayotgan sohaga aylanib bormoqda. Buni mamlakat eksport salohiyatidagi o'rnini oshib borayotganidan ham ko'rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini ham asta-sekin kengayib bormoqda. Uning eksport hajmidagi ulushi 2021 yilda 22,3 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 8,6 foizga oshgan (6.2-rasm).



6.2-rasm. Kichik biznesning 2010-2021 yillarda mamlakat eksportidagi ulushi, %

Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida eksport muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining ravnaqi eksport salohiyatining yuksalishiga ham bevosita bog'liqdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning eksport salohiyati tubdan o'zgardi. Bunda kichik biznesning o'rnini ham beqiyosdir. Kichik biznes sub'ektlari bugungi kunda ichki iste'mol bozorini import o'rnini bosuvchi tovarlar bilan to'ldiribgina qolmay, balki yuqori sifatli, raqobatbardosh tovarlarni jahon bozoriga taklif etmoqda.

Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliyatlarida kichik biznesning salmog'i juda kattadir. Keyingi paytlarda sanoatda tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o'zgartirish, sanoatda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarda ham sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Bunda esa kichik biznes asosiy yetkachilardan hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishda ham kichik biznesning ulushi yildan-yilga oshib bormoqda.



6.3-rasm. Kichik biznesning 2010-2021 yillarda mamlakat sanoatida ulushi, %

Kichik biznesni sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat sanoatida, qayta ishlash sanoati, yengil sanoatda ulushi yuqori bo‘lmoqda. Asta sekinlik bilan kichik biznes sub’ektlari sanoatning boshqa muhim tarmoqlariga ham faoliyati oshishib bormoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishdan yana bir maqsad mamlakatning ma’naviytarbiyaviy va madaniy ishlarini yuksaltirish. Chunki kichik biznes ma’naviytarbiyaviy va madaniy sohalarni rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirishning ma’naviy-tarbiyaviy va madaniy sabablari:

- an’anaviy xalq amaliy san’ati va badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko‘maklashish;
- sport va sog‘lomlashtirish maskanlarini barpo etish;
- xususiy o‘quv muassasalarini ochish;
- obodonlashtirish, ko‘rkamlashtirish va ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish;
- bolalar, o‘smirlar hamda yoshlar lagerlarini tashkil qilish.

Keyingi 3-4 yil ichida mamlakat iqtisodiyotida davlat ulushini qisqarishi, erkin bozoro mexanizmlarini amal qilishi natijasida kichik biznesning rivojlanishida tub bo‘rilish bo‘ldi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi ham oshib bormoqda. Ayniqsa, kichik va xususiy korxonalarining ishlab chiqarish tarmoqlaridagi hissasi ortib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotida kichik va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirish, o‘zini-o‘zi ish bilan bandligini ta’minlash, mahallalarda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish kabilarga erishishni ta’minlaydi. Mahaliy Institutlarning samaradorligi rolini oshirish – tadbirkorlarga yangi korxonalar yaratish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni taqdim etishi, shuningdek, uning keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga imkoniyat berishi lozim.

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun dastavval tadbirkorlik subyektlarini aniq moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan aholi mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, tadbirkorlar, tijorat banklari va moliya institutlarining kreditlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning grantlari, xalqaro standartlarga muvofiq kredit uyushmalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar o'z ehtiyojlari uchun ob'ektlar quradigan yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlariga yagona soliq to'lovi to'lash bo'yicha imtiyozlar yaratish.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan yirik korxonalar o'rtasida ilmiy-texnika sohasida kooperasiyasini yo'lga qo'yish. Yirik korxonalarning buxgalteriya, marketing kabi xizmatlarini outsorsing asosida tashkil etish mexanizmlari bo'yicha huquqiy asoslarni Nazorat.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning davlat xaridlarida ishtirokini oshirish, tadbirkorlik sub'ektlarining davlat xaridlari sohasida yanada soddalashtirish deb hisoblaymiz.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovatsion texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmokda.

Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va makbul vositaga aylantirmoqda.

Yurtimizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni Nazoratga bo'lgan e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda. Iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yalpi ichki mahsulotning 52,8 foizdan ko'prog'i kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotganiga qaramay, yuqori texnologik jarayonlarni talab etadigan sanoat tarmog'idagi (19,6 %) va eksportdagi (13,4 %) ulushi kichik biznesning mavjud salohiyati darajasida emas¹. Mazkur soha va tarmoqlarda kichik biznes taraqqiyotini ta'minlash, umuman, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida innovatsion jarayonlarni faollashtirish, ayniqsa, kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish yuqori samara beradi.

Kichik biznes sub'ektlarida yangi texnika va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga yuqori tavakkalchiliklarsiz joriy etish, yangi ishlab chiqarish kuvvatlarini barpo etib, undan samarali foydalanish jarayoni yirik korxonalariga nisbatan tezroq ro'yobga chiqadi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va raqobat muhiti kuchayib borishi, mahsulotlar hayotiylik davri keskin qisqarishi, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlari tez o'zgarishi jarayonlari bugungi kunda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning tashkiliy-iqgisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotiy zaruratga aylantirmoqda. Bu esa ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarishni talab etmoqda. Shu jihatdan, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovatsion va nanotexnologiyalar, farmakologiya va farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar qilib aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish o'zining ijobiy samarasini beradi.

Kichik biznes sub'ektlaryushng innovatsion faoliyati, eng avvalo, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish, ikkinchqtsan, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarini pasaytirishda ularning iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi. Kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdan maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Fikrimizcha, O'zbekistonda ilg'or ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish quyidagi omillar hisobiga muhim zarurat hisoblanadi:

birinchidan, kichik biznesning bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olish xususiyatlariga ega ekanligi innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yirik korxonalariga nisbatan yuqori tavakkalchilikning pastligi jihatidan yaxshi samara beradi;

ikkinchidan, kichik biznes sub'ektlari faoliyatiga innovatsion texnologiyalar joriy etilishi ularning yuqori transaksion xarajatlarini kamaytirib, rentabellik ko'rsatkichlarini oshiradi;

uchinchidan, kichik biznes sub'ektlarining yangiliklarni tezkorlik bilan o'zlashtira olish salohiyati ularga innovatsiyalarni tijoratlashtirishdan yuqori daromad olish imkoniyatini beradi;

to'rtinchidan, kichik biznes sub'ektlari faoliyatiga boshqaruvning innovatsion texnologiyalari joriy etilishi ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish, tovar va xizmatlar nomenklaturasini oshirish, yangi tovarlar turlarining sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish hisobiga ularning eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshiradi.

Mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy, me'yoriy-xuquqiy asoslar mavjud va kadrlar saloxdati ancha yuqori darajada. Biroq, mazkur salohiyatdan samarali foydalanish ko'rsatkichi talab darajasida emas. Faoliyat ko'rsatayotgan 222 ta ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik muassasalarining 8,5 foizigina innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanadi.

Respublikamizda innovatsiya muhitining bugungi ahvoli qisqa muddatlarda kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishning yuqori darajasiga erishish imkonini bermaydi. SHu bois, uni rivojlantirish davlat tomonidan mazkur yo'nalishdagi aniq chora-tadbirlarni belgilashni taqozo etadi. Bu borada asosiy e'tibor avvalambor, quyidagilarga qaratilishi lozim:

- kichik biznesning ilmiy-texnikaviy axborotdan foydalanish, innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etishdagi yuqori transaksion xarajatlarini kamaytirish;

- kichik korxonalar uchun yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va ularni jalb etishdagi yuqori tavakkalchiliklarni bartaraf etish;

- innovatsion ishlanmalar va ularni joriy etish uchun o'z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsiya institutlari bozori tashkil etilishini rag'batlantirish;

- yirik korxonalarining kichik biznes sub`ektlari innovatsion loyihalarini hissador tashkilot sifatida ulushli moliyalashtirishdan oladigan manfaatdorligini oshirish;

- fan-ta`lim-ishlab chiqarish intefatsiyasi samaradorligini oshirish va ularni o`zaro bog`laydigan innovatsion vositachilar tarmog`ini rivojlantirish va h.k.

Kichik biznes sub`ektlari mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqish va xalqaro bozorlar standartlariga moslashtirish orqali ularni tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonlariga keng jalb etish, zamonaviy axborot texnologiyalari yutuklaridan foydalanilgan holda kichik biznesni ma`lumotlar bilan ta`minlash sifatini oshirish hamda innovatsion marketing tadqiqotlarini olib borish kabi uslubiy yordamlar ko`rsatishda kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ko`maklashuvchi infratuzilmalar faoliyatini tubdan isloh qilish lozim.

Xizmat ko`rsatuvchi infratuzilmalar kichik biznes sub`ektlarining o`sib borayotgan talab va ehtiyojlarini to`liq qondirish orqali ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirishni rag`batlantirishda etakchi kuchga aylanishi zarur.

Innovatsion iqtisodiy rivojlanish yo`liga o`tishda kichik va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish quyidagi yo`nalishlar orqali amalga oshirilish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarishda innovatsiya va nanotexnologiyalarni ko`llash;

- muqobil energiya turlaridan foydalanish, ayniqsa, quyosh energiyasidan foydalanish;

- farmakologiya va farmatsevtika sohasi salohiyatidan foydalanish;

- ishlab chiqarishda biotexnologiyalarni qo`llash;

- kam suv talab qiladigan texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- qishloq xo`jaligi ekinlari yangi serhosil navlarini, mahsuldor chorva mollari turlarini yaratish;

- sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishlash va h.k.

Agar biz zamonaviy, ilg`or va tejamkor texnologiyalardan foydalanishga hamda tovarlarning yuqori sifati va iste`mol xususiyatlarini ta`minlashga xizmat qiladigan shshovatsion texnika va texnologiyalarni yaratish tizimini joriy etsak, bu sohaga yoshlarni jalb qilgan hodda aholimizning ichki ehtiyojlarini ta`minlash bilan birga eksportga xizmat qiladigan raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada ko`chaytirishga erishishimiz mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini innovatsion asosda rivojlantirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

birinchidan, sanoat korxonalarini xodimlarini rag'batlantirib ularni ko'proq marketing tadqiqotlarini olib borishga jalb qilish orqali yangi innovatsion goyalarni ishlab chiqishga yo'naltirish;

ikkinnchidan, sanoat korxonalarida ishlayotgan yosh xodimlar tomonidan yaratilayotgan innovatsion loyihalarni amaliyotda qo'llashdan oldin korxonada hududiga tegishli joylarda sinov maydonchalarini tashkil etishni yo'lga qo'yish;

uchinchidan, kichik biznes vakillari va xususiy tadbirkorlar uchun kreditlar va ular uchun zarur resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytarish va yaratilayotgan innovatsion loyihalarni kreditlash tizimini yaratish;

to'rtinchidan, viloyatlarning chekka tumanlarida ishlab chiqarishda eng muhim omil bo'lgan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va shu kabi kommunal xizmatlar uzluksizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish;

beshinchidan, yaratilgan innovatsion mahsulotlar va minitsexlar savdo yarmarkalarini tashkil etish;

oltinchidan, kichik biznesning eksport saloxdatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, xuquqiy, moliyaviy mexanizmlarini shakllantirish va sharoitlarni yanada yaxshilash orqali kelgusida chetga xomashyo emao, balki yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotni eksport qilishga erishish.

O'zbekistonda innovatsiya faolshggani yuqori darajada rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun Milliy innovatsion tizim (MIT)ni to'lik shakllantirish lozim. Bunda respublikamizda innovatsion iqtisodiyotga o'tish kontseptsiyasini va MITni shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish zarur. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining ynnovatsiya faoliyatini samarali rivojlantirishga qaratilgan "Innovatsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish va qabul qilish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kichik biznes sub'ektlari o'z faoliyatlarida donmo yangi innovatsiyalarni kullamay, yirik korxonalar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'ymay bozorga yangi mahsulot yoki texnologiyalarni kiritishlari mushkuldir. Bunda kichik biznes korxonasining boshqaruv faoliyatiga innovatsion menejment usul va texnologiyalarini tatbiq etish, amaldagi boshqaruv usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borish kichik biznes sub'ektining kelgusidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

6.2. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati aholi

turmush farovonligi va daromad darajasini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari birinchi navbatda faoliyatning moliyaqiy barqarorligini ta'minlashga qaratilib, bu o'z navbatida tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning imkoniyatini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirilishining amaliy natijalarini 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari bo'yicha taxlil qiladigan bo'lsak, mahalliyashtirish dasturi doirasida 2017 yilda 1 ming 76 ta loyiha amalga oshirildi. Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshdi, import o'rnini bosish bo'yicha yakuniy samaradorlik 3 milliard 400 million dollarni tashkil etdi va bu 2009 yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p demakdir.

Korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari mustahkamlanmoqsa, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes sub'ektlari tobora keng jalb qilinmoqda. 2017 yilda o'tkazilgan Xalqaro sanoat yarmakasi va Kooperatsion birjada dunyoning 51 ta mamlakatidan 700 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya vakillari qatnashdi, 500 dan ortiq yangi turdagi mahsulot namoyish etildi, qiymati 2 trillion 600 milliard so'mlik shartnomalar imzolandi. Bu raqam oldingi yarmarkalardagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 marta ko'pdir. Yarmakada umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarlik eksport bitimlari tuzildi va bu 2009 yil darajasidan 1,2 barobar ortiqdir.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy, iqtisodiy hamda xuquqiy kafolatlanishi bevosita aholini tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishning muxim omillari sifatida e'tirof etiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari) sifatida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiq:

-faoliyatni tashkil etishdagi moliyaviy tashkilotlar tomonidan pul va kredit resurslari ajratilish;

-faoliyatni tashkil etishdagi tadbirkorlik sub'ektlarining o'z ixtiyoridagi mablag'laridan foydalanish asosida;

-faoliyatni tashkil etishdagi xorijiy investitsiya va kredit tashkilotlari tomonidan moliyaviy resurslar ajratilishi;

-faoliyatni tashkil etishdagi homiylik firmalari va grant tashkilotlari tomonidan mablag'lari asosida.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes sub'ektlari moliyaviy barqarorligini oshirishda mavjud faoliyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini yangi texnologiyalar va faoliyatni kuchli raqobat asosiga tashkil etish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. SHuning

uchun kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, kadrlarni o'z mutaxassisligiga ko'ra to'g'ri joylapqfish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga sifat talablarini shakllantirish, iste'mol tovar va xizmatlar bozorida mavqega ega bo'lish omillarini ishlab chiqish faoliyatining iqtisodiy Hamda moliyaviy saloxdagini ta'minlash omillari sifatida e'tirof etiladi.

Respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy barqarorligini ta'minlashning davlat tomonidan hukukiy mexanizmi shakllantirilishi faoliyat va kichik biznes sub'ektlari va moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qilmokda. Buni, o'z navbatida, soliq yuki kamaytirilishi, banklar tomonidan kredit imtiyozlari berilishi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish rag'batlantirilishi, mexnat resurslari bandligini ta'minlash nuqtai nazaridan imtiyozlar berilishi kabilarda ko'rish mumkin.

Yuqoridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash omillariga qo'shimcha -sifatida kuyidagalarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqtsir:

-kichik biznes sub'ektlari faoliyatini eksportga yo'naltirilgan tovarlar ishlab chiqarishga asoslangan imkoniyatlarini oshirish evaziga xorijiy valyuta tushumini oshirish;

-aholini zaruriy birlamchi tovar va xizmalarga bo'lgan talabini hisobga olib faoliyatni tashkil etish asosiga aholi pul mablag'larini jalb etish etishni rivojlantirish mumkin;

-xorijiy davlatlarda zaruriy iste'mol tovarlariga talabning xususiyatlaridan kelib chiqib, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish asosidagi moliyaviy barqarorlik;

respublikamizda bank va mijoz hamkorligi imkoniyatlaridan kelib chiqib, kichik biznes sub'ektlarining banklardagi moliyaviy mablaglari ta'minotini shakllantirish va jalb etish.

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda tadbirkorlik sub'ektlariga mikrocredit ajratish jarayonini soddalashtirish, rasmiylashtirish jarayonini qisqartirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi "Mikrocreditbank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi № PF-3750 sonli Farmoni qabul qilingan. Bunda qarz oluvchi tomonidan mikrocredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati faqat:

- mikro-credit olishga buyurtmanoma;
- biznes-reja;
- mikrocredit qaytarish ta'minlanishini tasdiqlovchi hujjatlar bilan cheklanadi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy vositalarini shakllantirish bevosita tovar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatlari va aholini birlamchi tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdagi muhim omillari sifatida e'tirof etiladi.

Davlat tomonidan tartibga solish turlarining tasnifi iqtisodiyotning turli sohalari yoki bozor segmentlaridagi muayyan munosabatlarga davlat ta'siri darajasiga asoslanishi mumkin. Demak, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maksimal, o'rtacha va minimal darajasini (rejimini) ajratib ko'rsatish mumkin. Maksimal daraja davlat tomonidan tartibga solish vositalarining hammasidan yoki ko'pchiligidan foydalanishni nazarda tutadi. U, masalan, tabiiy monopoliyalarga nisbatan o'rnatiladi. Ijodiy faoliyat bilan bog'liq tadbirkorlikka nisbatan davlat tomonidan tartibga solishning minimal darajasi mavjud.

Maqsadlar iqtisodiy sohada davlat tomonidan tartibga solish davlatning iqtisodiy sohadagi funktsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan bir qator aniq vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad sifatida jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Asosiy maqsad iqtisodiy tsiklni tenglashtirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini, pul muomalasini ta'minlash, raqobat muhitini yaratish, aholining normal bandligini ta'minlash, narx-navo barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy sheriklik uchun shart-sharoit yaratish va boshqalar kabi maqsadlar orqali ochib beriladi. iqtisodiy soha belgilangan maqsadlarga erishish natijasida yuzaga keladigan aniq muammolarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.

Asosiy funktsiyalaridan biri iqtisodiy faoliyat sohasidagi davlat bozorning samarali faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslarni yaratish, barqaror "o'yin qoidalari" ni yaratishdir. Shu munosabat bilan iqtisodiy sohada davlatning ushbu funksiyasini amalga oshirishning huquqiy ta'minotini yaratish vazifasi paydo bo'ladi.

Davlat iqtisodiy siyosatining ob'ektlari, amalga oshirish shakli iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bo'lib, juda xilma-xildir. Bularga milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va kichik tarmoqlari kiradi.

Davlat tomonidan tartibga solish ob'ekti ular yordamida davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladigan alohida vositalar (asboblar) mavjud, masalan, narx, rejalashtirish, pul muomalasi va boshqalar.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- biznes tsiklini moslashtirish;
- aholi bandligining normal darajasini ta'minlash;
- fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish;

- bozorda raqobatni qo'llab-quvvatlash;
- kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar va boshqalar.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish vazifalarining taqdim etilgan ro'yxati davlat tomonidan tartibga solish nafaqat davlat, balki tadbirkorlarning o'zlari uchun ham zarur ekanligini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni ikki guruhga bo'lish mumkin:

To'g'ridan-to'g'ri(ma'muriy) usullar - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning xatti-harakatlariga bevosita hokimiyat ta'sir ko'rsatish vositalari.

Bularga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- soliqqa tortish;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini.

2. Bilvosita usullari - tadbirkorlik sub'ektlari xatti-harakatlarining motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlarni yaratish orqali tadbirkorlik munosabatlariga ta'sir qilishning iqtisodiy vositalari.

Bularga quyidagilar kiradi:

- prognozlash va rejalashtirish;
- soliq imtiyozlarini berish;
- imtiyozli kreditlash;
- davlat (shahar) buyurtmasi va boshqalar.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish masalasi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi muammosi bilan bevosita bog'liq. Qoida tariqasida, bunday aralashuv zarurati iqtisodiy tizimning o'zini o'zi tartibga solish orqali bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishning mumkin emasligi bilan bog'liq.

Birinchi, davlat aralashuvi orqali bozor muhitini saqlash ta'minlanadi.

Davlat xo'jalik aylanmasi ishtirokchilarining «o'yin qoidalari»ni yaratadi va ularga rioya etilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, mulkdorlarning huquqlari qonuniy mustahkamlangan va kafolatlangan, pul tizimi faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgan, raqobat muhitining saqlanishi ta'minlangan.

Ikkinchi, davlat iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish orqali uning barqaror rivojlanishiga, salbiy omillarni yumshatishga, davriylik va nomutanosibliklardan kelib chiqqan noto'g'ri hisob-kitoblar va kamchiliklarni tuzatishga yordam beradi.

Uchinchi, davlat iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlab, jamiyatga bozor mexanizmlari orqali olish umuman imkonsiz, qiyin yoki maqsadga muvofiq

bo'lmagan imtiyozlar beradi. Bular jamoat tovarlari deb ataladigan narsalar, ya'ni istisno qilmaslik (tovarlarni boshqa shaxslar ixtiyoriga bermaslik uchun bir shaxsga berish mumkin emas) va raqobatbardoshlik (bo'lish) xususiyatlari bilan tavsiflanadi. bir kishiga taqdim etilgan bo'lsa, bir kishi qo'shimcha xarajatlarsiz boshqalarga berilishi mumkin).

Shuningdek, makroiqtisodiy darajada davlat tomonidan mamlakatning to'lov balansi balansi, ichki bozorni himoya qilish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish masalalari hal etilmoqda.

Qoidaga ko'ra, jamoat mollari davlat mudofaasi, jamoat tartibini saqlash, fundamental fanni rivojlantirish, kosmik dasturlarni amalga oshirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Jamoat tovarlaridan tashqari sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat xizmatlarini qayta taqsimlash mexanizmi orqali kirish imkoniyati ochiladigan tovarlarga kiritish mumkin.

To'rtinchidan, davlat ijtimoiy tengsizlik kabi bozor faoliyatining etishmasligini bartaraf etishga yordam beradi. Ma'lumki, bozor mexanizmi o'ta shafqatsiz bo'lib, ijtimoiy adolat masalalarini hal etishga, zamonaviy demokratik jamiyat talablariga muvofiq ma'lum bir farovonlik darajasini kafolatlashga qodir emas. Bunga davlatning byudjet siyosati vositalari: soliqlar, transfertlar va boshqalar yordamida iqtisodiyotga aralashuvi orqali erishiladi.

Iqtisodiyotga aralashish orqali davlat aholini ish bilan ta'minlash muammosini ham hal qila oladi.

Bozorning o'z-o'zini tartibga solishda ustun bo'lgan stixiyali tamoyillardan farqli o'laroq, davlatning iqtisodiyotga ta'siri prognozlash va rejalashtirishga asoslanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi yakka tartibdagi huquqiy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- ro'yxatga olish hujjatlari (yuridik shaxslar; yakka tartibdagi tadbirkorlar; ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar; ixtirolar; sanoat namunalari; foydali modellar; tovar belgilari; tovar kelib chiqqan joy; oziq-ovqat mahsulotlari, materiallar va mahsulotlar);

- dalolatnoma-ruxsatnomalar (litsenziya berish to'g'risidagi qaror, yer qabulidan foydalanishga litsenziya berish to'g'risidagi qaror);

- muayyan harakatlarni amalga oshirishga rozilik berish aktlari (rozilik so'rovini qondirish to'g'risidagi qaror);

- huquqbuzarliklarga javob berish aktlari (huquqbuzarlikni tugatish to'g'risidagi buyruqlar, jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorlar, jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorlar).

6.3. Biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesning rivojlanishdagi mavjud muammolarning echimini topish va 2014-2017 yillarda istiqbollashtirilayotgan parametrlarni ta‘minlash, ushbu sohada tadbirkorlik faolligini oshirishning yo‘nalishlarini aniqlash va ular bo‘yicha chora- tadbirlarni belgilashni talab etadi. Kichik biznesda tadbirkorlik faolligini oshirish uchun quyidagi umumiy sharoitlar ta‘minlashi zarur:

- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlash negizida uni barqaror rivojlanishini ta‘minlash;

- iqtisodiyotda raqobat muhiti shakllanishini ta‘minlash;

- kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlash tizimi, uning mexanizmlarini takomillashtirish asosida rivojlantirib borish;

- kichik biznesga xizmat ko‘rsatuvchi infruzulmalarni samarali harakat qilishini ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo‘napishlari quyidagilardan iborat:

- kichik biznesning xuquqiy-me‘yoriy va tashkiliy asoslarini iqtisodiyotda turli omillar ta‘sirida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga mos ravishda uzluksiz takomillashtirib borish;

- davlat tomonidan kichik biznes va xuquqiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini samaradorligini oshirish, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yangi mexanizmlarni mavjud sharoitlarga moslashtirgan holda amaliyotga qo‘llash;

- kichik biznesning innovatsiya negizida rivojlanishini ta‘minlash borasida chora - tadbirlarni ishlab chiqish;

- kichik biznesni moliyaviy jihatdan ta‘minlash mavjud mexanizmlar samaradorligini oshirish va moliyalashtirishning yangi manbalarini harakatga keltirish negizida kulay investitsiya muhitini yaratish;

- kichik biznesda ishlab chiqarishni tashkil etishning moddiy ta‘minotini takomillashtirish;

- kichik biznesni tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish;

- kichik biznes sohasi uchun malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;

- kichik biznesda kooperatsiyani chukurlashtirish.

Kichik biznesni ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kichik biznesni rivojlantirish borasida xorijiy tajribani o‘rganish va uni mamakatimiz sharoitlariga tatbiq etish muhimdir. Xususan, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Italiyada yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishi 3-5 foizni tashkil etadi va

ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha AQSH, Yaponiya, Germaniya va Frantsiyadan keyin 5-o'rini egallaydi.

Bu davlatda kichik biznesning o'ziga xos xususiyati shundaki, yirik firmalarda ishlash bilan birga o'rindoshlik bo'yicha kichik va hunarmandlik korxonalarida ham mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek ishlab chiqarish tuzilmasining eng muhim tarkibiy kismlaridan biri kooperativ (shirkat) sektoridir. Korperatsiya shakli mamlakat tashqarisida «sanoatlashtirishning ital'yan modeli»dir. Bunday sanoat okruglarining samaradorligi shundaki, ular mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalana oladilar. Buning natijasida korxonalar bir qancha imkoniyatlarga ega bo'ladi, jumladan:

- korxonalararo munosabatlar moslashuvchanligi yuzaga keladi;
- korxonalar tashkilot, uyushmalar va institutlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga oid ma'lumotlar olish imkonini beradigan aniq axborot tizimi yuzaga keladi;
- milliy mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqishda kichik korxonalar etakchi mavqega ega bo'ladi;
- tarmoq usulida tashkil etilgan kichik ishlab chiqarish kooperativlarida bandlik yuqori darajada bo'ladi.

Iqtisodchi olimlar tadqiqotlariga ko'ra, Italiya iqtisodiyotida turli sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalarini texnologik jihatdan birlashtirishning tashkiliy shakli «konstellyatsiya» ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Bunda o'zaro bog'liq, murakkab tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda cheklangan miqdordagi korxonalar birlashib faoliyat yuritadi. Bunday tashkiliy shaklda birlashgan korxonalardan biri mahsulot tayyorlash jarayonini bajarsa, ayrimlari texnologik jarayon uchun mas'ul bo'ladigan, ba'zilar esa savdo bilan shug'ullanadi. Natijada nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish muammosi hal bo'ladi, shuningdek ishlab chiqarish ko'lami ham kengayadi. Bunday jarayonda etakchilikni konstellyatsiyada oxirgi bosqichdagi ishlarni bajaradigan korxonalar amalga oshiradi. Ular boshqa firmalardan barcha kerakli butlovchi qismlarni sotib oladi va ularga turli ishlar bo'yicha buyurtmalar beradi.

Demak, korxonalaridagi faoliyatning muvofiqlashuvi yuzaga keladi. Turli konstellyatsiyalarda hamkorlik qilish, bozorda ma'lum bir mahsulot turiga talabning kengaytirilishi va erkin raqobat muxiti yaratiladi, shu bilan birga mahsulotning tannarxi va uning narxi pasayishiga olib keladi.

Fikrimizcha, Italiya Respublikasida kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirishning bu tashkiliy shakli O'zbekistonda ham mavjud xususiyatlar asosida foydalanish mumkinligini e'tirof etmoqchimiz. Chunki konstellyatsiya usulini O'zbekiston amaliyotida ham qo'llash, kichik biznesda afzalliklar yaratadi, bular:

- kichik korxonalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;
- texnologik jihatdan murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi;
- korxonalarining ishlab chiqarishda raqobatbardoshligini oshiradi;
- marketing tadqiqotlarini o'tkazishning realligini ta'minlaydi. Samarali eksport faoliyatini amalga oshirishlari uchun tashqi bozor talablariga to'liq javob beradigan marketing majmuasi axborotlari bilan ta'minlangan bo'lishlari zarur.

Bozorlarning o'ziga xos salohiyati va bozor kon'yuyurasidagi o'zgarishlar bo'yicha joriy axborot tizimi, kompaniyalarning barcha resurslari bevosita savdo faoliyatiga qaratilgan va asosiy xaridorlar bilan doimiy aloqa o'rnatilgan tashkilotlar bu eksport savdo kompaniyalaridir. Jahon amaliyotida eksport faoliyatini tashkil etishning chet ellarda savdo uylarini ochish shakli ham tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning shakli sifatida keng tarqalgan.

O'zbekiston savdo uylarining chet ellarda tashkil etilishi mahalliy to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar eksport faoliyati samaradorligishshng oshishiga ham imkoniyat yaratadi. Kichik biznes sub`ektlarining tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishishida savdo vositachilari ko'mak beradi hamda hamkorlar va xaridor topishga dastlabki imkoniyat yaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik axoli bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim bo'g'inga aylanadi. Iqtisodiyotni izchll rivojlantirishning eng muhim omili, jamiyatimiz ijtimoiy va siyosiy barqarorligining kafolati, mamlakatimizni taraqqiyot yo'lidan olg'a etaklaydigan faol harakatlanuvchi kuchi sifatida amal qiladi.

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bogliqdir. Bu holat esa korxonalarining iqtisodiy erkinligini rag'batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik b,iznes kirib bora olmaydigan bozor segaentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, shuyaingdek

mamlakatning eksport saloxdyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.

Kichik biznesni rivojlantirish borasida yaratilgan qulay shart-sharoitlar sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi, aholini ish bilan bandlashgagi va daromadlarining o'sishidagi roli yanada kuchayishi hamda YaIM, eksport va tarmoqlar hamda sohalarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridagi ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021 yilning 21 apreldagi «Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori mazkur yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'lishi bilan birga tadbirkorlarning ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha ishonchli himoya qilish kafolati bo'ldi.

Biznes yuritish shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida, 2021 yil 1 maydan boshlab tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi joriy qilindi.

Shunga ko'ra, kichik tadbirkorlik sub'ektlariga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etilishi hamda ijtimoiy himoya yagona reyestri axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan ortiq bo'lmagan tijorat banklari kreditlari bo'yicha kafillik berilishi belgilandi.

Shuningdek, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizi kichik biznes loyihalariga, 30 foizi ustuvor ravishda o'zini o'zi band qilishga, tomorqadan unumli foydalanish, uy sharoitida hunarmandchilikni va kasanachilikni rivojlantirishga yo'naltirilishi belgilandi. Bunda ajratiladigan mablag'larning kamida 15 foizi joylarda, ayniqsa shaharlarda xizmat ko'rsatish sohasida kichik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilishi belgilandi.

2021 yil 1 iyundan boshlab infratuzilmaga yaqin joylarda, shu jumladan, respublika ahamiyatidagi yo'llarga tutash bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha unumdorligi past, foydalanishda bo'lmagan

qishloq xo'jaligi yerlarini sanoat va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini barpo etish uchun loyiha asosida investorlarga "E-ijro auksion" savdo maydonchasi orqali ajratishga ruxsat berildi.

Shuningdek, uch yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat ko'rsatayotgan hamda hisoblangan soliqlarni muddatida to'lab kelgan, lekin moliyaviy ahvoriga ko'ra soliq qarzini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash hamda uch yildan ortiq vaqtdan buyon tovarlarni import qilish bilan shug'ullanayotgan, bojxona to'lovlari bo'yicha majburiyatlarini bajarib kelgan, lekin moliyaviy ahvoriga ko'ra to'lovlarni belgilangan muddatda to'lash imkoniyatiga ega bo'lmayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga bojxona to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berildi.

Ushbu tartib bo'yicha garovsiz bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliq yoki to'lovlar summasi tadbirkorlik sub'ekti tomonidan oxirgi uch yil davomida to'langan soliq yoki bojxona to'lovlari summasining 50 foizidan oshmasligi belgilandi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, davlat dasturi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes imkoniyatlari, inson kapitali, milliy iqtisodiyot, xususiy korxonalar, resurslar hajmi, YaIM da eksportning hajmi, hizmatlar bozori, innovatsion tadbirkorlik, imtiyozli kreditlar, bojxona tariflari, eksport imkoniyatlari, soliq imtiyozlari.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini izoxlang.
2. 2022 yilda kichik biznes sohasida qancha yangi ish o'rinlari tashkil etildi?
3. Mamlakatimizda bandlik muammosini hal etishda kichik biznes imkoniyatlarini tushuntiring.
4. Kim kichik va xususiy korxonalarining sub'ekti hisoblanadi?
5. Kichik biznes faoliyagining tarqalish sohalari qanaqa?
6. Kichik korxonalar kim tomonidan tashkil qilinishi mumkin?
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholining daromadlari va farovonligini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatmoqsa?
8. Kichik biznes imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha o'z fikringizni bayon eting.
9. Nima uchun kichik biznes korxonalari milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi?
10. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni belgilashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

VII BOB. IQTISODIYOTDA MONOPOLIZMGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH

7.1. Raqobatning mohiyati, shakllari, vazifalari, shakl va usullari.

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman, tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Raqobat – bozor sub’ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq nafga ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. tartibga solish vazifasi;
2. resurslarni joylashtirish vazifasi;
3. innovatsion vazifa;
4. moslashtirish vazifasi;
5. taqsimlash vazifasi;
6. nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishni talab (iste‘mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta’sir o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya’ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi ishlab chiqarish omillarini ular eng ko‘p samara beradigan korxonalar, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub’ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko‘rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi korxonalar (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shunchaki o‘zini-o‘zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo‘jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o‘tishini bildiradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi ishlab chiqarilgan ne‘matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste‘molchilar o‘rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazadi.

Nihoyat, raqobatning nazorat qilish vazifasi bozordagi ba’zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o‘rnatishiga yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltiriladi.

Raqobat o‘z miqyosiga ko‘ra, raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo‘linadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish

va sotishning qulay sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoq korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitalning foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda me'yorlarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – bu iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o'zida mujassam etgan qiyosiy tavsif hisoblanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xalqaro raqobatda namoyon bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligining namoyon bo'lishi ko'p darajali shakllarga ega, jumladan:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi.

Bunda raqobatbardoshlikning barcha darajalari o'rtasida ichki va tashqi o'zaro bog'liqlik mavjud. Mamlakat va tarmoqning raqobatbardoshligi pirovardida muayyan tovar ishlab chiqaruvchining raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liq.

Raqobatbardoshlikni barpo etish va rivojlantirishning M.Porter konsepsiyasiga asoslangan zamonaviy modelida mamlakatda raqobat muhitini shakllantiruvchi to'rtta xususiyatga e'tibor qaratiladi. Ushbu muhit raqobat ustunliklarini shakllantirishga ko'maklashishi ham yoki unga to'sqinlik qilishi ham mumkin.

Mamlakat raqobat ustunliklariga erishishi uchun barcha ushbu determinantlar o'zaro hamkorlik qilishi lozim (M.Porterning ta'riflashicha – milliy romb). Faqatgina o'zaro hamkorlik qiluvchi va bir-birini kuchaytiruvchi determinantlarning butun tizimi bo'yicha ustunlik milliy iqtisodiyotda milliy ishlab chiqaruvchilarning muvaffaqiyati uchun zamin hisoblangan va undan xorijiy raqobatchilar nusxa ko'chirishi yoki uni yo'q qilishi qiyin bo'lgan (yoxud hatto mumkin bo'lmagan) muhitni shakllantiradi.

Agar «Omillar uchun shart-sharoitlar» determinantini ((lotincha determinans (determinantis) — aniqlovchi) — hodisani yuzaga keltiruvchi, uni belgilovchi o'ziga xos omillar) ko'rib chiqadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish omillari nazariyasi bo'yicha tovar aylanishining oqimi ishlab chiqarishning mehnat, yer, tabiiy resurslar, sarmoya, infratuzilma kabi omillarini belgilab beradi. Xususan, mamlakat jahon bozoriga ularni ishlab chiqarishning ortiqcha omillariga asoslangan tovarlarni yetkazib beradi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida mamlakatda ishlab chiqarishning u yoki bu omillarining mavjudligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Bugun jahon iqtisodiyotida globallashtirish, yuqori axborotlashuv va hokazolarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish omillarini shakllantirish va yangilanish tezligining samaradorligi hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«Barqaror strategiya, tuzilma va raqobatchilik» omilida mamlakatda kompaniyani tashkil etish va boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lum sharoitlarning mavjudligiga ahamiyat beriladi. Kuchli mahalliy raqobat ustunliklarini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga undovchi muhim omil hisoblanadi. Mamlakatning barcha raqobat ustunliklari ichida ichki bozordagi raqobat eng muhim hisoblanadi, chunki u yuqorida keltirilgan raqobatning qolgan elementlariga kuchli rag'batlantiruvchi ta'sirga ega.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular: sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste'molchilarining soni ham juda ko'p bo'ladi. Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o'rinata olmaydi yoki nazorat sezilarsiz darajada bo'ladi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlash orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarining mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g‘irrom va halol raqobatlashuv usullari ham ajratib ko‘rsatiladi. Raqobatlashuvning noan’anaviy, jamiyat tomonidan e’tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya’ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro‘sigga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g‘irrom raqobat deb yuritiladi. Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo‘llash, o‘zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo‘llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat. Narx vositasida raqobatlashuv kurashning asosiy usuli bo‘lib, ishlab chiqaruvchilarning o‘z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Narxsiz raqobatda kurashning asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro‘-e’tibori hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarda iqtisodiyot raqobatbardoshligining turli omillariga ustuvorlik beradi. Iqtisodiyotning u yoki bu tarixiy davrida raqobatbardoshlikni belgilab beruvchi biror omillarning ta'siriga ko‘ra quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

- omillar bosqichi;
- investisiyalar bosqichi;
- innovasiyalar bosqichi.

Omillar bosqichida mamlakatning barcha raqobatbardosh tarmoqlari ishlab chiqarishning asosiy omillari: tabiiy resurslar, arzon ishchi kuchi va mamlakatning mavqei, hududi bilan belgilanadigan foydalar hisobidan o‘z mavqelariga erishadi.

Raqobat jihatdan ustunliklar omillarning qiymati bilan belgilanadi, bunda texnologik rivojlanish ko‘pincha chet eldan xarid qilish yo‘li bilan keltirilgan texnologiyalarga asoslanadi.

Raqobatbardoshlining yanada yuqori bosqichi – bu investisiyalar asosidagi raqobatbardoshlik. Ushbu bosqichda mamlakatlarning raqobat jihatdan ustunliklari faol investisiya siyosatiga asoslanadi. Bunda ham texnologik rivojlanish chetdan keltirilgan texnologiyalarga asoslanadi, biroq bu o‘zlashtirish birinchi bosqichdagi kabi passiv hisoblanmaydi. Firmalar eng yaxshi texnologiyalar, lisenziya, nouxauga investisiya qilishadi, bunda texnologiyalar mamlakat ichida doimiy ravishda takomillashib boradi. Ichki raqobat ishlab chiqarishning dinamik takomillashuvini rag‘batlantiradi, chunki u kompaniyani texnika yangiliklarini

kiritishga va takomillashishga majbur qiladi. Aynan mamlakatdagi raqobatchilar narxlarni pasaytiradi, sifatni va xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi va yangi mahsulotni barpo etadi. Xorijiy kompaniyalar bilan raqobatlashish mamlakat kompaniyalari uchun unchalik samarali va amaliy emas, chunki ko'pincha har qanday mamlakat iqtisodiyotida chet el kompaniyalari uchun «alohida» sharoitlar yaratiladi. U holda mamlakat kompaniyalarining raqobati nafaqat bozorni bo'lish uchun, balki insonlar va texnik takomillashuv uchun ham kurashishga olib keladi, shuningdek mamlakat kompaniyalaridan birining yutuqlari boshqalariga mazkur sohadagi muvaffaqiyat haqiqat ekanligini isbotlaydi, bu hol sanoatning ushbu tarmog'iga yangi ishtirokchilarning jalb etilishiga olib keladi. Yana bir holat, ya'ni mahalliy raqobatchilar doirasi qanchalik tor bo'lsa ular o'rtasidagi raqobat shunchalik keskin bo'ladi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Innovasiyalar bosqichi iqtisodiyot raqobatbardoshligining ichki salohiyati to'liq ishga tushishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda firmalar nafaqat xorijiy texnologiyalarni qo'llashadi va takomillashtiradi, balki o'z texnologiyalarini barpo etishadi. Daromadlarning yuqori bo'lishi, ta'lim darajasining oshishi va jadal ichki raqobat tufayli ichki bozor sig'imli va talabchan bo'ladi. Ushbu bosqichda firmalar global strategiyalarni ishlab chiqishadi va chet elda keng ko'lamli investisiyalarni amalga oshiradi.

Mikrodarajadagi raqobatbardoshlik omillarning ikkita guruhi bilan aniqlanadi: milliy kompaniyalarning rivojlanish darajasi, shuningdek makroiqtisodiy biznes-muhitning sifati bilan. Forum ma'ruzasining mualliflari firmalar darajasidagi raqobatbardoshlikni to'rtta asosiy omil bilan bog'laydilar:

- resurslar,
- tashqi raqobat,
- talab,
- tarmoqlararo aloqalar.

Bunda firma ichidagi menejment, marketing, harakat strategiyasi («tadbirkorlik muhitining sifati») ham muhim hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy forumining ma'lumotlariga asoslangan hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, tadbirkorlik muhitining omillari umuman mamlakatlar bo'yicha iqtisodiy o'sish dinamikasiga eng katta ta'sir ko'rsatdi (60 foiz).

Mamlakatning raqobatbardoshligi – erkin va halol raqobat sharoitida mamlakatning jahon bozori talablarini qondiruvchi tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. Tarixan mamlakatlarning raqobatbardoshligi konsepsiyasi milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimoti va har bir mamlakatning xalqaro savdodagi rolini asoslab beruvchi qiyosiy

ustunliklari (arzon mehnat, boy tabiiy resurslar, qulay jug'rofiy o'rin, iqlim, infratuzilma omillari va hokazo.) nazariyasiga asoslangan.

Mamlakatlararo raqobatbardoshlik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Jahon iqtisodiy forumining raqobatbardoshlik bo'yicha har yillik ma'ruzalarida chop etiladigan ishlanmalari ajralib turadi. Jahon Iqtisodiy Forumi (JIF)ning mamlakatlar raqobatbardoshligini baholash metodikasi amaliyotda keng qo'llaniladigan metodikalardan biri bo'lib, u 12 ta asosiy ko'rsatkichga asoslanadi:

1. Mamlakat faoliyat ko'rsatishining umumiy ko'rsatkichlari
2. Makroiqtisodiy muhit
3. Texnologik yangiliklar va ularning diffuziyasi
4. Axborot va kommunikasiya texnologiyalari
5. Mamlakatning umumiy infratuzilmasi
6. Davlat muassasalarida – qonunlar va faoliyat
7. Davlat muassasalarida - korrupsiya
8. Mahalliy raqobat
9. Bozor sub'ektlarining rivojlanishi
10. Kompaniyalar strategiyasi va taktikasi
11. Atrof muhitni muhofaza qilish (AMMQ)
12. Xalqaro tashkilotlar (banklar)

Mamlakat faoliyat ko'rsatishining umumiy ko'rsatkichlariga o'z ichiga

YaIM, aholi, aholi jon boshiga YaIM, aholi jon boshiga YaIMning real o'sishi, ishsizlik darajasi hamda aholining bandligi ko'rsatkichlarini oladi. Xalqaro tashkilotlar (banklar)ga esa o'z navbatida Jahon bankining biznesni rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Jahon bankining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Xalqaro valyuta fondining biznesni rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, XVFnning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Mintaqaviy Tiklanish va taraqqiyot banklari (TTB)ning biznesni rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Mintaqaviy TTBning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi kiradi.

Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari quyidagilar bilan aniqlanadi:

- birinchi bosqichda – ishlab chiqarish omillari: tabiiy resurslar, tovarlar ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar, malakali ishchi kuchi hisobidan (bir determinant bilan ta'minlanadi);

- ikkinchi bosqichda – ta'lim, texnologiya, lisenziyaga tajavvuzkor investisiyalash asosida (bir determinant bilan ta'minlanadi);

- uchinchi bosqichda – «romb»ning barcha tarkibiy qismlarining amal qilishi yo'li bilan mahsulotning yangi turlarini, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, tashkiliy qarorlar va boshqa innovasiyalar hisobidan;

- to'rtinchi bosqichda – tashkil etilgan bo'lylik hisobidan va to'liq foydalanmayotgan barcha determinantlarga tayanadi.

7.2. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati chora-tadbirlari.

Davlat bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asoslaridan biri bo'lgan raqobat mexanizmining to'liq ishlashi uchun hamda aholini ma'lum darajada ijtimoiy himoyalash maqsadida iqtisodiy monopolizmga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ma'lumki, sobiq sotsialistik mamlakatlarda, shu jumladan, sobiq covet ittifoqida davlat mulkining yakkahokimligi, rejali xo'jalik yuritish tizimining amal qilishi oqibatida iqtisodiy raqobat uchun sharoit bo'lmadi. Tadbirkorlik va tanlash erkinligi ham mavjud emasdi. Shu boisdan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun raqobatchilikni tiklash lozim bo'ladi. Buning uchun davlat mulkini uning ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirishning o'zi kifoya qilmaydi. Chunki yangidan tashkil topadigan aksionerlik jamiyatlari, konsern, uyushmalar, xususiy firmalar yana iqtisodiy yakkahokim bo'lib qolishlari mumkin. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlarda to'plangan yakkahokimlikka qarshi kurash tajribalari asosida antimonopol siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Dastlabki monopolizmga qarshi qonun 1890 yilda (trestlarga qarshi Sherman qonuni) AQShda qabul qilingan. Hozirgi davrda ana shunga o'xshash qonunlar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bo'lib, mazkur qonunchilik asosan uch yo'nalishga ega.

Birinchiidan, har qanday yirik firma, korporatsiya mahsulot ishlab chiqarishning 40-50 foizdan ortig'ini o'z qo'lida to'plamasligi zarur.

Ikkinchiidan, barcha yirik korxonalar jismoniy va yuridik shaxslar uchun o'zining va boshqa hissadorlik jamiyatlari aksiyalarining to'planadigan ulushlari miqdori cheklab qo'yiladi.

Uchinchiidan, bozor baholarini talab va taklif nisbatini inobatga olmay, o'zaro kelishib belgilash va ushlab turishga qaratilgan kelishuvlar, bozorlarni o'zaro taqsimlab olishlar man qilinadi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikni tatbiq etish uchun maxsus ma'muriy muassasalar, qo'mitalar tuziladi. Ular korxonalarining tuzilishiga, qimmatbaho qog'ozlarning taqsimlanishiga aralashadilar va barcha uchun majburiy qaror ishlab chiqaradi. Bunda Yaponiya tajribasi qo'l kelishi mumkin. Yaponiyada Ikkinchi jahon urushidan keyin yakkahokim monopoliyalarni man qiluvchi qonunga amal qilishni nazorat qiluvchi odilona kelishuvlar yuzasidan tashkil topgan qo'mita keng vakolatlarga ega bo'lib, mazkur qo'mita mustaqil ravishda ish yuritadi. Agar amaldagi qonunchilikning buzilishini qo'mita aniqlasa va bu holat sud tomonidan

tasdiqlansa, uni buzgan firmaga juda katta jarima solinadi. Qo'mita o'zaro raqobat qiluvchi korporatsiyalarning bir-birlari bilan kartel shartnomalari tuzishlarini man qiladi. Agarda ana shunday shartnomalar iqtisodiy zarurat sifatida tuzilsa, qisqa muddatli bo'lishi nazorat qilinadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organlarining monopolistik faoliyatni cheklash va tartibga solishga qaratilgan faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- monopoliyadan chiqarish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni nazorat qilish;

- bozorda ma'lum tovar bo'yicha 35% dan ortiq ulushga ega bo'lgan va ryestruga kiritilgan xo'jalik sub'ektlarining bozordagi hatti-xarakatini nazorat qilish;

- tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlarining monopolistik faoliyatining oldini olish va unga barham berish;

- tovar bozorlariga kirish to'siqlarini, shuningdek, xalqaro savdo va investitsiyalar uchun tarifli va tarifsiz to'siqlarni kamaytirish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish;

- xo'jalik subektlarini bo'lib yuborish, yoki ushbu tovar bozoriga kirishni istagan yangi xo'jalik sub'ektlarini qo'llash-quvvatlash yo'li bilan monopolistik tovar bozorida xo'jalik sub'ektlari sonini ko'paytirish;

- xo'jalik sub'ektlarining qo'shilishiga va yuridik shaxslarning uyushmalar tashkil etishlarini man qilish;

- g'irrom, nohalol raqobatning oldini olish;

- tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlarining bozor salohiyatini(potensialini) cheklash.

Buyuk Britaniya va Fransiyada korxonalarining qo'shilishi natijasida tashkil topgan yangi korxonaning bozor ulushi 25%dan, aktivlar hajmi ham ma'lum miqdordan oshmasligi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Germaniyada bundan tashqari yillik sotish hajmining quyi chegarasi ham belgilab qo'yiladi AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliyada qo'shilish to'g'risidagi shartnomalar davlatning tegishli organlari ruxsatisiz tuzilgan taqdirda noqonuniy hisoblanadi. Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyada aktivlari qiymati va sotish hajmi bo'yicha yirik firmalarning qo'shilishigina nazorat qilinadi.

Kartellar AQSH, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya, Avstraliya, Kanadada to'liq man qilingan. Bu haqdagi keluv qonunni buzilishi holati deb hisoblanadi. Kelishuv to'g'risidagi ma'lumot tasdiqlansa, monopol foyda miqdoridan 3 barobar ko'p miqdorda shtrafqa tortiladi. AQShda yashirin kartelda ishtirok etish javobgarlikka tortiladigan jinoyat hisoblanadi. Ta'minot va sotish faoliyati bo'yicha firmalarning birlashishi tannarxni pasaytirishga imkon bersa ham noqonuniy faoliyat deb baholanadi.

Monopoliya o‘z tabiatiga ko‘ra ishlab chiqarishda turg‘unlik paydo qiladi, chunki monopol mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay foyda ko‘rish, raqobatning yo‘qligi yoki zaifligidan foydalanib bozorga o‘z izmini o‘tkazish mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli hatto bozor iqtisodiyoti hukmron davlatlar monopoliyaga qarshi choratadbirlarni ko‘radilar.

Monopoliyaning asosiy shakllari — kartel, sindikat, trest, konsernlar hisoblanadi. Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to‘planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to‘planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishini namoyon etadi.

Monopoliyalarning turlarini bir nesha mezonlarga ko‘ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko‘ra:

- sof monopoliya
- oligopoliya
- monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab shiqaruvshi yoki sotuvchining narx va ishlab shiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O‘zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O‘zbekiston havo yo‘llari» DAK, «O‘zbekiston temir yo‘llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab shiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o‘z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba’zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab shiqaruvchilar sonining ko‘payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko‘p hamda ular o‘rtasida ma’lum darajada raqobat mavjud bo‘lgan, biroq har bir ishlab shiqaruvchi yoki sotuvchi o‘z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma’lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko‘plab mebel, kiyimkechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab shiqaruvshilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab shiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O‘zbekistonda tsement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko‘mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg‘un) va Boysun (To‘da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvshi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste‘molchisi yoki xaridori mavjud bo‘lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga “ UzAuto Motors

(GM Uzbekistan)” korxonasi yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur yirik korxonamamlakatimizdagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan ko‘plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab shiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo‘ladi.

Monopoliya vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- tabiiy monopoliya;
- legal monopoliya;
- sun’iy monopoliya.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab shiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo‘lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo‘lgan mulkdorlar va xo‘jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o‘ziga xos texnologiyaning qo‘llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo‘lmaydigan ba’zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab shiqarish hajmining ko‘payib borishi bilan tovar birligiga to‘g‘ri keluvchi xo‘jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub’ektlari tomonidan ishlab shiqarilgan mahsulotlar iste’molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvshi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvshi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutloq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san’at asarlari, ijro san’ati fonogrammalari, ko‘rsatuvlar, efir to‘lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o‘z mahsulotlarini ma’lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko‘paytirishga ruxsat berish imkonini ta’minlaydi;

3) tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro‘yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo‘yisha paydo bo‘lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jixatlarni ko‘rsatish mumkin:

- 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi;

- 2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi;
- 3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi;
- 4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi.

Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiyot rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi.

7.3. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, usullari.

Monopoliyaga qarshi siyosat — davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosati. Dunyo tajribasiga ko'ra, Monopoliyaga qarshi qonunchilik, asosan, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha shakllandi.

Birinchi, ishlab chiqarish (tarmoq)ni boshqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxonalar (korporatsiya)ning biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ortig'ini nazorat qilishga huquq berilmaydi.

Ikkinchi, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma'lum cheklangan miqdoridan ortig'iga ega bo'la olmasligi belgilab qo'yiladi.

Uchinchi, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni taqiqlovchi kartellarta qarshi qonunlar joriy qilinadi.

Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati milliy iqtisodiyotida raqobat oddindan shakllanib bo'lgan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini takomillashtirishga, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda esa bu muhitni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish maqsadida 1992 yilning avgust oyida "Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida"gi Qonun kuchga kiritildi. Mazkur Qonun asosida iqtisodiyotda raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqilib, amalga oshirila boshlandi.

1996-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi, 1996 yil 26 aprelda "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonun me'yor va talablarini amalga oshirish, monopoliyalarga qarshi kurashish va ularning faoliyati ustidan nazorat qilishga yo'naltirilgan

funksional idora sifatida 1992 yilda Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Bosh boshqarmasi tashkil etildi va u 1996 yil 15 mayda Moliya vizirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasiga aylantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 2 avgustdagi 2676-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 300-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

Iqtisodiyotning xususiy sektorini jadal rivojlantirishni rag‘batlantirish, monopoliya kompaniyalari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, bankrot va monopolist kompaniyalarni qayta tashkil etish, raqobat muhitini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 30 apreldagi 3602-sonli Farmoni va 2005 yil 2 maydagi 66-sonli Qaroriga muvofiq mazkur qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 fevraldagi “Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4191-sonli Farmoni bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitaning asosiy vazifalari qatoridan chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida” 2017 yil 18 apreldagi PF-5016-sonli Farmoniga asosan qayta tashkil etilgan qo‘mitaning faoliyat vazifalari va yo‘nalishlari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 18 apreldagi PQ-2897-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tuzilmasida hududiy filiallar bilan birgalikda Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish respublika markazi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasida antimonopol siyosatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublikada sog‘lom raqobat muhitini yaratish uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar, mustahkam huquqiy bazani shakllantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz funksiyalarini amalga oshirish;

- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi raqobat qonunlari, umumiy qabul qilingan normalar va qoidalarni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi monopoliyaga qarshi tartibga solishning kuchli tizimini barpo etish;

- raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida bozor qayta o'zgartirishlari chuqurlashishiga ko'maklashish;

- insofsiz raqobatchilar tomonidan tovar va moliya bozorlari, birinchi navbatda, iste'mol tovarlari bozorini monopollashtirish yuzasidan har qanday urinishlarning oldini olish, ularni cheklash va ularga barham berish;

- monopoliyaga qarshi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirish, monopoliyadan chiqarish bo'yicha respublika, tarmoq va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi, shuningdek, o'z vakolati doirasida tabiiy monopoliyalar sub'ektlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

- reklama va iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- iste'mol tovarlari narxlari va xizmatlarga tariflar monitoringini o'tkazish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari bilan birgalikda narxlarning asossiz ravishda o'sib ketishi, bozorda sifatsiz iste'mol tovarlari sotilishi va xizmatlar ko'rsatilishiga olib keluvchi insofsiz raqobatning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish;

- monopol xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish va nazorat qilishga, raqobat muhitini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish va reklama faoliyatiga yo'naltirilgan normativ-metodologik bazani takomillashtirish va h.k.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat muhitini saqlash, rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. Bu Qonunga binoan monopolistik faoliyatga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatga yo'l qo'ymaslikka, uni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligi deb ta'rif beriladi .

2012 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonunda monopolistik faoliyat uchun asos bo'ladigan "Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning

kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir.

Tovar bozorida qaysi xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi:

1) ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa;

2) o‘ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo‘lib, bunda quyidagi shartlar: xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo‘lib turishi; tovar bozorida boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo‘lib turishi; ushbu bozorga yangi xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo‘lishi shartlari belgilangan bo‘lsa, shu xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning yoki shaxslar guruhining mavqei ustun mavqe deb e‘tirof etiladi.

Moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e‘tirof etish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” .

Ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning raqobatni cheklaydigan va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning manfaatlarini kamsitgan yoxud kamsitishi mumkin bo‘lgan harakatlari taqiqlanadi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning o‘z yuqori mavqeini suiiste‘mol qiladigan xatti-harakatlariga quyidagilar kiradi:

- bozorlarda taqchillikni keltirish yoki uni saqlash va narxlarni oshirish maqsadida tovarlarni muomaladan olib qo‘yish;

- monopol qimmat yoki monopol arzon narxlarni belgilash. Monopol qimmat narx tovar bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning ishlab chiqarish quvvatidan to‘laligicha foydalanmaslik tufayli qilgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki tovar sifatini pasaytirish natijasida qo‘shimcha foyda olish maqsadida tovarga belgilagan narx hisoblanadi.

Monopol arzon narx esa ushbu xo‘jalik sub‘ektining sotib olayotgan tovariga qo‘shimcha foyda olish yoki qilingan asossiz xarajatlarni sotuvchi hisobiga qoplash maqsadida belgilaydigan narxidir. Shuningdek, raqobatchini bozordan siqib chiqarish uchun monopolistik mavqedagi xo‘jalik sub‘ekti belgilagan zarar ko‘radigan darajadagi narx hisoblanadi. Bunday narxlarning belgilanishi oqibatida raqobat cheklanadi.

Insofsiz raqobat, ya‘ni xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo‘lga kiritishga qaratilgan ular o‘rtasida musobaqalashuvni istisno etadigan, iste‘molchilarni chalg‘itish usullari qo‘llanuvchi raqobatdir.

O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi davlat organi monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatni cheklash hamda to‘xtatib qo‘yish sohasida davlat siyosatini olib boradi.

Monopoliyaga qarshi davlat organi xo‘jalik sub’ektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Agar xo‘jalik sub’ektlarining qo‘shilishi, birlashtirilishi, xolding kompaniyalariga aylantirilishi oqibatida monopoliya vujudga keladigan bo‘lsa, u holda ularning iltimosnomalari rad etiladi.

Ushbu organ aksiyalar, ulushlar va boshqa mulkiy huquqlarni olish vaqtida monopoliyaga qarshi kurashga doir qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Zaruriy va mumkin bo‘lgan hollarda monopolistik korxonalar majburiy tarzda bo‘lib ham yuboriladi. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari buzilganda ushbu organ uni buzgan xo‘jalik sub’ektlariga qonunda belgilangan jarimalarni soladi yoki ularning ishini sudga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida monopolistik faoliyatni cheklashga qaratilgan siyosatning amalga oshirilishi natijasida bugun avval monopollashgan tekstil, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, farmatsevtika, mebel va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda sog‘lom raqobat muhiti shakllanib, yirik monopoliyalar tugatildi. Monopollashgan bozorni tahlil qilish tubdan qayta ko‘rib chiqildi, asosiy e‘tibor tarmoqni o‘rganishdan tovar bozorlardagi talab va taklifga, bozor muvozanatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga qaratilmoqda. Ushbu asosda Qo‘mita tomonidan xar yili 100 ga yaqin tovar va moliya bozorlari segmentlari o‘rganilmoqda.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni tekshirish o‘rniga, “kartel” deb nomlanuvchi turli shakldagi, ayniqsa narx sohasidagi kelishuvlar va kelishib qilingan harakatlarni aniqlash bo‘yicha tahlillar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuniga (yangi tahriri) asosan tabiiy monopoliya sub’ektlari bilan iste‘molchi va davlat manfaatlarining mutanosibligi ta‘minlanadi. Ushbu qonunga ko‘ra tabiiy monopoliya tovar bozorining texnologik xususiyatlari tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo‘lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin bo‘lmagan yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan holati hisoblanadi .

O‘zbekistonda tabiiy monopoliya sub’ektlarining faoliyati quyidagi sohalarda davlat tomonidan tartibga solinadi:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;
- temir yo‘llari infratuzilmasidan foydalanish;
- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;
- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmatlari;
- aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmati;
- transport terminallari xizmatlari.

Monopoliyaga qarshi organ qonun hujjatlarining buzilishiga yo‘l qo‘ygan tabiiy monopoliya sub’ektlariga jarima soladi yoki qonun buzilishi holatlarini to‘xtatish va bartaraf etish bo‘yicha bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar yuboradi, shu bilan birga, sudga da’vo arizasi bilan murojaat etadi.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlariga bajarilishi majburiy bo‘lgan, ular tomonidan ushbu qonunga zid tarzda qabul qilingan hujjatlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida ko‘rsatmalar yuboradi. Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat muhitini yaratishdan ko‘zlangan maqsadlaridan biri iste’molchilarning tanlash erkinligini ta’minlash va huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq iste’molchi foyda chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan hamda shaxsiy iste’mol yoki xususiy xo‘jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi yoki ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi.

Davlat iste’molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining himoya qilinishini kafolatlaydi.

Davlatning monopoliyalar faoliyatini tartibga solish usullari quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratiladi:

- bozorning monopollashuvini cheklash;
- doimiy davlat monitoringini amalga oshirish;
- monopol narxlar o‘rnatilishini taqiqlash;
- raqobatni saqlash, ya'ni raqobatchi kompaniyalar qo‘shilishiga yo‘l qo‘ymaslik.
- raqobatning zamonaviy shakllarda amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlash.

Davlat monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda uning ijobiy tomonlari va salbiy oqibatlarini hisobga olish taqozo qilinadi. Monopoliyalarning ijobiy tomonlari bu, eng avvalo, ular mahsulotining yuqori sifat bilan farqlanishidir. Bundan tashqari, monopoliyalarning yirik ko‘lami harakatlar va barcha turdagi resurslarni tejash imkonini beradi. Monopolistik tuzilmalar ishlab chiqarishga katta miqdordagi moddiy va moliyaviy xarajatlarni taqozo qiladigan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tez joriy qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

7.4. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari.

Monopoliyadan chiqarish, raqobat muhitini yaratish va rivojlantirish vazifalari bilan bir qatorda, raqobatni himoya qilish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan 2012 yil 6 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining

“Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi natijasida quyidagilarga erishilishi ko‘zda tutilgan edi:

- raqobatni himoya qilish tovar va moliyaviy bozorlarni ham qamrab oladi;
- iqtisodiy, kapital konsentratsiyasi (aksiyalarni sotish-sotib olish, qo‘shilish, birlashtirish va h.k.) bo‘yicha bitimlarni nazorat qilish kuchayadi. Bozor, kapital konsentratsiyasi bo‘yicha bitimlarga monopoliyaga qarshi organlardan ruxsat olish protseduralari, tartib-qoidalari bu sohadagi xalqaro me‘yorlarga muvofiqlashtiriladi;

- monopolist-korxonalarining tovar va xizmatlariga narxni shakllantirishda narxlarni tartibga solishning bozor mexanizmini himoya qilish kuchayadi. Bu borada yangi usul va dastaklar ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi va amal qilishi erkin raqobatni himoya qilish maqsadida quyidagi vazifalarni hal qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi:

- monopolist-korxonalar va ayrim davlat boshqaruv organlarining raqobatga qarshi faoliyatining oldini olish, tadbirkorlik faoliyati erkinligi va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish tizimini Nazorat, raqobatlashish madaniyatini oshirish;

- raqobatni jadallashtirish, monopoliyaga qarshi organlar vakolatlari, vazifalari va faoliyatini takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish;

- monopoliyaga qarshi kurashuvchi organlar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ular faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, raqobatni himoya qilish bo‘yicha ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.

Mazkur qonunga muvofiq tovar yoki moliya bozorida raqobatni himoya qilish maqsadida quyidagilar ta‘qiqlanadi:

- sun‘iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlarni belgilash yoki saqlab turish, erkin bozor narxlarining qaror topishiga to‘sqinlik qilish;

- ishlab chiqarish ustidan, mahsulot sotish bozorlari va kapital qo‘yilmalar ustidan nazorat o‘rnatish, ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olish;

- shartnoma predmetiga taalluqli bo‘lmagan raqobatni cheklovchi va kamsituvchi shartlarni, asossiz talablarni majburan qabul qildirish;

- boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning bozorga kirishini cheklash yoki ularni bozordan chetlashtirish taqiqlanadi;

- xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning kelishib olingan harakatlari va bitimlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu taqiq tovarlarni tovar belgisi, firma nomi va sotuvchining intellektual mulk ob‘ektlariga bo‘lgan boshqa mutlaq huquqlari orqali realizatsiya qilishni sotib oluvchi tomonidan tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Respublikada agar korxonalar ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi tovarlarning 35 foizdan ortiq bo'lsa, bu korxonalar monopolistik korxonalar sifatida Davlat Reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunda mezon darajasi 20 foiz deb belgilangan.

Respublikada monopolialar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq) larning bozordagi mavqei tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqor darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqei suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob'ektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. Respublikada raqobatchilik muhitini shakllantirish maqsadida va davlatga qarashli bo'lmagan sektorni qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tashkil etildi.

Raqobatchilik muhitini shakllantirishga ko'plab xalqaro tashkilotlar ham faol

qatnashmoqda. Jumladan, YuNIDO yordamida bir nechta biznes inkubatorlar tashkil etildi. Yevropa jamiyati Komissiyasi Amaliy aloqalar markazi, Germaniya texnikaviy ko'maklashuv jamiyati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etildi. Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar rivojlangan bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyati ustidan nazorat qilishning bir qator usullari qo'llaniladi. Ularning huquqiy asosi va tartibi O'zbekiston Respublikasi «Tabiiy monopoliyalarni to'g'risida»gi qonun (9-moddasi)da belgilangan bo'lib, «tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyati ustidan davlat nazorati monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi». O'zbekistonda barcha monopoliyalarni faoliyati ustidan nazorat qiluvchi organ bu – O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organlari tabiiy monopoliyalarning quyidagi faoliyatlari ustidan nazorat qiladi:

- 1) tabiiy monopoliya sub'ekti asosiy vositalarga nisbatan mulk huquqini yoki foydalanish huquqini qo'lga kiritadigan bitimlar ustidan (agar bunday asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya sub'ekti o'z kapitali qiymatining 10 foizdan ortiq bo'lsa);

2) tabiiy monopoliya sub'ekti asosiy vositalarning bir qismiga nisbatan mulk huquqini yoxud ularga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini xo'jalik yurituvchi boshqa sub'ektga o'tkazadigan bitimlar ustidan (agar bunday asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya sub'ekti o'z kapitali qiymatining 10 foizdan ortiq bo'lsa);

3) iste'molchilarga realizasiya qilinadigan tovarlar hajmi bo'yicha shartnomalarga rioya etilishi ustidan;

4) tovarlar narxini chiqarish hamda narxlar (tariflar)ni qo'llash tartibiga rioya etish ustidan;

5) tabiiy monopoliya sub'ektlarining tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi ustidan.

Nazoratning boshqa bir xil usuli – bu tabiiy monopoliya sub'ektlarining qiladigan ayrim xatti-harakatlari uchun tegishli ruxsat olish yo'li bilan amalga oshirilib turiladi.

Agar bunday harakatlar monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan muvofiq emas deb topilsa, rad etilishi ham qonunda o'z aksini topgan. Bunday nazoratning o'rnatilishidan maqsad, tovar bozorlaridagi kompaniyalar monopol mavqeining yanada oshib ketishi, mutlaq hukmronligiga olib kelishi, iste'molchilarning haq-huquqlariga ziyon keltirish xavfining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar

Raqobat, raqobat muhiti, raqobat turlari, raqobat usullari, monopoliya, iqtisodiy monopoliya, tabiiy monopoliya, antimonopol siyosat, antimonopol siyosat usullari, raqobatni himoya qilish, raqobatni rivojlantirish.

Nazorat uchun savollar:

1. Raqobat nima?
2. Qanday raqobat turlarini va usullarini bilasiz?
3. Qanday raqobatlashish usullari mavjud?
4. Raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday vazifalarni bajaradi va qanday ahamiyatga ega?
5. Nima uchun davlat raqobatni rivojlantirishga intilishi va uni himoya qilishi kerak?
6. Monopoliya nima va uning qanday shakllari mavjud?
7. Monopoliya va monopolistik faoliyat bozor iqtisodiyotida qanday rol o'ynaydi?
8. Monopoliyalar faoliyatini nima uchun tartibga solish kerak?
9. Davlatning antimonopol siyosatining maqsadlari qanday?
10. Davlat monopoliyaga va monopolistik faoliyatni qanday usullar yordamida tartibga soladi?

VIII BOB. DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

8.1. Mintaqaviy markazlashtirishdan chiqish, integratsiya va millat ustidan iqtisodiy siyosat yuritilishi.

Mintaqa tushunchasi jahon yoki mamlakat territoriyasining bir qismiga nisbatan qo'llaniladi. Mintaqa jahon territoriyasining bir qismi sifatida o'z ichiga geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy axborot, harbiy va boshqa mezonlar va yondashuvlar asosida bir necha mamlakatlarni oladi. Masalan, Sharqiy Yevropa, G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo va boshqa mamlakatlar turkumi mintaqalari mavjud. Bir alohida olingan mamlakat ichida viloyatlar, tuman va shaharlar geografik, iqtisodiy siyosiy, etnomadaniy, ekologik, axborot va boshqa mezonlar bo'yicha ma'muriy territorial birlik sifatida uning mintaqalarini tashkil etadi.

Mintaqa iqtisodiyotining shunday tizimlari mavjudki, ular har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotida, mustaqil xo'jalik yuritishda alohida o'rin tutadi va o'zining tabiiy iqlim, geografik joylashuvi, tabiiy-mineral va xom-ashyo resurslarining zaxiralari, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlari va sohalarining ham infratuzilmasining miqyosi, aholisining urf-odatlar va traditsiyalari, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotidagi hissasi, aholi jon boshiga ishlab chiqargan hududiy yalpi mahsulot kabilar bilan farqlanadi.

Bular makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot o'rtasi, ular faoliyatini iqtisodiyot nazariyasi mezoiqtisodiyot (yunoncha "mesos" oraliq) bo'limi sifatidagi fan – mintaqa iqtisodiyoti o'rganadi. Mezoiqtisodiyot tarkibiga mintaqada (hududda)gi sanoat tarmoqlari, yoqilg'i-energetika kompleksi, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi kompleksi, qurilish, transport va aloqa kommunikatsiyasi, uy-joy kommunal xo'jaliklari, oliy va maxsus ta'lim, sog'liqni saqlash, uy xo'jaliklari, o'ziga xos kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati yurituvchi hunarmand, kasanachilik kabilar kiradi.

Shu bilan birga, hudud (mintaqa) tarmoqlari tarmoqlararo miqyosidagi iqtisodiy muammolari, ekologik muammolarni tadqiq qilish va o'rganish ham mezoiqtisodiyot (mintaqa iqtisodiyoti) tarkibiga kirib, alohida o'rin tutadi. Mintaqa iqtisodiyoti bir mamlakat milliy iqtisodiyotining bo'linmas va uzviy bir bo'g'ini (qismi) sifatida ajralmas umumiqtisodiyot siyosati ta'sirida yagona bir yaxlit shaklda xo'jalik faoliyatini yuritadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu iqtisodiy munosabatlarni

erkinlashtirish orqali jahon xo‘jaligiga yanada chuqurroq va samarali shaklda mintaqalarning integratsiyalashtirishdan iborat davlatning tartibga solish siyosatidir.

Mintaqaviy siyosat-hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Mintaqaviy siyosatning maqsadi-mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne‘matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib. Mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratishdan iboratdir.

Mintaqaviy iqtisodiyot muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko‘pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdorligi o‘sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Mintaqaviy iqtisodiyot bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalaniladi.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

1. Mintaqadagi barcha resurslardan (moddiy, moliyaviy, mehnat) foydalanib, ishlab chiqarishning jadalligi va mutanosibligini ta‘minlash hamda shu asosda uning samaradorligini oshirish.

2. Mintaqalarning istiqboldagi rivojlanish sur‘atlarini aniqlash. Bunda mahalliy resurslardan to‘la foydalanishga e‘tibor berish.

3. Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan ishlab chiqarishda keng foydalanish. Buning uchun mintaqada ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashishini ta‘minlovchi iqtisodiy mexanizmni yaratish, rejalashtirishni yanada demokratiyalashtirish lozim bo‘ladi. Shuningdek, korxonalar, mintaqaviy birliklarga intikativ (tavsiyaviy)

rejalarni tuzish uchun huquqiy iqtisodiy sharoitlar yaratish, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali raqobat bo‘lishini bozor konyunkturasiga mos mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlash maqsadida quyidagi vazifalarni ham hal etish lozim:

- ishlab chiqarishni bozor hajmi va konyunkturasiga mos ravishda tashkil etish va rivojlantirish;
- valyuta tushumlarining ko‘payishini ta’minlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish;
- bozor talabi asosida tez o‘zgaruvchi yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish va hokazolar.
- tashqi iqtisodiy munosabatlarni Markaziy Davlat organlari bilan kelishilgan holda mahalliy manfaatlarni hisobga olib rivojlantirish.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, mintaqaviy siyosatga – mintaqalar (hududlar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mutanosiblikni ta’minlash va ular o‘rtasidagi eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi farqlarni, nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan umummilliy siyosatning muhim tarkibiy qismidir, deb ta’rif berish mumkin. Mintaqaviy siyosat keng ma’noda mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish bo‘yicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

8.2. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari.

Mintaqa va hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning muhim dastaklari quyidagilardan iboratdir:

- rivojlanayotgan yoki davlat dasturiga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ayrim hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalariga moliyaviy imtiyozlar yoki rag‘batlar beriladi, ya’ni investitsiyaviy grantlar, past foizdagi kreditlar beriladi, soliqlardan, ijara to‘lovlaridan ozod qilinadi;
- rivojlanayotgan hududlardagi korxonalar va firmalarning o‘z ofis, idora, ishlab chiqarish ob’yektlarini boshqa hududlarga olib ketmasliklari uchun ular faoliyatini nazorat qilish;
- rivojlanayotgan hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish uchun investitsiyalar qilish, ayniqsa, yo‘llar qurish, aholi hayot sharoitini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Hududlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatining muhim tarkibiy qismi mintaqaviy iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat maqsadlari mintaqaviy (hududiy) rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir. Iqtisodiy sohadagi mintaqaviy siyosat maqsadi hudud salohiyati, uning

cheklangan iqtisodiy resurslaridan, hududlararo mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi afzalliklaridan oqilona foydalanish asosida aholi turmush darajasi va sifatini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy sohadagi mintaqaviy siyosatning maqsadi har bir hududdagi barcha aholi qatlamlari uchun munosib turmush darajasini, sharoitlarini va teng yashash kafolatlarini ta'minlash, kishilarning yashash joyini va mehnat qilish joyini, turini tanlash huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratish, ichki ijtimoiy muhitning keskinlashishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Shu bilan birga shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha davlatning iqtisodiy mintaqaviy siyosatining maqsadlari yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda quyidagilardan iborat:

- hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush darajasini oshirish sharoitlarini ta'minlash;

- hududlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi ishlab chiqarish texnologik usullarini ko'p ukladli, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida aholi turmush darajasini oshirish;

- hududlarda maqsadli tarkibiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy siyosatni amalga oshirish, iqtisodiyot real sektorida tadbirkorlikni, iqtisodiy islohotlar ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilgan faoliyatni rag'batlantirish;

- hududning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash. Hududning iqtisodiy xavfsizligi uning iqtisodiyoti barqarorligini va rivojlanishini ifodalovchi shart-sharoitlar, omillar hamda mavjud holatlar yig'indisini ifodalaydi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda birinchi navbatda mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari aniqlanadi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- tabiiy iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakat ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar turi, hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka, olis hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida milliy va mahalliy bozorlarning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi chetda joylashgan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni(xom ashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar) ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi;

-mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va boshqalar;

-ishlab chiqarish infratuzilmasi, ya'ni transport va telekommunikatsion, axborot tizimlari, sanoat maydonlari va boshqalar bilan ta'minlanganligi;

-ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, sport inshootlari bilan ta'minlanganligi;

-mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi .

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish maqsadida investitsiya(kapital qo'yilma)larning qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Birinchi yo'nalish-kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past bo'lgan mintaqalarda infratuzilma ob'yektlarini barpo etish va boshqa mintaq va hududlar bilan iqtisodiy aloqasini yaxshilashdan iborat.

Ikkinchi yo'nalish- yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan ma'muriy yoki moliyaviy cheklash usullarini qo'llash.

Uchinchi yo'nalish-muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va milliy xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish .

Ta'kidlash joizki, davlat mintaqaviy siyosat orqali mintaq(hudud) iqtisodiyotini tartibga solishda bevosita va bilvosita usullardan keng foydalanadi.

Davlatning hududiy iqtisodiyotga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aralashishi ma'muriy vositalardan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyati kuchiga tayanish, ruxsat berish, man qilish, majburlash choralarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita tartiblash turli iqtisodiy chora-tadbirlar, vosita va dastaklar orqali amalga oshiriladi.

Hududiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini ma'muriy uslublar orqali tartibga solish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- hududiy takror ishlab chiqarish sub'yektlariga davlat boshqaruvining yuqori organlari tomonidan mavjud holat, vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi ma'muriy farmoyishlar qarorlar;

- hududdagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar;

- tavsiyalar, taftish, masalan moliyaviy-byudjet tekshirishlar, nazorat, masalan, sanitar-epidemiologik nazorat.

Ma'muriy usullar o'rnatilgan tartib, qoidalarni buzgan ayrim korxonalariga nisbatan majburlash imkoniyatlarini ham ko'zda tutadi. Ma'muriy usullar yordamida mahalliy boshqaruv organlari davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini tartibga soladi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududdiy tabiiy resurslaridan foydalanish hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq masalalarni hal qiladi

Boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan aniq manzilli topshiriqlar berishga asoslanadi Umumiy iqtisodiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga tayanadi

Boshqariladigan ob'yektlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishda, boshqarish organining manfaatini ustuvor ravishda ko'zlashda ifodalanadi Boshqariladigan ob'yektlarga bilvosita ta'sir ko'rsatiladi, turli mulkchilik shakllardagi korxonalarining iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi

Qabul qilinadigan qarorlar uchun asosiy mas'uliyat boshqarish organi zimmasida bo'lib, boshqariladigan ob'yektning huquqlari cheklangan

Xo'jalik sub'yektlari to'liq mustaqillikka ega bo'lishi, o'z faoliyati va uning oqibatlarini uchun yuqori mas'uliyatli bo'lishi taqozo etiladi

Ma'muriy farmoyishlar, rejalar direktiv xarakterga ega bo'lib, ularni bajarish majburiy hisoblanib, undan chetlanishga yo'l qo'yilmaydi Xo'jalik sub'yektlarini o'zining iqtisodiy manfaati nuqtai nazaridan va iqtisodiy riskni e'tiborga olgan holda muqobil qarorlar tayyorlashga va oqilona yechimlar topishga undaydi

Mintaqaviy (hududiy) takror ishlab chiqarish jarayonlarni tartibga solishning iqtisodiy usullari xo'jalik sub'yektlarining iqtisodiy manfaatlari orqali, soliq imtiyozlar, kreditlar va subvensiyalar va boshqa dastaklar yordamida qo'llaniladi. Yuqori boshqarish organlari belgilagan va tasdiqlagan qoidalar, nizomlar doirasida xo'jalik sub'yektlari, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatib, ularga keng vakolatlar beriladi.

Shuningdek, mintaqalar iqtisodiyotini tartibga solishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda adolatli va samarali usullardan foydalanadi. Adolatli usul-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turiki, unga ko'ra mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajalari deyarli bir xil sharoitlar va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi. Samarali usul- umumdavlat manfaatlari yo'lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan, salohiyatlaridan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir. Har ikkala usuldan to'g'ri va mutanosib foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);

- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta'minlanishi;

- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo'yilmalar qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo'nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo'nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash (ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali

hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomeratsiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi. O'zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag'batlantirishdir. Mazkur yo'nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarini joylashtirishda davlat tomonidan muhim e'tibor beriladigan asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Hududlararo mehnat taqsimotini oqilona tashkillashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha nazariyalar: I.Tyunenning «qishloq xo'jalik standarti» nazariyasi; A.Veberning sanoat «shtandortlar» nazariyasi, A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi, U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyasi, F.Perruning «O'sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyalaridir.

Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo'lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so'ng – XX asr boshlarida yuzaga kelgan.

Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalar deb atalib, ular Y.G. Fon Tyunen, V. Launxard, A.Veber nomlari bilan bog'liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- alohida olingan biror qishloq xo'jaligi yoki sanoat korxonasining ko'rib chiqilishi;

- joylashtirishning barcha omillari to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning qulay joyi to'g'risida aniq javob olish mumkinligi to'g'risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo'lgan). Tyunen qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta'minlovchi shahargacha bo'lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo'jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashtirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

V. Launxard ham sanoat korxonalarini ko'rib chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalarini joylashadigan joy to'g'ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi. V. Kristallyer «Markaziy o'rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik hisob-

kitoblar orqali hududiy iyerarxiya bir darajadan boshqa darajaga to'g'ri geometrik progressiya orqali o'tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o'z navbatida tumanlar ko'plab qishloq fuqarolari yig'inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o'ziga tegishli bo'lgan tovar va xizmatlar yo'naltirilgan.

Shunday qilib, olim aholi punktlari guruhiy tizimini tashkil etishning qulay variantini aniqlash orqali markaziy o'rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo'nalishlarini, shahar va aholi punktlari boshqaruvi ma'muriyatining qulay tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o'rganishga oxirgi o'n yilliklarda nisbatan kamroq e'tibor berildi. To'g'ri, hududiy iqtisodiyot bo'yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holda nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko'rib chiqildi. Hududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o'sish modellarini qo'llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxonalar va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatiga belgilab beradi. Kompaniyalar o'z faoliyatini u yoki bu hududda olib borishining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko'rib chiqiladi.

8.3. Milliy va millat ustidan iqtisodiy siyosat yuritishning koordinatsiyasi va boshqaruvi.

Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning mintaqaviy siyosati iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakat ma'muriy-hududiy birliklarining moliyaviy-xo'jalik mustaqilligini Nazorat respublika markaziy hukumati bilan mahalliy hokimliklar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

O'zbekistonda yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda davlatning mintaqaviy siyosati bosh maqsadlari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- mamlakatning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarning ta'minlanishi uchun teng siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- respublika barcha aholisining ijtimoiy kafolatlarini hamda teng ijtimoiy va huquqiy himoyalashni ta'minlash.

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi quyidagilarni taqozo etadi:

- mintaqa (hudud)larda yangi iqtisodiy munosabatlarni va umumiy iqtisodiy sharoitlarni qaror toptirish uchun qulay sharoitlar yaratish. Buning oqibatida turli mulkchilik shakllariga ega bo'lgan xo'jalik sub'yektlarining faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi;

- mintaqa (hududlarda) ularning va aholining manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlar shakllantiriladi;

- mahalliy hokimlik va o'z-o'zini boshqarish organlarining mintaqa (hududlarni) boshqarishdagi roli va faolligi ortadi;

- mintaqa (hudud)lararo infratuzilmani tiklash, qayta tiklash. Buning oqibatida mamlakat miqyosida yagona iqtisodiy makon, xalq xo'jali kompleksi shakllantiriladi. Shuningdek samarali hududiy samarali mehnat taqsimoti va ijtimoiy mehnat integratsiyalashuvi vujudga keltiriladi hamda bozor munosabatlari rivojlantiriladi;

- kam rivojlangan hududlarni rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, istiqbolli hududlarni ustuvor ravishda rivojlantirish.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarishning huquqiy asoslarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi sub'yektlarining o'zaro teng huquqligining konstitutsion tamoyillarini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz (istiqbol) ko'rsatkichlarini va maqsadli dasturlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini uslubiy va me'yoriy jihatdan ta'minlash va qo'llab-quvvatlash;

- mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishini zarur holatlarda o'zgartirib turish. Bu mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar in'ikosi sifatida amalga oshirilib turiladi.

Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning eng muhim shartlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir;

- mamlakat miqyosida yagona iqtisodiy makonni ta'minlash. Buning uchun davlat boshqaruvining umumiylikining sharti bo'lgan yaxlit pul, soliq, byudjet va moliya tizimining, yaxlit axborot makonining mavjudligi, asosiy institutsional ya'ni ma'muriy boshqaruv tizimlari rivojlanishining tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega.

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, respublikaning har bir hududda iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholining barcha tabaqalari turmush darajasini oshirishga erishish;

- davlat organlarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini muntazam oshirib borish, rahbar kadrlar zahirasi shakllantirish;

- davlat xizmatchilari malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi muassasalar va tashkilotlari, markazlar faoliyatini boshqarish.

Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish maqsadini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududlarini barqaror rivojlantirish ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini imkon darajada tenglashtirish;

- hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;

- ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi va rivojlanishidagi asossiz vujudga keltirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish;

- hududlarni ixtisoslashuvini oqilonlashtirish va tumanlararo iqtisodiy aloqalarni optimallashtirish;

- hududlarning hududlararo va tashqi iqtisodiy integratsiyalashuvi, ayrim hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy biqiqligiga barham berish.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning huquqiy shakllari sifatida qonunlar, qonunosti va sud huquqiy xujjatlar, aktlar xizmat qiladi. O'zbekistonda hududlar rivojlanishini tartibga solishda Prezident Farmonlari va Qaror, Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari muhim rol o'ynamoqda.

Hududlar rivojlanishini tartibga solishning tashkiliy-institutsional tarkibi respublika ijro hokimiyati darajasida Vazirlar Mahkamasi, ko'pgina vazirlik va idoralar tomonidan shakllantiriladi.

Hududlarni rivojlantirish umumiy siyosati Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Ayrim iqtisodiyot sektorlari va yo'nalishlari bo'yicha hududiy muammolar bilan Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O'zdavmulk, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi, qurilish va arxitektura bo'yicha qo'mita, "O'zkomxizmat" agentligi va boshqalar shug'ullanadilar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- hududlarni, tumanlar guruhini va tumanlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

- hududlar mineral-xomashyo resurslarini kompleks o'zlashtirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, tashqi atrof muhitni muhofaza qilish;

- sanoat va uning tarmoqlarini rivojlantirishning hududiy va respublika dasturlarini ishlab chiqish, faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini profilini o'zgartirish, xorijiy investitsiyali yangi korxonalarni qurish;

- hududlar qishloq xo'jaligini ularning tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida islohotlarni rivojlantirish va yanada chuqurlashtirish bo'yicha respublika, hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ish bilan bandlik, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi va boshqalar bilan ta'minlash bo'yicha respublika dasturlarini amalga oshirish;

- respublika va mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;

- mahalliy byudjetni Nazorat, hududlarga dotatsiya va subvensiyalar ajratish;

- boshqarishning hududiy-xo'jalik tizimini oqilona tashkil etish maqsadida mamlakatni ma'muriy-hududiy bo'linishini takomillashtirish.

Mintaqalarda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan viloyat, shahar, tuman hokimiyatlari qoshidagi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi shug'ullanadi. Hokimiyatlar qoshida iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi barcha idoralar istiqboldagi muammolarni rejalashtirish boshqarmasi bilan muvofiqlashtiradi. Hokimiyatlar tarkibida iqtisodiyotning u yoki bu sohalari bilan shug'ullanadigan moliyaviy tuzishga xalq deputatlari mahalliy kengashlari rahbarlik qiladi. Mintaqalardagi rejalashtirish tashkilotlari o'z faoliyatini jumhuriyatning tegishli kompaniyalari va vazirligi bilan mahalliy hokimiyat tasdiqlangan nizom asosida olib boradi. Nizomda rejalashtirish boshqarmasining faoliyatlari, huquqlari va burchlari aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasining quyidagi asosiy vazifalari belgilangan;

1) viloyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejasini tuzish va undan ijtimoiy va ishlab chiqarish sohasini barqaror va mutanosib rivojlantirishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish;

2) viloyat aholisining xalq iste'moli tovarlariga bo'lgan talabini to'la qondirish, aholining pul daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash;

3) mahalliy byudjet va korxonalarining daromadlari hisobiga o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash tamoyili asosida yillar mobaynida 2-darajali bo'lib kelgan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasining quyidagi faoliyatlari belgilangan:

1) viloyatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish rejalarini belgilangan muddatda va tartibda ishlab chiqish. Viloyat mintaqasidagi barcha korxonalarni, shahar va tumanlarning biznes-rejalari ustidan uslubiy rahbarlik qilish;

2) jumhuriyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish dasturini tuzishda, mintaqaviy ishlab chiqarish dasturlarini tuzishda bevosita ishtirok etish va tegishli tavsiya va takliflar berish;

3) ish joyini tashkil etish, mehnat balansi, moddiy balanslar tuzish, rejalarining bajarilishini nazorat qilish va hokazo.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mintaqaviy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat va uning mintaq (hudud)lari raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish quyidagilarga yo'naltiriladi:

- mamlakat va uning mintaq (hudud)larini xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini mintaq va hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish, ularning o'zaro aloqadorligini, ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini ta'minlash orqali mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga, barqaror va mutanosib iqtisodiy o'sishgacha erishish;

- mintaq (hudud)lar infratuzilmalarini rivojlantirish;

- mintaqalarda ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini oshirish;

- mintaq (hudud)lar rivojlanishidagi farqlarni qisqartirish.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi notekislikni ularning respublika yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishdagi hissalaridagi farqlarni tahlil qilish orqali ifodalash mumkin. Respublika YaIMini ishlab chiqarishda 2017 yilda Toshkent shahri 15,5%, Toshkent viloyati 9,4%, Samarqand viloyati 7,4%, Qashqadaryo viloyati 7,0% ulushga ega bo'ldi (8.1-jadval).

8.1-jadval

2018-2020 yillarning yanvar-iyun oylarida Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

| Hududlar | 2018 - yil | | 2019 - yil | | 2020 - yil | |
|-------------------------------|------------|-------------------|------------|-------------------|------------|-------------------|
| | mlrd. so'm | o'sish sur'ati, % | mlrd. so'm | o'sish sur'ati, % | mlrd. so'm | o'sish sur'ati, % |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 6 416,3 | 106,7 | 8 073,0 | 106,5 | 8 959,4 | 100,7 |
| Andijon v. | 10 414,9 | 107,0 | 13 513,2 | 106,7 1 | 16 127,2 | 105,0 |
| Buxoro v. | 8 799,3 | 105,1 | 11 353,1 | 109,7 | 13 085,4 | 101,0 |
| Jizzax v. | 4 623,6 | 106,8 | 5 885,6 | 107,6 | 6 988,8 | 102,0 |
| Qashqadaryo v. | 12 104,9 | 105,0 | 14 052,2 | 94,4 | 15 280,1 | 97,9 |
| Navoiy v. | 10 028,8 | 105,1 | 16 061,6 | 103,9 | 22 111,5 | 104,3 |
| Namangan v. | 7 189,4 | 103,6 | 9 185,9 | 104,1 | 10 833,8 | 103,1 |

| | | | | | | |
|----------------|----------|-------|----------|-------|----------|-------|
| Samarqand v. | 12 149,0 | 102,0 | 15 100,7 | 106,4 | 16 612,9 | 96,1 |
| Surxondaryo v. | 8 183,9 | 107,0 | 9 880,4 | 103,2 | 11 381,3 | 102,6 |
| Sirdaryo v. | 3 280,8 | 105,0 | 4 597,7 | 106,3 | 4 825,8 | 96,9 |
| Toshkent v. | 16 797,3 | 102,9 | 22 699,8 | 110,6 | 26 506,3 | 101,5 |
| Farg`ona v. | 11 219,1 | 104,4 | 15 100,2 | 105,5 | 15 100,2 | 105,5 |
| Xorazm v. | 6 047,2 | 105,6 | 7 733,3 | 105,7 | 8 954,5 | 101,9 |
| Toshkent sh. | 25 463,6 | 112,7 | 36 787,3 | 107,7 | 40 797,7 | 99,5 |

YaIMni shakllantirishda YaHMning ulushi Qoraqalpog`iston Respublikasining, Xorazm, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining eng past darajadadir. Bu hol mazkur hududlarning katta-kichikligi, ulardagi YaHM hajmi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining boshqa hududlardagiga qaraganda birmuncha orqada qolayotganligi bilan izohlanadi. Ammo bu ko`rsatkich ular o`rtasidagi farqlarni to`liq ifodalay olmaydi.

O`zbekistonda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlanish darajasini YaHM, sanoat va boshqa tarmoqlarda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o`rtacha respublika darajasiga nisbatan hisoblangan indeks bo`yicha tahlil qilish mumkin. Tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-iyun oylarida Andijon (105,0 %), Navoiy(104,3 %), Namangan (103,1 %) viloyatlarida yuqori o`sish sur`atlari qayd etildi. 2019- yilning mos davri bilan taqqoslaganda, solishtirma narxlarda Samarqand (96,1 %), Sirdaryo (96,9 %), Qashqadaryo (97,9 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (99,5 %) YaHMning kamayishi kuzatildi. 2020- yilning yanvar-iyun oylarida Respublika bo`yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 16,0 % ulush bilan eng katta hissa qo`shdi. Toshkent viloyati 10,4 % va Navoiy viloyati 8,7 % ko`rsatkich bilan keyingi o`rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIMni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (1,9 %), Jizzax (2,7 %), Xorazm (3,5 %) viloyati va Qoraqalpog`iston Respublikasi (3,5 %) ga to`g`ri kelmoqda 8.1-jadval.

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun mintaq (hudud) mamlakatda lokomotiv va tayanch mintaqalarni belgilab olish lozim bo`ladi. Lokomotiv mintaq deb quyidagi talablarga javob beradigan mintaqaga aytiladi:

- mintaqada yuk va yo`lovchi tashish oqimlari barqaror o`sish kuzatiladi;
- mintaqada mamlakat uchun ahamiyatli bo`lgan nufuzli ilg`or ilmiy-ta`lim markazi faoliyat yuritadi;
- butun mamlakat uchun ahamiyatga ega bo`lgan strategik tashabbus shakllanadi;
- yuqori ilmiy-texnikaviy, intellektual, kadrlar va ijtimoiy potentsialga ega bo`lish;

- mamlakat iqtisodiy rivojlanishida salmoqli ulushga ega, ya'ni YaIMdagi ulushi yuqori bo'lishi lozim;

- mintaqada davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes vakillari o'rtasida strategik hamkorlikning mavjud bo'lishi;

- 10-15 yillik istiqbolda ushbu mintaqa qsho'ni mintaq va hududlar rivojlanishiga turtki berish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Malakatni territorial rivojlanish bosh sxemasiga ko'ra tayanch mintaq belgilab olinib, uning rivojlantirish vazifalari aniqlanadi. Bu esa quyidagi imkoniyatlarni vujudga keltiradi:

- mamlakatni xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvini samarali ta'minlash, o'z territoriyasida tovarlar, moliyaviy mablag'lar, ishchi kuchi, oqimlarini, innovatsiyalarni ishlab chiqish va ular muommalasini boshqarish markazlarini to'plashga muvoffiq bo'linadi;

- bir necha lokomotiv va tayanch hududlarni shakllantirish orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jadallashtiriladi, boshqa mintaq (hudud)lar uchun yangiliklar yaratish manbasiga aylantiriladi. Bu mintaqalar qo'shni mintaqalarga o'z korxonalarining buyurtmalarini berish, ayrim ishlab chiqarish bo'g'inarini tashkil etish orqali ularning ham rivojlanishiga turtki beradi;

- mamlakat mintaqalari o'rtasida infratuzilmaviy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-madaniy aloqadorlikni ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishiladi;

- mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini keng miqiyosda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda territorial-tarmoq klasterlar muhim rol o'ynaydi. Klasterlarda ba'zi hududlarda ayrim tovarlar, butlovchi qismlarni xom ashyolarni ishlab chiqarish tashkil etiladi. Bunga Asakadagi yengil avtomobillar, ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishning tashkil etilganligi misol bo'ladi. Klaster hudud manfaatini korxonalar manfaatini bilan uyg'unlashtiradi. Klaster territorial-ishlab chiqarish ichida raqobat muhitini yaratib, ichki va jahon bozorlariga mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etadi hamda mazkur hudud aholisini ish bilan ta'minlashni yaxshilaydi, hududni har tomonlama rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Klaster ishtirokchisi bo'lgan xo'jalik sub'yektlarining o'zaro aloqadorligini, birgalikda ilmiy-tadqiqot, yangi texnologiyani joriy etish, ishlarini birgalikda amalga oshirish tajriba, bilim va asosiy fondlardan birgalikda foydalanish, risklarni kamaytirishda, jahon bozorlariga chiqishda hududni rivojlantirish, obodanlashtirishda o'zaro hamkorlik qilishi kuchayadi.

Mintaqa (hudud) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish ko'zda tutiladi. Bu dasturlarni ishlab chiqishda o'zaro aloqadorlik va davomiylik, resurslarni tejash, infratuzilmaviy ta'minot tamoyillariga asoslaniladi.

Bunday dasturlarni ishlab chiqish va mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish modellarini yaratishda SWOT tahlilidan foydalaniladi. Ushbu tahlil asosida mintaqa, hududning kuchsiz va kuchli tomonlari, imkoniyatlari va tahdid, xavf-xatarlar aniqlanadi. Mintaqani rivojlantirishning turli stsenariylari ishlab chiqiladi. Inertsion rivojlanish stsenariysida barcha tendentsiyalar amalda saqlanadi. Eksportga-yo'naltirilgan rivojlanish stsenariysida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni va ularning salohiyatini rivojlantirish hamda Nazorat tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Mabilizatsion rivojlantirish stsenariysida ichki zahiralarni, resurslarni, iqtisodiy o'sish omillar hisobga olinadi va rivojlanishi maqsadida foydalanishga yo'naltiriladi.

Mutanosib o'sish stsenariysida eksportga yo'naltirilgan va ichki resurslarni mobilizatsiya qilish variantlari sintez qilinadi, ya'ni uyg'unlashtiriladi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini prognozlashtirish va asoslashda mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifalarini ham hal etish ko'zda tutiladi. Umuman ushbu strategiyani ishlab chiqish hamda amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal qilinadi:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari, variantlari, stsenariylari va ko'lamlari asoslanadi;
- rivojlanishning ob'yektiv qonuniyatlari va tendentsiyalari hisobga olinadi;
- tovar va xizmatlar, mehnat, resurslar va moliyaviy bozorlar shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari aniqlanadi;
- mintaqa ijtimoiy rivojlanishi, aholi turmush darajasi va sifatining o'sishi yo'nalishlari belgilanadi;
- tarkibiy va investitsiyaviy siyosat yo'nalishlari shakllantiriladi;
- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi muammolar, turg'unlik va tanglik holatlari aniqlanib, ularni hal etish bosqichlari hamda muddatlari belgilanadi;
- viloyatlararo, tumanlararo va tashqi iqtisodiy munosabatlarni samarali rivojlantirish hamda takomillashtirish yo'nalishlari asoslanadi;
- eksport salohiyatini rivojlantirish va Nazorat bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;
- tashqi muhitning ahvolini yaxshilash, tabiatdan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar asoslanadi va ishlab chiqiladi.

Mintaqa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi mintaqaning o'zini o'zi tashkillashtiruvchi, o'zini-o'zi boshqaruvchi va oqilona

boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va territorial-ma'muriy birlik sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

8.4. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy darajalaridagi va iqtisodiy-tabiiy salohiyatidagi farqlar ularni istiqbolda hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Hududni iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish strategiyasini asoslashning quyidagi yo'nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- hudud rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish; bu bosqichda hududning erishgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi;

- hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini asoslash; rivojlanishni prognoz qilinadi; strategiya asoslanadi, hudud rivojlanishini tartibga solish metodlari tanlanadi;

- kontseptsiya ishlab chiqish va hudud rivojlanishini davlat va bozor mexanizmlari orqali tartiblash metodlarini tanlash;

- hududning moliyaviy resurslari o'sishini prognoz qilish; byudjet daromad qismini kengaytirish va Nazorat yo'llarini izlash; byudjet daromad qismini to'ldirishning yangi manbalarini aniqlash, turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlikdan, xorijiy investorlardan va nobyudjet jamg'armalaridan qo'shimcha mablag'larni jalb etish.

Davlat tomonidan hududlarni rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.

2. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni tartibga solish. Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanilmoqda.

- hududlarda mahsulot hajmini, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini va hududlarning ixtisoslashuvini tartibga solish;

- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnika bazasini yaxshilash va Nazorat, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar tarmog'ini yaratish;

- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalarni qurish;

- zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini fermer xo'jaliklarini shakllantirish, jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdorligini oshirish, seleksiya va urug'chilikni yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o'stirish chora-tadbirlari ko'riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo'shma korxonalarini tashkil etishni tartibga solish.

Endilikda respublika hududlarida, ayniqsa kam rivojlangan hududlarda qo'shma korxonalar tashkil etish xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida maqsadli dasturlar tuzish va ularni rag'batlantirish uchun soliq, boj, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish. Hududlarda temir yo'llar, avtomobil yo'llarini qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlarning viloyatlararo tumanlararo va tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik, biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini tuzishda ma'lum tamoyillarga asoslanish kerak bo'ladi. Bu tamoyillar mintaqaviy iqtisodiy fani nuqtai-nazaridan quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining maqsadlilikligi;

- hududni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha resurslarni to'plash va yo'naltirish;

- belgilangan harakatni nazorat qilish va tartiblash imkoniyatlarining ochiqiligi;

- hududni rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning individualligi;

- qo'llab-quvvatlash mexanizmining ta'sirchanligi;

- respublika va mahalliy hokimiyat organlarining hamkorligi va ular faoliyatining uyg'unligi.

Hududiy dasturlarni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Hududiy dasturlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan holatlar va omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Hududlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinadigan dasturlarning bajarilishiga ko'pgina hollarda quyidagi omillar to'sqinlik qilishi mumkin:

- respublika va hududiy maqsadli dasturlarni tanlashning sinalgan tizimlarining mavjud emasligi, ularni amalga oshirishning va ularni bajarish ketma-ketligining yetarli darajada asoslanmaganligi;

- respublika tarmoq dasturlarining hududiy jihatlarining yetarli darajada ishlanmaganligi;
- tarmoq dasturlari hududiy jihatlarini monitoringining yoʻqligi;
- respublika va hududiy dasturlarni amalga oshirish mexanizmining mustahkam emasligi;

Respublika va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda maqsadli-dasturlash uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu uslub pirovard natijaga erishish uchun iqtisodiy resurslarni yoʻnaltirishni taʼminlashni ifodalaydi. Uning yordamida eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanish muammolari hal etiladi. Bu muammolar amalda tarmoqlararo yoki hududlararo tavsifga ega boʻlib xalq xoʻjaligi ahamiyatga ega boʻladi.

Maqsadli dasturlar oʻrta va uzoq muddatga moʻljallab korxonalar, mamlakat va xalqaro miqyosda tuziladi. Dasturlar oʻz ichiga pirovard va oraliq maqsadlarni, vazifalarni, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini, resurslar taʼminotini, olishi kerak.

Dastur maqsadi oʻlchamga ega boʻlishi, chora-tadbirlar tizimi esa pirovard va oraliq maqsadlarni amalga oshirish nuqtai-nazaridan ishlab chiqilishi lozim.

Maqsadli hududiy dasturlar hududiy rivojlanishni tartibga solishning samarali metodi sifatida davlat, mahalliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni uygʻunlashtirishi hamda jamiyatning barcha aholi tabaqalarini davlatning hududiy siyosatini amalga oshirishga daʼvat etadigan, yoʻnaltiradigan boʻlishi kerak. Shuningdek, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy meʼyoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

Hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan koʻzlangan asosiy maqsad hududiy iqtisodiyotni uning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi manbalarni jalb etish yoʻli bilan mutanosib va oqilona rivojlantirishdan iboratdir.

Ushbulardan kelib chiqib, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda qoʻyidagi vazifalarni bajarishga alohida eʼtibor qaratish lozim boʻladi;

- hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini umumiy baholash va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendentsiyalarini, iqtisodiy oʻsish muammolarini va rezervlarini aniqlash;
- hududning mahalliy mineral-xomashyo, yer-suv va mehnat resurslaridan foydalanishning miqdor va sifat darajalarini tahlil qilish;
- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, istiqbolli tarmoqlar va hududning ixtisoslashish sohasini, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash;
- maxalliy qishloq xoʻjaligi va mineral xomashyolardan samarali foydalanishga asoslangan yangi eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishlarni

shakllantirishning aniq yo'llarini belgilash, jahon darajasidagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyalar jihozlangan yangi korxonalarni vujudga keltirish;

- hududda qulay, jozibador investitsion muhitni yaratish, xorijiy investorlar, mahalliy korxonalar, tadbirkorlar, aholi mablag'lari va resurslarini kengroq jalb etish;

- aholini ijtimoiy himoyalash va mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashning mexanizmini ishlab chiqish;

- xo'jalik sub'yektlari o'rtasida raqobat sharoitini va to'laqonli bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;

- hududni oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa ommaviy iste'mol mollari bilan o'zini-o'zi ta'minlashini oshirish;

- qishloq aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirishi uchun qulay sharoitlarni shakllantirish. Buning uchun hududga mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish orqali uning hudud yalpi ichki mahsulotidagi ulushini oshirish;

- hududning tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish, eksport va import tarkibini oqilanalashtirish, hududda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini yanada yaxshilash va yangi qo'shma korxonalarni tashkil etish.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish uchun avvalom bor hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni umumiy baholash maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. O'tgan davrdagi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi tavsifi beriladi. Bunda hududning sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy salohiyatini baholashga alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

2. Hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasi va ahvoli to'g'risidagi tahlilga asoslanib, uning rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendentsiyalari, iqtisodiy rivojlanishi rezervlari va foydalanilmagan imkoniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, kelgusida hal etilishi lozim bo'lgan muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolari aniqlanadi.

3. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijalari, ko'p ukkladli iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi, shuningdek, hududiy bozor infratuzilmasi ahvoli baholanadi.

4. Hududdagi tarmoqlar va yirik sanoat korxonalarining o'tgan davrdagi faoliyati tahlil qilinadi, ularning ish natijalari yoki orqada qolishining sabablari va omillari aniqlanadi.

5. Sanoat rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishi darajasi belgilanadi, ishlab chiqarish quvvatlarini eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashtirish va kengaytirish uchun qo'shimcha zahiralari va resurslar aniqlanadi. Hudud imkoniyatlarini hisobga olgan holda ustuvor ahamiyatli tarmoqlar va ishlab chiqarishlar aniqlanadi.

6. Hudud aholisini o'zida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanganligi, ularni hududdan chiqarish va kiritish balansi, agrosurs salohiyatidan foydalanish samaradorligi, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi, va chorva mollari mahsuldorligining o'sishi (pasayishi) omillari va sabablari baholanadi.

Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Hududning mehnat, yer-suv va mineral xomashyo resurslari bilan ta'minlanganligi miqdoriy va sifat bahosi beriladi.

2. Hududdagi demografik vaziyat, aholining ish bilan bandligi keyingi o'n yillik davr bo'yicha baholanadi. Ishsizlik darajasi, shu jumladan uning yashirin shakllari baholanib, aholi va mehnat resurslari soni prognoz qilinadi.

3. Foydali qazilma boyliklari zahiralari, ularning o'zlashtirilgan ahvoli tahlil qilinadi. Hudud mineral-xomashyo bazasi imkoniyatlari, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishni hisobga olgan holda baholanadi. Shuningdek, qazib chiqaruvchi korxonalarining foydali qazilma boyliklari bilan ta'minlangani, ularning konlarni o'zlashtirish xarajatlarini o'rganiladi.

4. Hududda yer-suv resurslari bilan ta'minlangani ularning ahvoli, yerlarning meliorativ ahvoli, yer bonitetlari o'rganilib, meliorativ yaxshilash istiqbollari o'rganiladi.

5. Hududning ishlab chiqarish, transport va aloqa infratuzilma salohiyati o'rganiladi. Aholining ijtimoiy infratuzilma ob'yektlari va xizmatlari bilan ta'minlanganligi darajasi baholanadi.

6. Hududda ishlab chiqaruvchi kuchlarini, yangi korxonalarini joylashtirish uchun istiqbolli tuman, shahar, yirik aholi yashash punktlari tanlanadi.

Hududni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish yo'nalishlari belgilanadi. Rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Dasturda hududni iqtisodiy va ijtimoiy istiqbolda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va ko'rsatkichlari bayon qilinadi. Bunda asosiy e'tibor yangi ishchi o'rinlari, tabiiy, moliyaviy, mehnat resurslarini, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga qaratiladi.

Bu yoʻnalishlar quyidagilarni ifodalashi lozim:

1. Hududning istiqboldagi ehtiyojlari va hududlararo ayriboshlash imkoniyatlarini kengaytirish asosida iqtisodiy maqbul tarmoq va ishlab chiqarishlar aniqlanadi. Istiqbolda tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy koʻrsatkichlari, tarmoq tarkibining oʻzgarishi, eksportga yoʻnaltirilgan va import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar hajmi prognoz qilinadi. Bunda amaldagi korxonalarni texnik, texnologik va tashkiliy jihatdan yangilash muammolariga alohida eʼtibor qaratiladi. Buning uchun ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish yanada chuqurlashtiriladi, nisbatan kichik korxonalar rivojlantiriladi. Bu korxonalarda maxalliy mineral-xomashyo va qishloq xoʻjalik resurslaridan foydalaniladi.

2. Hududda yangi korxonalarni qurish, faoliyat yuritayotgan korxonalarni rekonstruksiya qilish, ixtisosligini oʻzgartirish zarurligi asoslanadi; yirik obʼyektlarga qoʻshimcha mablagʻlar jalb qilish hisob-kitoblari amalga oshiriladi.

3. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻsish surʼatlari, ekin maydonlari tarkibining oʻzgarishi, qishloq xoʻjalik mahsulotlari ishlab chiqarishning natural hajmi prognoz qilinadi. Shuningdek, qishloq xoʻjaligi ekinlari hosildorligini, chorva mollari mahsuldorligini oshirish yoʻllari va manbalari belgilanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish koʻzda tutiladi.

4. Hududda xomashyolarni, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan tugallangan sikldagi ishlab chiqarish tarmoqlarini, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash va sotish shaxobchalarini vujudga keltirish, xorijiy investitsiyali qoʻshma korxonalarni vujudga keltirish orqali yangi zamonaviy texnologiyalarni, xoʻjalik yuritish shakllarini va boshqarish usullarini joriy etish.

5. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va tabiiy resurslardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida transport tizimi va kommunikatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari asoslash.

6. Mulkdorlar sinfini vujudga keltirish boʻyicha vazifalarni hal etish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi ulushini koʻpaytirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish koʻlamlarini, parametrlari belgilanadi. Bunda tashqi savdo tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga, maxalliy xomashyo resurslarini hisobga olgan holda xorijiy investitsiyali korxonalarni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

8. Dasturda tabiiy tashqimuhitni, tabiatni muhofaza qilish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish tadbirlari, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish chora-tadbirlari ham oʻz ifodasini topadi.

Har bir hududiy dasturda uni amalga oshirish mexanizmi koʻzda tutilishi kerak. Bu mexanizm dasturni moliyaviy, iqtisodiy resurslar bilan taʼminlanishi muhim oʻrin tutadi.

Dasturni ishlab chiqishda har bir tadbir va tarmoq bo'yicha turli resurslarga bo'lgan talab, ehtiyoj hisob-kitob qilinadi. Shundan so'ng dastur bo'yicha uning resurslar bilan ta'minlanish manbalari aniqlanadi. Dasturlar resurslar balanslashtiriladi. Maqsadlar va resurslar o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlanadi.

Dasturlarni moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirishda avvalom bor maxalliy resurslar va imkoniyatlar hisobga olinadi. Joylardagi maxalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari maxalliy byudjet, tadbirkorlar va korxonalar o'z mablag'lari, fermer va dehqon xo'jaliklari, aholi mablag'larini jalb qilinadigan xorijiy investorlar, hududdan tashqaridagi tashkilot, korxonalar mablag'larini hamda bank kreditlarini hududiy dasturni amalga oshirishga jalb qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Shuningdek, hududiy dasturlarni amalga oshirishda respublika byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar, O'zbekiston Respublika taraqqiyot va tiklanish jamg'armasi mablag'larini ham jalb etilishi mumkin.

Dasturlarni ishlab chiqishda undan kutilayotgan natijalar qanday bo'lishi oldindan belgilanishi lozim. Dasturlarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari sifatida hududiy yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, umumiy hajmi aholi jon boshiga ishlab chiqarish sur'atlari olinadi. Shuningdek, aholi turmush darajasi va uning ish bilan bandligi, aholi jon boshiga daromadlarining o'sishi, hudud aholisining gaz, elektr energiya, toza ichimlik suvi, uy-joy bilan ta'minlanishining yaxshilanishi, hududning o'zini-o'zi oziq-ovqat, boshqa iste'mol tovarlari bilan ta'minlanishining yaxshilanishi ko'rsatkichlari dasturlarning bajarilishi natijalari hisoblanadi.

Dasturlarni bajarilishini tashkiliy jihatdan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dasturlarni amalga oshirishda butun mas'uliyat joylardagi maxalliy hokimiyat va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatiladi. Maqsadli hududiy dasturni eksport baholash, umumiy nazorat qilishni Vazirlar Mahkamasining tegishli boshqarma va bo'linmalari amalga oshiradilar.

Hududiy dasturlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- yetarli darajada rivojlanmagan, umumrespublika darajasidan orqada qolayotgan hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning yagona metodikasini tasdiqlash;

- respublika shahar va qishloq tumanlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini monitoring qilish, ularni rivojlanish darajalariga ko'ra tipologiyasini ishlab chiqish;

- hududiy dasturlarni, orqada qolgan tuman va shaharlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining loyihalarini ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish.

Joylarda hududlarni rivojlantirish dasturlarini samarali boshqarish maqsadida viloyat, shahar, tuman hokimliklariga quyidagi vazifalarni yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- hududiy rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqish, hududiy dasturni tuzish bo'yicha takliflar berish;

- dastur asosida qo'llab-quvvatlashga muhtoj, muammoli shahar, tuman, aholi punktlarini ajratish va belgilash;

- ular asosida mahalliy dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish hududiy dasturlarni respublikaning hududiy siyosati ustuvorliklari va tamoyillariga muvofiqlashtirish;

- maxalliy dasturlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va ular asosida yagona hududiy dasturlarni shakllantirish hamda ularni ko'rib chiqish, tasdiqlash uchun hududiy rivojlantirish bo'yicha Respublika komissiyasiga taqdim etish;

- mahalliy dasturlarni amalga oshirishga rahbarlik qilish va bajarilishini nazorat qilish, dastur bo'yicha joriy axborotlarni, hisobotlarni muntazam berib borish.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Mintaqa, hudud, mintaqa iqtisodiyoti, mintaqaviy siyosat, mintaqaviy siyosatning maqsadi, mintaqaviy siyosatning yo'nalishlari, mintaqaviy siyosat usullari, mintaqa iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar, ko'rsatkichlar, mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar, hududlar rivojlanishidagi tengsizlik, mintaqa raqobatbardoshligi, territorial-tarmoq klasteri.

Nazorat uchun savollar

1. Mintaqa iqtisodiyoti tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
2. Qanday omillar mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
3. Mintaqaviy siyosat tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
4. Mintaqaviy siyosatning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning maqsadi va vazifalari nimalarda o'z ifodasini topadi?
6. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari qanday ishlab chiqiladi?
7. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligining mazmunini tushuntirib bering?
8. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?
9. Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni qanday ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?
10. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini qanday ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin?

IX BOB. YUKSALISH, RIVOJLANISH VA IQTISODIY SIYOSAT

9.1. Rivojlanishga nisbatan iqtisodiy o'sish: turmush sifati va ekologik cheklovlar.

Iqtisodiyotning qonun-qoidalariga amal qilish iqtisodiy siyosat orqali yuz beradi, chunki bularni anglagan holda iqtisodiyot rivojiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va bular iqtisodiyotga ta'sir etmay qolmaydi. Iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subyektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo'q, o'z manfaatlari bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Xonadonning maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir.

Davlatning maqsadi esa milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iborat. Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud 6 tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda Nazorat hamda uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

- daromad va boylikni qayta taqsimlash;

- resurslarni qayta taqsimlash;

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shartsharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni ta'minlash quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo qiladi: xususiy korxonalarining huquqiy mavqeini Nazorat; xususiy mulkchilik huquqini ta'minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida» va «Aksionerlik jamiyatlari to'g'risida»gi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirish bo'yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zarur huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy rivojlanish - takror ishlab chiqarishning kengayishi va iqtisodiyotda, ishlab chiqaruvchi kuchlarda, ta'lim, fan, madaniyat, aholi turmush darajasi va sifati, inson kapitalida bosqichma-bosqich sifat va tarkibiy ijobiy o'zgarishlar. Iqtisodiy rivojlanish ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi, shuning uchun u iqtisodiyotning texnologik tuzilmalari va moddiy boyliklarni taqsimlashning o'ziga xos tarixiy sharoitlarida turlicha boradi. Bu butun insoniyat hayotining sifatini yaxshilash jarayoni va turmush darajasini, o'zini o'zi hurmat qilish va erkinlikni yaxshilash imkoniyatlaridir.

Jozef Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" kitobida iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi farqlarni keltirdi, turli tipdagi innovatsiyalarning mohiyatini belgilab berdi va ularni tasnifladi.

Shumpeter o'sish va rivojlanish o'rtasidagi farqni quyidagicha izohladi: "Bir qator pochta aravalarini xohlagancha qo'ying - siz temir yo'lga ega bo'lmaysiz". Iqtisodiy o'sish - bu miqdor o'zgarishi - vaqt o'tishi bilan bir xil tovarlar va xizmatlar (xususan, pochta aravalari) ishlab chiqarish va iste'molining ko'payishi. Iqtisodiy rivojlanish - bu ishlab chiqarishdagi, mahsulotdagi, xizmatlardagi, boshqaruvdagi, umuman iqtisodiyotdagi ijobiy

sifat o'zgarishlari, ya'ni innovatsiyalar (innovatsiya - bu yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot (tovar, xizmat) yoki foydalanishga kiritilgan jarayon, yangi savdo usuli yoki biznes amaliyotida, ish joyini tashkil etishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy usul).

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u iqtisodiy o'sishni, iqtisodiyotning innovatsion sektori va venchur biznesni yaratishni, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni, mehnat unumdorligi va aholi turmush sifatini oshirishni o'z ichiga oladi. Venchur kapitali (VC) – bu xususiy kapitalni moliyalashtirishning bir turi bo'lib, u venchur kapital firmalari yoki fondlari tomonidan startaplarga, dastlabki bosqichdagi hamda yuqori o'sish potentsialiga ega deb hisoblangan va rivojlanayotgan yoki yuqori o'sishni (ishchilar soni, - yillik daromad, operatsiyalar ko'lami va boshqalar nuqtai nazaridan) ko'rsatgan kompaniyalarga beriladi.

paniyalarga beriladi. Norbert Toma tomonidan o'zgarishlarni boshqarishning zamonaviy kontseptsiyasi tartibga solish va boshqarishning quyidagi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi: iqtisodiy (masalan, soliqlarni oshirish yoki kamaytirish, JSTga kirish, bozor globallasuvi va boshqalar), texnologik (modernizatsiya, yuqori texnologiyalar), siyosiy va huquqiy (qonunchilikdagi ijobiy o'zgarishlar), ijtimoiymadaniy (axloq va axloq, madaniyat, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar, manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash), jismoniy va ekologik (iqlim sharoitlari, ekologiya).

Saymon Kuznets inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarida etakchi rolni ta'kidlaydi. To'plangan inson kapitalining yetishmasligi, uning past sifati mamlakatda iqtisodiyotning navbatdagi raqobatbardosh texnologik rejimini yaratishga imkon bermaydi.

Aholining turmush darajasini o'rganish 1950-yillarning oxiridan boshlab har tomonlama amalga oshirildi. 1970 yildan boshlab bu tadqiqotlar doimiy va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ldi. Xalqaro statistikada aholi turmush darajasining turli ta'riflari mavjud.

Aholining turmush darajasi tushunchasini tor va keng ma'noda farqlash kerak.

Tor ma'noda, bu moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan shaxsiy ehtiyojlarini qondirish.

Keng ma'noda - xalq hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining butun majmuasi.

So'zning keng ma'nosida turmush darajasi hayot sifati deb ataladi. Aholining hayot sifatining to'rtta darajasi mavjud:

1. Kambag'allik - bu biologik mezonlarga ko'ra moddiy ne'matlar va xizmatlarning ruxsat etilgan minimal to'plami bo'lib, ulardan foydalanish insonning hayotiyiligini saqlab qolish imkonini beradi.

2. Qashshoqlik - mehnat qobiliyati darajasida (mehnat takror ishlab chiqarishning eng quyi chegarasi) tovar va xizmatlar iste'moli. Xalqaro statistika qashshoqlikning ikkita ta'rifidan foydalanadi: mutlaq va nisbiy qashshoqlik. Birinchi holda, qashshoqlik deganda uy xo'jaliklarining sog'lig'ini saqlash va o'rtacha faol mehnat hayotini olib borish uchun mutlaqo zarur bo'lgan imtiyozlar yig'indisini ta'minlay olmaydigan holat tushuniladi. Ikkinchi holda, qashshoqlik ma'lum bir me'yordan sezilarli darajada past bo'lgan uy xo'jaliklarining past daromadlari sifatida tushuniladi.

3. Aholining normal turmush darajasi - bu insonning jismoniy va aqliy kuchini normal tiklashni ta'minlaydigan oqilona, ilmiy asoslangan normalar bo'yicha moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilishdir.

4. Boylik – tovar va xizmatlarni shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan darajada iste'mol qilish.

"Turmush darajasi" tushunchasi murakkab tuzilishga ega, chunki u iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik munosabatlar o'zaro bog'liq bo'lgan inson faoliyati sohasini tavsiflaydi. Turmush darajasi nafaqat odamlarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi, balki iste'mol qilinadigan tovarlarning mutlaq miqdori va sifatidir.

Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash, hatto milliy statistika doirasida ham, davlatlar hududi va aholisi bo'yicha katta bo'lgan va shuning uchun turmush darajasi bo'yicha juda xilma-xil bo'lgan hollarda ancha murakkablashadi.

Xalqaro statistikaga kelsak, aholi turmush darajasini solishtirish va solishtirishni yanada qiyinlashtiradigan yangi omil va shartlar paydo bo'lmoqda. Bu shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va ularning salohiyati;
2. Moliya tizimining holati;
3. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi;
4. Mamlakatlarning intellektual salohiyati darajasi;
5. Geografik omillar;
6. Milliy an'analar va xususiyatlar.

Yuqoridagilarga shuni qo'shimcha qilish kerakki, turmush darajasini ma'lum bir minimal tovar va xizmatlar deb hisoblash mumkin.

1. Fiziologik minimum, bunda mablag'larning 80% dan ortig'i oziq-ovqatga sarflanadi. Sanoat tovarlariga kelsak, zaruriy tovarlar (kiyim, poyabzal,

bosh kiyim). Xizmat xarajatlari ahamiyatsiz. Fiziologik minimum insonga mehnat qobiliyatini tiklamasdan yashashga imkon beradi.

2. Yashash minimumi insonning nafaqat mavjudligini, balki uning mehnat qobiliyatini tiklashini ham ta'minlaydi.

3. Ijtimoiy daraja. Ushbu iste'mol darajasi oqilona byudjetga asoslanadi - past daromad darajasi deb ataladi.

Turmush darajasini butun aholiga nisbatan ham, aholining alohida guruhlariga nisbatan ham o'lchash mumkin. Aholining turmush darajasi ko'rsatkichi ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligi ko'rsatkichi sifatida qaraladi.

Aholining turmush darajasi toifasining aniq ta'rifi mavjud emasligi sababli, uning etarli statistik tavsiflari uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ro'yxati haqidagi savollar munozarali bo'lib qolmoqda.

Aholining turmush darajasini tavsiflash uchun ushbu soha mutaxassislari quyidagilarni taklif qilishadi:

- 1) Tanlangan shaxsiy ko'rsatkichlar;
- 2) Bitta umumiy ko'rsatkich;
- 3) Baho kartasi

Xususiy ko'rsatkichlar aholi turmush darajasining individual jihatlarini tavsiflaydi, bu toifani har tomonlama tavsiflash uchun etarli emas. Aholining turmush darajasining umumlashtirilgan ko'rsatkichini ishlab chiqish barcha xalqaro statistikaning eng muhim vazifalaridan biridir. Umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida quyidagilar taklif qilindi: real ish haqi indeksi, yashash minimumi indeksi, yashash qiymati indeksi. Ushbu ko'rsatkichlarning har biri qimmatlidir, ammo ular turmush darajasini to'liq o'lchashni ta'minlamaydi.

1960 yilda BMT ishchi guruhi xalqaro miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari bo'yicha hisobot tayyorladi. Bu ko'rsatkichlar kartasini yaratishga birinchi urinish edi. 1978 yilda aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining yangi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u ko'rsatkichlarning 12 guruhini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda aholining turmush darajasini baholash uchun BMT Statistik komissiyasi quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini ajratishni tavsiya qiladi:

1. Aholining demografik xususiyatlari (tug'ilish, o'lim, kasallanish, o'rtacha umr ko'rish);
2. Aholi daromadlari ko'rsatkichlari (real va nominal);
3. Xarajatlar va jamg'armalar ko'rsatkichlari;
4. Aholining moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilish ko'rsatkichlari;

5. Aholining uy-joy va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari;

6. Bandlik va ishsizlik darajasi;

7. Aholining mehnat sharoitlari ko'rsatkichlari;

8. Bo'sh vaqt ko'rsatkichlari;

9. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, turizm va rekreatsiya ko'rsatkichlari.

Aholining turmush darajasi toifasining murakkabligi va ko'p qirraliligi uning ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan har tomonlama xarakteristikalarini zarurligini oldindan belgilab beradi. Turmush darajasining barcha elementlari ob'ektiv ravishda o'zaro bog'langanligi sababli, statistik ko'rsatkichlar ham o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimiga kiritilgan barcha ko'rsatkichlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Turmush darajasining miqdoriy jihatini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlar:

a) Aholi daromadlari ko'rsatkichlari;

b) Moddiy ne'matlar sarfi va iste'moli ko'rsatkichlari;

Saqlash ko'rsatkichlari;

a) To'plangan mulk va uy-joy bilan ta'minlash ko'rsatkichlari;

b) Daromad differentsiatsiyasi ko'rsatkichlari, qashshoqlik darajasi va chegaralari.

2. Sifat ko'rsatkichlari:

a) Demografik statistika ko'rsatkichlari (chaqaloqlar o'limi darajasi, onalar o'limi darajasi, o'rtacha umr ko'rish);

b) Davlat va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari;

v) Iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va tuzilishi ko'rsatkichlari;

g) Savodxonlik, ta'lim va madaniyat ko'rsatkichlari;

d) Uy-joy qulayligi ko'rsatkichlari.

Aholining turmush darajasini tavsiflash uchun quyidagi manbalardan foydalaniladi:

a) Aholini ro'yxatga olish;

b) Uy-joylarni ro'yxatga olish;

v) Maxsus namunaviy so'rovlar;

g) Joriy statistika.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida aholi turmush darajasi to'g'risida eng to'liq ma'lumot manbai bu aholini ro'yxatga olishdir.

Ularning afzalliklari:

1. Dastlabki aholini qamrab olish nuqtai nazaridan ko'p qirrali;
2. Qabul qilingan ma'lumotlarning keng doirasi;

Natijalarning batafsil hujjatlari.

Ammo bu manbaning kamchiligi ham bor: aholini ro'yxatga olish kamdankam uchraydi.

9.2. Kapitalizmning buumlari, shishishlar va inqiroz. Siyosiy yuksalish, globalizatsiya va ofshoring.

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo'ladi, ular: mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir. Davlatning siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y-harakatlaridan iboratdir. Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi. Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy kon'yukturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi.

Davlat siyosati davlat rahbarlarining irodasi va qat'iyatligiga va yetilgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi. Davlatning siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi.

Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YaIM qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta'minlash, uning chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash. Bu iqtisodiy aylanmaning uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul qadr-qiyamatining barqarorligini ta'minlash – mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholi turmush farovonligini mustaqil oshirib, iqtisodiyotning ijtimoiyligini to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashish.

6. Milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o'z o'rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta'minlash, ya'ni uning uzoq kelajakda o'sib borishiga sharoit hozirlash.

Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning qisqa vaqtdagi taktik, ya'ni juz'iy maqsadlari ham bor. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, novatsiyalarni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi. Juz'iy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

Davlat siyosati belgilagan maqsadlarga quyidagi vositalar bilan erishadi: birinchisi, iqtisodiy vositalar bo'lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchyot stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiya (jazolash vositalari) kabilar kiradi.

Ikkinchisi, yuridik vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag'batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir. Qonunchilik iqtisodiyotning huquqiy asoslarini belgilab beradi, bular esa bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlari talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi.

Hukumat esa ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishlab chiqadi. Tegishli davlat idoralari qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi. Uchinchisi, siyosiy-ma'muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo'lganidan o'z siyosatiga rioya etilishini o'z organlari kuchi bilan ta'minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak bo'ladi. Ma'muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo'llaniladi.

Davlatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan qat'i nazar, ularning asosiy vazifalaridan biri – mamlakatda ishsizlikni kamaytirish va aholining barcha qatlamlari uchun turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni yuritish orqali uzoq muddatli inklyuziv rivojlanishni ta'minlash hisoblanadi.

Bu borada turli davlatlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning amaliyotga tatbiq etilishi bir-biridan farqli bo'lganligi bois

iqtisodchilar, siyosatchilar va ekspertlar orasida ularning qanchalik samaradorligi qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'ladi.

Ayniqsa, liberal iqtisodchilar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida kambag'allikni qisqartirish va ish o'rinlarini yaratish uchun moliyaviy imtiyozlar berilishi kerakmi, bu imtiyozlar adolat tamoyillariga zid kelmaydimi, iqtisodiyotda davlat aralashuvi qay darajada va qaysi tarmoq va sohalarda bo'lishi kerak, degan savollarning berilishi tabiiy hol.

Umuman olganda, rivojlanayotgan xorijiy davlatlar tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan aholining yordamga muhtoj va ehtiyojmand qatlamiga ajratilayotgan maqsadli moliyaviy mablag'lar to'g'ri va adolatli yo'naltirilgan holatlarda aholining bandligini ta'minlash, turmush darajasi va farovonligini oshirish hamda tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirishda o'zining ijobiy natijalarini bergan.

Xalqaro tajribaga ko'ra, ushbu imtiyoz va moliyaviy ko'maklar boshqa ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar (ta'lim, kasbga o'qitish, iqtisodiyotni erkinlashtirish) bilan birga parallel ravishda amalga oshirilganda yaxshi samara berishi kuzatilgan.

Aholining moliyaviy jihatdan kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajriba

Kambag'allikni qisqartirishda har bir davlatning yoziga xos yondashuvi mavjud bo'lib, mamlakatlarning rivojlanganlik darajasi, aholining dunyoqarashi, qadriyat va urf-odatleri, geografik joylashuvi turlicha bo'lganligi sababli bir davlatda qo'llanilgan mexanizmdan aynan nusxa ko'chirish va boshqa davlatda qo'llash o'z samarasini bermasligi mumkin.

Xususan, rivojlangan davlatlar, aholining yordamga muhtoj qatlamini asosan, to'g'ridan-to'g'ri pul mablag'lari orqali qo'llab-quvvatlasa, rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy e'tibor, aholini zarur ko'nikma va malakaga o'rgatish, boshlang'ich kapital bilan ta'minlash orqali ularning daromad topish imkoniyatini oshirish va tadbirkorlik (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanishga sharoit yaratishga qaratiladi.

Jumladan, Xitoyda aholini kambag'allikdan olib chiqish yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga amalga oshirilgan. Bunda asosiy e'tibor davlat yerlarini oilalarga bo'lib berish va yer munosabatlariga bozor tamoyillarini joriy etishga qaratilgan. Natijada Xitoy oxirgi 30 yilda 600 millionga yaqin aholisini kambag'allikdan chiqarishga muvaffaq bo'lgan.

Bangladeshda tashkil etilgan «Grameyen bank» kambag'alligi tufayli an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalana olmayotgan kambag'allar

qatlamining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini har tomonlama rivojlantirishda katalizator bo‘lib xizmat qildi.

Imtiyozli bank kreditlari 4-5 kishilik jamoadan tashkil topgan guruhlarni shakllantirish hamda ularga bir haftalik moliyaviy treninglar o‘tkazish orqali dastlab kam miqdorda ajratilgan.

Bunda jamoaning barcha a‘zolari oldingi kreditni o‘z vaqtida qaytargan taqdirdagina keyingi bosqichda ko‘proq miqdorda kredit berilgan. Natijada bankning imtiyozli mikrocredit dasturida ishtirok etganlarning 5 foizi har yili o‘z oilalarini kambag‘allikdan olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Bunday moliyalashtirish mexanizmi juda kambag‘al (bazaviy yashash sharoitlari, turar-joy, kiyim-boshga ega bo‘lmagan) aholi qatlami uchun yaratilgan bo‘lib, turmush darajasi nisbatan yuqori davlatlarda qo‘llash o‘z samarasini bermagan.

Hindiston va Indoneziya kabi davlatlar, birinchi navbatda qishloq joylarni rivojlantirish, jumladan, infratuzilmani yaxshilash orqali maktab, bog‘cha va tibbiy muassasalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, moliyaviy dastaklar orqali aholining moliyaviy jihatdan kam ta‘minlangan qatlami vakillari, xususan, yoshlar va ayollarga daromad olishning yangi usullarini taqdim etish tufayli millionlab kishilarni kambag‘allikdan chiqara olgan.

O‘zbekiston aholining ehtiyojmand va yordamga muhtoj qatlamlariga moliyaviy ko‘mak berish tizimining yaratilishi va rivojlanish shajarasi Xalqaro tajribani o‘rgangan holda hamda mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda aholining ehtiyojmand va yordamga muhtoj qatlamlariga moliyaviy ko‘mak berish, kasbga tayyorlash hamda tadbirkorlikka jalb qilish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar orqali ularning turmush farovonligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Yaqin o‘tmishda mamlakatda birinchi marta kambag‘allik mavjudligining tan olinganligi, mazkur toifadagi aholiga manzilli yordam ko‘rsatish, ularning bandligini ta‘minlash, turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Bunda aholining kambag‘al qatlamining bandligini ta‘minlash borasidagi ishlar mamlakatning har bir viloyati, tumani, qishloq hamda mahallasining o‘ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy holatini inobatga olgan holda amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqsadda har bir mahallaning «o‘sish nuqtalari»ni (ixtisoslashuv yo‘nalishlarini) aniqlash, mahallalardagi xonadonlarning yer uchastkalaridan foydalanish darajasini, oilalarning daromad manbalarini, daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqish yo‘nalishlarini "xonadonbay" o‘rganish orqali

ularni tadbirkorlikka jalb qilishni nazarda tutuvchi hududlarda «mahallabay» ishlash tizimi joriy etildi.

2018 yildan boshlab, hududlarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlikka ko‘maklashish, o‘z mehnati bilan daromad topish istagida bo‘lgan fuqarolarga amaliy yordam ko‘rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish orqali har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida «Har bir oila – tadbirkor» dasturi joriy etildi.

2018-2021 yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida qariyb bir million oilaga 23,7 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan bo‘lsa (bitta oilada o‘rtacha 4-5 kishi bo‘ladigan bo‘lsa, mazkur imtiyozli kreditlar 4-5 mln. nafar aholining turmush farovonligiga hissa qo‘shganligini anglatadi), 2021 yilning dastlabki 11 oyida esa «Har bir oila – tadbirkor» dasturi doirasida 332,6 ming kishi va tadbirkorlik sub’ektlariga 8,0 trillion so‘mdan ortiq miqdorda imtiyozli kreditlar ajratildi.

Shuningdek, mamlakatda malakali mehnat resurslariga talabning oshib borayotganligi hamda mehnatga layoqatli aholining katta qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olib, ularni zamonaviy kasblarga mos malakasini shakllantirish, qayta tayyorlash, tadbirkorlik g‘oyalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali bandligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2018-2021 yillarda «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi hamda boshqa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 25 ming nafar yoshlarga 1,8 trillion so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ularning biznes loyihalarini ro‘yobga chiqarishga va daromad manbalarini yaratish uchun dastlabki kapital sifatida ajratildi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda iqtisodiyotda xotin-qizlar rolini oshirish, ularning bandligini ta‘minlash maqsadida kompleks yondashuv amalga oshirilmoqda. Ta‘kidlash joizki, tarixan O‘rta Osiyo hududlarida ayollarning asosan bola parvarishi bilan band bo‘lib qolayotganligi, ularning to‘laqonli mehnat faoliyatini amalga oshirishga asosiy to‘siqlardan bo‘lib kelgan.

Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, hududlarda maktabgacha ta‘lim qamrovini oshirib borish orqali ayollarga to‘laqonli mehnat qilishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Shuningdek, ayollar bandligini ta‘minlashda faqatgina tikuvchilik, pazandachilik kabi an‘anaviy kasblar bilan cheklanib qolmasdan, ularga axborot texnologiyalari kabi zamonaviy kasblarni o‘rgatish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash doirasida 2018-2021 yillarda jami 65 ming nafar xotin-qizlarga 1 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Yoshlar va ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2 ta yirik tijorat bankida alohida platforma tashkil etilgan bo'lib, har bir tashabbus va g'oyani loyiha smeta jarayonida tortib bozorda o'z o'rnini topib ketishga bo'lgan jarayonda konsultativ va moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlab boriladi.

Davlat dasturlarining ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash borasidagi ahamiyati pandemiya davrida ayniqsa yaqqol sezildi. Xususan, koronakrizis davrida aholining norasmiy sektorda band qismi hamda zarur kasbiy malakaga ega bo'lmagan qatlami doimiy daromadini yo'qotishini inobatga olib, kambag'allik darajasining ortishini oldini olish maqsadida «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» kabi aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlashning manzilli dasturlari joriy etildi.

Xususan, 2021 yil 1 noyabr holatiga, «Ayollar daftari»ga kiritilgan 65,2 ming nafar xotin-qizlarga 973,6 milliard so'm, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 56,6 ming nafar yoshlarga 1,3 trillion so'm, «Temir daftar»ga kiritilgan 5,7 ming nafar fuqaroga 94,4 milliard so'm, miqdorida imtiyozli kreditlar yo'naltirildi.

Ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri

Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir davlat uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun u yoki bu yo'l bilan mamlakatda ehtiyojmand aholi qatlamini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularni o'rta daromadli qatlama olib chiqishga majbur bo'ladi. Bu borada O'zbekistonda davlat tomonidan aholiga to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish bilan birgalikda, ularni daromad topish imkoniyatlarini oshirish uchun imtiyozli kreditlar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi joriy etilgan va uning umumiy iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yilga pasayib bormoqda. Xususan, so'nggi yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari ko'lamining kengayib borayotganligiga qaramay, tijorat banklari tomonidan imtiyozli asosda ajratilayotgan kreditlar ulushi 2018 yildagi 49 foizdan 2021 yil dekabr holatiga 25,5 foizgacha pasayishi kuzatilib, dastlabki yillarda kreditlar to'liq davlat resurslari hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib dasturlarni moliyalashtirishda oldin ajratilgan kreditlarning qaytgan qismi ulushi qariyb 60 foizga yetdi.

Bu, o'z navbatida, dastlabki yillarda ushbu dasturlarda qatnashgan aholining doimiy daromadga ega bo'lishi va o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi hisobiga nisbatan daromadlari oshganligi va endi an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish sektoriga o'tayotganligi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik dasturlarini amalga oshirishda asosiy e'tibor ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali ichki bozorda mahsulotlar taklifini oshirishga qaratilmoqda.

O'z navbatida, oilaviy tadbirkorlik dasturlari orqali tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi mamlakatda asosiy iste'mol tovarlari (sut, tuxum, go'sht mahsulotlari, meva, sabzavotlar) taklifining ortishiga hissa qo'shib, narxlar barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Birgina misol, 2018-2020 yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida aholi xonadonlari va bo'sh turgan yerlarda tashkil etilgan issiqxonalar, ma'lum ma'noda ichki bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari (pomidor, limon va boshqalar) taklifi va narxlarini mavsumiy keskin tebranishlarini oldini olish imkonini berdi. Shuningdek, dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar mamlakatda ishsizlik darajasini qisqartirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, pandemiya davrida aholining turli dasturlar orqali qo'llab-quvvatlanishi mamlakatda ishsizlik darajasining keskin ortib ketishini oldini olishga hamda 2021 yil 1 oktyabr holatiga pandemiyadan oldingi darajagacha qayta pasayishiga xizmat qildi.

Ma'lumot uchun: 2020 yil yakunida ishsizlik darajasi 2019 yil yakunidagi 9 foizdan 10,5 foizgacha oshgan bo'lsa, 2021 yilning 1 oktyabr holatiga 9,4 foizgacha pasayishi kuzatildi.

Dasturlarni amalga oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va yechimlar

Maqolani kirish qismida ta'kidlaganimizdek, kambag'allikni qisqartirish borasida bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatda aynan qo'llash imkoniyatining, ya'ni yagona formulaning mavjud emasligi O'zbekistonda ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda aholining ehtiyojmand qismini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos tizimini yaratishni taqozo etdi.

Xususan, dastlab 2018 yildan mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni tizimli amalga oshirish boshlangan bo'lsa, ushbu tizim va uni amalga oshirish mexanizmlari, o'tgan davr mobaynida amaliyotda yuzaga kelgan kamchiliklar hamda muammolarni bartaraf etish orqali bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi.

Dastlabki bosqichda dastur doirasida kredit mablag'lari hisobidan faqatgina hududiy komissiyalar tomonidan tasdiqlanadigan ta'minotchilardan mahsulot (chorva, parranda, ko'chat, hunarmandchilik dastgohlari) sotib olish belgilangan edi. Taklif cheklanganligi, raqobatning mavjud emasligi sharoitida talabning oshishi, dasturlar doirasida xarid qilinadigan ayrim tovarlar narxining bozor qiymatidan yuqori sotilishi, sifatining pastligi kabi bir qator muammolarni

yuzaga keltirdi. Bu o'z navbatida, dastur doirasida ajratilayotgan imtiyozli kreditlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqichda mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida, hududiy komissiyalar tomonidan ta'minotchilarni belgilash amaliyoti bekor qilindi hamda imtiyozli kreditlar tovarlar shartnoma asosida kelishilgan narxda yetkazib berilgandan va loyiha egasi undan qanoatlanish hosil qilganidan so'ng mahsulot yetkazib beruvchi (xizmat ko'rsatuvchi)ning hisobraqamiga o'tkazib berilishi belgilandi. Mazkur bosqichda ichki bozorda yuzaga kelgan ortiqcha bosimni kamaytirish maqsadida naslli chorva mollarini faqat ularni import qiluvchi ta'minotchilardan sotib olish tartibi joriy etildi.

Shunga qaramay, Oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha mahsulot sotib olish, kredit ajratish va undan foydalanishda inson omili, ta'minotchilar o'rtasida raqobatning pastligi, imtiyozli kreditlarning maqsadsiz yoki noo'rin ishlatilishi kabi muammolarning saqlanib qolayotganligi dastur samaradorligini yanada oshirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qildi.

Uchinchi bosqichda (2021 yildan), asosiy e'tibor oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha kredit ajratishda banklardagi inson omilini yo'qotish, shaffoflikni oshirishga qaratildi. Xususan oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha «Yagona elektron platforma»si (www.oilakredit.uz) joriy etilib, kreditlar bo'yicha ariza qabul qilish jarayoni to'liq raqamlashtirildi. Bugungi kunda mazkur platforma samaradorligini yanada oshirish maqsadida, kredit arizalarini barcha bosqichlarda onlayn ko'rib chiqish hamda ajratilgan kreditlar hisobiga tovar va xizmatlarni bozor tamoyillari asosida erkin sotib olish yoki sotish Yagona elektron platformada yaratilgan «marketpleys» tizimi yordamida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Bu, o'z navbatida, ta'minotchilar o'rtasida raqobatni oshirish va imtiyozli kreditlar hisobiga sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxini pasaytirish, yetishtirilgan mahsulotlarini respublikaning istalgan hududida sotish imkonini beradi.

Kelgusida ushbu tizimni takomillashtirib borib, tadbirkorlikni kreditlash jarayonlari to'liq bozor asoslariga o'tiladi. Bunda aniq yo'nalishlar bo'yicha ajratilgan kreditlar foizlarini bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilib berish mexanizmidan foydalanish imkoniyati saqlanib qolinadi. Albatta, bu borada har bir ajratilayotgan kompensatsiyalarning maqsadli ishlatilishi va shaffofligini, eng muhimi, samaradorligini oshirish bo'yicha choralar kuchaytiriladi.

9.3. Makroiqtisodiy muvozanat va uning bozor iqtisodiyotida namoyon bo'lish shakllari.

Makroiqtisodiyot yaxlit bo'lar ekan, iqtisodiy siyosat ham yagonadir. Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo'lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga oid puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa'y harakatlaridir. Lekin davlat siyosatining aniq yo'nalishlari bor. Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi.

Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa asosan, iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud.

Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi uchta yo'l orqali shakllanadi:

1). ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog'ozlar bilan tovon to'lash orqali mulkni milliylashtirish;

2). davlat byudjeti mablag'lari hisobiga yangi korxonalar, ba'zi hollarda yaxlit tarmoqlarni barpo etish;

3). davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aksiyalarini sotib olish va aralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish. Monetar siyosat – bu davlatning pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turish siyosati hisoblanadi. Uning maqsadi narxlarni va shunga ko'ra milliy pul birligi xarid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish, oxiroqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishdan iborat bo'ladi.

Monetar siyosatning uchta asosiy jihati bor:

1. Qayta moliyalashtirish yoki hisob siyosati. Bunda davlat nomidan markaziy banklar uchyot stavkasini o'zgartiradi. Stavka oshganda pul qimmatlashib, unga talab qisqaradi. U pasaytirilganda 10 pul arzonlashib, unga talab oshadi. Bu ayni paytda kreditning arzon yoki qimmat bo'lishini bildiradi. Bu esa iqtisodiyotga kredit hisobidan yuboriladigan investitsiyalarni o'zgartirib, uning o'sishiga ta'sir etadi.

2. Ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish siyosati. Bu davlat obligatsiyalarini chiqarib, firmalar, banklar va aholiga sotish va vaqti kelganda ularni qaytadan sotib olishni bildiradi. Bu obligatsiyalarni olish qulay bo'ladi, chunki ularga qat'iy belgilangan foizni davlat to'laydi, bu bilan ularning daromadliligi kafolatlanadi. Davlat obligatsiyalari sotilganda pul ularga bog'lanib qoladi, natijada uning muomaladagi miqdori qisqaradi. Aksincha, ular qaytadan sotib olinganda pul ulardan bo'shab, muomalaga keladi, u yerdagi pul miqdori ko'payadi. Demak, bu usul bilan ham pul miqdori tartiblanadi.

3. Majburiy rezerv siyosati. Bu siyosatga binoan markaziy banklar boshqa banklar uchun kredit resursining majburiy rezervini kiritadi. Bu tartibga ko'ra banklar kreditga beriladigan pulning bir qismini markaziy banklar ixtiyoriga beradi. Bu rezerv oshsa, kredit puli qisqaradi, agar u kamaysa, bu pul ko'payadi.

Masalan, mamlakatda jami kredit resurslari 80 mlrd. dollar. Shundan 10 foiz zaxira o'tkazilsa, kredit uchun 72 mlrd. dollar qoladi. Bordi-yu bu zaxira 15 foizga chiqarilsa, kreditga 68 mlrd. dollar qoladi. Bu bilan kreditga mo'ljallangan pulning taklifi oshadi yoki qisqaradi. Shunga qarab, kredit olish goh oshib, goh qisqarib turadi. Monetar siyosatning aytilgan yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, unda turli iqtisodiy vositalar qo'llaniladi.

Monetar siyosat ikki xil bo'ladi:

1). qattiq siyosat. Bunda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi qat'iy chegaralanadi. Natijada pul massasi qisqarib, tovar massasiga tenglashadi. Pulning qisqarishi talabni kamaytiradi, narxlar esa o'smaydi, pul birligining xarid qurbi barqarorlashadi. Pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat ilgari ta'kidlaganimizdek, odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflyatsiyani keskin susaytirish uchun qo'llaniladi;

2). yumshoq monetar siyosat. Bunda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi hadeb cheklanavermaydi, natijada pul ko'payib, uning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq siyosat iqtisodiyot o'sish pallada bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham o'sadi. Bunda tovar-pul muvozanati pulni qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko'payishi tufayli ta'minlanib turadi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Iqtisodiy islohot, davlat bosh islohotchi, institutsional islohotlar, iqtisodiyotni boshqarish, ma'muriy boshqarish tizimi, davlat boshqaruv tizimi,

iqtisodiyotni ma'muriy boshqarish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi, iqtisodiy strategiya, iqtisodiy siyosat.

Nazorat uchun savollar

1. Iqtisodiy siyosat nima?
2. Iqtisodiy sub'yektlarning manfaatlari nima bilan farq qiladi?
3. Iqtisodiy siyosatning qanday darajalari mavjud?
4. Davlatning siyosati milliy bo'ladi, degan ibora nimani anglatadi?
5. Davlatning siyosati orqali ko'zlanadigan asosiy maqsadlar nima?
6. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin nima uchun institutsional islohotlarga zaruriyat tug'ildi?
7. Institutsional islohotlarning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
8. Institutsional islohotlar qanday yo'nalishlarda amalga oshirildi?
9. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida davlat boshqarish tizimini takomillashtirish qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
10. Davlat boshqarish tizimini nomarkazlashtirish qanday ahamiyatga ega?

X BOB. DAROMADLARNI QAYTA TAQSIMLASH, BOYLIK VA IQTISODIY SIYOSAT

10.1. Adolat printsiplari va qayta taqsimlash siyosatining asoslari

Iqtisodiy o‘shning daromadlarga ta’siri. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sh ko‘proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o‘sh bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o‘shishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘shni YaIM mutloq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda biron bir mamlakat iqtisodiy o‘shini YaIM mutloq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo‘llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o‘sh sur’atini tavsiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘shishi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular *birinchidan*, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o‘shini to‘liq tavsiflab berolmaydi; *ikkinchidan*, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o‘shishi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi; *uchinchidan*, iqtisodiy o‘shni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va inson hayotiga salbiy ta’sirini hisobga olmaydi. Shunga ko‘ra, iqtisodiy o‘shning barcha tavsifi yillik o‘sh sur’atlarining foizdagi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{YaIM_{joriy\ davr} - YaIM_{bazis\ davr}}{YaIM_{bazis\ davr}} \times 100\%,$$

bu yerda:

O‘S – iqtisodiy o‘sh sur’ati, foizda;

$YaIM_{bazis\ davr}$ – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

$YaIM_{joriy\ davr}$ – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

**O‘zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab
chiqarishning o‘shishi**


| Yillar | Ko‘rsatkichlar | | |
|--------|----------------------------------|-----------------------------|--|
| | YaIM absolyut miqdori, mlrd.so‘m | YaIMning o‘shish sur‘ati, % | YaIMning aholi jon boshiga o‘shishi, % |
| 2010 | 61831,2 | 8,5 | 6,7 |
| 2011 | 77750,6 | 8,3 | 5,5 |
| 2012 | 96589,8 | 8,2 | 6,6 |
| 2013 | 118986,9 | 8,0 | 6,7 |
| 2014 | 144867,9 | 8,1 | 6,7 |
| 2015 | 171369,0 | 8,0 | 6,9 |
| 2016 | 198871,6 | 7,8 | - |
| 2017 | 249136,4 | 5,3 | 3,6 |
| 2018 | 406648,5 | 5,1 | 3,6 |
| 2019 | 511838,1 | 5,6 | 3,6 |

10.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda 2010-2019 yillar davomida real YaIMning o‘shish sur‘ati faqatgina absolyut miqdorda emas, balki aholi jon boshiga o‘shishi ro‘y bermoqda. Bu ko‘rsatkichni ko‘tarish uchun iqtisodiyotni jadal rivojlantirish zarur. Lekin YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanganda u achinarli ahvolda ekanligi ma’lum. Shuningdek, iqtisodiy o‘shish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko‘payishi va sifat jihatidan takomillashib borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ining o‘ng tomonga qarab siljishiga olib keladi.

Aytaylik, 2019 yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi (Y_{2019}) 2018 yildagi (Y_{2018})ga nisbatan o‘ydi. Bu o‘shish o‘z navbatida milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ining ham kengayishiga olib keladi (10.1-chizma).

Chizmadan ko‘rinadiki, iqtisodiy o‘shish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to‘laroq qondirish imkoniga ega bo‘ladi.

Investitsiya tovarlari



10.1-chizma. Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi

Chizmadan ko'rinadiki, iqtisodiy o'sish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati to'g'risida gapirilganda uning darajasini ham e'tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo'lgan mamlakatlar uchun 8-10 % darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati me'yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo'lgan mamlakatlar uchun 2-3 % darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa ahamiyatli ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdori qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 9 % darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2000 yildagi 4,0 % darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko'paytirilishi lozim, sodda qilib

aytganda mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana korxonalar qurilishi lozim. ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potentsialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;

b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

10.2. Kambag'allik ko'rsatkichlari va tengsizlik. Iqtisodiy siyosatda qayta taqsimlashning asosiy choralari.

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy-buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy-buyumlashgan boylik oxir-oqibatda ishlab chiqarishning, unumli mehnatning natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish yaratilganda mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi. Ammo moddiy-buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lar edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi ichki mahsulotning faqat bir qismi moddiy-buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi ichki mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo'lib, tarkibiy tuzilishi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar);
- noishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar);
- aylanma kapital (fondlar);
- tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi;
- moddiy zahiralalar va ehtiyojlar;
- aholining uy xo'jaligida jamg'arilgan mol-mulk.

Moddiy-buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehnat unumdorligining o'sishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi.

Moddiy-buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, bir tomondan mahsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy-texnikaviy asosi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning omili bo'lib ishtirok etadi, uning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning asosi tabiat mahsuli bo'lib, uning vujudga kelishi tabiat qonunlari asosida ro'y bersada, ulardan foydalanish jamiyat rivojiga ham bog'liq bo'ladi. Foydali qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va er resurslari tabiatan mavjud bo'lsada, ishlab chiqarishda faol qatnashadi.

Tabiat in'omlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma'nosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potentsial boylik hisoblanadi. Ular inson mehnatining ta'siri oqibatida real boylikka aylanadi.

Milliy boylik nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarida ashyoviy-buyum shakl bilan bog'liq bo'lmagan alohida turdagi iste'mol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun, shuningdek, bevosita aholining turmush darajasini ta'minlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'likni saqlash, fan, madaniyat, san'at, sport sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy boyliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob adabiyot va san'at asarlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy tavsifdagi boyliklarini ham oladi.

10.3. Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muhim shakli sifatida.

Iqtisodiy muvozanatni ta'minlash. Iqtisodiyotning inqirozlarsiz, barqaror rivojlanishi uchun uning turli tomonlari o'rtasida ma'lum muvozanat bo'lishi taqozo etiladi.

Iqtisodiy muvozanat deb bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va ta'sirda amal qiladigan iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytiladi. Shuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanishi, uni ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Chunki u xususiy va umumiy tavsifdagi bir qator muvozanatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Xususiy muvozanat – bu iqtisodiyotning ayrim bo'laklarida, soha va yo'nalishlarida ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki tomonlarining miqdoran teng kelishi. Xususiy muvozanat ishlab chiqarish va

iste`mol, aholining sotib olish layoqati va tovar taklifi masalalari, byudjet daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga talab va taklif o`rtasidagi muvozanat ko`rinishida namoyon bo`ladi.

Umumiqtisodiy muvozanat jamiyat a`zolari barcha talablari va milliy ishlab chiqarish hajmining o`zaro teng kelishini bildiradi. Umumiy iqtisodiy muvozanat bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning teng kelishida ko`rinadi. Bu nafaqat iste`mol ne`matlariga, balki ishlab chiqarish vositalariga, ishchi kuchiga hamda barcha iqtisodiy faoliyat natijalariga umumiy talab va taklifning muvofiq kelishidir.

Umumiy iqtisodiy muvozanat bir qator shart-sharoitlarni taqozo etadi.

*Birinchi*dan, bu ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishidir.

*Ikkinchi*dan, iqtisodiy muvozanat mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo`jalik mexanizmini taqozo qiladi.

*Uchinchi*dan, muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste`molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi lozimligini bildiradi.

*To`rtinchi*dan, iqtisodiyotda muvozanatning umumiy shart-sharoitlari bo`lib bozor muvozanati, ya`ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokazolar)da talab va taklif muvozanatga erishishi xizmat qiladi.

Iqtisodiy muvozanat erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqozo qiladi. Real hayotda iqtisodiyot doimiy harakatda va to`xtovsiz rivojlanish holatida bo`ladi. Iqtisodiy sikl fazalarida, bozor kon`yunkturasi, bozor sub`ektlari daromadlari va talabi tarkibida o`zgarishlar ro`y berib turadi. Bularning hammasi muvozanat holatini turg`un iqtisodiyotdagi shartli umumiy muvozanat sifatida qarab chiqishni taqozo qiladi. Shunday qilib, makrodarajada umumiy iqtisodiy muvozanat – bu mamlakat butun iqtisodiyotining muvofiqligidir. Bu barcha sohalar, tarmoqlar, xo`jaliklarning me`yorida rivojlanishini ta`minlaydigan iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilari hamda barcha bozordagi o`zaro bog`liq va bir-birini taqozo qiladigan muvozanatlar tizimini o`z ichiga oladi.


Iqtisod fanlari doktori O.Hamroev iqtisodiy muvozanatning mazmuni va uning tarkibiy tuzilishini o`rganishga tizimli yondashib, ularni quyidagi chizma ko`rinishida ifodalaydi (10.2-chizma)⁷.

Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi bu ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarishning mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli bo`lgan umumiy pul miqdori bilan ta`minlangan bo`ladi. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashda asosan ikkita o`zaro bog`liq usuldan foydalaniladi:

⁷ Hamroyev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta`minlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004, 35-b.

- 1). yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli;
- 2). jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash uchun ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko'rsatkichi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste'mol hajmi va sof investitsiya sarflarining umumiy summasi (S+In) olinadi.




10.2-chizma. Iqtisodiy muvozanatning mazmuni va tarkibiy tuzilishi

Mazkur modelda yalpi investitsiyalar o'rniga sof investitsiyalar ko'rsatkichidan foydalanish ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalashda YaIM o'rniga SMMning qo'llanishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy muvozanat darajasini tahlil qilish jarayonini soddalashtirish maqsadida yalpi sarflar tarkibidagi davlat (G) hamda chet el omili (X_n) e'tiborga olinmaydi.

Boshqacha aytganda, sof milliy mahsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga (S+I_n) teng bo'ladi (10.3-chizma).

Chizmadan ko'rinadiki, yalpi sarflar hamda ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi tenglik ushbu ko'rsatkichlar joylashgan o'qlarning o'rtasidan 45° li burchak ostida o'tuvchi to'g'ri chiziq orqali ifodalangani. Haqiqatan ham bu to'g'ri chiziqning har qanday nuqtasidan chiqarilgan yotiq va tik yo'nalishdagi chiziqlar teng miqdorlarni ko'rsatadi. S chizig'i esa iste'mol sarflari miqdorini aks ettirib, daromad (ya'ni SMM) hajmi oshib borishi bilan uning darajasi ham o'sib boradi. Yalpi sarflar (S+I_n) chizig'ini hosil qilish uchun iste'mol sarflarining (S) turli hajmiga mos

tushuvchi sof investitsiyalar (I_n) miqdori qo‘shib boriladi. Bu o‘rinda tadbirkorlar tomonidan amalga oshirish ko‘zda tutilayotgan investitsiyalar hajmi daromad darajasiga bog‘liq emas, deb qabul qilinadi. Shu sababli yalpi sarflar chizig‘i iste‘mol sarflari chizig‘idan I_n miqdoriga teng uzoqlikda joylashadi.




10.3-chizma. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli

Chizmada iqtisodiy muvozanatga E nuqtada erishiladi, ya‘ni aynan shu nuqtada ishlab chiqarilgan sof milliy mahsulot hajmi (SMM_E) iste‘mol qilingan mahsulot hajmiga $(S+I_n)_E$ teng keladi. To‘la bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik chizmada retsession yoki inflyatsion farq ko‘rinishida ifodalangan.

Yalpi sarflarning SMM hajmidan kam bo‘lgan miqdori retsession farq, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqcha bo‘lgan miqdori inflyatsion farq deyiladi.

Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir qismini iste‘mol qilmasdan jamg‘armaga qo‘yishi mumkin. Jamg‘arma «sarflar – daromadlar» oqimidan potentsial sarflarni olib qo‘yish hisoblanadi. Bunda jamg‘armaga qo‘yilgan mablag‘ investitsiyalar bilan to‘liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘ladi (10.4-chizma).

Investitsion sarflarning ko‘payishi ishlab chiqarish hajmi va daromad darajasining o‘shishiga olib keladi. Bu o‘zaro natija mul‘tiplikator samarasi bilan izohlanadi. Mul‘tiplikator tushunchasi «ko‘paytiruvchi» degan ma‘noni anglatadi. Mul‘tiplikator samarasining mohiyati investitsiya hajmining o‘shishi jamiyat milliy daromadining unga nisbatan ko‘proq o‘shishiga olib kelishi orqali ifodalanadi.



10.4-chizma. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli

Mul'tiplikator samarasi – bu sof milliy mahsulot o'zgarishining investitsiya sarflaridagi o'zgarishga nisbati:

$$\text{Mul'tiplikator samarasi} = \frac{\text{Real sof milliy mahsulot o'zgarishi}}{\text{Investitsiya sarflaridagi o'zgarish}}$$

Yoki, **mul'tiplikator koeffitsientini** quyidagicha ifodalash ham mumkin:

$$k = \frac{1}{1 - MPS} = \frac{1}{MPS}$$

Bundan kelib chiqqan holda investitsion sarflardagi o'zgarishdan tashqari iste'mol, davlat xaridi yoki eksportdagi o'zgarishlar ham mul'tiplikator samarasiga ta'sir ko'rsatadi. Mul'tiplikator samarasi ikkita holatga asoslanadi.

Birinchidan, iqtisodiyotda bir sub'ekt tomonidan qilingan sarf boshqa bir sub'ekt tomonidan daromad shaklida olinadi.

Ikkinchidan, daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'armada xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamg'arma va investitsiya darajasi ham o'ziga xos chegaralarga ega bo'lib, bu borada klassik va keynscha qarashlar tafovutlanadi. Klassik nazariya qarashlariga ko'ra, jamg'arma investitsiya manbai bo'lib, jamg'armaga nisbatan moyillikning yuqori darajasi muqarrar ravishda iqtisodiyotning yuksalishiga olib keladi.

Keynscha nazariya esa klassik talqinga qarshi chiqib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon o'zgacha kechishi ta'kidlanadi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda jamg'armaga bo'lgan intilish investitsiyalashga bo'lgan intilishdan jadalroq borib, u quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. yuqori foyda keltiruvchi kapital qo'yilmalarning muqobil imkoniyatlari qisqarib boradi. Natijada kapital jamg'arishning o'sishi bilan uning amal qilishining keyingi qo'shilgan samaradorligi pasayib boradi.

2. rivojlangan mamlakatlarda daromadlarning o'sishi bilan jamg'armaning ulushi oshib boradi. Shunga ko'ra, jamg'arma hajmi investitsiya sarflari hajmidan oshib ketsa, jamg'arma egalari muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'ladilar. Bu holatni iqtisodiy adabiyotlarda «tejamkorlik paradoksi» tushunchasi orqali izohlanadi. Bu paradoksning mohiyati shundan iboratki, investitsiyalar nazariy jihatdan avtonom va hosilaviy investitsiyalarga ajratilib, avtonom investitsiyalar milliy daromad hajmi va uning o'zgarishiga bog'liq bo'lmasa, hosilaviy investitsiyalar milliy daromadning o'zgarishiga ham bog'liq bo'ladi.

Aynan avtonom investitsiyalarga qo'shimcha ravishda o'sib boruvchi hosilaviy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni kuchaytirishi, uni jadallashtirishi natijasida **akselerator samarasi** ro'y beradi («akselerator» tushunchasi jadallashtiruvchi degan ma'noni anglatadi).

Hosilaviy investitsiyalarning iqtisodiy tabiatidagi o'ziga xoslik shundaki, u milliy daromadning o'sishiga qanchalik uzviy bog'liq bo'lsa, uning qisqarishiga ham shu darajada ta'sirchan bo'ladi. Ya'ni, iqtisodiyotdagi daromadlarning qisqarishi hosilaviy investitsiyalarning undan ham tezroq qisqarishiga olib keladi. Natijada iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarining bandlik darajasi pasayadi. Bunday sharoitda jamg'armaga bo'lgan moyillikning o'sishi o'z navbatida iste'molga bo'lgan moyillikning pasayishini anglatadi.

Iste'mol sarflarining qisqarishi esa mavjud tovar va xizmatlarning sotilmay qolishiga, ya'ni ishlab chiqarish zaxirasining ko'payishiga olib keladi. Oqibatda yangi kapital qo'yilmalar amalga oshirilmaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, ishsizlikning o'sishi va daromadlarning pasayishi ro'y beradi. Aholi tomonidan jamg'armaning haddan ortiq ko'paytirib yuborilishi oqibatida kelib chiquvchi salbiy jarayonlar, ya'ni - «tejamkorlik paradoksi» shunday tarzda namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonni quyidagi chizma orqali ham ko'rib chiqish mumkin (10.5-chizma).

Chizmaning yotiq o'qida milliy daromad, tik o'qida esa jamg'arma va investitsiyalar hajmi joylashtirilgan bo'lib, F chizig'i iqtisodiyotdagi to'la bandlik sharoitida milliy daromad hajmini ifodalaydi. E'tibor berilsa, chizmadagi investitsiya sarflari chizig'i yotiq o'qqa parallel emas, balki o'sib boruvchi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa, avtonom investitsiyalardan farqli o'laroq, hosilaviy investitsiyalarning milliy daromad hajmiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy jarayon g'oyat murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli mutanosiblik turlari ham ko'p va xilma-xil. Jumladan, professor A.G.Gryaznova va boshqalar iqtisodiyotda muvozanatga erishishni ta'minlovchi beshta asosiy mutanosiblikni ajratib ko'rsatadilar:

1) resurslarning hajmi, tarkibiy tuzilishi va samaradorligini moddiy ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasi bilan bog'lovchi **omillar** (ishlab chiqarish, mehnat, moliyaviy resurslar) **mutanosibligi**;

2) jamg'arish me'yorini, ya'ni ishlab chiqarishning ma'lum hajmiga erishish uchun uni kengaytirishga yo'naltiriluvchi mamlakat milliy daromadidagi ulushni belgilovchi **jamg'arish mutanosibligi**;

3) ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromadlarni ishlab chiqarish omillarining barcha egalari o'rtasida taqsimlanishi nisbatini belgilab beruvchi **taqsimot mutanosibligi**;

4) iste'molchi talabi va taklifning hajmi, tarkibiy tuzilishi va qiymati bo'yicha nisbatini belgilab beruvchi **ayirboshlash (sotish) mutanosibligi**;

5) tovar va pul massasi o'rtasidagi nisbatni aks ettiruvchi **tovar-pul mutanosibligi**⁸.

Iqtisodiy mutanosibliklarni bu kabi turli ko'rinishdagi turkumlashlar boshqa manbalarda ham ko'plab uchraydi. Shunga ko'ra, ularning barchasini umumlashtirib mutanosiblikning quyidagi guruhlarini tarkibiga kiritish mumkin.

1. Umumiy iqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar. Bunga milliy daromaddagi tarkibiy qismlar – iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi; aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. Tarmoqlararo mutanosibliklar. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Milliy iqtisodiyot juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib, o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchilik qismi (paxta, g'alla, pilla, sut va h.k.) sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste'mol tovarlari bozoriga chiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohalarning mahsulotlari milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari (qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k.)da unumli iste'mol qilinadi. Bu ularning bir-biriga bog'liqlikda rivojlanishini taqozo qiladi. Tarmoqlararo

⁸ Экономическая теория: Учебник/ Под ред. А.Г.Грязновой, Т.В.Чечелевой. – М.: Издательство «Экзамен», 2004, 415-бет.

mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar misol bo'ladi.

3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar. Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar va h.k. Shu bilan birga ta'kidlab o'tilgan sohalarning ichidagi tarkibiy bo'linmalar o'rtasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari, mashinasozlikda motor, kuzov, g'ildiraklar va boshqa qismlari, ishlab chiqarishning turli omillari o'rtasidagi mutanosibliklar va boshqalar.

4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidagi roli to'liq namoyon bo'lmaydi. Lekin alohida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliklar)ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai-nazaridan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinadi.

5. Davlatlararo mutanosibliklar. Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. *Birinchidan*, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, *ikkinchidan*, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi. Bu bog'liqlik qancha katta bo'lsa, sof eksport hajmi orqali makroiqtisodiy muvozanatlikka shuncha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qarab chiqilgan mutanosibliklarga erishish orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojini ta'minlab borishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish;
- to'la bandlilikka erishish, ya'ni mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni xohlaganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;
- narx-navoning nisbiy barqarorligiga erishish va uni inflyatsiya ta'siridan xoli qilish;
- iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini etarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish;

- eksport va importni muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining faolligiga erishish.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o‘rtasida miqdor va sifat jihatdan ma’lum moslik, mos keluvchi nisbatlar bo‘lib, bunda tenglik bo‘lishi shart emas. Iqtisodiy mutanosibliklarning barchasini umumlashtirib umumiy iqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar; tarmoqlararo mutanosibliklar; tarmoq ichidagi mutanosibliklar; hududiy (territorial) mutanosibliklar; davlatlararo mutanosibliklarga guruhlash mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy soha, ijtimoiy-madaniy maqsadlarga davlat xarajatlari, aholini ijtimoiy himoyasiga xarajatlar, hayot kechirish minimumi, eng kam ish haqi, yuqori narx, eng kam pensiya, sog‘liqni saqlashga xarajatlar, qashshoqliq.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy sohaning qaysi elementlarining rivojlanishiga faqatgina davlat samarali ta’sir eta olishi mumkin?
2. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati nimadan iborat?
3. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati nimalar bilan bog‘liq?
4. Jamiyat rivojlanishida inson omili rolining oishi nimalarga bog‘liq?
5. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
6. Davlatning bandlik siyosatining maqsadi va amalga oshirish yo‘nalishlarini tushuntirib bering?
7. Mehnat bozori nima va uning asoaiy elementlari nimalardan iborat?
8. Mehnat bozori davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning o‘rib borishi sabablarini izohlab bering.
10. O‘zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

XI BOB. JAMIYATNING IJTIMOIIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI

11.1. Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli.

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy ob'yektlari quyidagilar: daromadlar, ish haqi minimumi; bandlik, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash; soliqlar, narxlar; ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy munosabatlar (shu jumladan, ish beruvchi va yollanib ishlovchilar o'rtasidagi munosabatlar), ijtimoiy ta'minot; huquqiy ta'minot (xavfsizlik, hayot, mulk va jamg'armalarni himoyalash).

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi daromadlarni davlat byudjeti orqali qayta taqsimlashdan iboratdir. Shu bilan birga, kam ta'minlanganlarning daromadlarini oshirish, ularning ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish omillarining turlicha ekani tufayli yuzaga kelgan disproportsiyani bartaraf etish, ish bilan bandlikni tartibga solish va ijtimoiy tanglikning oldini olish kabi muammolar ham hal etiladi. Ko'rilayotgan doirada davlatning faolligi markaziy va mahalliy byudjetdan qilingan ijtimoiy xarajatlar hajmi bilan o'lchanadi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda davlatning imkoniyatlari byudjet tushumlari bilan cheklanadi.

Daromadlar siyosati konstitutsiya va unga tenglashtirilgan qonuniy hujjatlarda belgilangan ma'lum tamoyillar asosida yuritiladi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy hamkorlik va aholi barcha qatlamlarining birdamligi;
- o'z moddiy ahvoli uchun shaxsiy mas'uliyat;
- mehnat huquqi va uni munosib rag'batlantirish;
- kasaba uyushmalari huquqi;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va boshqalar.

Ma'lumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning eng yuqori shakli iqtisodiy dasturlashdir. Uning vazifasi iqtisodiy siyosatning barcha elementlaridan global maqsadlarda har tomonlama foydalanishdir. Bunday dasturlarning ob'yektlari sifatida tarmoqlar, hududlar, ijtimoiy soha, ilmiy tadqiqotlarning turli yo'nalishlari va shu kabilar tanlab olinishi mumkin. Mazkur dasturlarning barchasi (bevosita va bilvosita) aholi daromadlariga bog'liq va ularga ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning daromadlar siyosatida yollanma ishchilarni himoya qilish vositalaridan biri sifatida eng kam ish haqini belgilash hisoblanadi. Eng kam miqdordagi ish haqi ish kuchining jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlab qolmasdan, shu bilan birga uning mehnat qilish qobiliyatini tiklashi va rivojlantirishi uchun u iste'mol savatchasiga muvofiq kelishi lozim, bu savatcha eng zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar turini

o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda davlat tomonidan belgilanayotgan eng kam ish haqi miqdori hozirgi vaqtda iste‘mol savatchasiga muvofiq emas.

Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida “Biz ilg‘or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo‘lgan daromadlarni aniqlash bo‘yicha “iste‘mol savatchasi” tushunchasini qonunchilikda Nazorat va uni amalda ta‘minlash mexanizmlarini yaratishimiz lozim. Ayni vaqtda aholining real daromadlari, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish bo‘yicha ham amaliy choralar ko‘riladi”, - deb ta‘kidlagan.

11.1-jadval.

Aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri kelgan pul daromadlari, ish haqi va pensiyalarning 2016-2020 yillarda o‘sishi dinamikasi⁹

| Ko‘rsatkichlar | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 |
|---|---------|--------|---------|----------|----------|
| I. Aholi jon boshiga daromadlar, jami, ming so‘mda | 6215,9 | 7314,1 | 9128,6 | 10 891,3 | 12 279,1 |
| O‘tgan yilning mos davriga nisbatan haqiqiy o‘shish, foizda | 105,7 | 117,6 | 124,8 | 119,9 | 112,7 |
| II. O‘rtacha yillik hisoblangan ish haqi, ming so‘mda | 1 293,8 | 1457,8 | 1 822,7 | 2324,6 | 2673,3 |
| O‘tgan yilning mos davriga nisbatan haqiqiy o‘shish, foizda | 110,4 | 112,6 | 125,03 | 127,5 | 115 |

Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida, aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri kelgan pul daromadlari va ish haqining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi (11.1-jadval).

Ushbu jadval ma‘lumotlari keyingi yillarda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi o‘shish sur‘atlarining o‘sganligi ko‘rsatmoqda. Ammo tahlil davrida, ya‘ni 2020 yilda 2016 yilning mos davri darajasiga nisbatan o‘rtacha aholi jon boshiga daromadlarning haqiqiy o‘sishi 1,97 martani, o‘rtacha ish haqining haqiqiy o‘sishi 206 martani martani tashkil etdi.

⁹ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //stat.uz; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017год.- Т.:ГТоском стат РУз., 2018.-С.158, 164, 166. ma‘lumotlari asosida tuzildi.

Aholining daromadlar tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi 2010-2021 yillarda 45,0% dan 31,7% ga kamaydi, mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar ulushi 25,0% dan 30,8% ga o‘sdi (11.2-jadval).

11.2-jadval

Aholining umumiy daromadi tarkibi (% da)¹⁰

| Ko‘rsatkichlar | 2010 | 2015 | 2016 | 2021 |
|---|-------|-------|-------|-------|
| Umumiy daromadlar ,jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| <i>Shu jumladan:</i> | | | | |
| Birlamchi daromadlar | 74,2 | 78,2 | 79,7 | 73,2 |
| Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar | 71,8 | 75,1 | 75,7 | 70,4 |
| Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar | 70,0 | 72,8 | 73,3 | 62 |
| Yollanma ishchilarning daromadlari | 45,0 | 41,2 | 38,9 | 31,7 |
| Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar | 25,0 | 31,6 | 34,4 | 30,8 |
| Shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar | 1,8 | 2,3 | 2,4 | 8,4 |
| Mol-mulkdan olingan daromadlar | 2,4 | 3,1 | 4,0 | 2,7 |
| Transfertlardan olingan daromadlar | 25,8 | 21,8 | 20,3 | 26,9 |

Aholining shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar tez sur‘atlar bilan o‘smoqda. Buning oqibatida o‘rta sinf ko‘lami tobora kengayib bormoqda.

O‘zbekistonda aholi guruhlari daromadlarining teng taqsimlanishini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti 2000 yildagi 0,39 dan 2020 yilda 0,22 ga pasaydi. Shuningdek, 2000-2021 yillarda detsil koeffitsiyenti 21,1 dan 6,2 gacha, kvintil koeffitsiyenti esa 9,9 dan 3,6gacha kamaydi. Bu ko‘rsatkichlar aholi daromadlari bo‘yicha tabaqalanishi darajasining jiddiy ravishda kamayganligini bildiradi.

Aholi daromadlarining o‘sishi iste‘mol xarajatlarining ham o‘sishiga olib keldi. Aholining xarajatlar tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari uchun

¹⁰ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //stat.uz; O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami 2010-2016yillar.- T.: O‘z R Davlat statistika qo‘mitasi, 2017.-56-bet; Sotsialno-ekonomicheskoye polojeniye Respubliki Uzbekistan za 2017god.- T.:GGoskom stat RUz., 2018.-S.162 ma’lumotlari asosida tuzildi.

xarajatlar ulushi kamayib, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar uchun xarajatlar hissasi o'sib bormoda (11.3-11.4-jadvallar).

11.3-jadval

Aholi daromadlari to'g'risida ma'lumot¹¹

| Ko'rsatkichlar nomi | 2000 | 2005 | 2010 | 2015 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|--|---------------|---------------|----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so'm | 2377,4 | 9728,6 | 62631,6 | 169344,3 | 414968,7 | 519181,4 | 633567,4 | 728826,1 |
| o'tgan yilga nisbatan, % da | 157,9 | 126,3 | 132,9 | 115,7 | 113,5 | 125,1 | 122,0 | 115,0 |
| Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm | 96,4 | 371,8 | 2192,8 | 5410,6 | 12122,2 | 14869,8 | 17772,8 | 20015,9 |
| o'tgan yilga nisbatan, % da | 155,8 | 124,8 | 129,2 | 113,7 | 111,3 | 122,7 | 119,5 | 112,6 |
| Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so'm | 1902,8 | 9147,7 | 58229,4 | 160485,5 | 367456,6 | 468448,4 | 568527,8 | 662749,9 |
| o'tgan yilga nisbatan, % da | 126,4 | 118,8 | 123,6 | 109,6 | 100,5 | 112,9 | 109,5 | 104,6 |
| Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm | 77,2 | 349,6 | 2038,7 | 5127,5 | 10734,3 | 13416,8 | 15948,3 | 18201,2 |
| o'tgan yilga nisbatan, % da | 124,7 | 117,4 | 120,1 | 107,7 | 98,6 | 110,7 | 107,3 | 102,4 |

11.4-jadval.

Aholi umumiy xarajatlari tarkibi (% da)¹²

| Ko'rsatkichlar | 2000 | 2005 | 2010 | 2016 | 2020 |
|----------------------------------|------|------|------|------|------|
| Jami iste'mol xarajatlari | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| <i>Shu jumladan</i> | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari uchun | 61,4 | 58,2 | 53,2 | 47,3 | 48,2 |
| Nooziq-ovqat mahsulotlari uchun | 25,8 | 25,7 | 26,9 | 32,3 | 34,3 |
| Xizmatlar uchun to'lovlar | 12,8 | 16,1 | 19,9 | 20,4 | 17,5 |

¹¹ www.stat.uz – ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

¹² АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //stat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Aholi turmush darajasi va daromadlarining oshganligi tufayli so'ngi yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi o'sib bormoqda.

2005-2021 yillarda aholi jon boshiga iste'mol hajmi go'sht va go'sht mahsulotlari bo'yicha 2,3 martaga, sut va sut mahsulotlari 2,1 martaga, tuxum 4,5 martaga, sabzavot va poliz mahsulotlari 2,1 martaga, kartoshka 2.3 martaga, shakar (konditer mahsulotlarini qo'shib hisoblaganda) 3,2 martaga, mava va rezavorlar 6,1 martaga, o'simlik yog'i 2,8 martaga o'sgan (qarang: 11.5-jadval).

11.5-jadval.

O'zbekistonda 2005-2021 yillarda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlarini iste'moli dinamikasi (kilogrammlarda)¹³

| Mahsulotlar nomi | 2005 | 2010 | 2016 | 2021 | 2021 yilda 2000 yilga nisbatan %da |
|---|-------|-------|-------|--------|------------------------------------|
| Go'sht va go'sht mahsulotlari | 35,2 | 38,0 | 44,4 | 71,6 | 203,4 |
| Sut va sut mahsulotlari | 187,6 | 239,0 | 279,6 | 397,09 | 212,1 |
| Tuxum, dona | 84,0 | 138,0 | 213,6 | 380,5 | 452,9 |
| Sabzavot va poliz mahsulotlari | 179,2 | 238,0 | 277,6 | 423,78 | 236,4 |
| Kartoshka | 38,2 | 45,0 | 56,4 | 82,68 | 216,4 |
| Meva va rezavorlar | 66,1 | 83,0 | 148,8 | 266,76 | 403,5 |
| Shakar, konditer mahsulotlari bilan birga | 16,0 | 17,0 | 32,4 | 51,75 | 323,4 |
| O'simlik yog'i | 12,5 | 13,0 | 24,0 | 36,1 | 288,8 |

Mamlakatimizda 2005-2021 yillarda aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ham miqdor, ham sifat jihatdan ta'minlanganligi darajasi o'sib bormoqda. Bu tovarlarning asosiy qismi o'zimizda ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, 2021 yilda har 100 uy xo'jaligi hisobiga 49 ta avtomobil, 170 ta televizorlar, Muzlatgich va sovutgichlar 108 ta, Konditsionerlar 36ta voxokaozalar to'g'ri kelmoqda va bu miqdor 2021 yilga nisbatan avtomobillar 2,22 barobarga, muzlatgich va sovutgichlar 1,66 barobarga oshdi (11.6-jadval).

¹³ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //stat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

11.6-jadval.

O‘zbekistonda aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta‘minlanganligi (har 100 uy xo‘jaligi hisobiga)¹⁴

| | 2005 | 2010 | 2016 | 2021 | 2021yilda 2005 yilga nisbatan % da |
|----------------------------|------|------|------|------|---|
| Yengil avtomobillar | 22 | 27 | 43 | 49 | 222,72 |
| televizorlar | 109 | 132 | 153 | 170 | 155,96 |
| Muzlatgich va sovutgichlar | 91 | 99 | 102 | 108 | 118,68 |
| Konditsionerlar | 14 | 19 | 34 | 36 | 257,14 |
| Elektrchangyutkichlar | 33 | 37 | 54 | 64 | 193,93 |
| Kir yuvish mashinalari | 71 | 75 | 80 | 81 | 115,9 |
| Shaxsiy kompyuterlar | 5 | 12 | 49 | 63 | 1 260 |
| Mobil telefonlar | 79 | 145 | 246 | 290 | 367,08 |

11.2. Kambag‘allik ko‘rsatkichlari va tengsizlik. Kam ta‘minlangan aholini ijtimoiy himoyalash

Ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti to‘la-to‘kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy yo‘naltirish zaruriyati, albatta, inson manfaatidan kelib chiqadi. Bozorning shunday oqibatlari borki, bunda ma‘lum toifa himoyaga muhtoj bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham tsivilizatsiya ijtimoiy himoya tizimini talab qiladi.

Ijtimoiy himoyalashdagi muhim masala aholini bozor bahosining tez o‘sishi, inflyatsiya ta‘siridan himoya etish va buning oldini olish bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mollar narxining ko‘tarilishi to‘xtatib bo‘lmaydigan holatdir. Bunda oylik ish haqi va belgilangan daromadga ega bo‘lganlarni o‘sib borayotgan tovarlar va xizmatlar narxining salbiy ta‘siridan muhofaza etish yirik ijtimoiy muammodir. Ayniqsa, nafaqaxo‘rlar, talabalar ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘ladi.

Bunda vaqti-vaqti bilan maosh, stipendiya, nafaqalar miqdorini bir oz oshirish masalani hal qilmaydi. Shuning uchun indeksatsiya usulini qo‘llash yuz beradigan og‘irlikni biroz yumshatib, turmush darajasiga bo‘lgan og‘ir ta‘sirni yengillashtiradi. Chunki qabul qilinadigan indekslar tufayli daromad narx-navo darajasiga qarab o‘zgarib turadi hamda ko‘tarilayotgan baholar keltiradigan zararlarning asosiy qismini qoplab boradi.

¹⁴ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ И БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //stat.uz ma‘lumotlari asosida tuzildi.

Bundan tashqari, bozor narxlaridan himoya qilishda ta'minotning alohida usullarini qo'llash ahvolni yumshatishga yordam beradi. Masalan, aholining ayrim tabaqalari uchun maxsus ta'minot tayinlash yoki vaqti-vaqti bilan oziq-ovqat va sanoat mollari tarqatish kabi usullardan rivojlangan mamlakatlarda foydalaniladi.

Ijtimoiy himoya yuqorida qayd qilingan usullar bilan chegaralanmaydi, sharoitga qarab aniq shakllarni topib, ularni qo'llab boradi. Ayniqsa, kam daromadlilarni bozorning salbiy ta'siridan asrash va turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik davlatning muhim vazifasidir. O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh qilishga beshta muhim tamoyilni asos qilib olingandi. Ulardan biri demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining turmush darajasini hisobga olgan holda ularni ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;
- ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;
- kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;
- ishsizlik nafaqasi;
- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta'minlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog'liqni saqlash, ta'lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va Nazorat.

Endilikda kuchli ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ishonchli, aniq manzilli, ya'ni shunga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi.

Buning uchun aholi daromadlari va mehnat haqlarining faol iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishdagi rolini oshirish lozim bo'ladi. Shuningdek, aholining oqilona, samarali ish bilan bandligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, iqtisodiyotning aniq sektorida yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmalari, shu jumladan, mehnat birjalari faoliyati samaradorligini oshirish lozim bo'ladi. Kam ta'minlangan aholini maqsadli, ishonchli ijtimoiy himoyalash uchun, avvalambor, aniq ehtiyojlardan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda muhtoj oilalarga subsidiya, mikro kreditlar berish, ularga mikro firma, kichik korxonalar, fermer xo'jaliklarini tashkil etishlari uchun sharoitlar yaratish kerak bo'ladi.

Davlat turli soliq, kredit imtiyozlari tizimini yaratish orqali fuqarolarning, jamoat tashkilotlari hamda xo'jalik sub'yektlarining homiylik, xayriya ishlariga mablag'lar ajratishlarini rag'batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirishi ham maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy himoya tizimida mehnat jamoalari ham muhim rol o'ynaydi. Mehnat jamoalari o'z xodimlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ◆ Mehnat jamoasi tomonidan ijtimoiy himoya qilish uchun huquqiy sharoitlarning yaratilishi;

- ◆ iqtisodiy ahvoli nochor xodimlarga vaqtinchalik yordam ko'rsatish;

- ◆ yaxshi ishlagan xodimlarga turli imtiyozlar yaratish;

- ◆ xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish;

- ◆ xodimlarni imtiyozli asosda uy-joy bilan ta'minlash;

- ◆ xodimlarning malakasini oshirish, yangi ixtisoslikka o'qitish bilan bog'liq xarajatlar;

- ◆ korxonalar xodimlarning sog'lig'ini nazorat:

- a) tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish yoki tibbiy sug'urta qilish;

- b) og'ir mehnat sharoitida ishlaydiganlarga turli imtiyozlar yaratish;

- v) xodimlarning dam olish va hordiq chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qilish.

Endilikda aholini ijtimoiy himoyalash, uning samarasini oshirishning quyidagi muhim vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ◆ Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash asosida barqaror va mutanosib o'sishini ta'minlash;

- ◆ davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va hayriya tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini keng jalb qilish;

- ◆ odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;

◆ xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini ragʻbatlantirish;

◆ aholining daromadlari va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yoʻl qoʻymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlaydigan oʻrta mulkdorlar qatlamini shakllantirish;

◆ kambagʻallikka, qashshoqlikka qarshi kurash. Aholining eng muhtoj qatlamining davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Kam taminlangan aholini moddiy tomonlama himoyalash va makroiqtisodiy muammolarning oldini olish maqsadida Ishsizlik nafaqasini berish tartibiga oʻzgartirishlar kiritildi.

«Yangi tahrirdagi «Aholi bandligi toʻgʻrisida»gi qonunga koʻra ishsizlik nafaqasini toʻlash tartibiga oʻzgartirishlar kiritildi.

Eski tartibga koʻra, ilgari ishlamagan va birinchi bor ish qidirayotgan fuqarolarga ishsizlik nafaqasi 12 oylik davr uchun 13 hafta mobaynida taqdim etilgan boʻlsa, endilikda ishsizlik nafaqasi barcha toifadagi ishsiz shaxslarga 26 hafta davomida toʻlanishi belgilandi.

Yangi tizimga asosan ishsizlik nafaqalari quyidagicha toʻlanadi:

- Ishdan va ish haqidan soʻnggi 12 oy davr ichida mahrum boʻlgan shaxslarga — avvalgi ish joyidagi oʻrtacha oylik ish haqining 50 foizi. Ushbu holatda summa mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdoridan oz boʻlmagan holda, nafaqani hisoblash paytidagi oʻrtacha ish haqidan ortiq boʻlmagan miqdorda;

- Ishdan va ish haqidan 1 yildan ortiq mahrum boʻlgan fuqarolarga — mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorining 1 barobari miqdorida (2021 yil 1 fevraldan 747 300 soʻm);

- Ilgari ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxslar uchun — mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorining 75 foizi miqdorida.

Aholi bandligi vaziri Nozim Xusanov soʻzlariga koʻra 1998 yilgi «Ish bilan taʼminlash toʻgʻrisida»gi qonun mehnat bozorining hozirgi holatini aks ettira olmaydi. Soʻnggi 22 yil mobaynida Oʻzbekiston mehnat bozori jiddiy oʻzgarishlarga duch keldi, xususan, ishchilar soni 1,5 baravarga oshgan boʻlsa (8,8 milliondan 13,5 million kishiga), ish beruvchilar soni 4,5 baravarga oʻsgan.

Shuningdek, qonunning avvalgi tahririda amalda qoʻllanmaydigan norma va qoidalar mavjud. Yangi nashr orqali mehnat bozorini tartibga solishning yangi vositalarini qoʻllaniladi. Bundan tashqari tadbirkorlikni rivojlantirish, oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlash, ishsizlarni kasb-hunarga oʻrgatish, oʻqitish, ish tajribasini qayd etish uchun axborot tizimlaridan foydalanish tartiblari mukammallashtiriladi.

Mazkur choralar natijasida ish qidirish davrida fuqarolar moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlanadi va 80 mingga yaqin ishsizlarga nafaqalar tayinlanadi.

Ushbu dasturlarning aholini quyi qatlamiga yetib borishida bank, hokimiyat idoralarining o‘zaro integratsiya asosida ishlashlari yo‘lga qo‘yilmoqda.

11.3. Iqtisodiy siyosatda qayta taqsimlashning asosiy choralari. Ijtimoiy xizmatlar sohalarining rivojlanishi.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakatda tub ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga va ijtimoiy sohada katta yutuqlarga erishishga zamin yaratdi.

1997 yildan boshlab mamlakatimizda ta‘lim tizimida islohotlar amalga oshirila boshlandi. 1997-2010 yillarda keng miqyosda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi amalga oshirildi. Ushbu dastur doirasida 12 yillik majburiy ta‘limga, jumladan, kasb-hunar ta‘limiga bosqichma- bosqich o‘tildi.

Ta‘lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini maktabgacha ta‘lim hisoblanib, 2016 yilda unga 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning jalb qilinganlik darajasi shu yoshdagi bolalarning 23,8% ni tashkil etadi. 2017 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra maktabgacha ta‘lim muassasalari soni 3065 tani tashkil etdi, ularda 690975 bolalar tarbiyalanmoqda. Bu muassasalarda ishlayotgan pedagogig kadrlar soni 59688 kishini, ulardan 21,9% - oliy ma‘lumotli, 76,4% - o‘rta maxsus ma‘lumotlilarni tashkil etadi¹⁵. Maktabgacha ta‘lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e‘tiborga olib, Maktabgacha ta‘lim vazirligini tashkil etildi. Ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini Nazorat, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurishimiz, ta‘lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarish vazifasi belgilangan¹⁶.

2016/2017 o‘quv yilida 9719 ta umumta‘lim maktablarida 4825,0 ming nafar o‘quvchilar tahsil oldilar, ulardan 2252,9 ming nafari qishloq joylardagi 6015 umumta‘lim maktablarida o‘qidilar. Ko‘plab ota-onalar, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida yurtimizda 11 yillik ta‘lim qayta tiklandi.

Joylardagi o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta‘lim muassasasida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo‘limlarda o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma‘lumot olish imkoniyati yaratildi. Ta‘lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o‘qitiladigan maxsus maktablar tashkil etildi¹⁷.

¹⁵ Статистика образования.//stat.uz

¹⁶ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.

¹⁷Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.

Respublikada akademik litseylar soni 2000 yildagi 46 tadan 2021 yilda 86 taga, kasb hunar kollejlari soni esa mos ravishda 241 tadan 1117 taga yetdi. 2016 yilda akademik litseylardagi o'quvchilar soni 35 900 kishini tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 4 barobarga o'sdi. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilar soni 2020 yilda 239200 nafarni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 11 barobar ko'pdir¹⁸.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida sifat va miqdor jihatdan tub islohotlar yuz bermoqda. Agar 2015 yilda oliy ta'lim muassasalarining soni 72 ta bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda ularning soni 223 tani tashkil etdi (11.7-jadval).

11.7-jadval

Oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari (2015-2022yillar¹⁹)

| Oliy ta'lim muassasalarining soni | Talabalar soni (ming kishi) | Yillar | Professor-o'qituvchilar soni (ming kishi) | Bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni |
|-----------------------------------|-----------------------------|---------|---|---|
| 72 | 340,9 | 2015 y. | ... | ... |
| 58 | 192,1 | 2016 y. | 19,9 | 9,6 |
| 61 | 183,6 | 2017 y. | 18,4 | 10,0 |
| 62 | 278,7 | 2018 y. | 23,1 | 12,1 |
| 65 | 274,5 | 2019 y. | 23,0 | 11,9 |
| 70 | 268,3 | 2020 y. | 24,0 | 11,2 |
| 177 | 808,4 | 2021 y. | 32,5 | 24,8 |

Mamlakatimizda 2017 yilda yangi **ta'lim muassasalarini** qurish, mavjudlarini ta'mirlashga alohida e'tibor qaratildi. 12 ta umumta'lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruktsiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruktsiya qilindi va qurildi, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi²⁰.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQShning Webster universitetining filiallarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishilganini ta'kidlash lozim. Oliy ta'lim muassasalarida

¹⁸ Statistika obrazovaniya.//stat.uz

¹⁹ Statistika obrazovaniya.//stat.uz

²⁰ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

iqtisodiyotning real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi²¹.

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilangan:

- uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish asosida sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini Nazorat yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish;

- maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta‘minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o‘rta ta‘lim sifatini tubdan oshirish, muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga, ularni musiqa hamda san‘atga jalb qilishni kuchaytirish;

- kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish²².

O‘zbekiston Respublikasida 1998 yilda Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi, Onalar va bolalar skriningi (1998 y.), Sog‘lom avlod (2000 y.), Onalik va bolalikni saqlash (2001 y.), Homiyar va shifokorlar yili (2006 y.), Yoshlar yili (2008 y.), Barkamol avlod yili (2010 y.), Mustahkam oila yili (2012 y.), Obod turmush yili kabi davlat dasturlari, Salomatlik dasturlari, shuningdek, ayollar va yosh avlod salomatligini Nazoratga yo‘naltirilgan ko‘plab chora-tadbirlar qabul qilinib, amalga oshirildi va amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonida ko‘p sarf-xarajat talab etadigan va hamma vaqt ham samarali bo‘lmagan statsionar tibbiy yordamdan ambulatoriya-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Qishloq joylarda yaxshi samara bermayotgan feldsher-akusherlik punktlari o‘rniga qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etildi. Respublikamizda barcha viloyat, shaxar, tumanlarini qamrab olgan shoshilinch tibbiy yordam tashkil

²¹ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.

²² 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi //O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017 yil 7fevral. 1-ilova.

etish tizimi, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha yuksak samarali zamonaviy tibbiyot muassasalarining mustahkam tizimi yaratildi.

Buning natijasida ko'plab xavfli kasalliklar bilan og'rish holatlari, eng muhimi onalar va go'daklar o'limi kamaydi. Difteriya, paratif, poliomyelit, bezgak kasalliklariga chalinish holatlariga butunlay barham berildi.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish borasida quyidagi yo'nalishlar belgilangan:

-sog'liqni saqlash sohasini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini Nazorat;

-oila salomatligini Nazorat, onalik va bolalikni muhofaza qilish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada keng amalga oshirish;

-pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

-farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash;

-aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash²³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida **inson salomatligini muhofaza qilish** borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish vazifalarini belgilab berdi:

- masofadan turib profilaktika qilishni ta'minlaydigan "Aqlli tibbiyot" va "Yagona tibbiy axborot markazi" kontseptsiyalarini o'z sharoitimizga moslashtirib tatbiq etish;

- xususiy tibbiyotni jadal rivojlantirish uchun xorijiy investorlarni jalb etish va chet ellik mutaxassislar mamlakatimizda doimiy faoliyat yuritishini ta'minlash;

- aholini dori-darmon bilan ta'minlash.Yaqin vaqt ichida aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlaydigan 2 mingta ijtimoiy dorixona qurilib, ishga tushirish;

- ona va bola salomatligini asrashda muhim omil bo'lgan skrining markazlari faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish.

²³ 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi //O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 7fevral. 1-ilova.

- qishloq vrachlik punktlarida kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha zamonaviy diagnostika laboratoriyalarini tashkil etish²⁴.

Ta'kidlash joizki, qishloq aholisi turmish sharoitlarini yaxshilash, ularni shahar hayot sharoitlarga yaqinlashtirish maqsadida keyingi yillarda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha dastur amalga oshirilmoqda. 2020 yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida **arzon uy-joylar qurish** loyihasini amalga oshirishga kirishdik. Shahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu raqam 2015 yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2016 yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014 yilga nisbatan esa 2 barobar ko'pdir.

Mamlakatimizda keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'p qavatli uy-joylar qurish boshlandi. 2017 yilning o'zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o'zida joriy yilda 420 ming kvadrat metr ko'p qavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirildi. Bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 3 barobar ko'pdir²⁵.

Ijtimoiy sohaning rivojlanishi ko'p jihatdan uni moliyalashtirishga bog'liqdir. Har yili Davlat byudjeti xarajatlarining yarmidan ortig'i ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Aholi hayot sharoitlarini yaxshilash, turmush farovonligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy sohaning istiqboldagi rivojlantirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni va izchil yuqori iqtisodiy o'sishi sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotni tarkibiy jixatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologik yangilash asosida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotning asosiy yo'nalishlari fuqarolarga bepul davlat tibbiy xizmati ko'rsatishning va shoshilinch yordam berishning kafolatlangan minimumini saqlab qolgan holda fuqarolarni tibbiy sug'urta qilishni joriy etish va tibbiy muassasalar ishini budjet-sug'urta prinsipiga o'tkazish bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'lim sohasida o'tish davrida umumiy va kasb ta'limi sifatining davlat standartini, ta'lim sohasida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash, ulardan kimlar foydalanishini aniq belgilash, davlatdan tashqari ta'lim tuzilmalarini rivojlantirish vazifasi birinchi o'ringa chiqmoqda.

²⁴ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

²⁵ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

Ilmiy va madaniy sohadagi mavjud imkoniyatlarni saqlab qolish, qayta tiklash, ko'paytirish maqsadida bundan buyon ham fundamental fanning, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va Nazoratga, aqliy va ijodiy mehnat xodimlarining obro'yini oshirishga davlat tomonidan zarur mablag'lar ajratilaveradi.

Bozor munosabatlariga o'tishning boshqa prinsiplarini amalga oshirish ham aholini ijtimoiy jihatdan kuchli himoya qilish dasturlarini ro'yobga chiqarishga batamom bog'liqdir. Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o'zgartirishlar, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirdagina ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin. Pirovard maqsad esa O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millionlab oilalarning munosib turmush kechirishi uchun sharoit vujudga keltirishdan iboratdir.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy soha, ijtimoiy-madaniy maqsadlarga davlat xarajatlari, aholini ijtimoiy himoyasiga xarajatlar, hayot kechirish minimumi, eng kam ish haqi, yuqori narx, eng kam pensiya, sog'liqni saqlashga xarajatlar, qashshoqliq.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy sohaning qaysi elementlarining rivojlanishiga faqatgina davlat samarali ta'sir eta olishi mumkin?
2. Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati nimadan iborat?
3. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati nimalar bilan bog'liq?
4. Jamiyat rivojlanishida inson omili rolining oishi nimalarga bog'liq?
5. O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
6. Davlatning bandlik siyosatining maqsadi va amalga oshirish yo'nalishlarini tushuntirib bering?
7. Mehnat bozori nima va uning asoiy elementlari nimalardan iborat?
8. Mehnat bozori davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning o'sib borishi sabablarini izohlab bering.
10. O'zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

XII BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI

12.1. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari va uning strategik maqsadlari

O'zbekiston Respublikasining xavfsizlik asoslari ijro va qonunchilik apparati tomonidan, qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, Hukumat va Oliy Majlisning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Iqtisodiy xavfsizlikning strategik maqsadi iqtisodiy xavf-xatar va tavakkalchiliklar bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy va normativ-huquqiy chora-tadbirlardan iborat konsepsiya ko'rinishidagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlanmalar sifatini oshirish mexanizmidir.



Iqtisodiy xavfsizlikni rivojlantirish strategiyasining mazmuni bu iqtisodiyotning rivojlanishini shunday ta'minlashga aytiladiki, unda shaxsni yashashi va rivojlanishi uchun munosib sharoitlar, jamiyatni ijtimoiy iqtisodiy, harbiy-siyosiy barqarorligi, mamlakatni yaxlitligi, tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan samarali qarshilik qilishi, milliy budjet resurslarini taqsimotida, xorijiy investorlar resurslarini jalb etishda ixtiloflarni oldini olish tizimi vujudga keladi.

Davlat strategiyasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining umumiy xavfsizlik strategiyasi maqsadlariga erishishning zaruriy shartini ta'minlashi kerak. Xususan, quyidagilar ta'minlanishi kerak:

inson va fuqoroning huquqlarini, mamlakatda ijtimoiy tinchlikni va jamiyatda ijtimoiy osoyishtalikni kafolatlovchi turmush darajasi sifatini oshirish;

milliy manfaatlardan kelib chiqib ichki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni samarali hal etish;

milliy manfaatlarga bog'liq bo'lgan jahondagi jarayonlarga faol ta'sir etish;

jahon xo'jalik aloqalariga teng huquqli integratsiyasi sharoitida mehnat taqsimoti, davlatni barqaror rivojlantirish;

xorijiy davlatlardan va ularning uyushmalaridan O'zbekistonni iqtisodiy faoliyatning muhim masalalarida tahlikali qaramlikka yo'l qo'ymaslik.

Strategiyada iqtisodiy xavfsizlikda kutilishi mumkin bo'lgan tahdidlarini aniqlash va mamlakatni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimida birlamchi ahamiyat kasb etadigan, ularni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga quyidagi omillardan kelib chiqib, jamiyatni va xo'jalik faoliyatini kriminallashtirishni kamaytirishga harakat qilingan:

ishsizlikni o'sishi, chunki statistikaga ko'ra jamiyatdagi tartib buzilishlarning asosiy qismini doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

davlat boshqaruv organlarining ma'lum bir guruh xodimlari uyushgan jinoyatchi guruhlariga qo'shilishi natijasida, kriminal kuchlarni ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining ma'lum bir qismiga egalik qiladi va turli hokimiyat boshqaruv tuzilmalariga kirib boradi;

davlat nazorat tizimini pasayishi natijasida ichki moliyaviy bozorlarda, xususan, xususiylashtirish, eksport-import operatsiyalarda, savdo sohalarida jinoyatchi guruhlar faoliyati kuchayadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jarayonlarga samarali ta'sir etish va tartibga solish uchun iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni oldini olish maqsadida kompleks chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan. Ular bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ba'zoviy asosi sifatida foydalaniladi.

1. Monitoring – bu davlatning iqtisodiy xavfsizligi dinamika ko'rsatkichlarini operativ axborot-analitik kuzatish tizimi. Bu tizim iqtisodiyotni o'tish davrida tarmoqlararo proporsiyalarni buzilishi mavjudligi, resurslarni keskin tanqisligi (birinchi navbatda moliyaviy) ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni nobarqarorligi jarayonlarida juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yakuniy natijada axborotlarni sifati va uni olish tezkorligi, kompleksligi, chuqur tahlil etilganligi obyektini to'la egallash shakllariga qo'yilgan talablarni kuchayishiga olib keldi.

Shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlarni belgilab beruvchi omillarni monitoring qilish uchun, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining tashkiliy-axborot bazasini shakllantirish zarur bo'lib hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik mezonlari va ko'rsatkichlarni shakllantirish (tahlikali chegaralar va ko'rsatkichlari). Respublika strategiyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotdagi vaziyat haqida ma'lumot beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkichlar doirasidan chetga chiqish iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni olib keladi. Ularning asosida mamlakat iqtisodiyotini himoya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va iqtisodiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

3. Ma'lum rejali konsepsiyalarni ishlab chiqish. Iqtisodiy rivojlanishning tahlikali chegaralarining kutilgan parametrlaridan og'ish va real ko'rsatkichlardan chetga chiqish aniqlanganda, mamlakatni xavf-xatar zonasidan chiqarish, tahdidlarni kelib chiqishini oldini olish uchun, davlatning kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

Strategiyaning asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash, mulkning barcha shakllarini himoya qilish, tadbirkorlik faolligini oshirish kafolatlari va shart-sharoitlarini yaratish, kriminal jinoyatchi tuzilmalarga qarshi kurash, ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi daromadlar taqsimotida katta farqlarni, uzilishlarni vujudga keltirmaslik, resurs xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va moliyaviy sohalarda inqiroziy jarayonlarni shakllanishiga hamda aholi turmush sifati darajasini pasayishiga yo'l qo'ymaslik.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida istiqbolda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan potensial xavf-xatar va tahdidlar tahlil qilingan. Konsepsiya iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari bo'lib xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasini o'rtacha va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadlari, ustuvorliklari hamda vazifalarini belgilaydi va asoslaydi.

Bunda, maqsadlar sifatida konsepsiyada jadal va barqaror o'sish sharoitlarida respublika har bir fuqarosining sog'lom va samarali hayotini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, yer, suv va energetika resurslaridan ularni kelajak avlodning foydalanishi uchun saqlab qolgan holda samarali foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizining ekologik inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, atrof-muhitni yaxshilash ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi bir qator funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ularga:

Himoyalovchi – mamlakatni yetarli darajada resurs salohiyati mavjudligi sababli iqtisodiyotni tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish. Ushbu funksiya samarali faoliyat yuritishi uchun mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish, kadrlar va boshqaruv resurslar darajasini oshirish, tashqi tavakalchiliklar darajasini pasaytirish.

Tartibga soluvchi – tahdidlarni oldini olishning ikki varianti mavjud, "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga". Birinchi variant mavjud bozor munosabatlarini va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmini takomillashtirishni rivojlantirishga asoslanadi. Ikkinchi variant bozorni tartibga solishni ichki xo'jalik mexanizmiga va o'z-o'zini tartibga solish mexanizmiga asoslanadi. Bunda birinchi navbatda raqabat va baho darajasiga bog'liq bo'lgan xo'jalik subyektlarining ichki va tashqi muhiti hamda bozorning asosiy tavsifi muhim rolni o'ynaydi. Bozor iqtisodiyotning muvozanatli holatini raqabat va bahoning optimal nisbatini belgilab beradi.

Innovatsion iqtisodiyotda mavjud bo'lgan va ushbu vaqtda amal qilayotgan tahdidlarni yengib o'tish uchun innovatsion qarorlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda undan foydalanish.

Ogohlantiruvchi – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda uni bashorat qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda kelayotgan tashqi va ichki xavf-xatarlarni, tavakkalchiliklarni, tahlikali vaziyatlarni ogohlantirish, oldini olish, bartaraf etish. Tavakkalchiliklarni sifatli bashoratlash va unga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun aniq, o'z vaqtida, mukammal sifatli axborot kerak bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ogohlantiruvchi funksiyasi axborotga asoslanadi.

Ijtimoiy –shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirish hisobiga mamlakat aholisini yuqori turmush darajasi sifatiga erishish.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi va uning himoyalovchi choralari bugungi kun talablariga mos bo'lib bormoqda. Ular mamlakatda bugungi kunda mavjud muammolarga yaqinlashgan. Davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi – bu davlatni iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi va kategoriyalaridir hamda o'zaro bog'liq va bir-biri bilan hamkorlikda bo'lishi kerak. Bir tomondan iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi bu uning strategik maqsadlarini ifodalab, tartibga solishda makroiqtisodiy konsepsiyani sifatini belgilab, iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi.

12.2. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Shaxs, korxonalar va davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Makroiqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy xavfsizlik muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi. Bozor tizimida xatar borligidan, bundan hatto milliy iqtisodiyot ham xoli bo'lmasligini va undan saqlanish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezonini – bu mamlakat ehtiyojlarini uzluksiz ta'minlanishi hisoblanadi. Bu, birinchidan, milliy iqtisodiyotni mahsulot va xizmatlari bilan to'la ta'minlashni, ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo'lmagan tovar va xizmatlarni chetdan qulay narxlarda hamda uzluksiz import qilishni bildiradi. Aks holda iqtisodiyot izdan chiqadi.

Iqtisodiy xavfsizlik subyekti – bu iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi munosabatlar ishtirokchisi bo'lib, ularning faol harakatlari obyektning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni himoyalanganlik holatini yoki doimiy va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Iqtisodiy xavfsizlik subyekti quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi (12.1-rasm):


shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;

korxonaning(firma) iqtisodiy xavfsizligi;

davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – bu uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish,

salomatligini tiklash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlari bilan ifodalaydi.



12.1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik shakllari

Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste'molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq hamda erkinliklarining, manfaatlarining himoyalangani, kafolatlangani nuqtayi nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin.

Korxonalarining (firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtayi nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning (firma) ixtisosligiga ko'ra xavfsizligini ta'minlash xususiyatlari ham turlicha bo'lishi tabiiydir.



Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning mamlakat ichki muammolari va tashqi iqtisodiy faoliyati hamda xalqaro moliyaviy tashkilot va uyushmalarda ishtirok etish bilan bog'liq xavf-xatarlar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida barqarorlikka o'xshash bo'lgan muhit tashkil etuvchilar yotadi — bu material, inshootning, uni yangi sifat holatiga, ya'ni tarkib yoki tuzum o'zgarishiga keltiradigan, zarur yo'naltirilgan qonuniy o'zgarishidir. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Barqarorlik – bu jamiyatning favquloddagi holatlarda ham o'z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyatidir. Asosiy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari – mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon bo'lib, mamlakat, jamiyat va shaxs iqtisodiy manfaatlarini chegaralaydi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismiga kirganligi uchun milliy xavfsizlikning tashkil etilishi va shakllanishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilishi lozim. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va uning moddiy asosi hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizlik genezisi va shakllanishiga doir masalalar qatorida o'rganilib chiqilishi darkor. Umuman iqtisodiy xavfsizlik asosiy paradigmasini quyidagi elementlar tashkil etadi:

xalqaro munosabatlar tizimiga o'tish, ya'ni ishchi kuchi konsepsiyasidan manfaatlar konsepsiyasiga qarab;

iqtisodiy xavfsizlikning bir-biriga qarshi tipdagi g'oyalar va tuzulmalardan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro munosabatlarga asoslangan model tomon harakatlanishi;

hudud daxlsizligini ta'minlash tamoyiliga qo'shimcha qilib mintaqqa, korxonalar, oilalar hamda shaxs iqtisodiy xavfsizligi tamoyilini kiritish;

iqtisodiy sohadagi tahdidlar majmualari xususiyatga ega bo'lib, avvalo, YAIMning sezilarli darajada qisqarishi, investitsion va innovatsion faoliyat hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning pasayishi, qishloq xo'jaligi sektoridagi inqiroz, yoqilg'i xomashyosi va energetik komponentlarni eksporti sur'atining oshishi, importda esa birlamchi va iste'mol mollarining o'sishi kuzatiladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida esa quyidagi masalalar muhim o'rin tutadi:

- milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyalashuviga qulay sharoit tashkil etish;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari sotish bozorlarining kengayishi;
- MDH davlatlari bilan yagona iqtisodiy hudud barpo etish;

- milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;
- barqaror kredit-moliyaviy siyosatini tashkil etish, boshqa davlatlardan tashqi kredit olishni kamaytirish orqali ularga bog‘lanib qolishni oldini olish;
- chet el banklari, sug‘urta va investitsion kompaniyalarni boshqarishda davlatning rolini oshirish.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:

- xalqaro (global va mintaqaviy);
- milliy;
- lokal (mintaqaviy yoki mamlakat ichidagi tarmoqlar);
- xususiy (korxonalar va shaxs).
- xalqaro iqtisodiy xavfsizlik - shartnomalar va institutsional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo‘lib, unda har bir jahon hamjamiyatidagi a‘zo davlatning erkin saylash va o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarning ishiga aralashmasligi, o‘zaro manfaatli va muvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi tavsiflanadi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik taraqqiyot modellarning bog‘lanib qolishini, shuningdek, har bir xalqning o‘z yo‘lini tanlash huquqini tan olish, manfaatlari hurmat qilinishi orqali iqtisodiy va siyosiy qaramlikni rad etadi. Mamlakatning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug‘diruvchi tahdidlardan biri tashqi qarz muammosidir.

12.3. Iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makro va mikro darajada iqtisodiy xavfsizlikka bo‘ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Biroq ularning ichida 19 ta indikatoridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaniladi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida hamda ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim jihatlarini ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ularning o‘zaro bog‘liqligidir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko‘rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo‘lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo‘qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi obyektiga aylanib qoladi, milliy boylklarning talon-toroj qilinishi, xufyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko‘radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo'lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi. Demak, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma'lum bir chegara doirasida yo'l qo'yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko'rsatkichlarning o'zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to'sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha milliy manfaatlarni ta'minlash maqsadida ko'rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Hokimiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlik siyosati ko'rsatkichlarning barchasini me'yorida saqlab turishga qaratilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning bir chegaraviy ko'rsatkichi boshqa shunday ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga ta'minlanishi mumkin emas. Davlat har bir aniq holatda xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning uyg'unlashuvini ta'minlashga harakat qilishi kerak bo'ladi. Ayni paytda qisqa davr oralig'ida foyda keltirishi, strategik jihatdan esa umuman foydasiz bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni – iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtayi nazaridan iqtisodiy holatni baholash hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;

resurs, kapital, mehnatdan samarali foydalanish darajasini yetakchi mamlakatlar darajasiga va shuningdek, ichki hamda tashqi tavsifga ega bo'lgan tahdidlar minimumni tashkil etgandagi darajasiga muvofiqligini baholash;

iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash;

hududiy sarhadlarni va iqtisodiy makonni yaxlitligini baholash;

suverenitet va mustaqillikni, tashqi tahdidlarga qarshi turish imkoniyatlarini baholash;

ijtimoiy barqarorlikni va ziddiyatlarni oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil etish va ularning o'zgarish tendensiyalari hamda istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yo'llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazisini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta yaxshilash, yangi bozor institutlarini, xo'jalik yuritish dastaklarini, boshqarish

tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:

- Yalpi ichki mahsulot (Yalpi hududiy mahsulot);
- inflatsiya darajasi;
- davlat budjeti kamomadi;
- ichki qarz darajasi;
- tashqi qarz darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- turmush darajasi va sifati;
- oltin valuta zaxiralari;
- xufyona iqtisodiyot ko'lami;
- ekologik holat.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari yana bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, aholi daromadlari, Chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta'minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to'lov balansi, eksport-import saldosi va boshqalar.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini turli xil usullar yordamida baholash mumkin, ammo biz ularni bir necha guruhlar shaklida ifodalaymiz:

- 1) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish va ularning eng yuqori ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
- 2) hududlarni tahdid darajasi bo'yicha saralashda ekspert baholash usuli;
- 3) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning dinamikasi asosida mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash;
- 4) yo'qotishlar sonini aniqlash orqali xavfsizlikka tahdidning oqibatlarini baholashda iqtisodiy vositalardan foydalanish;
- 5) amaliy matematikaning usullari, xususan, ko'p qirrali statistik tahlil;
- 6) aralash baholash usullari.



Iqtisodiy xavfsizlik mezonlari real statistik ko'rsatkichlar asosida hisoblanib, ular yordamida mamlakat iqtisodiyotining holati, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash orqali baholanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari – bu iqtisodiy sohadagi hodisalar va tendensiyalarni (dinamikalarni) to'liq aks ettiruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining real statistik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar muhim iqtisodiy vazifani bajaradi, ular mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini tahlil qilishga yordam beradi. Iqtisodiy xavfsizlik tahlilini

o'tkazishda indikatorlarni bloklarga ajratish tavsiya etiladi, ularning har biri alohida ko'rsatkichlar to'plami bilan tavsiflanadi.

Ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy va tendensiyalarini baholash uchun imkoniyat yaratadi. Umuman iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari blokka bolish orqali tahlil qilinadi va bloklar bo'yicha xavfsizlik holati aniqlanadi.

Birinchi blokda iqtisodiy xavfsizlikning barcha koeffitsiyentlari stimulator ko'rsatkichlari (rag'batlantiruvchi) va stimulatorni yoq qiluvchi (rag'batlantirishni pasaytiruvchi) ko'rsatkichlarga bolinadi.

Rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyentiga ogohlantiruvchi (ijobiy) ta'sir ko'rsatadi. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar, innovatsiyalarni moliyalashtirish, ish bilan band bo'lganlar soni va boshqalar.

Rag'batlantirishni pasaytiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlik darajasini pasaytirishiga sabab bo'ladi. Masalan, debitorlik va kreditorlik qarzlari, asosiy vositalarning eskirishi, ish haqi bo'yicha qarzdorlik va boshqalar.

Ikkinchi blok ko'rsatkichlarga taqqoslash, baholash va bashorat qilish ko'rsatkichlari kiradi. V.K.Senchagovga ko'ra, iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari bo'lgan iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish va prognozlashning indikatsion tizimini yaratish kerak (jami uning ishida davlatning iqtisodiy xavfsizligining turli sohalarini tavsiflovchi 150 ga yaqin ko'rsatkichlardan foydalanilgan). Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining amaldagi va prognoz qilingan ko'rsatkichlarini taqqoslash mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishini, hayotni ta'minlashning asosiy tizimlarining holatini ko'rsatadi.

Uchinchi blokda indikatorlarning (ayniqsa YaIM) eng yuqori darajasini aniqlash uchun asosiy asos sifatida ijtimoiy ko'rsatkichlar guruhidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu uslub mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat budjeti loyihalarining qisqa va uzoq muddatli prognozlarini baholashda qo'llaniladi.

To'rtinchi blok ko'rsatkichlar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini belgilab, V.K.Senchagov eksport tarkibiga alohida e'tibor qaratdi va tayyor mahsulotni ko'paytirish va minerallar eksportini kamaytirish zarurligini ta'kidladi. Alohida e'tibor Davlatning iqtisodiy xavfsizligi to'lov balansi va mamlakatning holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga beriladi, ularning 4 tasi asosiy ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi: tashqi qarz; davlat qarzigacha xizmat ko'rsatish xarajatlari ulushi; valuta zaxiralarining hajmi va tashqi qarz bo'yicha to'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbati.

Ishonchlilikning ajralmas ko'rsatkichini baholash jarayonida, muayyan o'ziga xos guruhlar hisoblab chiqiladi:

- siyosiy xavflarni baholash - 25%;

- qarz ko'rsatkichi - 10%;
- iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi - 25%;
- muddati o'tgan va qayta tuzilgan qarz ko'rsatkichlari - 10%;
- mamlakatning kredit reytingi - 10%;
- bank kreditidan foydalanish imkoniyati - 5%;
- qisqa muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari - 5%;
- kapital bozorida kapitalni jalb qilish imkoniyati - 5%;
- o'g'irlash foizi - 5%.

har bir indikator ballarda ma'lum shkala bo'yicha ham baholanadi.

Beshinchi blok ko'rsatkichlarga bozorga tovar yoki xizmatlar bilan kirishda uni bozor (iste'molchi) qabul qilishi bo'yicha ham baholashga qaratilgan. Bular:

- 1) tabiiy dushmanlik;
- 2) o'zaro dushmanlik, ya'ni savdo faoliyatiga javobning namoyon bo'lishi va uning bevosita va uzoq muddatli natijalari va oqibatlari;
- 3) uyushgan adovat (savdo biznesining yangi ishtirokchisining faoliyatini rivojlantirish uchun bozorning adovati raqobat bilan bog'liq bo'lgan bilvosita adovat sifatida boshlangan, ishlab chiqilgan va tartibga solingan hollarda).

Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi quyidagi muhim ko'rsatkichlardan iborat bo'lishi mumkin, ular iqtisodiy xavfsizlikning 6 mezonini yordamida aniqlanadi:

- 1) investitsion xavfsizlik ko'rsatkichi. Xalqaro tajribaga ko'ra, mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi uchun ma'lum vaqt ichida yillik investitsiyalar YaIMning 19-25% darajasida bo'lishi kerak;
- 2) davlatning ichki va tashqi qarzlar hajmi – bu davlat tomonidan belgilangan muddatda, mos ravishda, ichki va tashqi kredit bozorlarida to'lanmagan kreditlar hajmidir.

$$Ldis(Ldfs) = \frac{D_i(D_f)}{GDP} * 100\%$$

Bu yerda L – davlatning uzoq muddatli kreditlar bo'yicha darajasi, Ldis – ichki qarzlar, Ldfs – tashqi qarzlar, GDP – mamlakat YaIMi.

3) budjet xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan davlat budjeti taqchilligi. Har bir aniq yil uchun budjet taqchilligi darajasi defitsitning yillik YaIMga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$L_{bds} = \frac{BD}{GDP} * 100\%$$

bu yerda BD – budjet taqchilligining hajmi;

YaIM - yillik YaIM darajasi;

4) ma'lum bir yilda iqtisodiyotni pullash darajasi M3 yig'indisi (MS M3) bo'yicha pul massasining YaIMning yillik hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

$$L_{ms} = \frac{MSM3}{GDP} * 100\%$$

5) bank kreditlarining qiymati qarz oluvchi tomonidan uning kreditidan foydalanish uchun tijorat bankiga to'lanadigan yillik foizlar bilan belgilanadi;

6) mamlakat bankining xalqaro zaxiralari. Boshqa valutilarga nisbatan uning ayirboshlash kursining barqarorligi bilan belgilanadigan milliy valutaning tashqi barqarorligi ko'p jihatdan mamlakat bankining xalqaro zaxiralari darajasiga bog'liq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo'lgan va bir chegaraviy ko'rsatkich boshqa bir chegaraviy ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi. Xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik dinamikada o'rganilishi zarur. Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ta ko'rsatkichni o'z ichiga olgan bo'lib, ular to'rt guruhga ajratilib turkumlangan: iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; moliyaviy tizim barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; ijtimoiy soha ko'rsatkichlari; tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi hamda uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga esa davlat budjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi.

Uchinchi guruh aholi daromadlari darajasi, aholining mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik kabilarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlariga esa mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi.



12.2-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining guruhlanishi

Xo'jalik yuritishning istalgan sohasida – ishlab chiqarish, tashqi savdo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va boshqalarda, barcha mamlakatlar uchun xavfsizlikning ma'lum chegaralari mavjud bo'lib, ularni ilmiy asoslangan me'yorlar asosida aniqlash mumkin. Ayni paytda ayrim olingan mamlakatda mavjud bo'lgan vaziyatga to'liq baho beruvchi universal ko'rsatkich mavjud emas. Chunki iqtisodiy xavfsizlik ko'p omillar ta'sirida bo'ladigan hodisa hisoblanib, u milliy ishlab chiqarishning uzluksiz o'zgarib turuvchi ichki va tashqi sharoitlarining yig'indisini aks ettiradi (12.2-rasm).

Iqtisodiyot holati va uning xavfsizligi uchta indikator, ya'ni iste'mol narxlari, milliy valuta kursi va aholining pul daromadlari bilan belgilanadi. Mana shu uchta indikator iqtisodiy xavfsizlikning boshqa indikatorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday ko'rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

12.4. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining tahlikali chegaralari va ustuvor yo'nalishlari.

Iqtisodiy xavfsizlik tamoyillari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy tizimning quyi chegarasini ifodalovchi ko'rsatkichlar qo'llanadi. Mazkur quyi chegaralardan past

ko'rsatkichlarda iqtisodiy tizim uchun tahdidlar vujudga keladi, hatto bu tizimning buzilishi, degradatsiyasi yuz bera boshlaydi. Ushbu quyi chegara va uning miqdoriy o'lchamlarini aniqlash, belgilash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

-milliy iqtisodiyot va iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy sharoitlarini o'rganish va ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlash;

-milliy iqtisodiyotni tanglik va beqarorlikka olib keluvchi omillarni aniqlash;

-turli tanglik, xavfli holatlar yuzaga kelishining tartibi va imkoniyatlarini baholash;

-xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xavf soluvchi tahdidlarning oldini olish yo'llarini aniqlash.

Chegara ko'rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur ko'rsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'lganligi bois YAIM hajmi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu ko'rsatkichlar asos sifatida olinishi kerak (12.1- jadval).

Jahon tajribasidan ma'lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada bo'lishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi 7-10 foizni tashkil etishi, boy va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak.

12.1-jadval

Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar | Ko'rsatkichlarning quyi chegarasi |
|--|-----------------------------------|
| YaIMga nisbatan investitsiyalar hajmi, foizda | 25 |
| Ilmiy tadqiqot ishlanmalari uchun xarajatlar, YaIMga nisbatan foizda | 2 |
| Yashash minimumidan past daromad darajasiga ega bo'lgan aholi ulushi, foizda | 7 |
| Aholining umr ko'rish uzunligi | 70 |
| Detsil koeffitsiyenti | 8 |
| Jinoyatchilik darajasi har 100 ming kishiga | 5000 |
| Inflatsiya darajasi, foizda | 20 |
| Tashqi qarz, YaIMga nisbatan foizda | 25 |
| Davlat budjeti kamomadi | 5 |
| Pul massasi M2, YaIMga nisbatan foizda | 50 |
| Ichki iste'molda umumiy importning ulushi, shu jumladan oziq -ovqat mahsulotlari | 30 |
| | 25 |

Bir guruh olimlar iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlarini belgilashda BMT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan inson rivojlanish indeksini taklif etadilar. Mazkur indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashgan ko'rsatkichi (mezoni) bo'lib hisoblanadi. Inson taraqqiyoti indeksi – bu dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida insonning, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida taraqqiy etishini tavsiflovchi yig'ma ko'rsatkich hisoblanadi.

Inson taraqqiyoti indeksi har yili BMTning Taraqqiyot dasturi mutaxassislari va mustaqil xalqaro guruh bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar va milliy institutlarning statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda hisoblab chiqiladi. Inson salohiyatining rivojlanish konsepsiyasi BMT Taraqqiyot dasturining o'ziga xos intellektual mahsuloti hisoblanadi. 1990-yilda BMTning Taraqqiyot dasturi dunyo mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga baho bergan holda birinchi ma'ruzasini e'lon qildi.

Mazkur ma'ruzada inson taraqqiyoti tushunchasiga ta'rif beriladi. Unga ko'ra, inson taraqqiyoti – tanlash imkoniyatlarining kengayib borish jarayon, deb qaraladi. Tanlovning eng muhim elementlari bo'lib, uzoq va sog'lom hayot kechirish, zaruriy ta'lim darajasiga ega bo'lish hamda moddiy jihatdan to'liq ta'minlanganlik hisoblanadi. Siyosiy erkinlik, inson huquqlarini yetarlicha kafolatlanganligi, o'z-o'zini namoyon qilish va shu kabilar tanlovning qo'shimcha elementlari hisoblanadi. Inson taraqqiyoti to'g'risidagi keyingi ma'ruzalarda "Inson taraqqiyoti" tushunchasi birmuncha to'ldiriladi.

Mutaxassislar inson taraqqiyotida ijtimoiy adolat, inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish tamoyillari muhim o'rin tutadi, deb hisoblaydilar. Ularning ta'rifiga ko'ra, inson taraqqiyoti – bu insonlarning uzoq, sog'lom va mazmunli hayot kechirishlari borasida tanlov imkoniyatlarining kengayib borishi va shu asnoda insonlarning globallashib borayotgan jamiyatda barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy adolat mezonlarini ta'minlashda faol ishtiroki hamdir.

Mazkur ta'rifga ko'ra, inson taraqqiyoti uch tashkil etuvchini o'z ichiga oladi. Bularning birinchisi faravonlik, ikkinchisi huquq va imkoniyatlarning kengayishi, uchinchi esa ijtimoiy adolatlilikdir.

Inson taraqqiyoti indeksi bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik jihatidan qayta hisoblangan inson taraqqiyoti indeksi, gender tengsizligi indeksi va ko'p qirrali qashshoqlik indeksidan ham foydalaniladi. Iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib ko'rsatiladi:

- birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bog‘liqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- YaIM umumiy hajmi - “katta yettilik” bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 75 foiz miqdorida;

- aholi jon boshiga YaIM hajmi - “katta yettilik” bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 50 foiz miqdorida;

- dunyo bo‘yicha o‘rtacha indikatorning 100 foiz miqdorida;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishlash sanoati ulushi - 70 foiz;

YaIMda investitsiyalar ulushi - 25 foiz;

- sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi - 20 foiz;

- aholining ichki iste‘molida import ulushi - 30 foiz, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari - 25 foiz;

- mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi - 6 foiz.

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlari tarkibiga aholi turmush darajasi va sifati bilan bog‘liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo‘lgan fuqarolar ulushi - 7 foiz;

- umr ko‘rish uzunligi - 70 yosh;

- boy va kambag‘allar daromadlari o‘rtasidagi tafovut - 8 marta;

- ishsizlik darajasi - 7 foiz.

Uchinchi guruh ko‘rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

YaIMga nisbatan ichki qarz miqdori - 30 foiz;

YaIMga nisbatan tashqi qarz miqdori - 25 foiz;

YaIMga nisbatan budget tanqisligi - 5 foizgacha;

naqd xorijiy valuta hajmining naqd milliy valuta hajmiga nisbati 25 foiz;

YaIMga nisbatan pul massasi (M2) - 50 foiz.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, chegaraviy ko‘rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo‘yish uslubiy jihatdan uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko‘rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YaIMga nisbatan hisoblaganda 25 foizdan kam bo‘lgan holatda iqtisodiyotga tahdid yuzaga keladi. Lekin ayni paytda, investitsiyalar ulushi 40 foiz bo‘lganida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin. Farq shundaki, birinchi holatda mehnat qurollarining moddiy va ma‘naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat aholi turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim chegaraviy

miqdorlarini qat'iy qilib emas, balki ma'lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy rivojlanishning o'zbek modelini amalga oshirilishi oqibatida qisqa vaqt ichida chuqur tanglikdan chiqishga erishdi va 1996-yildan boshlab iqtisodiy o'sish tendensiyalariga ega bo'ldi. 1996-2003-yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti o'rtacha 4% yillik o'sish sur'atlarida rivojlangan bo'lsa, 2004-yildan boshlab, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishni amalga oshirish natijasida, yiliga o'rtacha 7-9% darajasidagi barqaror va yuqori o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Keyingi 10 yilda (2007-2020 yy.) YAIM 2,7 barobardan ziyodga o'sdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya 2020-yilda 1991-yilga nisbatan 5,2 martaga, 2000-yilga nisbatan 5,7 martaga o'sdi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2020-yilda 29,4%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2000-yilda 22,9%ni, 2010-yilda 24,6%ni tashkil etgan edi. Demak, bu ko'rsatkich quyi tahlikali darajadan ancha yuqoridir. Davlat budjeti 2005-yildan boshlab profitsit bilan bajarilishiga erishildi. Davlatning tashqi va ichki qarzlari darajasi tahlikali xavf chegarasidan ancha pastdir. Inflatsiya 5-6% darajasida barqarorlashdi. Ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 5-6% da bo'lib, tahlikali yuqori darajadan ancha kam bo'lishi ta'minlandi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirishga qaratilgan siyosatning amalga oshirilishi natijasida 1995-2020-yillarda YaIM tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 32,4% dan qisqardi, sanoatning ulushi esa 27,8% dan 32,9%ga, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi esa 39,8%dan 49,5%ga o'sdi.

12.2-jadval

O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan %da)

| Ko'rsatkichlar | 2010 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Yalpi ichki mahsulot | 108,5 | 107,8 | 104,5 | 105,4 | 105,6 | 101,6 |
| Sanoat mahsuloti | 108,3 | 106,2 | 105,2 | 110,8 | 106,6 | 100,7 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari | 106,8 | 106,6 | 101,2 | 100,3 | 102,5 | 103,0 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 109,2 | 107,7 | 107,1 | 118,1 | 133,9 | 91,8 |
| Qurilish ishlari | 105,1 | 110,2 | 106,0 | 114,3 | 119,0 | 109,1 |
| Yuk aylanmasi (mln. tG'km) | 110,3 | 105,0 | 102,5 | 105,7 | 102,2 | 95,2 |

| | | | | | | |
|--|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchiG'km) | 106,3 | 104,6 | 103,3 | 102,4 | 102,7 | 83,3 |
| Xizmatlar, jami | 112,5 | 109,3 | 108,9 | 105,5 | 105,1 | 102,3 |
| Chakana savdo tovar aylanmasi | 113,6 | 114,4 | 102,4 | 105,5 | 107,9 | 103,2 |
| Tashqi savdo aylanmasi | 104,7 | 97,5 | 111,0 | 127,3 | 126,2 | 86,9 |
| Eksport | 110,6 | 97,4 | 114,9 | 113,5 | 128,0 | 86,6 |
| Import | 97,2 | 97,7 | 107,2 | 139,6 | 124,9 | 87,2 |
| Iste'mol narxlari indeksi (o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, %.) | 107,3 | 105,7 | 111,4 | 114,3 | 115,2 | 111,1 |

2020-yilda koronavirus pandemiyasi va global moliyaviy iqtisodiy inqirozining iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatganligi tufayli YaIM o'sishi 2019-yildagi 5,8 % va 2018-yildagi 5,4 % ga nisbatan 1,6 % gacha sekinlashdi. 2020- yilda aholi jon boshiga YaIM hajmi 2019 -yil bilan taqqoslaganda real baholarda 0,3 % ga kamaydi.

Aholi jon boshiga YaIM o'sishi 2019- yilda 3,8 % va 2018 -yilda 3,6 % ni tashkil etgan. Sanoat ishlab chiqarishi 100,7 % ga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari 103,0%ga, xizmatlar 102,3%ga, qurilish ishlari 109,1%ga, chakana savdo aylanmasi 103,2%ga o'sdi. Ammo asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 8,2%ga, Yuk aylanmasi 4,8%ga, tashqi savdo aylanmasi 13.1%ga, eksport 13,3%ga qisqardi. Tashqi savdo aylanmasi passiv saldosida -6043 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Inflatsiya 111,1% ga o'sdi. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdidlar vujudga kelganidan dalolat beradi. Shu boisdan pandemiyaning salbiy oqibatlarini tezroq bartaraf etish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishni taqozo etadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi holatini doimiy monitoringini olib borish, unga bo'lgan tahdidlarni tahlil qilish va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va indikatorlari asosida diagnostikasini amalga oshirish birlamchi muhim vazifalardan biridir. Buning uchun iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi vaziyat va holatlardagi sabab-oqibatlari aniqlash uchun ilmiy analitik markazni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va Nazoratga mas'ul, javobgar davlat organlari, tashkilot va muassasalar hamda ularning vazifalari belgilanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasida iqtisodiyotda ijtimoiy ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligi, iqtisodiyotning ochiqligi, intellektual salohiyatning holati, innovatsion darajasi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish darajasi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tendensiyalarining istiqbolli bashoratlari va ularning asosiy ustuvorliklari o'z ifodasini topishi lozim.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Xavf, xavfsizlik, milliy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, davlatning iqtisodiy xavfsizligi, korxonalar xavfsizligi, shaxs xavfsizligi, moliyaviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, kompensatsion salohiyat, xavfsizlik ko'rsatkichlari, xavfsizlikning quyi chegarasi, iqtisodiy tahdid, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi.

Nazorat uchun savollar

1. Xavfsizlik tushunchasining mazmuni nima?
2. Milliy xavfsizlik tushunchasining mohiyati va tarkibi nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy xavfsizlik nima?
4. Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibi nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari o'z ichiga qanday ko'rsatkichlarni oladi?
6. Xavfsizlikning quyi chegarasi deganda nimani tushunasiz?
7. Iqtisodiy xavfsizlikning shakllarini ko'rsatib bering.
8. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini tavsiflab bering.
9. O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanganligini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tavsiflab bering.
10. Iqtisodiy tahdid nima va uning namoyon bo'lish shakllari nimalardan iborat?

XIII BOB. DAVLATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI

13.1. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyati.

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi, hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish ob'yektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati - xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'nalishi va sohasi, shuningdek tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig'indisidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini ta'minlashdan iborat bo'lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha mexanizmining butun sa'y-harakati ijtimoiy-iktisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish tartibini belgilashga doirbir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo'lib tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy kapital qo'yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat, valyuta siyosatlari hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan alohida davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko'rinishlari ham mavjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko'plab davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini savdo-siyosiy mexanizm sifatida ta'riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o‘rin ajratilgan bo‘lib, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatni normativ tartibga solish negizida milliy hamda xalqaro huquq me‘yorlari yotadi. Biroq, davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy huquqiy mexanizmlarning ham ahamiyati katta. Bunday mexanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategik faoliyatini belgilashda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari mavjud bo‘lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog‘i kerak. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya‘ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;
- mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash, ya‘ni ma‘lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo‘g‘inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o‘ringa ega bo‘lishini ta‘minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo‘g‘inida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo‘yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;
- milliy investitsiyalarni sug‘urtalash;
- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o‘rtasidagi farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilg‘or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;

- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;

-ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xom ashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy aloqalar - iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va faoliyatning boshqa sohalarida davlat va uning sub'ektlari xalqaro hamkorligining xilma-xil shakllari tizimidir.

Mamlakat ichki bozorining rivojlanishi natijasida davlat ichida taklif hajmi talab hajmidan o'sib keta boshladi, bu hol tashqi savdo operastiyalarining kengayishi, sarmoya qiymatining arzonlashishi va ishlab chiqarish hamda muomala chiqimlarining kamayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
2. Tashqi savdo faoliyati;
3. Xorijiy investistiyalarni jalb qilish;
4. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida investistiya faoliyati.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik - ishlab chiqarish, moliya, bank va sug'urta faoliyati, ta'lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog'liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa soqalarda qonun qujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishi va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, xizmatlar (ishlar) va intellektual mulk savdosi soqasidagi bitimlarni amalga oshirish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir.

Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati jahon xo'jaligining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'langan va muqarrar ravishda nafaqat milliy huquqiy me'yorlar, balki xalqaro huquq standartlari bilan ham tartibga solinadi. Tabiiyki, milliy huquq reglamentastiyalari bilan xalqaro iqtisodiy huquq o'rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani Nazorat va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar orqali jahon bozorining tovar va xizmatlarga talabi

muayyan davlatning ichki bozoriga o'tkaziladi, bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga imkon yaratadi, bu, o'z navbatida, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, moliya muassasalari va xizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

13.2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va tarkibiy qismlari.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo'lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo'liga ma'lum to'siqlar qo'yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat iste'mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo'lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o'rnatish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta'minlovchi standartlarni o'rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o'z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashki iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maksadlarga muvofik uning tashki iqtisodiy siyosatiga asoslangan. Mamlakatning tashki iqtisodiy siyosati deganda, boshka mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga karatilgan faoliyat tushuniladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.


Proteksionizm – tarif va notarif usullarini qo'llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan ximoya qaratilgan davlat siyosati.

Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi xar qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti. Bu jarayon uch xil ko'rinishda amalga oshirilayapti:

- alohida mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o'rtasida;
- Jahon savdo tashkiloti, Savdo va rivojlanish buyicha BMTning konferentsiyalari (YuNKTAD), BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeIK) doirasida ko'p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat - bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihati jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan, davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta siyosati, bojxona siyosati kiradi (13.1.-rasm.)



13.1-rasm. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy shakllari

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayirboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosatlari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat — bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihati jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valuta siyosati, bojxona siyosati kiradi.

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayirboshlashni

qamrab oladi va eksport va import siyosatlarini birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati, deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklarni jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Eksport qiluvchi korxonalarini rag'batlantirishda davlat byurtmalari, budjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalaniladi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning import siyosati, deganda mamlakatga xarijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelinishini tartibga solishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to'g'ridan to'g'ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antidemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarni xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklarni jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Eksport qiluvchi korxonalarini rag'batlantirishda davlat byurtmalari, byudjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalaniladi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning import siyosati deganda mamlakatga xarijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelinishini tartibga solishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to'g'ridan-to'g'ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antidemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Valyuta siyosati davlat va xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl va usullar yig'indisini tashkil etadi. Valyuta siyosati davlatning valyuta mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'lib, o'z ichiga valyuta

mablag`larini shakillantirish va ishlatishning asosiy yo`nalishlarini hamda bunday mablag`lardan samarali foydalanishga yo`natirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni oladi.

Valyuta siyosatining amal qilish sohasi bo`lib valyuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi. Davlatning valyuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga bo`linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat to`lov balansi muvozanatini ta`minlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Valyuta siyosati — davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta`sir ko`rsatish choratadbirlari; davlat iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy faoliyatining tarkibiy qismi. Valyuta siyosatining asosiy dastaklari — valyuta intervensiyasi, valyuta cheklashlari, valyuta subsidiyasi, valyuta pariteti, valyuta rezervlari, devalvatsiya, revalvatsiya va b.dan tashkil topadi. Mamlakatda Valyuta siyosatini hukumat, markaziy bank, markaziy moliya muassasalari amalga oshiradi.

Valuta siyosati valuta muammolarini hal etish bo`yicha qarorlar tayyorlash, qabul qilish va tadbiriq etishdan iboratdir. XVF mamlakatlararo valutani boshqarish tashkiloti bo`lib hisoblanadi.

Valuta siyosati huquqiy jihatdan valutaviy qonunlar asosida tartibga solinadi. Bularga huquqiy darajadagi chegaralarning o`rnatilishi, mamlakat ichkarisida va mamlakat tashqarisida valuta qimmatliklari bilan bo`ladigan munosabatlarni har tomonlama tartibga solish, yana valutaviy muammolar bo`yicha ikki tomonlama va mamlakatlararo valutaviy kelishuvlarni tuzish kiradi.

Valuta siyosati maqsad va amalga oshirish muddatiga ko`ra tarkibiy va joriyga bo`linadi.

Tarkibiy valuta siyosati jahon valuta tizimi tarkibini o`zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuidir. Tarkibiy valuta siyosati, joriy valuta tizimiga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Joriy valuta siyosati valuta kursi, valuta operatsiyasi, valuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtda tezkorlik bilan boshqarishdir.

Diskont siyosati investitsiyalar xarakatlarini tartibga solish va to`lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valyuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo`yicha chora-tadbirlar tizimini o`z ichiga oladi. Ushbu siyosat pul talabi xolatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta`sir ko`rsatishda namoyon bo`ladi. **Devis siyosati**- valyuta intervensiyasi va valyuta cheklashlari yordamida valyutani xarid qilish va sotish bilan valyuta kursini tartibga solish tizimidir.

Valyuta intervensiyasi Markaziy bankning xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo`yicha maqsadli operatsiyalari bo`lib, u milliy valyuta kursi dinamikasini uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini

ko'zlaydi. Valyuta cheklashlari milliy va xorijiy valyuta, oltin va xokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chara-tadbirlar majmuidan iborat.

Devalvatsiya - milliy valutaning chet el valutalariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrining tushishidir.

Ya'ni, ayni paytda 1 USD=11000 UZS bo'lsa, ma'lum bir muddat, masalan 6 oydan so'ng 1 USD=11500 UZS bo'lishi, milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan devalvatsiyasi hisoblanadi. Devalvatsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'lib, inflyatsiyaning kuchayishi va mamlakat to'lov balansining salbiy qoldiqqa ega bo'lishi hisoblanadi.

Devalvatsiya siyosatini mamlakat to'lov balansi yomonlashganda va mamlakatga import oqimi sezilarli darajada ko'payganda amalda qo'llash iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Demak, devalvatsiyani qo'llash shart-sharoiti yuzaga kelganda, uni darhol amalga oshirish lozim, aks holda sun'iy ravishda kursning qat'iy ushlab turilishi, butun iqtisodiyotga sezilarli darajada talafot yetkazishi mumkin.

Revalvatsiya — milliy valutaning chet el valutalariga yoki hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirishdir. Revalvatsiya qadri kuchli valutilarga nisbatan qo'llaniladi.

Revalvatsiya (lot. valeo — qadr-qimmatga egaman) —1) milliy valyuta — pul birligi kursini boshqa mamlakatlar yoki xalqaro valyutapul birliklariga nisbatan rasmiy oshirish. Inflyatsiya bartaraf etilganidan keyin ichki pul muomalasini barqarorlashtirish usullaridan biri. Iqtisodiyotga devalvatsiyaga nisbatan aksincha ta'sir ko'rsatadi. Muayyan bir mamlakat valyuta kursini boshqa mamlakatlar valyutalariga nisbatan ko'tarish eksport qilinayotgan tovarlarning chet el valyutasidagi narxini oshiradi va bu bilan xalqaro bozorda mamlakatning raqobat qilish qobiliyatini pasaytiradi, tovarlar eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Revalvatsiyani o'tkazayotgan mamlakat uchun Revalvatsiya chet el valyutasini arzonroq sotib olish imkoniyatini yaratadi, bu esa tovarlar importyorlari va kapital eksportyorlari manfaatlariga muvofiq keladi;

Inflyatsiyaning nihoyatda past darajada bo'lishi, uzoq vaqt davomida mamlakat to'lov balansining aktiv bo'lishi hamda milliy firma va kompaniyalarning jahon savdo bozorida raqobatbardoshligining ortishi, revalvatsiyani keltirib chiqaradi. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jahon amaliyotida kamroq qo'llaniladi.

Valutaviy cheklashlar deganda, chet el valyutasi hamda valuta qimmatliklari bilan bo'ladigan operatsiyalarga davlat tomonidan cheklashlarni joriy qilishga aytiladi. Hozirgi vaqtda, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda valutaviy

cheklashlar mutlaqo olib tashlangan, ayrimlarida esa, uning zaif ko‘rinishini kuzatish mumkin.

Masalan, Buyuk Britaniyada 1979-yildan buyon valutaviy cheklashlar mutlaqo yo‘q.

Valutaviy cheklashlar mamlakatlar hududidan oltin va valuta qimmatliklari chiqib ketishining oldini olishda, shu asosda, chet el valutariga bo‘lgan talabni tartibga solish maqsadida qo‘llaniladi.

Mamlakatlarda valuta kursi rejimini tanlash, uning shartlariga amal qilish ham valuta siyosatining bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Davlatning bojxona siyosati — mamlakat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, bojxona siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

-bojxona nazorati ostidan eng samarali foydalanishini va bojxona hududida tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta‘minlaydi;

- mamlakat bozorini himoya qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni rag‘batlantirishga doir savdo va siyosiy vazifalarni ro‘yobga chiqarishda ishtirok etish;

-bojxona siyosati bojxona ishining bir qismi bo‘lib, uning asoslari O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi bilan belgilanadi.

Davlatning yuqorida keltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida qatnashuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga va tartibga solishga qaratilgan.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi importi siyosatlariga bo‘linadi.

Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko‘chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki ta‘qiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo‘shimcha valyuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ishchi kuchini import siyosati deganda mamlakatga xarijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to‘siqlar qo‘yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi.

Bojxona siyosati – davlat tashqi savdo faoliyatining bir qismi bo‘lib, tovarlarni eksport va import qilishning shart-sharoitlari, hajmi va tarkibini tartibga solib turadi. Bojxona siyosatining mohiyati bojxona – tarif qonunchiligida, bojxona ittifoqlari va konventsiyalari, erkin zonalar, tarif blokadalar va boshqalarni tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Tovarlar olib kirish yoki olib chiqishning davlat tomonidan rag‘batlantirishi yoki chegaralanishiga bog‘liq

holda iqtisodiy va *bojxona siyosatining quyidagi to'rt asosiy turini ajratish mumkin:*

1. *Qisman cheklash siyosati.* Bu siyosat ichki bozorga ba'zi tovarlarni, masalan, mamlakat milliy mafkurasiga hamda aholi turmush tarziga teskari ta'sir qiladigan kino – video mahsulotlari va turli nashrlarni kiritmaslik maqsadida qo'llaniladi.

2. *Proteksionizm siyosati.* Bu ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashdir.

3. *Erkin savdo siyosati – «fritrederlik».* Bu tashqi savdodagi cheklashlarni eng minimumiga tushirishdir. Odatda, u o'z tovarlarining raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan va bozorlarda yetakchi mavqega ega mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi.

4. *Taqchil bozorni to'yintirish – «teskari proteksionizm» siyosati.* Bu faqat milliy bozorda chuqur taqchilik sharoiti yuz berganda va unda hammaga o'rin topiladigan sharoitdagina samarali hisoblanadi.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- tashqi savdoning rivojlanishiga ko'mak berish;
- davlatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish;
- xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishdan foyda olish;
- mamlakat savdo va to'lov balansining ijobiy saldosini ta'minlash;
- davlat byudjeti daromadlarini o'stirish;
- xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining diskriminatsion aktsiyalariga qarshi harakat olib borish;
- davlatning savdo – siyosiy pozitsiyasini Nazorat;
- korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash;
- milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'mak berish;
- mamlakat xalq xo'jaligining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;
- bozor faoliyatiga shart – sharoit yaratish.

O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining asosiy tamoyillari Jahon savdo tashkiloti (JST) hujjatlarida qayd etilgan bojxona siyosatining xalqaro tajribalariga hamda O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati tamoyillariga asoslangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. *Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustunligini tan olish tamoyli.* Uning mohiyati shundaki, o'z milliy huquq tizimini yaratayotgan milliy davlatimiz xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustun turishini tan oladi. O'zbekiston Respublikasining BMT, JST va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi Respublikaning bojxona ishi sohasidagi umumjahon

muammolarni hal etishda faol ishtirok etishiga keng imkoniyatlar ochib berdi va Respublika zimmasiga bir qator majburiyatlarni ham yukladi.

2. *O'zbekistonda amalga oshiriladigan bojxona siyosatining yagonaligi tamoyili.* Bu O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida yagona bojxona siyosatining olib borilishini anglatadi.

3. *Ikki va ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish tamoyili.* Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlik olib borishga faol intilishi orqali amalga oshiriladi.

4. *Milliy davlat manfaatlari ustunligini hisobga olgan holda o'zaro savdo kelishuvlarida yon berishlik tamoyili.* Bojxona siyosati hamkor mamlakatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa hamda o'zaro munosabatlarda ma'lum bir kelishuvlarni qabul qilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Ammo, bunda davlatning milliy xavfsizligi xavf ostiga qo'yilishi mumkin emas.

5. *O'zaro kamsitmaslik tamoyili.* Davlat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati dastaklari orqali u yoki bu milliy bozorda chegaralash chora-tadbirlarini qo'llaydi. Ularni qo'llash diskriminatsion (kamsitish) ko'rinishda bo'lmasligi, ya'ni bazi mamlakatlarga nisbatan emas, balki barcha qatnashuvchi mamlakatlarga nisbatan birdek qo'llanishi lozim.

6. *Bir tomonlama harakatlarga yo'l qo'yimaslik.* Milliy bozorni himoya qilish bo'yicha qarorlar ko'p tomonlama maslahatlashuvlardan so'ng qabul qilinishi kerak.

7. *Demokratizm tamoyili.* Demokratizm tamoyili bojxona siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga qo'llashda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolarning bojxona ishi sohasidagi huquqlarining himoyalanihishini talab qiladi.

13.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari.

Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy siyosatni yuritishda yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimidan samarali foydalanilmoqda va uning tarkibiga kirgan tashkilot va muassasalar faoliyati takomillashtirilmokda. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini ta'minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va amalga joriy etish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini takomillashtirish va yanada erkinlashtirish;

- mulkchilik ko‘rinishining turli shakllaridan qat’iy nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatni barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlikni ta’minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish;

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy bo‘g‘inlarini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy omillardan oqilona foydalanish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solishda va erkinlashtirishda umume’tirof etilgan quyidagi usullaridan foydalaniladi: tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullar va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita (iqtisodiy, ma’muriy, me’yoriy-huquqiy) usullar.


Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari bo‘lib tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini, ularning daromadini taqsimlashga, bitim shartlarini bajarishga ta’sir etuvchi, bojxona tariflari va bojlari, turli soliqlar, valyutadan tushgan puldan ajratmalar me’yori, xalkaro operatsiyalarni kreditlash va sug‘urtalashning foiz stavkalari kabilar hisoblanib, u sub’yektlarni u yoki bu harakatni tanlash imkonini beradi.

Bevosita usullari ichida bojxona bojlari va tariflari juda muhim hisoblanadi. **Boj**, *boj puli* – (arab. o‘lpon, soliq) – bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o‘tiladigan import tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan undiriladigan pul yig‘imlari. U bilvosita soliq bo‘lib, uning tovar chiqarish, tovar kiritish va mamlakat hududi orqali tashib o‘tkazish uchun (tranzit) undiriladigan turlari mavjud. O‘rta Osiyoda boj olish o‘rta asrlardan boshlab davom etib kelgan. Boj oluvchi mansabdor tusqovul deb atalgan. Hozirgi davrda boj muayyan tovarlar ro‘yxati, tovar miqdori, massasi, birligi, shuningdek, tovar bahosi (*advalor boj*) bo‘yicha belgilangan bojxona tariflari doirasida undiriladi.

Boj tarifi – davlat chegarasi orqali o‘tadigan tovarlardan undiriladigan bojar stavkalari majmui (to‘plami). Boj olinadigan tovarlar nomi va tasnifi, boj stavkasi, ularni hisoblash va to‘lash usullari, boj olinmay o‘tkaziladigan tovar (buyum)lar ro‘yxati, shuningdek, olib kelish, olib ketish, olib o‘tish (tranzit) ta’qiqlangan mahsulotlar ro‘yxati ko‘rsatiladi. Boj tarifida tovarlar qayta ishlanish darajasi (tayyor mahsulot, yarim tayyor mahsulot, xom ashyo) va tarmoq turiga (sanoat, qishloq xo‘jaligi, mineral-xom ashyo) ko‘ra guruhlanadi. Bojxona tarifi tovar klassifikatorlari asosida tashkil topadi. Tovarlarni guruhlarga, guruhlar ichida kichik guruhlarga (ma’lum bir xil belgilari bo‘yicha) belgilanishi tovar klassifikatsiyasi deyiladi. Hozirgi vaqtda xalqaro savdo aloqalarida eng ko‘p qo‘llaniladigan tovar klassifikatorlarida ular keng ko‘lamda sistemalashtirilgan va kodlashtirilgandir.

Ular yordamida tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan tashqi savdo tartibga solinadi. Tariflarni o'zgartirish orqali davlat eksport va importni rag'batlantirishi yoki qisqartirishi orqali milliy ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo'llanadi va ularni hisoblash yo'llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin (13.2-rasm).



13.2-rasm. Bojxona bojlari umumiy tavsifi

Chizmadan ko'rinib turibdiki, amaliyotda qo'llaniladigan bojxona bojlari turlicha. Undirish usuliga ko'ra guruhlanishini ko'radigan bo'lsak, mahsulotni bojxona qiymatiga nisbatan foizda belgilanadigan advalor bojlari jahonda ko'proq tarqalgan. Shu sababdan ham bojning bu turi qo'llaniladigan mamlakatlarda mahsulotning boj qiymatini, ya'ni advalor bojlari hisoblashiga asos bo'lgan mahsulotning bojxona qiymatini (narxini) aniqlash usullariga katta e'tibor beriladi. Boj qiymati, import va eksport qiluvchi, tashuvchi yoki ularning ishonchli vakillari tomonidan mahsulotlar bayonnomasida ko'rsatiladi va shunga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Ammo ba'zi hollarda bojxona mahsulotning e'lon qilingan narxini tan olmaslikka va uni o'zi mustaqil aniqlashlari mumkin. Amaldagi qo'llanilayotgan usulga qarab mahsulot narxi 20-25 foiz, hatto 2 martagacha ko'paytirilishi mumkin.

Tashqi savdoni tartibga solishda o'ziga xos (spetsifik) usuliga ko'ra mahsulotning har bir o'lchov birligidan(dona, kilogramm, metr, metr kub va b.) undiriladi. Bundan tashqari yuqoridagi ikki usul uyg'unlashgan aralash bojlari ham qo'llaniladi.

Bojxona bojlarining ikkinchi guruhi avvalo **import bojlari va eksport bojlari hamda tranzit bojlariga** ajraladi.

Import bojlar ichki bozorlarga chet el tovarlari oqimini tartibga solish va davlat byudjetini to'ldirish maqsadida belgilanadi. Import bojlari eng kam va eng ko'p miqdordagi bojlarga bo'linadi. **Eng kam miqdordagi** import bojlar o'zaro qulay sharoitlar tartibini yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o'rnatiladi. **Eng ko'p miqdordagi import bojlari** esa bunday shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o'rnatiladi. Undan tashqari qo'plab mamlakatlarda imtiyozli bojlar ham qo'llaniladi va bu bojlar asosan rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlar mamlakatda ushbu maxsulotga talab ko'p bo'lgan holda uni taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Tranzit bojlari mamlakat hududidantovarlarini olib o'tilayotganida bojxona hududida tovarlardan undiriladigan bojlar hisoblanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek bojxona bojlari stavkasi, ya'ni ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari deb ataladi.

Bojxona tariflari asosan milliy darajada qo'llaniladi va bunda qator vazifalarni bajaradi.

1. fiskal - davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;

2. proteksionistik - milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qiladi;

3. tartiblovchi, ya'ni ichki maxsulotlar bozorlari tarkibini muvofiqlashtirish maqsadida maxsulotni chetga chiqishini cheklaydi va mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoq maxsulotlari eksportini rag'batlantiriladi.

Ko'pgina davlatlar proteksionizm siyosatini iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida o'z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida qo'llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi», jamiyatda ishsizlik xavfi tug'iladi.

Bojxona tariflari va bojlaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning iqtisodiy, egiluvchan usullari sifatida turli soliqlar keng qo'llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniladi.

Ko'pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo'llanilsa, eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga egadir. Bu eksportni rag'batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko'p bo'lganda o'z

mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar o'zining mazmuniga ko'ra iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy-huquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Bevosita usullariga litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hamda importi, moliya operatsiyalari o'tkazish, xorijda ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi, boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan. Litsenziyalash ma'lum vaqt davomida umumdavlat maqsadlariga mo'ljallangan mahsulotlar, xizmatlar bilan bitimlar bo'yicha eksportni (importni) chegaralash va nosog'lom raqobatni ogohlantirish chorasi sifatida qo'llaniladi.

Litsenziyalar Bosh litsenziyalar va bir martalik litsenziyalarga bo'linadi. Bosh litsenziyalar Markaziy hukumat tomonidan beriladi va o'zida ma'lum mamlakatlarga strategik bo'lmagan, litsenziya hujjatlarini haqiqatda rasmiylashtirishni talab qilmaydigan mahsulotlar eksportiga rasman ruxsat berishni aks ettiradi.

Bir martalik litsenziyalar litsenziya berish huquqiga ega bo'lgan davlat idoralari tomonidan eksport yoki import bo'yicha har bir alohida bitimga ruxsat ko'rinishida beriladi. Moliya operatsiyalarini litsenziyalash davlatga mamlakat ichida valyuta oqimi harakatini tartibga solish imkonini beradi.

Milliy davlat va shunga o'xshash tuzilmalarga beriladigan ishga joylashtirish litsenziyalari, ularga xorijiy sheriklar bilan kelishgan holda xorijga o'z ishchi kuchini yetkazib berish huquqini beradi.

Eksport va importni kvotalashning tashqi savdoni chegaralash vositasi sifatida qo'llanilishi. Jahon amaliyotida mahsulotlar, shuningdek ishchi kuchi eksport va importni chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llaniladi. Unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport yoki importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarni (kvotalarini) belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balanslarini, ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun, muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda

kvotalash xalq iste'mol mollarini va strategik xom ashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Ishchi kuchini tashqi migratsiyasini tartibga solishda ham kvotalash usuli qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatiladi.

Litsenziyalash va kvotalashdan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyatni turli ko'rinishlarini tartibga solish maqsadida iqtisodiy xarakterdagi boshqa bevosita usullar ham qo'llaniladi.

Ularga bojxona bojarining ba'zi turlari, eksportni ixtiyoriy chegaralash, pasaytirilgan eksport bahosi va eng kam import bahosi, eksport subsidiyalari, korxonalar nizamida kapital hissasini aniqlash, belgilangan valyuta kursi va boshqalar kiradi.

Jahon amaliyotida qo'llaniladigan maxsus, dempingga qarshi va kompensatsion bojxona bojlari. Tashqi savdoni tartibga solishning bevosita tarifli bo'lmagan usullari guruhiga bojxona bojarining maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion va boshqa turlari kiradi.

Ba'zi hollarda mamlakatlar tomonidan **maxsus bojxona bojlari** qo'llaniladi. Masalan, mahsulotlar olib kelish hajmi va sharti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa yoki mamlakat manfaatlariga zid bo'lganda qo'llaniladi. Maxsus bojxona bojarining miqdori har bir aniq holat uchun alohida o'rnatiladi.

Dempingga qarshi qaratilgan bojar jahon amaliyotida keng qo'llanilib, o'zida qo'shimcha import bojarini aks ettiradi. Ular odatda jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni Xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi.

Kompensatsion bojar olib kelinayotgan mahsulotlar kabi, olib chiqilayotgan mahsulotlarga ham belgilanadi. Ular ishlab chiqarish yoki eksport qilishda subsidiyalar (davlatning moliyaviy yordami) ajratilgan va bu olib kelish yoki olib chiqish milliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi. Bunday holda davlat mamlakatga yetkazilgan zararni yoki davlatning moliyaviy xarajatlarini qoplashi lozim bo'lgan bojlarni o'rnatadi. Kompensatsion bojar miqdori aniqlangan subsidiyalar miqdoridan oshmasligi lozim.

Savdo cheklashlarining zamonaviy turlari. So'nggi o'n yilliklarda eksportni «ixtiyoriy» chegaralash va eng kam import baholarini belgilash haqida bitimlar tuzish amaliyotida keng tarqala boshladi. Savdo cheklashlarining bu yangi turlarining xususiyati, ularni o'rnatishning noan'anaviy usulidan iborat. Ya'ni import qiluvchi mamlakatni himoya qiluvchi savdo to'siqlari import

qiluvchi mamlakat chegarasida emas, balki eksport qiluvchi mamlakat chegarasida kiritilganda eksportni «ixtiyoriy» chegaralash qo'llaniladi. Xuddi shunga o'xshash eng kam import bahosini o'rnatish ham amalga oshiriladi. Bunday baholarni o'rnatgan import qiluvchi mamlakatlar bilan kontraktlar tuzishda bunga eksport qiluvchi firmalar tomonidan qat'iy amal qilinmog'i lozim. Eksport bahosi eng kam darajadan pasaytirilgan holda import qiluvchi mamlakat dempingga qarshi boj kiritadi va uni qo'llash bozordan chiqishga olib kelishi mumkin.

Bevosita tartibga solishning ko'pgina tadbirlari bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan holda qo'llaniladi.

Eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi, ya'ni tajriba-konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat byudjetidan imtiyozli kreditlar berilishi ko'zga tutiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy usullari. Ma'muriy va me'yoriy-huquqiy tartibga solish usullari ham u yoki bu tashqi iqtisodiy faoliyatni chegaralashga, yo rag'batlantirishga qaratilgan.

Bu bitimlarni tuzish va amalga oshirish tartibi, texnik standartlar, mahsulotlardan foydalanish xususiyatlari, ishchi kuchi sifati, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish muddati, darajasi va boshqalarga qo'yiladigan talab va me'yorlar bilan bog'liq turli xil ma'muriy tadbirlardir.

Ma'muriy xarakterdagi davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos choralari sifatida tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish, mahsulotlar bayonnomasi yoki bojxona bayonnomasini taqdim etish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish — bu tashqi iqtisodiy faoliyat sub'yektlarini hisobga olish va rasmiylashtirishning ma'lum tartibidir.

Ro'yxatga olish o'rnatilgan shaklda to'ldirilgan ro'yxatga olish varaqasini taqdim etish, ro'yxatga olinganlik raqamini berish, tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini rasmiy ravishda chop etiladigan Davlat ro'yxatlari to'plamiga kiritish va ro'yxatga olinganlik haqidagi guvohnomani berishni o'z ichiga oladi. Ro'yxatga olinganlik haqidagi ma'lumot tezda tarmoq tashkilotlari va davlat hamda mahalliy hokimiyat tashkilotlariga yetkazilishi lozim.

Mahsulot bayonnomasi - bu tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisining mahsulotni davlat chegarasini kesib o'tayotgani haqida ushbu mamlakatda o'rnatilgan qoidalarga muvofiq bergan rasmiy arizasidir. U ikki ko'rinishda, ya'ni bojxona bayonnomasi bo'yicha va tovar-transport hujjatlari bo'yicha

(yetarli malaka va tajribaga ega bo'lgan tashqi iqtisodiy birlashmalar uchun) amalga oshiriladi. Ba'zi fuqarolar mamlakatga kirishda va chiqishda tashilayotgan buyumlar, mulk, shu jumladan valyuta haqida bayonnomani bir xil andozadagi varaqalarga to'ldirishlari lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nazarda tutiladi.

O'zbekistonda davlatning tashqi iqtisodiy sohadagi siyosatini shakllantirishda rejali iqtisodiyotdan meros bo'lib qolgan iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari ham hisobga olingan. Unga ko'ra, an'anaviy tovarlar savdosi bilan cheklanib qolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya kapitali va ishchi kuchi bilan ayirboshlash kabi turlarini deyarli rivojlanmaganligini, importning eksportdan ustunligini, eksport va import strukturasi samarasizligi: chetga asosan xom ashyo chiqarilib, chetdan iste'moli tovarlari keltirilganligi kabi salbiy jihatlarini sanash mumkin.

Kapitalni olib kelish va olib chiqishni tartibga solish va valyuta bilan chegaralash chora-tadbirlari o'zaro chambarchas bog'liq. Bu tadbirlarga foydani xorijga o'tkazish sharti, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash, milliy xodimlarning korxonani boshqarishda qatnashish sharti va boshqalar kiradi. Har bir mamlakat ichki va jahon bozorida vujudga kelgan vaziyatni hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etishning u yoki bu vositasini umummilliy vazifalarni hal etishga yo'naltirgan holda faol qo'llaydi. Ushbu vositalarni quyidagicha tasniflash mumkin(13.1-jadval):

13.1-jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullarining umumiy tasnifi.

| Tashqi iqtisodiy munosabatlarning ko'rinishlari | Bilvosita (Ta'rif) usullar | Bevosita (Notarif) usullar | | |
|---|--|--|---|---|
| | | Iqtisodiy | Ma'muriy | Me'yoriy-huquqiy |
| Tashqi savdo | Bojxona bojlari (eksport, import bojlari); Bojxona tariflari Eksport va import soliqlari; Valyuta tushumidan ajratmalar me'yorlari; | Litsenziyalash, kvotalash; Bojxona bojlari (mavsumiy, maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion) Eksportni ixtiyoriy chegaralash; Pasaytirilgan eksport bahosi; | Maxsulotlar bayonnomasi; Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish; Boshqa bojxona rasmiyatchiliklari | Maxsulot sifati, tovarlarni o'rash va markirovkalashga bildirilgan talablar, me'yor va texnik standartlar |

| | | | | |
|----------------------------------|---|--|---|---|
| | Markaziy bankka sotilishi majburiy bo'lgan valyuta tushumlari hisssasi | Eng kam import baholari; Eksport subsidiyalari; Jarimalar | | |
| Kapital migratsiyasi | Kreditning foiz stavkasi; Sug'urta mukofotlarining miqdori; "Suzib yuruvchi" tartibga solinadigan valyuta kursi; Chet el valyutasini sotuvchi va xaridordan olinadigan majburiy to'lov miqdori | Moliya operatsiyalari uchun litsenziyalar; Korxonalar ustav fondida xorijiy kapital ulushining mumkin bo'lgan chegarasi; Xorijiy valyuta olib kelish va joriyga valyuta olib chiqish miqdorini belgilash | Sarmoyalash, kredit berish va sug'urta shartlari; Chet ellik sarmoyachilar uchun iqtisod tarmoqlarini aniqlash; Qo'shma va chet ellik korxonalarini boshqarishda milliy xodimlarni ishtirok etish shartlari | Valyuta operatsiyalarini oshirish jarayoniga qo'yiladigan talab va standartlar |
| Ishchi kuchi migratsiyasi | Ishchi kuchi bozori(eng kam ish haqi miqdori); Ijtimoiy sug'urtalash shartlari; Chetga chiqish va chetdan kelish hujjatlarini rasmiylashtirish uchun to'lanadigan bojlar va to'lovlar | Mamlakatga kelayotgan shaxslar uchun kvotalar; Ishga joylashish uchun ruxsat berish | Ishchi kuchini chetdan kelishi va chetga chiqishini rasmiylashtirish tartibi va shartlari | Ishchi kuchini ta'limi, malakasi, jinsi va yoshiga qarab qo'llaniladigan talab va standartlar |

13.4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va takomillashtirish yo'nalishlari.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Unga ko'ra, islohotlarning tadrijiy rivojlanish bosqichida dastlab tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratilib, tashqi savdoni tartibga solishda bilvosita ma'muriy usullardan keng foydalanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan bevosita iqtisodiy usullari joriy etilib, ekportga yo'naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi natijasida milliy valyutani joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi (15.2- jadval).

Respublikamizda ham eksport salohiyatini oshirish maqsadida milliy ishlab chiqaruvchilarga o‘zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilganida bir qator soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan. Jumladan:

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha:

tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi, ya‘ni eksport faoliyati to‘liqligicha qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan.

Aktsiz solig‘i bo‘yicha:

tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga aktsiz solig‘i solinmaydi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamari tomonidan belgilanadigan ayrim tovarlardan tashqari).

Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha:

eksportchi korxonalar uchun realizatsiyaning umumiy xajmida o‘zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalanadigan valyutaga eksport qilish ulushiga bog‘liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi.

Eksport ulushi:

realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo‘lganida - belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko‘p bo‘lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha:

- realizatsiyaning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo‘lganida - belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

- realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko‘p bo‘lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Shuningdek, mamlakat milliy xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan tovarlar bilan ichki bozor ehtiyojlarini to‘liqroq darajada ta‘minlash maqsadida ko‘pgina import tovarlarini olib kirish bo‘yicha ham qator yengilliklar yaratilgan. Bu boradagi yengilliklarning xususiyatli jihati sifatida, ta‘kidlash lozimki. mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan xorijdan keltirilayotgan yangi texnika va texnologiyalar va iste‘mol uchun birlamchi darajada zarur bo‘lgan un, yog‘och va yog‘och materiallari kabi tovarlarga ko‘proq ustuvorlik berilgan.

13.2- jadval

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichlari

| | |
|---|---|
| Birinchi bosqich – 1991-1994 yy. | Import o‘rnini qoplash siyosatining yuritilishi. Tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratildi. Tashqi savdo siyosatida notarif usullari yetakchilik qildi. |
|---|---|

| | |
|--|--|
| Ikkinchi bosqich – 1995-1997 yy. | Tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotiga mos keladigan dastaklari joriy qilindi. Bu davr miqdoriy cheklovlarining qisqarishi hamda keng miqyosda eksport va import bojlarini faol qo'llash davri hisoblanadi. |
| Uchinchi bosqich – 1997-1999 yy. | Bu davr tashqi savdoni erkinlashtirishni chuqurlashtirish, tarif va notarif usullarini soddalashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan savdo siyosatining yuritilishi, eksport bojlarining bekor qilinishi, eksportga yo'naltirilgan siyosatning olib brilishi bilan izohlanadi. |
| To'rtinchi bosqich – 2000-2003 yy. | Tashqi savdoni va valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan yangi davr hisoblanadi. 2002 yilning 1 iyulidan boshlab import tarifining uch pog'anali stavkalari (0; 10; 30) joriy etildi. |
| Beshinchi bosqich – 2003 yildan 2016yilga qadar | O'zbekiston tashqi savdosini erkinlashtirish bosqichi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalashuviga erishildi. Bu, o'z navbatida, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantirish bo'ldi. |
| Oltinchi bosqich-2017 yildan boshlandi | Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishning yangi bosqichi. Valyuta bozori va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, xususan qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish. Eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish |

13.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasining 2000-2017 yillardagi tashqi savdo aylanmasi (mln.AQSh.dollari)

| | 2000 y. | 2016 y. | 2017y | 2021 yil | 2021 yil 2000 yilga nisbatan, da |
|-------------------------------|---------------|----------------|----------------|---------------|----------------------------------|
| Tashqi savdo aylanmasi | 6212,1 | 24309,4 | 26907,0 | 42 100 | 6,7 m. |
| MDH mamlakatlari | 2297,8 | 8461,5 | 9737,7 | 14 149,2 | 6,1 m. |
| Boshqa xorijiy davlatlar | 3914,3 | 15847,9 | 17169,3 | 27 950,8 | 7,1 m. |
| Eksport | 3264,7 | 12178,7 | 13893,6 | 16 600 | 5,1 m. |
| MDH mamlakatlari | 1172,2 | 4415,3 | 5233,5 | 5 094,4 | 4,34 m. |
| Boshqa xorijiy davlatlar | 2092,5 | 7763,4 | 8660,1 | 11 505,6 | 5,5 m. |
| Import | 2947,4 | 12130,7 | 13013,4 | 25 460 | 8,63 m. |
| MDH mamlakatlari | 1125,6 | 4046,2 | 4504,2 | 9 054,8 | 8,04 m. |
| Boshqa xorijiy davlatlar | 1821,8 | 8084,5 | 8509,2 | 16 405,2 | 9 m. |
| Saldo | 317,3 | 48,0 | 880,2 | 8 850 | 27,89 m |
| MDH mamlakatlari | 46,6 | 369,1 | 729,3 | -3 960,4 | x |
| Boshqa xorijiy davlatlar | 270,7 | -321,1 | 150,9 | 4 899,6 | X |

Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2021 yil yakunlari bo'yicha 42 100 mln.AQSh dollarini (2017 yilga nisbatan 154,0%ni), shu jumladan, MDH

mamlakatlari bo‘yicha 14 149,27 mln.AQSh dollarini (2017 yilga nisbatan 145,3% ni), boshqa xorijiy mamlakatlar bo‘yicha 27 950,8 mln.AQSh dollarini (2017 yilga nisbatan 162,7%) tashkil etdi (13.3-jadval).

2021 yilda 2000 yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 6,7 martaga, eksport hajmi 5,1 martaga, import 8,63 martaga, tashqi savdo aylanmasi saldosida esa 27,89 martaga oshdi.

Mamlakatning iqtisodiyotidagi tub tarkibiy o‘zgarishlarni eksport va importning tovar tarkibidagi o‘zgarishlar misolida ko‘rish mumkin ro‘y berdi. Eksport tarkibida 81,3% tovarlar bo‘lib, ular asosan sanoat tovarlari (35,9%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9%), kimyoviy moddalar va shu kabi mahsulotlardan (8,8%) iborat.

Rangli metallarning sotilishi keskin o‘ydi — 464,2 million dollar (75,2 foizga), to‘qimachilik iplari, mato va tayyor mahsulotlar — 658,4 million dollar (71,9 foizga), kiyim-kechak — 204,7 million dollar (49,1 foizga), avtomobillar — 125,4 million dollarni (75,2 foizga) tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 327,9 ming tonnani tashkil etdi va qiymat jihatidan 186 million dollardan oshdi (0,5%ga).

2021 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar eksporti hajmi 13,2 foizga kamayib, 650,7 million dollarni tashkil etdi. Uning tarkibida transport xizmatlari (72,8%), sayohat-turizm (12,3%), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (6,9%) katta ulushga ega bo‘ldi. (13.4-jadval).

13.4-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo tarkibidagi o‘zgarishlar²⁶

| Ko‘rsatkichlar | 2019 y. | 2020 y. | 2021y. |
|--|---------|---------|--------|
| Tashqi savdo aylanmasi, mln. doll. | 42 200 | 26907,0 | 42 100 |
| Eksport, mln. doll. | 17 900 | 13893,6 | 16 600 |
| Import, mln. doll. | 24 300 | 13013,4 | 25 460 |
| Saldo (+, -) mln. doll. | 6 400 | 880,2 | 8 850 |
| Eksport (%) | 100 | 100,0 | 100 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5,9 | 6,4 | 8,9 |
| Ichinliklar va tamaki | 0,2 | 0,2 | 0,2 |
| Nooziq -ovqat xomaashyo yoqilg‘idan tashqari | 4,8 | 4,3 | 5 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi | 0,1 | 0,1 | 0 |
| Sanoat tovarlari | 18,7 | 17,4 | 15,9 |
| Turli hil tayyor buyumlar | 4,4 | 3,7 | 6,7 |
| Oltin | 29,8 | 36,2 | 26,6 |

²⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/21/export-import>

| | | | |
|--|-------|------|------|
| Mineral yoq'alg'I yog'lash moylari | 9 | 5,6 | 4,3 |
| Kimyoviy vositalar | 5,6 | 6 | 6,8 |
| Mashinalar va transport asbob uskunlari | 2,6 | 2,4 | 3,9 |
| Boshqa tovarlar | 0,3 | 0,2 | 5,5 |
| Xizmatlar | 18,6 | 17,4 | 16,1 |
| Import (%) | 100,0 | 100 | 100 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 7,8 | 7,5 | 10,4 |
| Ichinliklar va tamaki | 0,2 | 0,2 | 0,3 |
| Nooziq -ovqat xomaashyo yoqilg'idan tashqari | 4,7 | 5,1 | 4,8 |
| Hayovon va o'simliklar moyi | 2,2 | 1,3 | 1,8 |
| Sanoat tovarlari | 16,4 | 15,5 | 19,1 |
| Turli hil tayyor buyumlar | 7,5 | 5,7 | 6,8 |
| Mineral yoq'alg'I yog'lash moylari | 5 | 6, | 5,2 |
| Kimyoviy vositalar | 12,8 | 13 | 13,9 |
| Mashinalar va transport asbob uskunlari | 34 | 36,3 | 36 |
| Boshqa tovarlar | 0,4 | 0,3 | 0 |
| Xizmatlar | 9 | 8,2 | 5,6 |

Import tarkibida asosiy ulushni mashinasozlik va transport uskunlari (32%) — 2,2 mlrd dollar, sanoat tovarlari — 1,3 mlrd dollar (19,1%), shuningdek, kimyo mahsulotlari va shunga o'xshash mahsulotlar — 954,2 mln dollar (13,9%) tashkil etdi.

Mashina va transport uskunlari importi 5,7 foizga kamaydi. Ushbu tovarlarni mamlakatga yetkazib berishning katta qismi Xitoyga — 822,7 mln dollar (37,6%), Koreya Respublikasi — 322,1 mln dollar (14,7%) va Rossiya — 202,5 mln dollar (9,3%) to'g'ri keladi.

O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importini keskin oshirdi — 711 million dollarga (48,2%), shu jumladan don va undan olingan mahsulotlar — 251,9 million dollarga (31,2%), shakar — 102, 9 million dollargacha (52,1%) oshdi.

Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlarini yetkazib berish 421,5 mln dollargacha (39,9%) o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida “Tashqi iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta imkoniyat va zaxiralar mavjudligini ta'kidlash lozim. Bu borada biz Markaziy Osiyo mamlakatlari va yirik sheriklarimiz – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSh, Turkiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishni davom ettiramiz”²⁷, -deb ta'kidladi.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга murojaatnomasi //Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

Shundan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan, tashqi savdo aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilandi:

-O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi va mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo‘laklarini izchil shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish;

-logistik marshrutlarni diversifikatsiya qilish, bu borada qo‘shnilarimiz bilan amaliy muzokaralar o‘tkazish;

-Xitoy davlatining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi doirasida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya infratuzilmalari sohasidagi imkoniyatlarini oshirish;

-tranzit davlatlar, xususan, Turkmaniston, Eron, Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan asosiy eksport yuklarini tranzit shaklida tashishda preferentsiyalarga ega bo‘lish;

- xorijiy va mahalliy investorlarning logistika sohasida aniq loyihalarni amalga oshirish borasidagi harakatlarini rag‘batlantirish;

-milliy yuk tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarga qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida “**Milliy logistika portali**”ni tashkil etish;

- Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralarni qayta boshlash;

-eksportni yanada rag‘batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish;

-asosiy maqsadlarimizdan biri – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni “**o‘zbek brendi**” nomi bilan olib chiqishdan iborat²⁸.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, tashqi savdo siyosati, kapital migratsiyasi siyosati, ishchi kuchi migratsiyasi siyosati, valyuta siyosati, eksport, import, tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy usullari, bojxona tariflari, eksport va import kvotasi, litsenziyalash va standartlashtirish.

Nazorat uchun savollar

1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zaruriyatini yoriting?
2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosati shakllarini tavsiflab bering?
3. Tashqi migratsiya siyosati mohiyatini izohlab bering?
4. Tashqi valyuta siyosati va uning yo‘nalishlarini mohiyatini yoriting?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullarini ayting?

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга мурожаатномаси //Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

6. TIFni tartibga solishda notarif usullardan foydalanishni tarif usullaridan afzalligi nimada?
7. Kvotalash, turlari va ularni iqtisodiy samaralari nimada?
8. Bojxona tarifi va uni asosiy funktsiyalari.
9. Tarif kvotasi nima?
10. Eksport tarifi import tarifi iqtisodiyotidan farqi nimada?

XULOSA

Davlatning ijtimoiy samarali iqtisodiy strategiyasi, fuqarolar uchun optimal tarkibdagi pirovard mahsulotning yuqori o'sish sur'atining barqarorligini ta'minlashni, to'liq samarali ish bilan bandlikka, inflyatsiyani jilovlashga va daromadlarning odilona taqsimlanishiga erishishini ifodalaydi. Davlat iqtisodiy strategiyasi sifatining kriteriyasi (mezoni) uning ijtimoiy samarali iqtisodiyotga muvofiqligi darajasi hamda unga mamlakat ichidagi va jahon hamjamiyati tomonidan bildirilgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne'matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo'llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi. Davlatning iqtisodiy siyosati o'z ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiyinvestitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-byudjet, pul-kredit, hududiy (mintaqaviy) siyosatlarini oladi.

Xalq manfaatlariga javob beruvchi mustaqil iqtisodiy siyosat, bu O'zbekistonni mustaqil rivojlantirishning ajralmas shartidir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish va aholining turmush darajalari o'rtasidagi tafovutlarga qaramay, jahon hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichiga bozor iqtisodiyoti juda mos keladi va samara kasb etadi. Faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib bera oladi, boqimandalikka xotima beradi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira oladi, rag'batlantirish va yo'qotilgan egalik tuyg'usini qayta tiklaydi. Faqat bozorgina tejamli xo'jalik yuritishning oqilona shakllarini yaratadi.

Bozorga, ayniqsa, uning shakllanish bosqichida, uzoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarining sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta'minot jihatdan keskin tabaqalashuvi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Bozorga o'tilgan sari iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlatning vazifasi jiddiy o'zgaradi. Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga soluvchi vositalari tobora muhimlashadi.

Bozor xo'jaligining asosiy talablari va shartlaridan biri erkin narxlardir. Ammo dunyo bo'yicha narx siyosati, ayniqsa, bozor tarmoqlarini qaror toptirish davrida tartibga solib turilmaydigan bironta ham davlat mavjud emas. Bozor munosabatlari yo'lga kirgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi davlat doimo

aholini ham, ishbilarmonlarni ham islohotlarga tayyorlab kelganligidan dalolat beradi.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita iqtisodiyotning davlat sektori orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat ixtiyorida faqat asosiy va xalq xo'jaligi tarmoqlarining strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlari qoladi. Bular yoqilg'i, neft va gaz sanoati, elektr energetikasi, temir yo'l, avtomobil, havo va truboprovod transporti, aloqa, suv va gaz ta'minoti, irrigatsiya inshootlari qurilishi va ulardan foydalanishdir.

Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonda yerning egasi ekanligi tuyg'usini qayta tiklash – meros qilish huquqi asosida yerni abadiy foydalanish uchun berish yo'lidan borish kerak. Eng muhimi, qishloq xo'jaligini yuritishning shunday shaklini yaratish kerakki, bu har bir dehqonga o'z mehnatining samarasidan mustaqil bahramand bo'lish imkoniyatini bersin. Ana shundagina dehqon o'zini haqiqatan ham yerning chinakam egasi deb biladi. Qishloq turmush darajasini shahar turmushi darajasiga ko'tarish, eng avvalo, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash, ularni suv va gaz bilan ta'minlash, shuningdek, ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan joylarda kichik mustaqil korxonalar, keng tarmoqli qayta ishlash shaxobchalarini tashkil etish davlat ahamiyatiga molik vazifadir.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, bozorning keng tarmoqli tizimini tashkil etishni talab qiladi. Ayrim korxonalar va tijorat tuzilmalarining yakkaboshlik mavqeini tugatish narxlarning sun'iy ravishda oshirib yuborilishi, monopol yuqori daromadlar olinishiga qarshi turuvchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, o'zgarib turadigan bozor iqtisodiyotini yaxshi tushunadigan, yuksak bilimli va ishbilarmon mutaxassislarga ega bo'lmay turib, korxonalarni malakasiz qo'llarga topshirish ularning barbod bo'lishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4848-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob‘yektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoni. 17.01.2017 y. PF-4933.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining” Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta‘minlashni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoni. 25.05.2017 y.PF-5057.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1958-sonli qarori.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Qarori. 29.12.2016 y. PQ-2707.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Qarori. 18.04.2017 y. PQ-2895.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ gi Qarori. 04.09.2017 y.PQ-3254.

II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

10. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak: Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga

bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruza. – T.:”O‘zbekiston”, 2017.

11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T.:”O‘zbekiston”, 2017.

12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.//Xalq so‘zi, 2016 yil 15 dekabr.

13.Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.- T.:”O‘zbekiston”, 2017

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

III.Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

15. Abulkasimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi.- T.:Akademiya, 2011.

16. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.-T.:Akademiya,2012.

17. Abulkasimov H.P., Hamraev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.-T.: Iqtisod moliya, 2014.

18. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. O‘quv qo‘llanma.- T.:“Noshirlik yogdusi”, 2018. - 520 bet

19. R. Glenn Hubbard, A. Patrick O‘Brian. Essentials of Economics. 6th edition. Pearson. New York. 2019.

20. N. Gregory Mankiw. Essentials of Economics. 8th Edition. Cengage Learning; 8. edition (January 1, 2017). ISBN-13: 978-1337091992

21.Economics (Irwin Economics). Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue Sean M. Flynn. -2lth edition. 2018.

22. Roger A. Arnold. Economics 13th Edition, Kindle Edition. (2018). ISBN-13: 978-1337617383

23. Лякин А.Н. Экономическая политика. Учебник и практикум. Россия: Юрайт, 2019. 432 стр. .

24. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T.: Barkamol fayz-media, 2017. - 783 bet.

25. Государственное регулирование рыночной экономики. Авторский коллектив под. рук. проф. В. И. Кушлина. М. Экономика, 2014 г.

26. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. «Sharq». 2017 y.

27. Vahabov A. V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: “ Noshir”, 2012.

28. Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ikki chigal tuguni va uning echimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil.

IV.Internet saytlari

29. [http: //www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasining davlat portali.

30. [http: //www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti.

31. [http: //www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti.

32. [http: //www.mexnat.uz](http://www.mexnat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholining ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.

33. www.lex.uz - Uzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

34. www.tradingeconomics.com -экономические показатели

35. [www. tdiu-makro. narod.ru](http://www.tdiu-makro.narod.ru)

36. www.ziyonet.uz – ta’lim portali

37. www.edu.uz - O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.